



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



№12

31 январь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 12-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
1-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
12-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ ОНЛАЙН
КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-1**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN 12-MULTIDISCIPLINARY
ONLINE DISTANCE CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND
PRACTICAL RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-1**

TOSHKENT-2020

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 12-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 173 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши-
Юсувалиева Раҳима - профессор в.б., ю.ф.н., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети
2. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар-
Маматова Нодира Мухтаровна - т.ф.д., доцент, Тошкент давлат стоматология институти
3. Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни-
Воҳидова Мехри Хасанова - PhD, Тошкент давлат шарқшунослик институти
4. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар-
Тошбоева Барноҳон Одилжоновна - Андижон давлат университети
5. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар-
Норматова Дилдора Эсоналиевна - доцент, Фарғона давлат университети
6. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар-
Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна - PhD, Тошкент Молия институти
7. Тарих саҳифаларидаги изланишлар-
Чариев Турсун Хуваевич - доцент, Ўзбекистон давлат консерваторияси
8. Социология ва политологиянинг жамиятимизда туган ўрни-
Уринбоев Хошимжон Бунатович - с.ф.н., доцент, Наманган муҳандислик-қурилиш институти
9. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар-
Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич - доцент, Наманган муҳандислик-қурилиш институти
10. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши-
Бобохонов Олтибой Раҳмонович - Сурхандарё вилояти техника филиали
11. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -
Сувонов Боймурод Ўралович - доцент, Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти
12. Физика-математика фанлари ютуқлари-
Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич - доцент, Наманган муҳандислик-технология институти
13. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар-
Қаҳҳоров Уктам Абдурахимович - PhD, доцент, Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти
14. Кимё фанлари ютуқлари-
Раҳмонова Доно Қаҳҳоровна - Навоий вилояти табиий фанлар методисти
15. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши-
Тоштемиров Отабек Абидович - Фарғона политехника институти
16. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар-
Ўўлдошев Лазиз Толибович - Бухоро давлат университети

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

1.Ulug'bek Talipov O'ZBEKISTONDA SUD TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLAR.....	9
2.Расулов Зоҳиджон Обиджонович КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШ БОРАСИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР ТАҲЛИЛИ..	11
3.Расулов Зоҳиджон Обиджонович КОРРУПЦИЯГА ОИД ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ.....	13
4.Г.С.Наурузбаева ПРАВОВАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ КОНКУРСА В УЗБЕКИСТАНЕ.....	16
5.ОЙБЕК ШОМУРОДОВ, Наргиза ЖУМАЕВА БОЛАЛАР ПАРЛАМЕНТИГА ТАКЛИФИМ БОР!.....	18
6.Тожибоев Умиджон Усмонжон ўғли, Камолиддинов Фурқат Фозилжон ўғли ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ДЕМОКРАТИК ЯНГИЛАНИШ ВА МОДЕРНИЗАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИ ЮҚОРИ САВИЯДА АМАЛГА ОШИРИЛМОҚДА.....	19

ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР

1.А.П.Ембергенов ЭТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АЖИНИЯЗА И ПРОБЛЕМА ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ.....	21
2.Olimova Xadichabonu, G'afforov Abbosjon TA'LIMDAGI ISLOHOTLARGA BIR NAZAR.....	23
3.Shakarov Bobur Xusniddinovich AXBORITLASHGAN JAMIYATDA QADRLANISH VA QADRSIZLANISHNING FALSAFIY TAHLILI.....	24
4.Umarova Noila, Yorqulova Dilrabo GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATI.....	26
5. Абдувалиев Лочинбек ТЕРРОРИЗМНИНГ МОҲИЯТИ ВА ДИНИЙ БАҲРИКЕНГЛИК.....	27
6.Нигора Мирсолихова СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВОСТОКА И ЗАПАДА В ПОСТКОНФУЦИАНСКОЙ ФИЛОСОФИИ ФЭН ЮЛАНЯ.....	29
7.Муртазаев Лутфулла Муроталиевич КАТТА АВЛОД ВАКИЛЛАРИНИНГ ШУКРОНАЛИК ТАРБИЯСИНИ ЁШ АВЛОД ОНГИ ВА ҚАЛБИГА СИНГДИРИШДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ.....	32
8.Хуррамов Мансур ВАТАНПАРВАРЛИК ВА МАРДЛИК ТУЙФУЛАРИ ЮРТИМИЗ МАНФААТЛАРИГА ХИЗМАТ ҚИЛСИН.....	34
9.Эшанова Гулчехраҳон Нумоновна, Хуррамов Мансур ИСЛОМ ДИНИДАГИ МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЁШЛАР ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ.....	36
10.Ў.Каримов, Н.Хасанов ЁШЛАРДА ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ.....	39
11.Olimova Nazokatxon Raxmataliyevna JALOLIDDIN RUMIY ASARLARINING G'OYALAR KO'LAMI VA FALSAFIY QARASHLAR.....	41
12.Abdulaxatov A.R. Juraboyev M.M. YOSHLAR TARBIYASIDAGI QADRIYATLARNING O'RNI.....	43

13.Матёкубова Гулнора, Байжанова Мехрибон МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА ВА ДАРСДАН ТАШҚАРИ МАШҒУЛОТЛАРДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ МИЛЛИЙ МАЪНАВИЙ МЕРОСНИ АСРАШ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ.....	45
--	----

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1.G'ayratova Gulzoda, Shominova Nafisa KO'HNА VA BOQIY BUXORO.....	47
2.Adashaliyev Azizbek HERMAN VAMBERI ESDALIKLARIDA O'RTA OSIYO XONLIKLARIDAGI IJTIMOY- IQTISODIY MUNOSABATLARNI YORITILISHI.....	48
3.Asatova Sevara, TARIX DARSLARIDA MUTAFAKKIRLARNING HUQUQIY QARASHLARINI ORGANISH.....	50
4.Qahramon Atakulov ROSSIYA FEDERATSIYASI VA XITOIY XALQ RESPUBLIKASI BRICS DOIRASIDAGI HAMKORLIKNING YANGILANISHI.....	52
5.Boboqulov Oxunjon BUXORO-ISLOM MADANIYATI POYTAXTI (TARIX VA KELAJAK).....	55
6.Normuradova Mahbuba, Turaev Alisher O'ZBEKISTONDA SAYOHATNING YANGI TURLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	57
7.O'rinova Dilnoza, TARIX DARSLARIDA ZARDUSHTIYLARNING TA'LIM TIZIMINI O'RGANISH.....	59
8.Azimova Mabuda, Qaxxarov Xusnidin SHAROF RASHIDOVNING DIPLOMATIK SALOHIIYATI HAMDA XALQARO MAYDONDA TINCHLIK UCHUN QO'SHGAN HISSASI.....	61
9.Nazokat Rasulova Abdurahimovna TARIXIY OBIDALARGA EKSKURSIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING SAMARALI JIHATLARI.....	63
10.Исламов Шарифжон XX АСР ИЖТИМОЙ ИЛОҲОТЧИЛИКДА ҲАМЗА ҲАКИМЗОДА НИЁЗИЙ ФАОЛИЯТИ: ТАЛҚИН ВА ТАКЛИФ.....	65
11.Каромов F. ТУРКИСТОН АССРДА СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИДА СИЁСАТИ.....	67
12.ОЛМАХОН ХАЙТОВА КАРМАНА МОДДИЙ ВА МАЪНАВИЙ МАДАНИЯТ ЁДГОРЛИКЛАРИНИНГ АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАРИ.....	70
13.Раҳмонова Сурайё МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИ ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИДА ГАСТРОНАМИК ТУРИЗМ.....	72
14.Саломов Азимжон РОЛЬ ИСЛАМА АБДУГАНИЕВИЧА КАРИМОВА В ПОСТРОЕНИИ НЕЗАВИСОМОГО УЗБЕКИСТАНА.....	75
15.Топтгемирова Н., ЎЗБЕКИСТОНДА СОҒЛОМ ОНА ВА СОҒЛОМ БОЛА МАСАЛАСИГА ЭЪТИБОР ВА УНИНГ НАТИЖАСИ.....	78
16.Замирахон Туракулова "ТУЗУКИ БОБУРИЙ" ЁҲУД "БОБУРНОМА" ҲОТИРАНОМАСИ ЖАҲОН ОЛИМЛАРИ ТАСАВВУРИДА.....	81

17. Дильфуза Хабибуллаева ҚОРАҚАЛПОҚ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ.....	83
18. Artiqova Hosiyat, Shakirova Lobar Abdirahim qizi JONAJON O'ZBEKISTONIM, MANGU B'OL OMON! O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIDA TUTGAN O'RNI.....	85
19. Ҳолиқов F СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ИСЛОҲ ҚИЛИШДА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР БИЛАН ҲАМКОРЛИКНИНГ ЎРНИ.....	87
20. Davlatova Guloyim Ulug'bekovna SHARQ QO'LYOZMALARI VA ULARNING SVILIZATSIYA TARIXIDAGI O'RNI...90	
21. Davletova Dilafruz Ulug'bekovna O'ZBEKISTONDA ARXEOLOGIK VA ETNOGRAFIYAGA OID TADQIQOTLAR.....	92

СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДА ТУТГАН ЎРНИ

1. Zuhraxon Hoshimova Rahimovna, Zarnigor G'ulamova Ikromjon qizi KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATINI YARATISHDA OILA MA'NAVIYATINI MUVAFFAQIYATLI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	94
2. Nazarova Muharram Yunus qizi O'ZBEKISTONDA AYOLLARNING IJTIMOIIY HOLATI: MUOMMO VA ISTEQBOLLARI.....	96
3. Nazarova Gulbohor Matkarimovna O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINI BARPO ETISHDA FUQAROLARNING SIYOSIY- HUQUQIY BILIMLARINI OSHIRISH DAVR TALABI.....	98
4. Кахарова Нилуфар Ражаб Қизи, Сатторова Анора Карим Қизи СОЦИОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТНИ ИЛМИЙ БОШҚАРИШДА ТУТГАН ЎРНИНИНГ СОЦИОЛОГИК ТАХЛИЛИ.....	100
5. Qahhorova Nilufar Rajab qizi, Sattorova Anora Karim Qizi INTERNET TARMOQLARIDA BLOGGERLAR KOMMUNIKATIV STRATEGIYASINING IJTIMOIIY XUSUSIYATLARI VA MANBALARI.....	103
6. S. Rajabova HUKUMAT QARORLARI TILI TERMINOLOGIYASI VA UNING ILMIY NAZARIY JIHATLARI.....	106
7. Тахмина Абдуллаева МАРКАЗИЙ ОСИЁДАГИ АНКЛАВЛАР: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР.....	108
8. Martin Grebenyuk, Maksim Savochkin STRATEGY FOR ENSURING SPIRITUAL SECURITY BY ELIMINATING ERRONEOUS IDEOLOGIES IN UZBEKISTAN.....	110
9. Кулбекова Насиба Закировна ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ МУСТАҲҚАМЛАШДАГИ ГЕНДЕР ЖИҲАТЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ.....	112
10. Мирзабекова Умида Нишанбаевна, ЁШЛАР МАНФААТИ - УСТУВОР ВАЗИФА.....	115
11. Рахмонова Камолахон Шоиржон қизи ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА РАҲБАРЛАРДАН ТАЛАБ ҚИЛИНАЁТГАН ХИСЛАТЛАР ВА ЎЗ АТРОФИДА СОҒЛОМ ФИКРЛОВЧИ, ИЗЛАНУВЧАН КИШИЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШИ.....	117

12.Султанова Фируза Мамадалиевна СОЦИОЛОГИЯ МАССОВЫХ КОММУНИКАЦИЙ КАК НОВАЯ ОБЛАСТЬ, РАЗВИВАЮЩАЯСЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	119
13.Холматов Баходир Холмурадович МИНТАҚАВИЙ ҲАМКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА "ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИ" ОМИЛИДАН ФОЙДАЛАНИШ ЗАРУРИЯТИ.....	123
14.Мадрахимов Алишер ЎСМИР ЁШЛАР ЎРТАСИДАГИ ЗЎРАВОНЛИКЛАР СОЦИОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА.....	126
15.Quvatov Erkin Jurayevich, Saidov Olimxon Bahodir o'g'li HARBIY MAHORATNING YOSHLARNING TARBIYASIDAGI O'RNI VA ROLI.....	128
16.Джураева Дилбар Нашвановна КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИ.....	130

ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

1.M.I.Tilavkobilova, IQTISODIYOTDA INNOVATSIYALARNING TUTGAN O'RNI.....	131
2.Альбина Галиева КОНКУРЕНЦИЯ ЗНАНИЙ В ОБЛАСТИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	133
3.Ibragimov Shaxzod Umirzoq o'g'li O'ZBEKISTON ERKIN IQTISODIY ZONALARIGA XITOIY INVESTITSIYALARINI JALB ETISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI ("JIZZAX" EIZ MISOLIDA).....	135
4.Niyozov Ma'ruf, Ibragimova Nargiza IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KORXONA INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	137
5.Мухитдинов Шохихахон Худоёр ўғли ТОҒЛИ ҲУДУДЛАРДА АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙУЛЛАРИНИНГ СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ.....	139
6.Nabijonov Otabek Ganiyevich, Samatov Feruz Fazlidin o'g'li BOZOR IQTISODIYOTIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH, INNOVATSION JARAYONLARNI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	143
7.Suvonov Bekniyoz, Mo'minova Shaxribonu YASHIL IQTISODIYOT BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHNING ASOSI.....	146
8.Yuldasheva I.Z, Tohirov Sh.J IQTISODIYOTDA INNOVATSIYANING TUTGAN O'RNI.....	148
9.Yuldasheva I.Z, Toshboltayeva Y.A RESPUBLIKADA INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH.....	150
10.Усмонов Адҳамжон Ўзтамжонович ХОДИМЛАРНИ БОШҚАРИШ: ЗАМОНАВИЙ ҚАРАШЛАР ВА ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАР.....	152
11.Xusanova Zulfiya, Vahobova Qizlarxon YALPI ICHKI MAHSULOT KO'RSATKICHI AHAMIYATI VA UNING STATISTIKASI.....	155
12.Yuldasheva I.Z, Makhmudova N.D, ALLOCATION OF FINANCIAL RESOURCES IN TO THE BUSINESS SECTOR IN UZBEKISTAN.....	157
13.Yuldasheva Inoyat, Usarova Maftuna IQTISODIY INNOVATSIYALARNING INSONIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI.....	158

14.Yuldasheva I.Z, Xabibullayeva L.K, IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA CHET EL INVESTITSIYALARI ISHTIROKIDAGI KORXONALARNING ROLI.....	159
15.Atavullaeva Feruza FORMATION OF INFRASTRUCTURE IN THE CONDITIONS OF DIGITAL ECONOMY.....	160
16.Феруза Еркебаева ИҚТИСОДИЙ ЎСИШДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ РОЛИ ВА АҲАМИЯТИ.....	162
17.Хотамжон Кобулов СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ ДОХОДНОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ.....	164
18.Тўлқин Чўлпиев МИГРАЦИОН ЖАРАЁНЛАРНИ ТАДҚИҚ ҚИЛУВЧИ АСОСИЙ ИЛМИЙ КОНЦЕПЦИЯЛАР.....	166
19. Юлдашева И.З, Хайткулова З.М МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР ТЎҒРИСИДАГИ ҲИСОБОТНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.....	168
20.Қодирова Дилбар Исмоиловна ИҚТИСОДИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ИННОВАЦИОН ҲОЯЛАР ВА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ОРҚАЛИ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ САМАРАДОРЛИГИ.....	170
21.Қосимов Азамат Абдукаримович САНОАТ ИҚТИСОДИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ ТАРКИБИ ВА УНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ МЕХАНИЗМЛАРИ.....	172



ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

O'ZBEKISTONDA SUD TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLAR

Ulug'bek Talipov
O'zMU Tarix fakulteti I kurs magistranti

ANNOTATSIYA. Maqola O'zbekistonning yangi bosqichida sud sohasida amalga oshirilgan islohotlarning tahliliga bag'ishlangan. Maqolada O'zbekistonda sud tizimini islohotlarini liberallashtirilishi, sudyalarning maqomidagi innovatsion o'zgarishlar, sud sohasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan farmon, qarorlarning ijrosining amalga oshirilishi natijasida erishilgan yutuqlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: sud tizimi, islohot, innovatsiya, liberallashtirish, videosektor, virtual qabulxona.

"Islohot-islohot uchun emas, avvalo, inson manfaatlari uchun xizmat qilishi kerak".

Sh.M. Mirziyoyev

Mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida, shu jumladan, inson huquqlari va erkinliklarining kafolati sifatida adolatli sud-huquq tizimini shakllantirish borasidagi islohotlar izchil davom etmoqda. Sudlovning odilligini ta'minlovchi huquqiy maydon - umuminsoniy qadriyatlar va umume'tirof etilgan huquq andozalariga asoslangan, shaklan va mohiyatan yangi qonunlar qabul qilinmoqda. Ularning asosiga qonuniylik, demokratizm, odillik, insonparvarlik, jinoiy qilmish uchun javobgarlikning muqarrarligi kabi odilonaprinisplar qo'yilgan.

Sud-huquq tizimini takomillashtirish va liberallashtirishning dolzarbligi bir qator omillar bilan izohlanadi. Ular asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan asoslab berilgan. Xususan, 2017-yil 13-iyun kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan sud organlari tizimida odil sudlovni ta'minlash borasidagi ishlarning ahvoli, muammolar va istiqboldagi vazifalarga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev - adolat xalqimiz uchun azal-azaldan tinch va farovon hayot mezonini, barcha ezguliklar manbai bo'lib kelgani, Sohibqiron Amir Temur bobomiz "Kuch - adolatda" degan hikmatga amal qilib, davlat boshqaruvini tashkil qilish, el-yurtning tinchligi va obodligini ta'minlashga erishganini qayd etib, bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishda qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash eng muhim vazifa bo'lib qolayotganini ta'kidladi. "Bu borada davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i bo'lgan sud tizimining o'rni va ahamiyati g'oyat katta. Bu haqiqatni biz bugungi kunda, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan keng ko'lamlil islohotlar jarayonida tobora chuqur his etmoqdamiz", dedi Prezidentimiz [1].

Istiqloq yillarida mamlakatimizda sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash va nufuzini oshirish, uni ilgari jazolovchi organdan inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qiladigan, jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarning muhim vositasi bo'lgan institutga aylantirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda ham bu islohotlar yanada takomillashtirilib borilmoqda. O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi"ni imzoladi [2]. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ikkinchi yo'nalishi qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish sud-huquq sohasidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan [3]. Harakatlar strategiyasi amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida Prezidentimiz tashabbusi bilan Konstitutsiyamizning yettita moddasiga sud-huquq sohasidagi islohotlar bilan bog'liq prinsiplar o'zgartishlar kiritilgani, sudyalik nomzodlarni tanlash valavozimgatayinlash tizimini tubdan takomillashtirish, yuqori malakali sudyalar korpusini shakllantirish maqsadida sudyalar hamjamiyatining yangi organi - O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tashkil etilgani, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sud hokimiyatining fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sudlov sohasida yagona oliy organi sifatida davr talablari asosida yangidan shakllantirilgani, odil sudlovning mazmun-mohiyatiga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan holat - sudlar tomonidan jinoyat ishlarini qo'shimcha tergovga qaytarish amaliyotiga chek qo'yilgani tizim rivoji yo'lida muhim qadam bo'lib, bu yo'nalishdagi islohotlar izchil davom ettirilayotganining



yaqqol isbotidir.

O'zbekistonda sudlar faoliyati takomillashdi, umumiy yurisdiksiya sudlarining ixtisoslashuvi amalga oshirildi, jinoyat protsessida shaxs huquqlarini kafolatlashning mustahkam asoslari yaratildi, Asosiy Qonunda aks ettirilgan prinsiplargamuvofiq jinoiy jazo tizimi vasud ishlarini yuritish bosqichma-bosqich liberallashtirildi, shaxsni jamiyatdan ajratib qo'yish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlarini tayinlash imkoniyatlari kengaytirildi.

Jinoyat sudlov ishlari amaliyotiga yarashtiruv instituti joriy etildi, sudlarning iqtisodiy jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum etish o'rniga jarimalar tarzidagi jazolarni qo'llash imkoniyatlari kengaytirildi, milliy qonunchiligimizga "Xabeas korpus" instituti joriy etildi – qamoqqa olishga sanksiya berish, shaxsni lavozimidan chetlashtirish va tibbiy muassasaga joylashtirishdek protsessual majburlov choralarini qo'llash huquqi prokurorlardan sudlarga o'tkazildi[4].

Bundan tashqari sud sohasida amalga oshirilgan innovatsion islohotlardan yana biri elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etilishidir. Bu orqali odamlarning sud organlarida navbat kutishiga chek qo'yildi va ishlarini tez ko'rib chiqilishi ta'minlandi.

Sudyalik lavozimida bo'lishning ilk marotaba 5 yillik, navbatdagi 10 yillik muddatga va sudyalik lavozimida bo'lishning muddatsiz davriga muayyan tartibda tayinlanishi yoki saylanishi belgilandi. Bu orqali sudyalarga bo'lgan ishonchni oshirish va ularning chinakam mustaqilligi ta'minlandi.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash maqsadida 27 ta huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari rahbarlarining virtual qabulxonalari tashkil etildi[5].

Jinoiy ishlarni ko'rib chiqishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoyalash bo'yicha huquqiy kafolatlarni kuchaytirish, jinoiy ishlar tergovni tezkorligini oshirish doirasida jinoyat sodir etganlikda gumonlanuvchi shaxslarni hibsga olish muddati 72 soatdan 48 soatga hamda qamoqqa saqlash va uy qamog'i, shuningdek jinoiy ishlar bo'yicha dastlabki tergov ko'rinishidagi jinoyatning oldini olish choralarini qo'llanilishi eng yuqori muddatlari 1 yildan 7 oygacha qisqartirildi. Fuqarolik ishi bo'yicha sud qarorini nazorat tartibida qayta ko'rib chiqish muddati 3 yildan 1 yilga qisqartirilishi belgilandi[6].

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda 400ga yaqin sud mavjud bo'lib, bu sudlarda qariyb 1400 nafar sudya faoliyat yuritib kelmoqda. Joriy yilning o'zida 1 ming 881 ta jinoyat ishi dalillar yetarli bo'lmaganligi sababli tugatildi. Sudlar tomonidan 590 nafar shaxs oqlandi. Vaholanki, bu raqam 2016 yilda bor-yo'g'i 28 tani, 2017 yilda esa 263 tani tashkil etgan. Shuningdek, 5 ming 462 nafar shaxs nisbatan tergovda asossiz qo'yilgan moddalar ayblovdan chiqarib tashlandi, 2 ming 449 nafar shaxs esa sud zalidan ozod qilindi[7].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur hujjatga muvofiq, aholi uchun maqbul bo'lgan usullar - "ishonch telefonlari" va tezkor aloqa telefonlari orqali hamda videokonferensaloqa vositasida murojaat qilish tartibi joriy etildi. Eng asosiysi, bugungi kunda fuqarolarimiz mansabdorlar oldiga emas, balki mansabdor shaxslarning o'zi xalqimiz oldiga borib ularni o'ylantirayotgan muammolarni o'rganmoqda. Bu, albatta, yurtimizda inson huquq va manfaatlarining e'zozlanayotganidan dalolatdir. Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, sud sohasidagi islohotlar orqali yangi huquqiy-demokratik fuqarolik jamiyati yaratishdagi kata qadamlardan biri bo'lmoqda. Xorij tajribasini izchillik bilan qo'llab, sud sohasini ham zamonaviy jahon talabiga mos keladigan organ sifatida yanada liberallashtirish va takomillashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 13-iyun kuni sud organlari xodimlari bilan uchrashuvdagi "Qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash - barcha ezgu maqsadlarimizga erishishning eng muhim sharti" mavzusida so'zlagan nutqidan.

2. <https://www.kun.uz/>

3. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947. 2017-yil 7-fevral.

4. <https://www.norma.uz/>

5. 2017 yil 21 aprel kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Harakatlar sarhisobi: 2017 yil 1-chorak yakunlari" anjumanidagi nutqdan.

6. Konstitutsiyamizning yigirma olti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning ma'ruzasi. 2018.

7. "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoyalash kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon 21.11.2016



КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШ БОРАСИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР ТАҲЛИЛИ

Расулов Зоҳиджон Обиджонович
Самарқанд вилояти Пастдарғом туман прокуратураси
прокурори ёрдамчиси лавозимида иш ўрганувчи

Аннотация. Коррупция тушунчаси ва коррупцияга қарши курашиш масалалари, Ўзбекистонда коррупцияга қарши кураш борасида амалга оширилаётган ислоҳотлар қисқача таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: коррупция, коррупцияга қарши курашиш, коррупцияга қарши курашувчи органлар, ҳуқуқий тартибга солиш механизми.

Мамлакатимизда коррупцияга қарши курашиш соҳасида муҳим ташкилий-ҳуқуқий ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Жумладан, 2017 йил

3 январда Ўзбекистон Республикасининг "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги Қонунининг қабул қилиниши, [1] 2017 йил 7 февралда Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги

ПФ-4947-сонли фармонининг қонун устуворлигини таъминлаш ва суд-ҳуқуқ тизимини янада ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларида коррупцияга қарши курашишнинг ташкилий-ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш ва коррупцияга қарши курашиш тадбирларининг самарадорлигини ошириш кўзда тутилганлиги, [2] 2019 йил 27 майда Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги

ПФ-5729-сонли фармонининг қабул қилиниши жамиятда коррупцияга қарши курашиш тизими самарадорлигини янада оширишга қаратилгандир. [3]

Коррупция бугунги кунда дунёнинг барча мамлакатларида муҳокама қилинадиган энг муҳим мавзулардан бирига айланди. Ҳозирги пайтда ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари томонидан, анъанавий тарзда асосан жиноий суд иш юритуви доирасида юритилаётган коррупцияга қарши курашиш фаолиятисамарадорлиги паст деб ҳисоблаш мумкин. Бунда чиқарилган айблов ҳукмлари сони билан коррупциянинг ҳокимият органлари ичида ҳақиқатда тарқалганлик кўлами ўртасидаги яққол тафовутдан далолат беради. Ваҳоланки, коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларнинг аксарият қисми фуқаролик ҳуқуқи нормаларидан фойдаланилган ҳолда содир қилинади.

Коррупцияга қарши курашда фуқаролик ҳуқуқи энг муҳим роллардан бирини ўйнаши лозим, ўз навбатида коррупция жиноятчилигини олдини олишнинг фуқаролик-ҳуқуқий жиҳатларини илмий ишлаб чиқиш илмий тадқиқотларнинг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасининг "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги қонунининг 3-моддасига кўра, шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда фойдаланиши, худди шунингдек бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этишдан иборат бўлган ҳаракат ёки ҳаракатсизлик коррупция ҳисобланиши, шунингдек коррупция аломатларига эга бўлган, содир этилганлиги учун қонун ҳужжатларида жавобгарлик назарда тутилган қилмиш коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик деб топилиши белгиланган. [1]

Мазкур қонуннинг 5-моддасида кўра, коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари сифатида: аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантириш; давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларида коррупциянинг олдини олишга доир чора-тадбирларни амалга ошириш; коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларни ўз вақтида аниқлаш, уларга чек қўйиш, уларнинг оқибатларини, уларга имкон берувчи сабаблар ва шарт-шароитларни бартараф этиш, жавобгарликнинг муқаррарлиги принципини таъминлаш белгиланди. Шунингдек, қонуннинг 26-моддасига кўра, "Давлат органларининг ходимлари уларни коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар содир этишга кўндириш мақсадида бирор-бир шахс ўзларига мурожаат этганлигига доир барча ҳоллар тўғрисида, шунингдек давлат органларининг бошқа ходимлари томонидан содир этилган шунга ўхшаш ҳуқуқбузарликларнинг ўзларига маълум бўлиб қолган ҳар қандай фактлари ҳақида ўз раҳбарини, ёхуд ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларни хабардор этиши шарт. Ушбу мажбуриятни бажарилмаганлик жавобгарликка



сабаб бўлади". Хусусан қонуннинг 7-моддасига кўра, Бош прокуратура, Давлат хавфсизлик хизмати, Ички ишлар вазирлиги, Адлия вазирлиги ва Бош прокуратура ҳузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаменти – коррупцияга қарши курашиш бўйича фаолиятни бевосита амалга оширувчи давлат органлари этиб белгиланди. Бундан ташқари, Олий Мажлиснинг ҳар иккала палаталарида ҳам "Коррупцияга қарши курашиш ва суд-ҳуқуқ масалалари бўйича кўмиталари" ташкил этилди.

2019 йил 27 майда коррупцияга қарши курашиш тизими самарадорлигини ошириш мақсадида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги

ПФ-5729-сон фармони қабул қилиниб, ушбу ҳужжатга мувофиқ 2019 - 2020-йилларда коррупцияга қарши курашиш давлат дастури, коррупцияга қарши курашиш бўйича республика идоралараро комиссиясининг янгиланган таркиби, коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги фаолият самарадорлигини оширишга қаратилган чора-тадбирларни ишлаб чиқиш бўйича махсус комиссияси таркиби тасдиқланди.[3]

Ушбу дастурга кўра, қуйидаги 4 та устувор йўналишда 35 та муҳим чора-тадбирларни амалга ошириш белгиланган:

биринчи, аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантириш;

иккинчи, давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларида коррупциянинг олдини олиш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш;

учинчи, коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларни ўз вақтида аниқлаш, уларга чек қўйиш, имконият яратувчи сабаблар, шарт-шароит ва оқибатларини бартараф этиш, коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларни содир этганлик учун жавобгарликнинг муқаррарлиги принципини таъминлаш;

тўртинчи, коррупцияга қарши курашиш масалалари бўйича халқаро ҳамкорликни амалга ошириш.

Мазкур Фармонга асосан, коррупцияга қарши курашиш соҳасида давлат сиёсатининг устувор йўналишлари қуйидагилардан, яъни: суд ҳокимиятининг мустақиллигини янада мустаҳкамлаш, судьяларга қонунга хилоф равишда таъсир ўтказиш шарт-шароитларини истисно этиш, давлат хизматчиларини танлов асосида саралаб олиш, лавозимга тайинлаш ва юқори лавозимларга кўтаришнинг шаффоф тартибига асосланган давлат хизмати тизимини шакллантириш, улар учун чекловлар, тақиқлашлар, рағбатлантириш чоралари ҳамда коррупциянинг олдини олиш бошқа механизмларининг аниқ рўйхатини белгилаш, давлат хизматчилари даромадларини декларация қилиш тизимини босқичма-босқич жорий этиш ва уларнинг иш ҳақи етарли даражада бўлишини таъминлаш, шунингдек, давлат хизматини ўташда манфаатлар тўқнашувини ҳал этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш; коррупция билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар ҳақида хабар берган шахсларни ҳимоя қилишнинг самарали ташкилий-ҳуқуқий механизмларини жорий этиш; аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини янада ошириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни кучайтириш; фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари фаолиятининг чинакам эркинлигини таъминлаш ва уларни коррупцияга қарши чораларни тайёрлаш, ўтказишда ва ижросини мониторинг қилишда иштирок этишга жалб қилиш, ҳуллас пировард натижа коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар содир этилишига имкон яратаётган сабаблар ва шарт-шароитларни таг-томири билан йўқотиш - давлат органлари раҳбарларининг биринчи даражадаги муҳим вазифаси ҳисобланиши лозим.

АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ

Ўзбекистон Республикасининг "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги Қонуни. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017й., 1-сон, 2-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 16.01.2019 й., 03/19/516/2484-сон; 24.05.2019 й., 03/19/542/3177-сон, 2019 й., 2-сон, 47-модда.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сонли фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда, 23-сон, 448-модда, 37-сон, 982-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594-сон; 11.12.2019 й., 06/19/5892/4134-сон.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5729-сонли фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.05.2019 й., 06/19/5729/3199-сон, 20.07.2019 й., 06/19/5769/3450-сон.



КОРРУПЦИЯГА ОИД ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ

Расулов Зоҳиджон Обиджонович

**Самарқанд вилояти Пастдарғом туман прокуратураси
прокурори ёрдамчиси лавозимида иш ўрганувчи**

Аннотация. Мақолада коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларга қарши курашишнинг фуқаролик-ҳуқуқий воситалари ҳамда коррупция билан боғлиқ ҳуқуқбузарлик оқибатларини камайтириш ёки бартараф этиш механизмларидан бири сифатида, коррупциявий битимларни ҳақиқий эмас деб топиш асослари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: коррупцияга қарши курашиш, битимларни ҳақиқий эмас деб топиш, ўз-ўзидан ҳақиқий бўлмаган битимни ҳақиқий эмас деб топишнинг ҳуқуқий оқибатлари, коррупциявий битим.

Кейинги йилларда мамлакатимизда коррупцияга қарши курашиш соҳасида муҳим ташкилий-ҳуқуқий ислохотлар амалга оширилди. Аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини оширишга, жамиятда коррупцияга муросасиз муносабатни шакллантиришга йўналтирилган тизимли чоралар кўрилмоқда.

Ислохотларни амалга ошириш доирасида фуқароларнинг ҳуқуқ ва манфаатлари ҳимоя қилинишини, давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолияти очиқлигини, жамоат ва парламент назоратини таъминлаш механизмлари такомиллаштирилди, шунингдек ҳуқуқни муҳофаза қилиш ва суд органлари фаолиятининг ҳуқуқий асослари ислоҳ қилинди.

Шу билан бирга, иқтисодиётни янада ўстириш, халқ фаровонлигини ошириш, мамлакатда инвестиция муҳитини яхшилаш борасидаги стратегик вазифаларни ҳал этиш коррупцияга қарши курашиш соҳасида давлат сиёсатининг самарали амалга оширилишини таъминлаш ҳамда коррупция кўринишларининг сабаб ва шарт-шароитларини бартараф этиш бўйича янги тизимли чоралар кўрилишини тақозо қилмоқда.

Коррупцияга қарши курашишнинг ҳуқуқий воситаларини ўрганиш долзарб ва бу борадаги тадқиқотларнинг амалий аҳамияти шундаки, хусусан коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларни фуқаролик-ҳуқуқий тартибга солиш масалалари Ўзбекистон Республикаси фуқаролик қонунчилигида кўзда тутилмаган. Коррупцияга қарши курашиш, коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик оқибатларини камайтириш ёки бартараф этиш бўйича фаолиятда ҳам намоён бўлиши лозимлиги сабабли бундай механизмлардан бири коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар натижасида содир этилган битимларни ҳақиқий эмас, деб топиш бўлиши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси фуқаролик қонунчилигида сезиларли бўшлиқ коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларга қарши курашиш бўйича фуқаролик-ҳуқуқий воситаларнинг ҳар тарафлама мувофиқлашган ва йўлга қўйилган механизмнинг мавжуд эмаслиги ҳисобланади. Хусусан, коррупциявий битимларнинг ҳақиқий эмаслиги, мазмуни ва оқибатлари тўғрисидаги махсус нормалар, коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик содир этилганида жабрланувчини аниқлашга имкон берадиган нормалар мавжуд эмас, бироқ коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларни ниқоблаш мақсадида ўзаро шартномавий муносабатларнинг йўлга қўйилиши ҳолатлари мавжуддир.

Фикримизча, коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик сифатида, биринчи навбатда, ўз-ўзидан ҳақиқий бўлмаган битимнинг кўриниши бўлган коррупциявий битимни кўриб чиқиш лозим.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 113-116 моддаларида "Битимларнинг ҳақиқий эмаслиги" сифатида қонун ҳужжатларининг талабларига мувофиқ келмайдиган мазмундаги битим, шунингдек ҳуқуқ-тартибот ёки ахлоқ асосларига атайин қарши мақсадда тузилган битим ўз-ўзидан ҳақиқий эмаслиги ҳамда бундай битимга нисбатан Фуқаролик кодексининг 114-моддасининг иккинчи қисмида назарда тутилган ҳолатлар, яъни битим ҳақиқий бўлмаганида тарафларнинг ҳар бири бошқасига битим бўйича олган ҳамма нарсани қайтариб бериши, олинган нарсани аслича, шу жумладан олинган нарса мол-мулкдан фойдаланиш, бажарилган иш ёки кўрсатилган хизмат билан ифодаланганда қайтариб бериш мумкин бўлмаганида эса, агар битим ҳақиқий эмаслигининг бошқа оқибатлари қонунда назарда тутилган бўлмаса, унинг қийматини пул билан тўлаши шартлигини белгилайди. Ушбу битимлар нафақат қонун ёки бошқа ҳуқуқий ҳужжатлар талабларига жавоб бермай,



балки давлатнинг ҳуқуқ-тартиботи асосларини, тамойилларини, жамиятни ижтимоий, сиёсий ва иқтисодий ташкил этиш тамойилларини, унинг ахлоқий асосларини бузади.

Бундан ташқари, маъмурий ҳуқуқбузарлик ва жиноят содир этганлик учун жорий этилган жавобгарлик битимларнинг ҳақиқий эмас деб топиш оқибатлари сифатида квалификация қилиниши мумкин эмас. Битим ўз-ўзидан ҳуқуқбузарлик ёки жиноят таркибини ташкил қилса, ёки ушбу ҳуқуқбузарлик ёки жиноят бундай битимни амалга ошириш билан боғлиқ бўлса, низони кўриб чиқиш вақтида, ЎЗР ФК 113-126 моддаларида кўзда тутилган оқибатлар эмас, балки маъмурий ҳуқуқбузарлик ва жиноят содир этганлик учун белгиланган жавобгарлик қўлланиши шарт.

Коррупциявий битимларда иштирок этадиган шахслар фойдаланадиган коррупциявий схемалар пухта ишлаб чиқилган бўлиб, шартномавий муносабатларни ниқоб қилган ҳолда амалга оширилади. Битимларнинг коррупцияга оид хусусиятини аниқлашда шартнома тарафларининг шартнома юзасидан олган мажбуриятларини бажаришда виждонсизлигини исботлаш учун етарли даражада ишончли далиллар бўлмайди. Бундай ҳолларда етказиб берувчининг виждонсизлиги, фақат буюртмачининг бошқарув таркибидаги ўзгаришлар, буюртмачининг ва етказиб берувчининг шартномаларни бажаришдаги хатти-ҳаракатлари, шартнома тарафлари томонидан, шартномада назарда тутилган товарларни қабул қилиш тартиби ва унинг натижаларига кўра барча ҳужжатларни расмийлаштириш тартибига риоя қилиши билан боғлиқ барча ҳолатларни таҳлил қилиш йўли билан аниқланиши мумкин. Коррупциянинг давлат харидлари соҳасидаги кўринишларига қарши курашиш барча - маъмурий, фуқаролик-ҳуқуқий, жиноят-ҳуқуқий, ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий воситаларни комплекс равишда қўллаш орқали ҳал қилинади. Ушбу воситаларни қўллашда судлар томонидан ишнинг барча ҳолатларини тўлиқ аниқламаслик, ишларни давлат харидларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олмаган ҳолда ҳал қилиш натижасида буюртмачилардан бюджет маблағларини ундириш, давлат бюджетига салбий таъсир кўрсатиши, виждонсиз шахсларга давлат ҳисобидан асосиз равишда бойишига олиб келиши мумкин. Қайд этилган жиҳатлар кўрсатиб ўтилган асосни қўллаш соҳасини сезиларли даражада торайтириши мумкин бўларди, аммо коррупцияга қарши қонунчиликда коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик доирасида амалга оширилган фуқаролик-ҳуқуқий битимларни ҳақиқий эмас деб топишнинг махсус механизми мавжуд эмаслиги сабабли, давлат манфаатларини бузадиган битимлар, биринчи навбатда давлат буюртмаларини жойлаштиришда ким ошди савдоларини ўтказиш қоидаларини бузиш ҳолатларида, агар қонунчилик тўғридан-тўғри бузилиши мавжуд бўлмаса, мазкур асосдан, мусодара ва тиклаш чораларини қўллаш учун бемалол фойдаланиш мумкин. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексида ўрнатилган ўз-ўзидан ҳақиқий бўлмаган битимларнинг ҳақиқий эмаслигига оид ҳуқуқий оқибатлар, коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик бўйича олинган нарсаларни қайтариш учун тўлақонли механизмни яратади.

Юқоридагиларга асосланиб, Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 9-боби 2§ни, яъни "Битимларнинг ҳақиқий эмаслиги" куйидаги таҳрирдаги 113.1-модда "Коррупциявий битимларнинг ҳақиқий эмаслиги" билан тўлдириш мақсадга мувофиқ:

"1. Мансабдор шахслар ва бошқа шахслар ўртасида, мансабдор шахслар томонидан ўз ваколатлари ёки мавқеидан шахс, жамият ва давлатнинг манфаатларига зид равишда фойдаланиш натижасида қонунга хилоф равишда мулкӣ ва бошқа имтиёзларни олиш мақсадида содир этилган коррупциявий битим ўз-ўзидан ҳақиқий эмас деб ҳисобланади ва Ушбу кодекснинг 114-моддасида белгиланган оқибатларни келтириб чиқаради.

2. Қасдан ҳаракат қилган тарафлар томонидан коррупциявий битим бўйича олинган барча нарсалар Ўзбекистон Республикаси фойдасига ундирилади".

Хуллас, коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар ва коррупция тусига эга жиноятларга қарши курашиш барча қонунчилик соҳаларининг ўзаро мувофиқлашган ҳаракатланишидан иборат бўлган кенг қўламли комплекс вазифадир. Ўз навбатида, Ўзбекистон қонунчилиги ва доктринасида коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар турлари ва умумий тушунчаси аниқ ишлаб чиқилиш ва конкретлаштиришга эҳтиёж сезади. Инсон ва фуқаронинг ҳуқуқлари ва эркинликлари, қонунийлик ва ҳуқуқ-тартиботга қатъий риоя этиш режими, мулк дахлсизлигининг конституциявий тамойиллари устунлиги биргаликда, коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик содир этганлик учун фуқаролик-ҳуқуқий санкциялар, фақат ҳуқуқбузар мажбурий тартиб ва таомилларга асосан аниқланган ва унинг айбдорлиги қонуний кучга кирган суд ҳукми билан исботланган тақдирда қўлланиши мумкинлигини кўзда тутати.

АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ

1. Ўзбекистон Республикасининг "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги Қонуни. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017й., 1-сон, 2-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 16.01.2019 й., 03/19/516/2484-сон; 24.05.2019 й., 03/19/542/3177-сон, 2019 й., 2-



сон, 47-модда.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сонли фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда, 23-сон, 448-модда, 37-сон, 982-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594-сон; 11.12.2019 й., 06/19/5892/4134-сон.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5729-сонли фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.05.2019 й., 06/19/5729/3199-сон, 20.07.2019 й., 06/19/5769/3450-сон.

4. Фазлиева Л.К. "Гражданско - правовые средства противодействия коррупционным правонарушениям". ВЕСТНИК. Казанского юридического института МВД России № 4(26) 2016.

5. Каменщиков А.В. Недействительность сделки, совершенной с целью противной основам правопорядка и нравственности: проблемы правового регулирования и способы их решения. Вестник экономики, права и социологии, 2011, № 2.

6. Горбацевич А.С. "Правовые последствия недействительности коррупционных сделок с точки зрения гражданского права. Пробелы в российском законодательстве недействительность сделок. 2011, № 2.



ПРАВОВАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ КОНКУРСА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Г.С.Наурузбаева, ассистент преподаватель,
кафедра правоведения,
Каракалпакский государственный университет.**

Annotation: Obtaining competition for the right-wing act on the subject of the Graduation Law, a special provision for the provision of the legal Juridical Result - the establishment of the Competition for the Gradual Law and Obligation.

Key words: competition, law, act, legal fact, grievance

В Республики Узбекистан предусмотрено проведение конкурсов-торгов и конкурсов, проводимых вне торгов (конкурсов какой либо отраслевой принадлежности, конкурсов по отбору участников и др.). Конкурсы как способ заключения договора, адекватный рыночной экономике, проводятся и по собственной инициативе хозяйствующих субъектов.

При рассмотрении понятия конкурса (лат. concursus - сход, столкновение, стечение) необходимо прежде всего выяснить общие и существенные признаки этого института. Нужно иметь в виду, что признаки, отражаемые в научном понятии, должны составлять органическое единство, целостность, позволяющую всю совокупность их рассматривать как один признак, который может быть взят в отношении к любому предмету, обладающему таким признаком.

Гл. 54 ГК РУз, впервые в истории отечественного гражданского права урегулировавшая конкурсные отношения на прочной основе, не содержит универсального понятия конкурса. Сущность этого института раскрывается в ГК через первую фазу сложного юридического состава - через объявление конкурса. В немногочисленной юридической литературе, касающейся конкурсных правоотношений, понятие конкурса также, как правило, раскрывается через призму объявления конкурса¹.

Необходимо различать конкурс как юридический факт и как правоотношение. В данной статье наше внимание будет сосредоточено на анализе конкурса с точки зрения учения о юридических фактах.

Конкурс как юридический факт складывается из ряда юридически целенаправленных действий: объявление конкурса, представление работы на конкурс, принятие оценочного решения, выплата вознаграждения (или возврат представленных работ, если иное не предусмотрено объявлением о конкурсе). Все эти действия являются односторонними сделками. Следовательно, конкурс как юридический факт - это совокупность последовательно сменяющих друг друга односторонних сделок.

Необходимо отметить, что любые односторонние сделки сами по себе непосредственно не порождают, не изменяют и не прекращают правоотношения, а могут это сделать лишь в сочетании с другими юридическими фактами.

Суммируя все сказанное, нужно сделать следующий вывод: правовое значение основных односторонних сделок до присоединения к ним необходимого дополнительного юридического факта состоит не в установлении гражданских прав и обязанностей, а в том, что они порождают связанность для лица, их совершившего.

Обратимся теперь к видовой характеристике тех односторонних сделок, которые входят в состав конкурса как юридического факта. Начнем с объявления конкурса.

Объявление конкурса есть правомерный волевой акт субъекта гражданского права, специально направленный на достижение определенного юридического результата - установление конкурсных гражданских прав и обязанностей. В силу совершения этой односторонней сделки возникает конкретная юридическая предпосылка складывания конкурсных правоотношений.

Мнения ученых юристов исследовавшие правовую природу о конкурсе сходятся на том, что объявление конкурса является не договорной офертой, а односторонней сделкой, так как выражаемое соискателями согласие (подача работ на конкурс) необходимо не для совершения данной сделки, а только для реализации вытекающих из нее правовых последствий².

Думается, что совокупность действий при заключении договора вообще нельзя отождествлять с совокупностью односторонних сделок, образующих конкурс. Так, договор предполагает оферту, адресованную определенному лицу, а объявление конкурса, напротив, обращено к неопределенному



кругу лиц и т. д.

Следующий этап развития анализируемого юридического состава - представление работы на конкурсное соискание. Субъектами во-леизъявления здесь могут быть как граждане, так и юридические лица - все зависит от характера конкурса. Являясь односторонней сделкой, этот акт с точки зрения момента его совершения вторичен: ему всегда предшествует объявление конкурса. Для того чтобы эта сделка стала юридически значимой, необходимо, чтобы она по своему содержанию соответствовала не только требованиям закона, но и первичному юридическому акту - объявлению конкурса.

С момента подачи работы на соискание связанность организатора конкурса становится индивидуально определенной, так как вырисовывается круг конкретных субъектов, ему противостоящих. А это значит, что в силу совершения такой односторонней сделки его обязанность перерастает в правоотношение. Поскольку представление работы на конкурс влечет за собой возникновение правоотношения, постольку оно является основной односторонней сделкой. Таким образом, объявление конкурса, с одной стороны, и представление работы на конкурс, с другой, создают в совокупности конкурсное правоотношение.

После того как организатор конкурса принял представленные работы, возникает его обязанность оценить эти работы в порядке, установленном в объявлении о конкурсе. Тем самым к уже существующим элементам конкурсного юридического состава присоединяется новый - принятие оценочного решения. Это - вспомогательная односторонняя сделка, опирающаяся на предыдущие юридические факты³.

Такая сделка в процессе развития конкурсного юридического состава вызывает двойной юридический эффект: в одних случаях - правоизменяющий, в других - правопрекращающий.

Во-первых, она прекращает правоотношения с теми соискателями, работы которых не были удостоены премии (при условии, если в конкурсном объявлении было оговорено, что поданные работы участникам не возвращаются, или в случае, когда такой возврат объективно невозможен, например исполнительская деятельность певцов).

Во-вторых, она чаще всего изменяет существующие правоотношения, преобразуя права соискателей и обязанности самого организатора конкурса. При этом ранее возникшие правоотношения развиваются по двум линиям. Прежде всего, победители конкурса с момента принятия оценочной комиссией (жюри) положительного решения приобретают право требования премии от организатора, а у последнего появляется правовая обязанность выплатить обещанное вознаграждение. По отношению же к лицам, не удостоенным премии, организатор конкурса несет правовую обязанность возратить представленные работы (ст. 980 ГК РУз), если иное не вытекает из условий конкурса или его существа.

Рассмотрение конкурсных односторонних сделок, однако, было бы неполным, если бы мы не выявили тех основных специфических признаков, которые характеризуют их именно в названном качестве.

Прежде всего коснемся объявления конкурса. Как известно, до все-общего сведения этот юридический акт доводится при помощи различных средств - объявления по радио, телевидению, опубликования в газетах, журналах, бюллетенях и т. п. Нетрудно заметить, что характер указанных средств предполагает распространение данного объявления в самых широких кругах общественности. Благодаря им конкурсное объявление приобретает публичный характер. Поэтому само собой разумеется, что оно как односторонняя сделка направляется "не какому-либо определенному заранее лицу, а всякому, кто удовлетворит указанным в объявлении требованиям"⁴.

Таким образом, обращение к неопределенному кругу лиц есть главный отличительный признак объявления конкурса, заметно выделяющий его из числа других односторонних сделок.

Литература

1. Гражданское право: Учеб. Ч. 1/ Под ред.: А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого.- М.: ПРОСПЕКТ, 2000. -С. 234; Комментарий к Гражданскому кодексу Российской Федерации, части первой: (Постатейный) / Отв. ред. Садилов О.Н. М.: Юридическая фирма КОНТРАКТ; ИНФРА-М, 1997. С.
2. Гражданское право: В 2 т. Том II, полутом 2: Учебник / Отв. ред. Суханов Е.А. 2-е изд., перераб. и доп. М.: Изд-во БЕК, 2000. -С. 346.
3. И. А. Грингольц и В. Н. Смирнов анализируемое действие рассматривают как административно-правовой акт (см.: Научно-практический комментарий к ГК РФ. -М: БЕК, 2004. - С. 516.)
4. Курс гражданского права. Отдельные виды обязательств. -М.: Госюриздат. 1954. -С. 354.



БОЛАЛАР ПАРЛАМЕНТИГА ТАКЛИФИМ БОР!

ОЙБЕК ШОМУРОДОВ Қашқадарё вилояти Косон тумани
5-умумий ўрта таъли мактаби ўқувчиси, туман "Ёшлар иттифоқи" сардори
Наргиза ЖУМАЕВА Республика Ёшлар маркази
Қашқадарё вилояти Косон туман бўлинмаси координатори

Аннотация Биламизки Республика Сардорлар форумида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати раиси Нарбаева Танзила Камоловна мамлакатимизнинг сиёсий жараёнларида ёшларнинг ҳам иштирокини таъминлаш ҳамда таклиф ва ташаббусларини қўллаб-қувватлаш мақсадида Ўзбекистонда "Болалар парламенти"ни ташкил этиш таклифини билдирдилар. Шу кундан бошлаб ижтимоий тармоқларда турли хилдаги постлар эълон қилиниб ёшларнинг ушбу ташкил этиладиган болалар парламенти ташкил этишга муносабатлари ўрганилди.

Калит сўзлар: Ёшлар ташкилоти, Болалар парламенти, Болалар марказлари ва бошқалар.

Ёшлар ташкилотининг фаол сардорлари эса ўзларининг тенгдошларини фикр ва таклифлари ва янги гояларини қўллаб-қувватлашди. Шу муносабат билан Ўзбекистон ёшлар иттифоқи Косон туман Сардорлар Кенгаши аъзолари ташаббуси билан илк маротоба "Болалар парламенти га таклифим бор!" номли брифинг ташкил этилди. Брифинг тумандаги синф ва мактаб сардорларидан янги фикрлар, янги гоя-таклифларни ўрганиш ва уларни илгари суриш мақсадида ўтказилди. Сардорларни таклифларни шахсан ўрганиш учун вилоят Сардорлар Кенгаши аъзолари брифингдан иштирок этишди. Бирма-бир сардорлар билан мулоқотда бўлишдилар. Ушбу кун Косон туманида тарихий кун бўлди десак адашмаган бўламиз, зеро ёш сардорларимиз раҳбарлардек фикрлаб, муаммоларга ўзлари ечим топишгани барчамизни қувонтирди. Синф ва мактаб сардорлари ҳам брифингга фаолликни қўлдан бой бермаган ҳолда иштирок этишди. Таклифларга кўра "Болалар парламенти" Ўзбекистоннинг сиёсий жараёнларида ёшларнинг ўрни борлигини кўрсатадиган, республикамизда фаолият олиб бораётган 5 та сиёсий партиядан сайланган депутатлардан ўн қарра устун туриши, болаларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиши, ёш сиёсатчиларни келажакда ҳар томонлама мукамал сенатор, депутат, вазир бўлиб етишишда муҳим аҳамиятга эга бўлиши кераклиги. Ҳар бир ёшни муаммосига ечим топишга қаратилиши айтиб ўтиб ўтилди. Мактаб сардорларидан "Болалар парламенти"га ногиронлиги бўлган, имконияти чекланган болалар учун махсус ўқув курслари ташкил этиш, ҳудудларда "Болалар марказлари"ни қуриш, "Болалар депутатлар!" акцияларини кенг қамровда ўтказиш каби таклифлар илгари сурулди.

"Таасуротларга бой бўлган ушбу брифинг сардорларда келажакга бўлган интилиши ва иштиёқни уйғотти десак адашмаган бўламиз"- дейди Қашқадарё вилояти "Иттифоқ" сардори Маржона Жўрақулова

Ўзаро дўстона мулоқот, биргаликда муаммоларга ечим топиш ва таклифларни ўрганишга қаратилган кичик йиғилишимиз ёшларга оз бўлсада ўз олдига қўйган мақсадига эришиш учун тўртки бўлди десак адашмаган бўламиз.



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ДЕМОКРАТИК ЯНГИЛАНИШ ВА МОДЕРНИЗАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИ ЮҚОРИ САВИЯДА АМАЛГА ОШИРИЛМОҚДА

**Тожибоев Умиджон Усмонжон ўғли,
Фарғона политехника институти,
Ўзбекистон тарихи кафедраси ўқитувчиси
Камолиддинов Фурқат Фозилжон ўғли
Фарғона тумани 36-мактаб ўқитувчиси**

Аннотация: Мақолада мамлакатимизнинг 28 йиллик мустақил тараққиёти давомида сиёсий, ижтимоий, иқтисодий ва бошқа соҳаларда эришилган натижалар асосида демократик ва ҳуқуқий давлат ҳамда фуқаролик жамиятини энг замонавий талаблар асосида ривожлантиришнинг асослари таҳлил қилинган. Жамиятимизда сиёсий модернизация жараёнларини амалга оширишнинг янги босқичи тўғрисида фикр юритилган.

Таянч сўзлар: Демократия, Ҳаракатлар стратегияси, дунёқараш, Жамоатчилик назорати, Фуқаролик жамияти, модернизация,

Бугунги кунда Ўзбекистон барча жабхаларда юксак ўзгаришларга юз тутмоқда. Хусусан мамлакатимизда демократик янгиланиш ва модернизация жараёнлари жадал суратларда амалга оширилмоқда. Бугунги кунда шу заминда истиқомат қилаётган ҳар бир инсоннинг энг эзгу орзуси ҳам мамлакатдаги юксак ўзгаришларга заррача бўлсада ўз улушини қўшишдир. Зеро Мухтарам Президентимиз Ш.Мирзиёев айтганларидек "Бизнинг ҳавас қилса арзуғулик буюк тарихимиз бор. Ҳавас қилса арзийдиганулуг ажодларимиз бор. Ҳавас қилса арзийдиган беқиёс бойликларимиз бор. Ва мен ишонаман, Худо хоҳласа, ҳавас қилса арзийдиган буюк келажагимиз ҳам албатта бўлади." [1]

Президентимиз таъкидлаганларидек буюк келажагимизни яратиш учун энг аввало Ватанга муҳаббат ҳисси шаклланиши лозим. Тарихимизга бир бор назар ташласак, унда Ўзбекистонимизни шундай озод ва фаровон кўриш умидида жон фидо қилган қанчадан-қанча машаққатли ва синовли йўллари босиб ўтган буюк ажодларимиз, зиёлиларимиз кўз олдимизда гавдаланади. Ҳозирги эркин ва фаровон ҳаётга озодликка эришиш осон кечмаганлигига яна бир бор амин бўламиз. Мустақил бўлгач буюк ажодларимиз, зиёли ва мутафаккирларимиз орзу қилган ўша демократик жараён сари қадам ташлаганимиз бизга бир олам ғурур ва ифтихор бағишлайди. Дарҳақиқат фидокорона меҳнат билан ўтган бу йиллар давомида биз қаддимизни ростладик. Ҳалқимизнинг кўхна тарихи, бой меъроси, удум ва қадриятлари қайта тикланди. Энг асосийси, Ватанимизда демократик жараёнлар қарор топди.

Ўзбекистонда демократик жамият қуришда янги тарихий даврнинг бошланиши том маънода Мухтарам Президентимиз ташаббуслари ишлаб чиқилган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясидир. Демократик Фуқаролик жамияти, авваламбор, ўз-ўзини ривожлантирадиган ижтимоий макон экан унинг шаклланишида инсон омили асосий рол ўйнайди. Шу билан бирга, фуқаролик жамияти бу нафақат ижтимоий макон, балки қонун устуворлиги устувор бўлган жамиятдир. Шу муносабат билан одамларнинг ҳуқуқий маданияти, жамиятнинг сиёсий фаоллиги, демократик тамойилларни одамлар томонидан чуқур англаш муҳим аҳамиятга эга. Бизнинг қонунларимиз ушбу тушунчаларни аҳолининг чуқур тушунишига ёрдам бериши керак. Ушбу мақсадга эришиш учун аҳолининг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш бўйича зарур ишларни ташкиллаштириш, шу орқали унинг ҳуқуқий маданиятини ошириш, бошқача айтганда, биз одамларнинг ҳуқуқий тафаккурини шакллантириш ҳақида бормоқда. Ва бу тўғри, демократик йўл орқали жамият ривожидида ҳал қилувчи рол ўйнайди.

Мамлакатимизда демократик жараёнларни янада шакллантириш учун кўп меҳнат қилган Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.Каримов ҳақиқий демократия тўғрисида қуйидаги фикрларини айтиб ўтади "Демократиянинг қўллаб ижобий жиҳатлари бор албатта. Лекин уни ўйинга айлантириб, катта минбарлардан туриб, "демократия, демократия" деб кўксига уриб гапириш, аслини олганда, халқ манфаатларини ниқоб қилиб, ўз манфаатларини кўзлашдан бошқа



нарсa эмаслигини ҳам кўп кўрганмиз. Биз шуни яхши англашимиз керакки, демократия-инсон, жамият, давлат деган уч субект ўзаро бирбирини тўлдирадиган, бир-бирини бойитиб керак бўлса назорат қилиб турадиган тизим демакдир. Бу ҳар қайси инсоннинг жамият билан, жамиятнинг эса давлат билан муносабатини, улар ўртасидаги мувозанатни англатади". [2]

Ўзбекистон Республикаси ўз истиқлолига эришгач жамият сиёсий-ижтимоий ҳаётининг барча жабҳаларини янгилаш ва замонавийлаштириш учун кенг имкониятларга эга бўлди. Мазкур заминларга таянилган ҳолда мамлакатимизда изчиллик билан демократик ислохотларни ва унга монанд равишда фуқаролик жамиятини шакллантириш жараёнларини чуқурлаштириш чора-тадбирлари амалга ошириб келинмоқда. Зеро, давр талабларидан келиб чиқиб янгилашни ва модернизация жараёнларини собит қадамлик билан давом еттирган жамиятгина барқарор тараққиётга ериша олади.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган сиёсий модернизация жараёнлари ўз моҳиятига кўра тамомила юртимизда халқимиз учун озод ва обод еркин ва фаровон ҳаётни яратишнинг кафолатли йўналиши бўлган, замонавий фуқаролик жамиятини қарор топтиришга қаратилди. Барча турдаги ислохотлар мазмунан янгилашни ва замонавийлаштириш сиёсатининг манфаатларига мослаштирилди. [3]

Демократлаштириш ва фуқаролик жамиятини қуриш жараёни билан чамбарчас боғлиқ ма'навий бой ва маънавий, баркамол ривожланган шахсни шакллантиришдир. Мамлакатимизнинг 28 йиллик мустақил тараққиёти давомида сиёсий, ижтимоий, иқтисодий ва бошқа соҳаларда еришилган натижалар асосида демократик ва ҳуқуқий давлат ҳамда фуқаролик жамиятини энг замонавий талаблар асосида ривожлантиришнинг асослари бунёд етилди. Жамиятимизда сиёсий модернизация жараёнларини амалга оширишнинг янги босқичини бошланиши учун зарур бўлган заминлар тайёрланди.

Мамлакатимизни модернизация қилиш жараёнларини изчил ривожлантириш ҳамда унинг фуқаролик жамиятини юксалтиришга хизмат қилувчи таъсирини кучайтирилишида сиёсий партияларнинг мамлакатимиз сиёсий тизимидаги ролини оширилиши муҳим аҳамиятга эга бўлди. Зеро, сиёсий партиялар ўз моҳиятига кўра фуқаролик жамиятининг етакчи институтларидан бири ҳисобланади. Сиёсий партиялар фуқаролик жамиятининг сиёсий тизим билан о'заро алоқаларининг доимийлигини таъминлайди. Шу боис ҳам Республикаимизда давлат қурилиши ва бошқарувини эркинлаштириш ва либераллаштириш вазифалари тизимида замонавий кўппартиявийлик тизимини вужудга келтириш ҳамда ривожлантиришга катта эътибор қаратилди.

Яна шуни алоҳида такидлашимиз лозимки Республикаимизда Жамоатчилик назоратининг ташкил этилиши демократик жараёнларни ривожлантиришнинг муҳим шарти ҳисобланади. Жамоатчилик назорати бўлмаган ёки жамоатчилик назорати етарли даражада кучга эга бўлмаган мамлакатда демократияни шаклланишини ҳам тасаввур қилиш қийин. Шунинг учун мамлакатимиз Конституциясида жамоатчилик назоратининг мамлакатимиз фуқаролари давлат бошқарувида иштирок этишларининг муҳим воситаси экани эътироф этилмоқда. Хусусан, мамлакатимизда 2018 йил 12 апрель куни қабул қилинган 474-сон Ўзбекистон Республикаси Қонуни юқоридаги фикрларимизнинг исботи ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати:

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Т. "O'zbekiston", 2017 йил
2. Каримов И. Она юртимиз бахт-у иқболи ва буюк келажакимизни йўлида хизмат қилиш-энг олий саодатдир. Т.: "O'zbekiston", 2015 йил
3. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. -Т. "O'zbekiston", 2005 йил
4. <https://www.lex.uz>



ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР

ЭТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АЖИНИЯЗА И ПРОБЛЕМА ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ.

**А.П.Ембергенов, кандидат философских наук, доцент,
заведующий кафедрой национальная идея, основы духовности
и правовое образования, Нукусский государственный педагогический институт.**

Аннотация: With his work, Ajiniyaz actively influences the formation of moral consciousness of the Karakalpak, developing at the same time the national consciousness of the people.

Keywords: consciousness, worldview, self-awareness, wisdom, humanity, content,

Попытка проникнуть в глубь человеческого сознания и мировосприятия, выявить его структуру и роль в общем историческом процессе - все шире признается в науке как задача первостепенной важности. Благодаря ее решению, анализ детерминации духовных процессов переходит от внешней описательности к пониманию внутренних механизмов формирования и развития таких процессов.

Ажинияз является одним из наиболее выдающихся представителей каракалпакской литературы XIX века. Развивая лучшие традиции классической поэзии Востока, поэт обогатил каракалпакскую литературу новым содержанием и формой, оказал большое влияние на развитие образного мышления и рост самосознания народа. "Если каракалпакские поэты, жившие и творившие до Ажинияза, Бердаха и Утеша, ограничивались лишь недовольством существующей жизни, то в пору Ажинияза главной темой их произведений становится борьба за свободу и национальную независимость"

Выдвинутые Ажиниязом прогрессивные идеи о величии человека, о Родине, ее судьбе, о нравственных ценностях нашли свое отражение в выражении Ажинияза "И земля народом славится, а народ - землей" воплощена глубочайшая идея сокровенной связи народа и земли, на которой он живет. Родная земля - основа единства народа и это главное условие счастья, благоденствия, мира и свободы, то есть тех обстоятельств, которые делают человека человеком, гуманным, милосердным и отзывчивым.

Анализ исторического развития морального сознания каракалпаков показывают, как постепенно через табу и обычаи моральные отношения трансформируются в механизмы моральной регуляции. Эти первоначальные формы нравственности закладывают прочный фундамент народной мудрости. К числу простейших нравственных представлений относятся уважение к старшим, патриотизм, трудолюбие. Простые нормы получают свое развитие в жанровом оформлении фольклора - дастаны, эпосы, легенды. В последствии духовно-нравственные представления народа оформляются в национальной художественной литературе, в их разработку включаются представители общественной и философской мысли. Их роль в осознании народом своих нравственных ценностей особенно велика в период просвещения. Авторские формы искусства говорят о том, что ценности данного народа приобретают общечеловеческое звучание.

Ажинияз опираясь, с одной стороны, на народную нравственность, с другой стороны, придает им такую глубину и завершенность, поднимает этим нравственную норму до уровня этико-философских представлений. Своим творчеством он активно воздействует на формирование морального сознания каракалпаков, развивая вместе с тем и национальное сознание народа.

Переживания, связанные с интересами своей нации, с ее особенностями, достоинствами и ролью в общечеловеческом процессе, а также своеобразное эстетическое восприятие родной природы, языка, фольклора, искусства и литературы, оформляются в виде национальных чувств.

У каждого народа, живущего в определенных природных условиях и ведущих определенный образ жизни, вырабатывается соответствующее мировоззрение и соответствующий динамический стереотип, особенного, своеобразного, художественного видения действительности, и ее воспроизведения в образах. Конечно, такое особенное видение мира тоже связано с общечеловеческим в силу единства человеческой природы, но оно богаче общего тем, что включает некоторые своеобразные черты данной природы, а также особенности культурного развития данной нации.

Народ в своем фольклоре в профессиональном искусстве выражает, несомненно, общечеловеческие



ценности, общие для всех других народов. Кроме этого, он вкладывает в них и свою национальную манеру восприятия этих ценностей.

Сами по себе эти ценности, выражающие соответствующие чувства - радости, печали, любви или горя - общечеловеческие, но вот характер их выражения различен у разных народов.

Следовательно, национальная форма в искусстве не есть "форма" в изком смысле слова, а есть художественная материализация способа ведения мира данного народа.

Национальная форма восприятия и воспроизведения действительности облегчает ее познание и является самостоятельной ценностью для ее непосредственных восприемников.

Этико-философская проблема соответствия формы и содержания в творчестве Ажинияза актуализируется поэтом не только в сфере литературы и искусства, но и в сфере нравственных отношений, где она рассматривается в первую очередь как духовная проблема.

Потому Ажинияз силой своего поэтического таланта придает народной нравственности такую глубину и завершенность, что поднимает ее до уровня высокого этико-философского обобщения, где этико-философские представления народа оформляются в виде национальных чувств и превращаются в основу национального самосознания нации.

Литература

1. Калимбетов Б. Лирика Ажинияза в аспекте поэтического мастерства - Т.: Фан, 1991
2. Артановский С. Н. Историческое единство человечества и их взаимное влияние культур - М., 1967



ТА'LIMDAGI ISLOHOTLARGA BIR NAZAR

Buxoro Davlat Universiteti, talabasi Olimova Xadichabonu
Navoiy davlat konchilik institutiti talabasi G'afforov Abbosjon

Annotatsiya: Bilamizki, uy qurish uchun avvalo uning poydevori quriladi, poydevorning holatiga qarabgina bino quriladi. Ta'lim-tarbiya ham millatning millat bo'lib shakllanishida, mamlakatning ravnaq topishida asl poydevordir. Hozirda mamlakatimiz rivoji yo'lida ta'lim-tarbiyaga ham katta e'tibor berilmoqda. Shunday ekan, bizning yoshlikdan aniq bir maqsad yo'lida qilayotgan harakatlarimiz yurtimiz kelajagiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, Oliy o'quv yurti, Maktabgacha ta'limda va maktab ta'lim va boshqalar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 5-sentabrida "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi Farmonida quyidagi fikrlar ta'kidlangan: "Xalq ta'limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi. Shu bilan birga, ushbu sohadagi ishlar holatini tanqidiy tahlil qilish xalq ta'limi tizimi boshqaruvini tashkil etish, davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarining faoliyatini amaliy jihatdan muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnik holatini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjudligi aniqlandi".

Shunday ekan, bizning yoshlikdan aniq bir maqsad yo'lida qilayotgan harakatlarimiz yurtimiz kelajagiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Maktabgacha ta'limda va maktab ta'limida yosh avlod jamiyat bilan tanishib, unga moslasha boradi. Ma'lumki, umrimizning asosiy qismi ta'lim-tarbiya maskanlarida o'tadi. Biz to'xtalmoqchi bo'lgan masala maktabdagi ta'lim-tarbiya masalasidir. Bilamizki, hozirgi kunda ota-onalarimiz o'z farzandlarining yaxshi ta'lim olishlari uchun repetitorlar xizmatidan foydalanmoqdalar. Ota-onaning nazarida repetitorlik faoliyatini olib boruvchi o'qituvchilar maktabdagi o'qituvchilardan ko'ra ko'proq bilimga ega deb o'ylashadi. Aslida esa, o'quvchilarga taqdim etilayotgan manbaalar bir xil. Balki bu, dars o'tish uslubiga yoki talabga ham bog'liqdir? Masalaga boshqa tomondan ham qaraylik: qo'shimcha darslarda o'quvchilar qanday sharoitda ta'lim olishmoqda, ularning xavfsizligiga kim javobgar, ularning atrofida qanday insonlar bor, ular kimlar bilan do'stlashishyapti?! Balki pullik o'qish sifatli deb hisoblaydigan aholi uchun xususiy maktablarni ko'paytirish kerakdir, yoki aniq bir yo'nalishga iqtisodlashtirilgan maktablar faoliyatini afzal ko'rishar?

Bizningcha, ixtisoslashtirilgan maktablarni ko'paytirish kerak. Albatta, bunga ko'p vaqt talab etiladi, umr esa o'tib bormoqda. Hozircha esa bitiruvchi o'quvchilar ustida o'zlashtirgan fanlari yuzasidan nazoratni yo'lga qo'yish bu masalaning hozirgi kundagi yechimi, deb hisoblaymiz. Ya'ni yil yakunida olib boriladigan imtihon jarayoniga katta e'tibor berib, yuqori talablar asosida imtihonlar o'tkazilishi zarur. Fanga tegishli butun ma'lumotlar 11 yilga moslab, taqsimlab tashlangani bilan o'quvchilarga katta qulaylik yaratilgan, nazarimizda. Ha, hayotimiz mobaynida har bir fanga ehtiyoj sezamiz, u fizikami, biologiyami, tarixmi, huquqshunoslikmi, har bir fanga murojaat qilishimizga to'g'ri keladi. Oliy o'quv yurtida o'qishni davom ettirish uchun o'quvchilarimizdan tanlangan fanlarini doimiy takrorlab turish talab etiladi, xolos. Shu bilan birga qolgan fanlarni ham unutib qoymaslik uchun unga arziqli sabab qo'yishimiz kerak. Ya'ni, yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, o'ta yuqori talablar asosida olib boriladigan imtihonlar, shu orqali o'quvchilar ongida olingan ma'lumotlar yodidan ko'tarilmasligi uchun, o'qishga yuzaki yondashmasliklari uchun, xo'ja ko'rsinga kelib-ketmasliklari uchun sabab bo'ladi va shu asosida maqsad qo'yiladi, maqsad sari qadamma-qadam borilaveradi. Ulg'ayganimiz sari atrofimizdagi olam ham kattalashib boradi. Umrimizning ilk lahzalari o'quv muassasalarida o'tar ekan, unga loqaydlik bilan qaramaslik lozim.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kunimizning har bir lahzasini foydali va unumli o'tishi uchun bor kuchimiz bilan harakat qilishimiz zarur. Zero, vaqt hech birimizga bo'ysunmaydi, uning qanday o'tishi bizning harakatlarimiz bilan baholanadi. Agar harakatlarimiz maqsadlarimiz kabi kuchli, qa'tiyatli bo'lsa, albatta ko'zlangan g'alabani qo'lga kiritamiz!



AXBORITLASHGAN JAMIYATDA QADRLANISH VA QADRSIZLANISHNING FALSAFIY TAHLILI

Shakarov Bobur Xusniddinovich
O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti.
Falsafa(qo'llash sohasi). I bosqich magistranti
Toshkent shahar Uchtepa tumani
287-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyat "axborot" sifatida tavsiflanadi, bu uning ijtimoiy falsafiy tadqiqotining o'ziga xos xususiyatlariga olib keladi. Maqolada ijtimoiy falsafiy tadqiqotning nazariy va amaliy istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Annotation: Modern society is characterized as information-oriented, which specify features its socially-philosophical research. In this article theoretical and practical prospects of the socially-philosophical research are described

Kalit so'zlar: axborot jamiyati, ijtimoiy-falsafiy tahlil, ishlab chiqarishni virtualizatsiya qilish, aloqa maydoni.

Keywords: information-oriented society, socially-philosophical analysis, manufacturing virtualization, communicative space

Bugungi kunda axborotlashgan jamiyatdagi tadqiqotlarni holati va vektorlarini asoslashga va uning sotsial-falsafiy tahlili aniqlashga bo'lgan urinishlar tobora ortib bormoqda. "Axborotlashgan jamiyat" tushunchasi ijtimoiy rivojlanish tabiatining tashqi ta'sir o'zgarishlarini harakterlaydi. Axborotlashgan jamiyat tushunchasi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy konsepsiyalarda shakllandi. Axborot jamiyati tadqiqotchilarining XX asrning 70-larining boshidan XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan davr yangi turdagi shakllanishning boshlanishi deb e'tirof etiladi. Uning paydo bo'lishi bilan bog'liq jamiyat texnologik taraqqiyotning radikal tezlashishi,

bandlik tuzilishi o'zgarishi, shakllanishi sifat jihatidan yangi qiymat tizimi va boshqalardir. Axborotlashgan jamiyatni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar bular obyektlarni raqamli tasvirlash, innovatsion tabiat, ishlab chiqarishning virtuallashuvi, ijtimoiy jarayonlarning o'xshashligi va dinamiklasi, insondafa shaxs sifatidagi faol tassavurlardir. Axborotlashdigan jamiyatni shakllantirish davri asosiy muammolarni tezda aks ettirgan o'zgaruvchan dunyo: juda tez rivojlanish elektron tijorat, moliyaviy bozorlar muvofiqlashtirish, millatlararo rivojlanish jamiyat globallashuv jarayoniga mos keldi. Falsafiy nuqtai nazardan, jamiyatning yangi tarixiy turi paydo bo'lishida ontologik va epistemologik omillarni aniqlash muhimdir. Ontologik jihatdan va epistemologik jihatdan bu turdagi jamiyat axborot paradigmasi bilan ifodalanadi bu o'z navbatida nazariyadan kelib chiqadi. Axborot ma'lumotlariga ko'ra ontologiya, haqiqat axborot bilan bir xil. Bunday paradigma doirasida inson shaxsiyati unda tuzilgan axborot miqdori kamayadi. Axborotlashgan jamiyat tushunchasi ushbu tamoyil atrofida tashkil etilgan ijtimoiy shakl-axborot va bilimni taqozo etadi. Axborotlashgan jamiyat ob'ektlar va ramzlar, g'oyalari, tasvirlar, zakovat va ishchilarning ishlab chiqarish, saqlash va sotish bilan band axborot, ayniqsa, uning eng yuqori shakli - bilim bor joyda shakllanadi.

Bu bilim sifatida qayta ishlangan ma'lumotlar jamiyat uchun amaliy ahamiyatga ega. U jamiyatni har bir tizimli darajada o'zgartiradi. Sotsiumlarni rivojlanish shart-sharoitlari bu axborotlarni toppish, to'plash va to'g'ri foydalanishdir. Axborot o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiydir. Jamiyat a'zolari orasida axborotlarni almashuv jarayoni bo'lishi sotsiolizatsiyaga olib keladi. Shuning uchun ham axborotni biz insoniyat xatti-harakatining asosiy vazifasi deb hisoblashimiz mumkin. Bugungi kunda axborotning ananaviy ko'rinishidan turliklarni uzatuvchi vosita sifatidagi ko'rinishga ega bo'lmoqda. Shunga asoslangan holda axborotning "sifatlilik" yoki "qadrilik" nazariyalari "ma'noli" va "estetiklik" tomonlarini egallamoqda.

Yuqoridagi fikrlarni va tadqiqot doirasida amalga oshirilgan ijtimoiy-falsafiy tahlilni umumlashtirgan holda quyidagi takliflarni keltirish o'rindir.

1. Axborotlashgan jamiyat tomonidan shakllantirilgan hayotning yangi shakllari yangi zamonaviy sotsial va falsafiy nazariyalarni shakllantirishga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy-falsafiy nazariyalar bugungi kunda bu kundalik hayotdagi katta miqyosdagi fenomenologiya, jamiyat hayotining yangi shakllarini analiz qilishdir.

2. Bugungi kundagi axborotlashgan jamiyatda qadriyatlarini qadrlanish yoki qadrsizlanish holatini falsafiy tahlil qilish va yechimlarini toppish borasida seminar treninglarni o'quv uslubiy qo'llanmalarga qo'shish



o`rinligi. Ularni quyidagi mavzularda amalga oshirish taklif etiladi.

- Axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar (hayotning internetli shakli va uning kundalik hayotga ta`siri, axborotlashgan salohiyat va madaniyat)
- Axborot-kommunikativ muhitda shakillanuvchi muommolar (ekologik, gender, ijtimoiy, falsafiy va psixologiik)
- Axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy jarayonlarning falsafiy tahlili.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Иноземцев В.Л. Современное постиндустриальное общество: природа, противоречия, перспективы / В.Л. Иноземцев. М., 2000 . 304 с.
2. Чугунов А.В. Перспективы развития в России "информационного общества" (Социальный портрет российской интернет-аудитории по данным социологических опросов) [электронный ресурс] / А.В. Чугунов // Полис. 2002. № 5.
3. Лукина Н.П. Информационное общество: состояние и перспективы социально-философского исследования [электронный ресурс] / Н.П. Лукина // Гуманитарная информатика. 2007. № 1.



GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATI.

Navoiy davlat konchilik instituti talabasi Umarova Noila
Navoiy davlat konchilik instituti talabasi Yorqulova Dilrabo

Anotatsiya: Globallashayotgan dunyoda, axborot kommunikatsiya texnolo-giyalari va ayniqsa, Internet kishilar kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Global tarmoq shiddat bilan rivojlanib, imkoniyatlari tobora kengay-moqda.

Kalit so'zlar: Global tarmoq, yangiliklarni o'qish, iste'dod va salohiyatini namoyon etish va boshqalar.

Zamonaviy yoshlar Internetga ma'lumot olishning asosiy manbai va kommuni-katsiyaning bosh vazifasi deb qaraydilar. O'zbekiston yoshlari ham dunyodagi tengdoshlari kabi asosan yangiliklarni o'qish, kurs ishlari va refaratlar uchun materiallar qidirish, do'stlar bilan muloqot qilish, yangi do'stlar orttirish va axborot olish maqsadida internetdan foydalanadilar.

Internetda jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti, shaxs, ayniqsa, hali ongi shakllanib ulgurmayan yoshlar duyoqarashiga, g'oyaviy tarbiyasiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatuvchi manbalar ham oz emas.

Axborot turli ijtimoiy qatlamlarga, milliy guruhlarga harxil ta'sir etishi hamda uni iste'mol qilish ham bir-biridan farq qilganligi bois, kishilarda ayniqsa, yoshlarda axborotni saralay olish, ya'ni axborot iste'moli madaniyatini yuksak darajada shakllantirish uchun engavvalo, yoshiyigit-qizlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, fidoyilik tuyg'ularini uyg'otish lozim.

Internetda jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti, shaxs, ayniqsa, hali ongi shakllanib ulgurmayan yoshlar duyoqarashiga, g'oyaviy tarbiyasiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatuvchi manbalar ham oz emas.

Global tarmoqdagi axborotlarning o'sib kelayotgan yoshavlod hayot tarzining shakllanishiga ta'sirini tahlil qilish natijasida shunday fikr kelib chiqadiki, Internet hozirgi kunda ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos muhitiga aylanibqoldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida yosh avlodning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta o'zlashtirishi, o'z iste'dod va salohiyatini namoyon etishi uchun barcha sharoit yaratilmoqda.

Xulosa qilib aytkada Internet tarmog'idagi ekstremizm va terrorizmni targ'ib qiluvchi turli oqimlar ta'siriga tushib qolayotganlarning aksariyati hali oq-qorani ajrata olmaydigan, huquqiy bilimi yetarli bo'lmagan, dunyoqarashi shakllanmagan yoshlar ekani achinarlidir. Hayotga teran nigoh bilan qaraydigan, ma'nan barkamol avlodni tarbiyalashda yoshlarga internet tarmog'idan to'g'ri foydalanish borasidagi tushuntirish-targ'ibot tadbirlarini yanada kuchaytirish, iste'dodini to'g'ri yo'naltirish lozim.



ТЕРРОРИЗМНИНГ МОҲИЯТИ ВА ДИНИЙ БАҒРИКЕНГЛИК

Низомий номидаги ТДПУ Ҳарбий таълим факультети
1-курс 104-гурӯҳ талабаси Абдувалиев Лочинбек

Аннотация: Бугунги кунда дунёда глобал муаммога айланган терроризм муаммолари ҳамда унга қарши Ўзбекистонда олиб борилаётган "Маърифат ва диний бағрикенглик" деб номланган махсус резолюциясини қабул қилиниши ва ёшлар давлатимиз томонидан олиб борилаётган дин соҳасидаги давлат сиёсатини қўллаб қувватлаймиз, ҳамда диний қадриятларимизни асраб авайлаш борасида динни маърифий ўрганишга, диний бағрикенглик тамойилларини тушуниш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: Диний бағрикенглик, ислом, дин ва сиёсат, маънавият, қадрият, маърифий ислом

Жамият тараққиёти ривожининг тез суратлар билан ривожланиб бориши билан бирга терроризм жумладан, диний-сиёсий моҳиятга эга экстремизм ва терроризмнинг глобаллашуви, уларнинг тобора халқаро миқёсдаги воқеликка айланиб бораётгани дунё ҳамжамиятининг мазкур муаммога бўлган эътиборини янада оширмоқда.

Мазкур ижтимоий салбий иллатнинг моҳиятидир. "Терроризмнинг моҳияти сиёсий гуруҳ ва кучларнинг фаолияти ва мафкураси билан, мақсадни амалга оширишда халқ омаси орасида ваҳима, даҳшат, қўрқув уйғотиш учун зўровонликнинг турли услуб ва воситаларидан фойдаланиш билан белгиланади".

Терроризм террорчилик-зўрлик ва жаҳолат мафкураси, террор билан амалга ошириладиган сиёсий ҳаракат. Терроризм бир неча асрлар олдин шаклланган географик жиҳатдан барча минтақа ва мамлакатларда учраши мумкин бўлган мураккаб феномендир.

Терроризмнинг глобал миқёсга айланиб кетиши учун ҳам айрим сиёсий камчиликлар учун қулай баҳона бўлади. Шунингдек терроризмнинг ҳар қандай умуминсоний қадриятлар ва маънавиятга риоя қилмаслиги, жамият ва халқ ва давлат манфаатини кўзловчи сиёсий мақсадни олдига қўймаслиги ва миллий ва халқаро ҳуқуқ меёрлари амал қилмаслиги билан бу жиноний фаолиятдир деб баҳо бериш мумкин. Халқаро терроризмни олдини олиш мамлакатлар оқидаги глобал муаммо экан, айти пайтда

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 19-сентябр куни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқида жаҳонда терроризмга қарши курашиш йўллари ҳақида қўйидаги таклифлар берган эди. "Биз бутун жаҳон жамоатчилигига ислом динининг асл инсонпарварлик моҳиятини етказишни энг муҳим вазифа, деб ҳисоблаймиз.

Биз муқаддас динимизни азалий қадриятларимиз мужассамининг ифодаси сифатида беҳад қадрлаймиз. Биз муқаддас динимизни зўравонлик ва қон тўкиш билан бир қаторга қўядиганларни қатъий қоралаймиз ва улар билан ҳеч қачон мурося қила олмаймиз.

Ислом дини бизни эзулик ва тинчликка, асл инсоний фазилатларни асраб-авайлашга даъват этади.

Марказий Осиё Уйғониш даврининг кўплаб ёрқин намояндаларининг ислом ва жаҳон сивилизатсиясига қўшган бебаҳо ҳиссасини алоҳида қайд этмоқчиман.

Ана шундай буюк алломалардан бири Имом Бухорий ўз аҳамиятига кўра ислом динида Қуръони каримдан кейинги муқаддас китоб ҳисобланган "Саҳиҳи Бухорий"нинг муаллифи сифатида бутун дунёда тан олинган.

Бу улуг зотнинг гоят бой меросини асраб-авайлаш ва ўрганиш, маърифатий ислом тўғрисидаги таълимотини кенг ёйиш мақсадида биз Самарқанд шаҳрида Имом Бухорий номидаги Халқаро илмий-тадқиқот марказини ташкил этиш тўғрисида қарор қабул қилдик.

Тошкентда ташкил этилаётган Ислом цивилизацияси марказининг фаолияти ҳам шу мақсадга хизмат қилади.

Бугунги сессия иштирокчиларига БМТ Бош Ассамблеясининг "Маърифат ва диний бағрикенглик" деб номланган махсус резолюциясини қабул қилиш таклифи билан мурожаат қилмоқчиман" -деган нутқлари халқаро жамоатчилик томонидан эътироф этилиб юқори баҳо берилди.

Айти пайтда, ҳозир кунда Ўзбекистонда "Маърифат ва диний бағрикенглик" сиёсати орасида Ўзбекистонда айтиқса ислом динини маърифий ўрганиш юзасидан кўпгина ишар қилинди Жумладан,



2017 йил 14 февралда "Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Президент қарори имзоланди, 2017 йил 17 июлда Имом Бухорий халқаро илмий тадқиқот маркази фаолиятини ташкил этиш тўғрисида қарор қабул қилинган, шунингдек, 2018 йил 16 апрелда Ўзбекистон халқаро академияси ташкил этилди.

Академия бугунги кунда "Қуръон илмлари, ҳадис, ислом ҳуқуқи, ақида, тасаввуф, ислом иқтисодиёти ва молияси, халқаро муносабатлар, хорижий тиллар (араб, форс, инглиз, рус, урду, турк ва б.) ва бошқа халқаро миқёсда аҳтиёж мавжуд бўлган соҳалар бўйича малакали кадрларни тайёрлашга, ўрта махсус, олий таълим, олий таълимдан кейинги таълим, малака ошириш босқичларида узлуксиз таълимнинг яхлит тизимини ташкил этишга ва илмий меросни чуқур тадқиқ қилиш ва асраб-авайлашга, диний ва дунёвий билим беришга ихтисослашган етакчи таълим ва илмий-тадқиқот муассасаси ҳисобланади."

Юқоридаги каби Ўзбекистонда олиб борилаётган диний экстремизм ва терроризм, халқаро терроризмга қарши маърифий йўл бу албатта халқаро жамоатчилик томонидан ҳам яхши кутиб олинди ва эътироф этилди. Шу жумладан биз ёшлар давлатимиз томонидан олиб борилаётган дин соҳасидаги давлат сиёсатини қўллаб қувватлаймиз, ҳамда диний қадриятларимизни асраб авайлаш борасида динни маърифий ўрганишга, диний бағрикенглик тамойилларини тушуниш билимларимизни мустаҳкамлаш зарурлигини ангаб етамиз. Зеро, Имом Бухорий, Имом Термизий каби буюк мутафаккир боболаримиз илмий меросини ўрганиш ўрганиш биз ёшларнинг вазифамиздир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Сафарова, Нигора. Терроризм (тарихий-фалсафий таҳлил) / маъсул маҳаррир Р.раҳмонов. - Т.: Нoshir. 2009. -Б.23.
2. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқ сўзлади. <http://uz.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>.
3. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўрлами 2017.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Ислам академиясини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.МИРЗИЁЕВ Тошкент шаҳри, 2017 йил 15 декабрь қарори.



СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВОСТОКА И ЗАПАДА В ПОСТКОНФУЦИАНСКОЙ ФИЛОСОФИИ ФЭН ЮЛАНЯ

Нигора Мирсолихова

Тошкент шаҳар, К.Бехзод номидаги

Миллий рассомлик ва дизайн институти,

"Чизматасвир" кафедраси ўқитувчиси

Abstract: The paper examines the development of Feng Yulan 's post-Confucian philosophy through the lens of dialogue of cultures: East-West. The significance of the problem under study for responding to the challenges of modern civilization is justified. On the basis of a comparativistic approach, similarities and differences between Chinese and Western philosophical thought are revealed. The influence of Western philosophy of pragmatism and neorealism on the transformation of Feng Yulan 's worldview is revealed.

Keywords: culture, dialogue, eastern philosophy, western philosophy, post-Confucianism, pragmatism, neorealism, "everyday reduction," everyday increase "

Аннотация: В статье рассматривается развитие постконфуцианской философии Фэн Юланя через призму диалога культур: Восток - Запад. Обосновывается значимость исследуемой проблемы для ответа на вызовы современной цивилизации. На основе компаративистского подхода выявляются сходства и различие китайской и западной философской мысли. Раскрывается влияние западной философии прагматизма и неореализма на трансформацию мировоззрения Фэн Юланя.

Ключевые слова: культура, диалог, восточная философия, западная философия, постконфуцианство, прагматизм, неореализм, "повседневное уменьшение", "повседневное увеличение"

В настоящее время глобальная оппозиция человеческой культуры, выражаемая символами Восток-Запад, высветилась, как никогда ярко. В наши дни с подобными заявлениями о глобальном "столкновении цивилизаций" выступают не пророчествующие мистики, а вполне приземленные политологи. В этом контексте стоит обратить особое внимание на ценности конфуцианского мировоззрения, позволяющие китайской цивилизации, история которой насчитывает более двух с половиной тысячелетий, при всех ее циклических фазах сохранять преемственность основных традиций, культуры, форм общественных связей.

Вторая половина XIX - начало XX вв. занимают особое место в истории Китая, развитие которого в предшествующий период находилось в большой степени изоляции от внешнего мира. Этот период нередко характеризуют как эпоху "пробуждения Азии", имея в виду повсеместно наблюдаемую там активизацию общественной мысли, прежде всего социально-политической, экономической и религиозно-философской. Китайское общество в начале XX века столкнулось с весьма непростой проблемой: как выйти на главную историческую магистраль общественного сознания, т.е. преодолеть культурный и социально-экономический застой, но не утратить при этом национальной самобытности и культурной независимости от Запада?

В области философии идейное противостояние осуществлялось в основном вокруг вопросов полного национального освобождения Китая и ликвидации его социально-экономической отсталости, вследствие чего философские концепции имели прямой выход в политическую практику, теоретически обосновывали программы социального переустройства страны, выдвигавшиеся политическими организациями, выражавших интересы различных социальных слоев обществ. Эти процессы привели к созданию современного конфуцианства. Начало современному конфуцианству как новому течению в китайской философии положила опубликованная в августе 1921 г. книга Лян Шумина "Культура Востока и Запада и их философии", где был выражен призыв вернуться к Конфуцию и возродить его учение о человеке и морали для решения не только внутри китайских, но и мировых проблем, дав человечеству дух основанный на гармонизации своих желаний, ненасилии и уходе от крайностей.

Фэн Юлань - ключевая фигура китайской философии и духовной культуры XX века. Особая значимость этого мыслителя определяется уникальным соединением в его лице оригинального философа и выдающегося историка философии, патриотически настроенного традиционалиста и компетентного знатока западной философии и культуры. В творчестве Фэн Юланя постконфуцианская тенденция к синтезу с западной философией была значительно более весомой, чем в творчестве его



современников в 30-40-е годы и представителей конфуцианской мысли "китайского философского зарубежья" 50-70-е годов. Некоторые ученые справедливо указывают на то, что "постконфуцианская философия Фэн Юланя опередила свое время приблизительно на половину столетия и стояла особняком на фоне доминировавшей в 50-70-е гг. философии "современного неоконфуцианства".

Фэн Юлань стремился развивать китайскую философию, продолжая традиции классического неоконфуцианского "учения о принципе" (ли сюэ), и одновременно радикально переосмысливать логические и формальные основы самой китайской мысли. А.В.Ломанов в своих исследованиях характеризует важные черты философствования этого китайского ученого следующим образом: "□Профессиональность, содержательное владение западной философской мыслью и стремление использовать рационалистический и аналитический подходы в решении дилеммы, ставшей исходным импульсом в движении постконфуцианской мысли, эмоциональной привязанности к национальной традиции и интеллектуальной преданности западным ценностям"

Таким образом, развитая Фэн Юланем тема философского диалога между Востоком и Западом неотъемлема от понимания им содержательных аспектов западной философии, ее логических оснований. Это дает нам возможность говорить и о второй, "вспомогательной" интерпретации, которую Фэн Юлань дает западной мысли, выделяя из нее то ценное, что отбирается им для развития китайской философии. Магистральным направлением в исследованиях для Фэн Юланя является программа аналитической реконструкции неоконфуцианства в направлении создания соответствующей западным стандартам систематической философии при изначальной установке на верность национальной традиции.

При компаративном анализе западной и китайской философии выявлялась специфика последней. В чем она выражалась для Фэн Юланя? Прежде всего, в Китае не сформировалась развитая научная мысль. "В Китае нет науки, поскольку он не нуждался в ней в соответствии со своими стандартами ценностей". Так как большинство школ, течений и направлений в китайской философии считали человека изначально добрым и ориентировали его на внутреннее развитие, в то время как в западной традиции наука формировалась как "внешняя подпорка слабому, грешному человеку для преодоления своей немощи и достижения господства над окружающим миром".

Фэн Юлань считал, что наука в ее европейском понимании складывается из желания обрести декартовскую достоверность и бэконовскую силу. Эта идея Ф.Бэкона выражалась в формуле "знание - сила". Для китайских же мудрецов это не главное. "Тому, кто нацелен внутрь собственного сознания, не нужна точность, она потребовалась западной цивилизации, начавшей процесс познания мира с материи. Восток избрал иной путь, начав миропознание с проблем сознания и духа". Ссылаясь на мысль Бергсона о том, что если бы наука была приложена прежде всего к проблемам сознания, то она осталась бы нечеткой и пустой, Фэн Юлань делал вывод: "□в Китае нет науки, потому что все направления в китайской философии являются наиболее человеческими и наиболее практическими".

Постепенно Фэн Юлань в своих исследованиях начинает ориентироваться на поиск общего в культурах Востока и Запада. Этот процесс сопровождался отходом китайского философа от бергсонского интуитивизма и обращением к прагматизму и неореализму. Прагматизм с его ориентацией на опыт и действие человека побудили Фэн Юланя взять опыт как то общее, что объединяет людей всех культур. Им приходится взаимодействовать с внешним миром, а их сознание призвано осмысливать это взаимодействие. Поскольку опыт, исключая специфические национальные черты, должен нести общечеловеческое содержание, то возможно предположить, что должно быть общее и в способах духовного освоения этого опыта. Используя методы философской компаративистики, Фэн Юлань осуществляет сравнительный анализ философских традиций Востока и Запада, вычлняя при этом некий "общий знаменатель". Каким образом он это делает?

Предпосылкой работы стало предположение о наличии общих методов решения общечеловеческих проблем, опиравшееся на идею надкультурной всеобщности человеческого опыта. Проблема развития Востока и Запада отошла на второй план: философ поставил задачу выделения внутри западной и восточной философской мысли трех течений: а) следование природе, или "линия уменьшения" человеческих знаний и желаний; б) опора и мир человеческих творений, или "линия увеличения" познаний и материальных благ; в) синтетическая и гармоническая "линия природы и ремесла".

Вычленив эти три течения в сфере надкультурной всеобщности человеческого опыта, Фэн Юлань начал искать эти течения в китайской и западноевропейской философиях. Таким образом, Р.Декарт и Ф.Бэкон, совсем недавно представлявшие Фэн Юланю символами научно-технического могущества западной цивилизации, оказались представителями лишь одного из ее направлений - "линии увеличения" знаний и желаний. Но точно такую же линию мыслитель выявляет и в недрах китайской философии, в частности, "единомышленниками" Декарта и Бэкона оказались Мо-цзы и



Ян Чжу. В свою очередь, Чжуан-цзы был отнесен им к представителям противоположного направления - "линии уменьшения", наряду с Платоном и Шопенгауэром.

В итоге он обнаружил, что "видимо, есть вещи из восточной философии, которые также имеются в истории западной философии, вероятно, есть вещи из западной философии, которые имеются в истории восточной философии" Человечество имеет общее естество, оно также имеет общую проблему человеческой жизни".

Суммируя вышесказанное, мы пришли к следующему выводу. Прошедшие полтора столетия стали эпохой модернизации древних традиционных обществ под воздействием научно-технической цивилизации Запада. Возникла важная проблема судьбы традиционной духовной культуры в ходе усвоения страной иноземных достижений. Развернулся сложный процесс возрождения и пересмысления традиционных систем ценностей, взаимного обмена и взаимного влияния культур Востока и Запада. Во второй половине XIX века в Китае остро встал вопрос о сохранении национальной культурной самобытности в условиях заимствования у западной цивилизации индустриальной экономики и демократической организации политического устройства.

Центральной темой исследования для Фэн Юланя всегда был диалог между восточными и западными философско - культурными традициями. На этом этапе контуры будущего взаимодействия Востока и Запада были довольно непредсказуемые. Философ даже драматично подчеркивал, что одна из возможностей состоит в полном отторжении Западом - Востока; с другой стороны, он был убежден, что когда-нибудь "помудревшая" западная цивилизация обратится к восточной, в частности китайской традиции.

В дальнейшем на формирование новых культурологических взглядов Фэн Юланя повлияли такие направления западной философии, как неореализм и прагматизм. Мыслитель считал, чтобы сделать заключение о единстве опыта людей мира Востока и Запада, необходимо осознать следующую важную философскую предпосылку - признание объективности и общности для всего человечества мира бытия, не зависящего от познающих его индивидуальных сознаний. Неореалистическая идея независимости объекта от знаний о нем и объективного существования не только вещественных, но и логических сущностей, оказала сильное влияние на взгляды и методы Фэн Юланя в последующих философско-компаративистских исследованиях. С другой стороны, прагматический подход ориентировал на сопоставление берущихся как данность различных путей познания истины в китайской и западной философско-культурных традициях. В конечном итоге Фэн Юлань отказался от противопоставления Востока и Запада на основе различий их сознания, образа мышления, и обратился к идее взаимного пояснения и взаимного развития культур, признания их равноправности на основе равнозначности их опыта во взаимодействии с внешним миром.

Список использованной литературы:

1. Буров В.Г. Современная китайская философия. - М.: 1980.
2. Кобзев А.И. Фэн Юлань и современная китайская философия // журнал "Восток", 1998.- № 4.
3. Корнеев М.Я. "Фэн Юлань: Конфуцианство, неоконфуцианство и "новое неоконфуцианство" / История современной зарубежной философии: Компаративистский подход. Т.1. М.: 1995 - С. 158-167
4. Ломанов А.В. Современное конфуцианство: Философия Фэн Юланя. -М.,1996.
5. Ломанов А.В. Судьбы китайской философской традиции во второй половине XX века. Фэн Юлань и его интеллектуальная эволюция // Информационный бюллетень № 1. - Москва: ИДВ РАН, 1998. - 154с. <http://www.ifes-ras.ru/online-library/author/38>
6. Середкина А.В. Современное конфуцианство и западноевропейская философия в их алогичности: опыт философско - компаративистского анализа. док.дисс. - М.:-2005.
7. Fung Yu-lan, The Spirit of Chinese Philosophy (Фэн Юлань. Дух Китайской философии). - London, 1947.
8. Фэн Юлань Юланя 中国哲学简史 (Краткая история китайской философии). -Пекин, 2000.



КАТТА АВЛОД ВАКИЛЛАРИНИНГ ШУКРОНАЛИК ТАРБИЯСИНИ ЁШ АВЛОД ОНГИ ВА ҚАЛБИГА СИНГДИРИШДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ

Муртазаев Лутфулла Муроталиевич

MTS-1 гуруҳ магистри, Тошкент темир йўл муҳандислари институти

Аннотация. Мақолада муаллиф оилада кекса авлод вакиллариининг ёш авлодга маънавий тарбияси, айниқса шукроналик тарбиясини сингдириш масалаларини баён этган.

Калит сўзлар: Оилавий муносабатлар, катталарга ҳурмат, оилавий анъана, маънавий мерос, шукроналик туйғуси.

Оила инсон учун муқаддас даргоҳдир. Оила жамиятнинг муҳим таркибий қисми бўлиб, оиланинг шаклланиши ва ривожланиши жамият ҳаётидаги сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маънавий муносабатлар билан бевосита боғлиқ равишда амалга ошади. Жамият ҳаётида тез-тез бўлиб турадиган ўзгаришлар оилавий муносабатларга ҳам бевосита таъсир этади. Ҳар бир жамият, давлат оилавий муносабатлар мустаҳкам бўлишига катта эътибор беради, уларни маълум ҳуқуқий, ахлоқий мезонлар асосида мустаҳкамлаб, ривожлантириб туради. Президент Ш.М.Мирзиёев таъкидлаб ўтканидек, "...биз учун муқаддас бўлган оила асосларини янада мустаҳкамлаш, хонадонларда тинчлик-хотиржамлик, аҳиллик ва ўзаро ҳурмат муҳитини яратиш, маънавий-маърифий ишларни аниқ мазмун билан тўлдиришдан иборат бўлмоғи зарур." [1] Айниқса бу борада, ёш авлод онги ва қалбига шукроналик туйғусини сингдиришда оила маънавияти беқиёс аҳамият касб этади. Негаки, оила аъзоларининг ҳар бири шахс сифатида муайян маънавий дунёга эга бўлиб, улар ўртасидаги яқин муносабатлар ягона оилавий турмуш натижасида оилада ўзига хос оилавий маънавият юзага келади. Оила маънавиятида ота ва она маънавияти сўзсиз етакчи ўрин тутади. Оила маънавий олами ўзаро ҳурмат, қадрлаш, ҳамкорлик, меҳрибонлик, меҳр-оқибат, катталарга ҳурмат, кичикларга иззат, каби маънавий қадриятларни ўзида мужассамлаштириши муҳимдир. Оила маънавиятининг шаклланишида оилавий удумлар, анъаналар, шажара аجدодлар маънавий мероснинг чуқур ўзлаштирилиши катта аҳамиятга эгадир.

Ҳақиқатдан ҳам уйимизнинг фариштаси қарияларимиз. Улар доимо бизни дуо қилиб ўтирадиган нуронийларимиз бўлишади. Афсуслар бўлсинким, айримлар буни тушуниб етмайди. Буни ҳали ота-онаси тирик бўлганларни кўпчилиги англаб етмайди. Қарияларимиз биздан фақат меҳрдан бошқа ҳеч нима кутишмайди. Зеро, халқимизда "Қариси бор уйнинг, париси бор деган"- нақл ҳам бежизга айтилмаган. Халқимизда, "Қуш уясида кўрганини қилади" деган ҳикматли сўз айнан оила ахлоқининг мазмунини ифодалайди. Инсон ахлоқан ва маънан шаклланиш жараёнида кўплаб ижобий ва салбий таъсирларга учрайди. Унинг ана шу таъсирлар жараёнида салбий оқимга тушиб қолмаслиги кўп жиҳатдан оилага боғлиқ, чунки оила фарзанднинг ахлоқий, маънавий эътиқодини, иймонини мустаҳкам қилиб шакллантирган бўлса, фарзандларга ҳеч қандай салбий иллатлар таҳдид солмайди. Аксинча иймон эътиқоди суст, оила анъаналари қадрланмайдиган оила фарзандларининг салбий таъсирларга тушиши осонроқ бўлади. Шундай экан, ота-онанинг фарзанди олдидаги бурчи унинг моддий эҳтиёжларини қондириш билан бир қаторда, уни иродаси мустаҳкам, мустақил фикрига, дунёқарашига эга, иймон, эътиқодли қилиб тарбиялаш, унга инсонпарварлик, миллатпарварлик туйғуларини сингдиришдан ҳам иборатдир.

Иккинчидан, ёшларда шукроналик туйғусини шакллантиришда оила, мактаб, жамоада, умуман таълим-тарбияни тўғри йўлга қўйиш билан бирга катта авлодга ҳурмат ва эҳтиром билан ҳам белгиланади.

Учинчидан, бугунги глобаллашув жараёнида ёшлар ўртасида маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини янада юксалтириш, мафкуравий иммунитетни оқилона шакллантириш, оммавий маданият кўринишларидан, бузгунчи ва ёт гоёлар таъсирига тушиб қолмаслик чора-тадбирларидан огоҳлантириш, уларнинг ижтимоий масъулиятларини ва шукроналик туйғусини шакллантириш орқали амалга ошади.

Шундай қилиб, мамлакатимиз ижтимоий тараққиёти давомида авлодлар ворислигида воқеалар занжирини кузатганимизда бутун тарихнинг, ҳаётнинг ўзи шукроналик асосига қурилганлигини кўрамиз. Зеро, шукроналик орқали жамиятда тартиблилик, мутаносиблик, белгиланган режа ва вазибаларни адо этишдаги собитқадамлилик ҳиссиёти пайдо бўлади. Аммо, муаммо шундан иборатки,



бугунги кунда ёшлар ўртасидаги айрим ҳолатларда Фарб маданиятининг таъсири кенгайиб бевосита таҳдид этиши туфайли миллий қадриятларимизга катта таъсир кўрсатувчи салбий воқеа ҳодисалар ва кўринишлар пайдо бўлмоқда. "Бугунги тез ўзгараётган дунё инсоният олдида, ёшлар олдида янги-янги, буюк имкониятлар очмоқда. Шу билан бирга, уларни илгари кўрилмаган турли ёвуз хавф-хатарларга ҳам дучор қилмоқда. Фаразли кучлар содда, гўр болаларни ўз ота-онасига, ўз юртига қарши қайраб, уларнинг ҳаётига, умрига зомин бўлмоқда." [2] - деб таъкидлайди юртбошимиз.

Катта авлод вакиллари ёшларда шукроналик туйғуларини шакллантиришда миллий маънавий меросимизни бугунги кун воқелигимиз нуқтаи назаридан баҳолаш ва улардан кенг ва оқилона фойдаланиш, ўтмиш маданиятимизнинг, хусусан миллий маънавиятимизни юксалтириш жараёнида ёшларда шукроналикни шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятларини ҳар томонлама кенг кўрсатиш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик -ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. -Тошкент: -Ўзбекистон, 2017.-104 б.
2. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24-йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. www.press-service.uz.



ВАТАНПАРВАРЛИК ВА МАРДЛИК ТУЙЎУЛАРИ ЮРТИМИЗ МАНФААТЛАРИГА ХИЗМАТ ҚИЛСИН

ТДПУ, Ҳарбий таълим факультети
1-курс 104-гурух талабаси Хуррамов Мансур

АННОТАЦИЯ. Ёшларимизни маънавий баркамол ва ахлоқий фазилатларни тарбиялаш, ватанпарварлик, мардлик мамлакат тақдири учун масъулият ҳисси билан яшаш, юртимиз мустақиллигини мустаҳкамлаш туйғусини янада кучайтиришга, ўғил-қизларимизни ҳар томонлама билимдон ёшларни она Ватанга садоқат ва меҳр- муҳаббат, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат ва эҳтиром, ватанпарварлик руҳида тарбиялаш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: Ватанпарварлик, олийжаноблик, тинчлик, мустақиллик, ота-она, она-юрт, гурур, ифтихор, маҳалла.

Ўзбекистон халқи тинч ва осуда ҳаёт кечирмоқда. Буни кимдир Ватан чегараларининг даҳлсизлигидан билса, кимдир унинг мустаҳкам маънавий кўргони билан изоҳлайди. Бу икки омил уйғунлиги туфайли жаннатмакон юртимизда тотувлик, осойишталик ҳукм сурмоқда. Шу муқаддас Ватан ҳимоячиси эканидан қалбида ифтихор ва гурур туйғуси уйғонган ҳар бир аскар тугилган ери, ота-онаси, севиқли ёри, дўст ва қариндошлари, маҳалладошини қумсайди, Ватан соғинчи мужассамдир.

ВАТАН - бу она юртдир, кишиларнинг яшаб турган, уларнинг авлод ва аждодлари туғилиб ўсган ҳудуди, мамлакатидир. Ватан тушунчаси кенг маънода - бутун бир халқ, уларнинг аждодлари азалдан истиқомат қилиб келган ҳудуд. Тор маънода киши туғилиб ўсган уйи, маҳалласи, қишлоғи назарда тутилади.

Бугунги кунда ёшлар тўғрисида кўпгина фармонлар ва қарорлар уларнинг ижроси юзасидан ишлар олиб борилмоқда. Жумладан, "Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси қошида Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институтини ташкил этиш;

юртимизда турли соҳа ва тармоқларда юксак натижа ва ютуқларга эришадиган йигитларни тақдирлаш мақсадида "Мард ўғлон" давлат мукофотини таъсис этиш;

ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш, ўқиш, меҳнат ва жамоат ишларида ҳар томонлама фаол иштирок этаётган ёшларни тақдирлаш мақсадида "Келажак бунёдкори" медалини таъсис этиш;" каби масалалари кўриб чиқилган бўлиб ҳозирда ёшларимиз ҳаётига тадбиқ этилмоқда.

Ўзбекистонда ёшларни соғлом ва баркамол этиб тарбиялаш, ёшларнинг ўз ижодий ва интеллектуал салоҳиятини рўёбга чиқариши, уларни ҳар томонлама ривожланган шахслар этиб вояга етказиш учун зарур шарт-шароитлар ва имкониятларни яратилган. Узоқни кўзлаган ҳолда қабул қилинган кадрлар тайёрлаш, мактаб таълимини ривожлантириш умуммиллий дастурлари, ёшларга оид давлат сиёсати, ўғил-қизларимиз учун турли йўналишлар бўйича таъсис этилган давлат мукофотлари, бунёд этилган таълим масканлари, болалар спортини ривожлантириш борасидаги ишлар. Буларнинг ҳаммаси баркамол авлодни, демакки, эртанги кунимизнинг муносиб давомчиларини, юрт келажаги жонкуярларини тарбиялашга қаратилган тadbирлар сирасига кирди.

Қувонарлиси, юқоридаги эзгу гоё, мақсадларни амалга ошириш - ёшларни она Ватанга садоқат ва меҳр- муҳаббат, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат ва эҳтиром, ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, ўғил-қизларимизнинг орзу-истакларини рўёбга чиқариш йўлидаги интилишларини бугун барча жабҳаларда ҳар бир соҳада кўришимиз мумкин.

Аслида, ёшларнинг мустақил дунёқараш ва фаол ҳаётий позицияга эга бўлишлари учун ҳар биримиз масъулмиз. Улардаги маънавий ва ахлоқий фазилатларни тарбиялаш, ватанпарварлик, мамлакат тақдири учун масъулият ҳисси билан яшаш, юртимиз мустақиллигини мустаҳкамлаш туйғусини янада кучайтиришга, ўғил-қизларимизни ҳар томонлама билимдон қилишга муваффақ бўла олмагани марра бизники. Ватанимизнинг салоҳияти, маънавий-маърифий, ижтимоий-иқтисодий имкониятлари нечоғли улкан эканлиги, юртимизнинг қадимий ва бой тарихи, улғу аждодларимиз ва улар қолдирган маданий мерос башарият маданияти ва ривожига қўшган улкан ҳиссаси ҳақида ёшларни онгига сингдириб бориш зарур.

Жонажон Ватанимизнинг шонли тарихи саҳифаларини варақласак, аждодларимизни нечоғлик



ватанпарварликларига гувоҳ бўламиз. Улуғ тариқат пешвоси Нажмиддин Кубро юртимиз тарихида буюк ватанпарварлик намунасини кўрсатди. Ватан муҳаббати ила бўлган истакларидан бошқа истакларга қулоқ солмади. Аслида мардлик дастури "қадимий Хуросон, Мовароуннаҳр, Хуросон шаҳарларида Х асрдан жавонмардлик ҳаракати кенг ёйилган бўлиб, улар маънавий-жисмоний етукликка интилар, мардлик ва олийжаноблик намунасини кўрсатар, зулм ва ҳақсизликка қарши курашардилар".

Ватанпарвар фарзандларнинг жасорати, матонати эса доимо тилларда дoston бўлиб, уларнинг сиймоси абадийдир. Элнинг фаровонлиги, аҳволи бевосита у яшайдиган маконда ҳукм сураётган тинчлик, осойишталик, умуман, барқарор ривожланишига боғлиқдир..

Ватанпарварлик - бу Ватан, халқ, оила, қавму қариндош олдидаги масъулият, миллат манфаати билан яшаш, ўз халқининг тарихини яхши билиш ва ундан гурурланиш, буюк аجدодлар томонидан яратилган моддий ва маънавий меросни кўз қорачиғидек асраб, келгуси авлодларга етказиш, аждодлар урф-одат, расм-русум ва удумларини, меросини ўрганиб, унинг қадриятга айланган қисмини давом эттириш, давлатимиз келажаги, истиқлолнинг барқарорлиги, келажакнинг буюклигини чин дилдан ҳис этиш, шундай келажакни барпо этишга астойдил кўмаклашиш, жонажон Ватаннинг эртанги кунини, истиқболи, тараққиёти, миллат обрўсига ҳисса қўшиш, фойда келтириш, корига яраш, фидойилик, ҳалоллик билан меҳнат қилиш, халқнинг шон-шухрати ва манфаатини ўйлаш, инсонпарвар, халқпарвар бўлиш ва шунга ўхшаш юзлаб фазилатлар каби хусусиятларни англатади.

Ўз навбатида биз Ватанга бўлган муҳаббатимизни ватанпарвар ва миллату мамлакатга хизмат қиладиган фарзандларни тарбия этиш билан кўрсатишимиз мумкин. Зеро, қўним топган жойимиз, Ватан деб билган шу юрт учун қанчадан-қанча инсонлар жони фидо бўлди.

Ватан - ягонадир, Ватан - биттадир, деган ғояни шу мўтабар заминимизда яшаётган ҳар қайси инсон, униб-ўсиб келётган авлодларнинг онги ва тафаккурига сингдириш, уларнинг ҳаётий эҳтиёжига айлантиришни энг устувор мақсадлари деб билмоқлари керак.

Зотан, жаннатмонанд улуғ она Ватанимизни севмоқ, равнақи учун фидокорлик қилмоқ, унинг тинчлиги ҳимоясида бўлиш ва асраб-авайлаш ҳар биримизнинг муқаддас бурчимиздир!

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати:

1. "Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 5 июлдаги ПФ-5106-сон Фармони. "Халқ сўзи" газетасининг 2017 йил 6 июлдаги 132 (6826)-сони.

2. Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи Султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. -Тошкент, "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. -Б. 3.



ИСЛОМ ДИНИДАГИ МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЁШЛАР ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ

Эшанова Гулчеҳраҳон Нумоновна
Низомий номидаги ТДПУ Ўзбекистонда Демократик жамият
қуриш назарияси ва амалиёти кафедраси доц.в.б., ф.ф.н.
Ҳарбий таълим факультети 1-курс
104-гурух талабаси Хуррамов Мансур

Аннотация. Ушбу мақолада ислом динининг асл инсонпарварлик моҳиятини, эзгулик, тинчлик ва инсонийлик каби фазиларлар азалий қадриятларимиз ифодаси эканлигини кенг ёритиш. Шунингдек, ислом динидаги ота-онага ҳурмат, ёши улуғ кишиларга, устозга ҳурмат, меҳр-оқибат, тинчлик ва тотувлик каби маънавий қадрият масалаларини ёшлар дунёқарашига таъсири таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: ислом, қадриятлар, маънавият, шарқона ахлоқ, инсонпарварлик, ота-онага ҳурмат, Қуръон, ҳадис, жамият, дунёқараш.

Қадрият бу аввало инсон ва жамият манфаатлари билан боғлиқ экан улар учун фойдали аҳамият касб этган нарса ва ҳодисалар ва уларнинг хусусиятлари тушунилади. Қадимдан қадриятлар барча дунё ҳалқларида мавжуд бўлган. Бу қадимдан мифология тарзида кишиларнинг яхшилик ва гўзаллик, ўлим ва мангулик, дўстлик ва қахрамонлик, муҳаббат ва садоқат каби қадриятлар ҳақида тасаввурлари, хулқ-одоб нормалари ва урф-одатларининг шаклланишига катта таъсир кўрсатган. Шунингдек, авлодлар ўртасидаги маънавий ворисийликни, жамиятда ахлоқий қадриятларни шакллантиришга, сақлаб қолишга хизмат қилган.

Умуман олганда ҳақиқий диний дунёқараш, инсонга, жамиятга ахлоқий фазилатлар орқали маънавий комилликка етишишга ёрдам берган.

Шундай экан бугунги кунда, ислом динининг асл инсонпарварлик моҳиятини, эзгулик, тинчлик ва инсонийлик каби фазилатлари азалий қадриятларимиз ифодаси эканлигини кенг ёритиш, жамиятда бағрикенглик, ўзаро ҳурмат, меҳр-оқибат, тинчлик ва тотувликни, ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлигини таъминлаш долзарб аҳамиятга эгадир.

Ислом динида ҳам инсон фаолиятини йўлга солувчи тамойиллар, ёндашувлар, қадриятлар тизими мавжуд.

Қадрият инсон ва жамият манфаатлари билан боғлиқ, улар учун фойдали аҳамият касб этган нарса ва ҳодисалар экан, айни вақтда қадриятлар тизимининг энг юқори чўққисини мутлақ қадрият ташкил этади. Диний дунёқарашда бу - худо. Дунёвий фалсафада эса - комил инсондир.

Қадриятларга амал қилиш жамият аъзоларининг маънавий камолоти, ижтимоий, миллий онг етуклиги катта аҳамиятга эга.

Маънавий жиҳатдан етук шахс, жамият миллий, умуминсоний ҳамда диний қадриятларнинг мазмуни ва моҳиятини тўғри баҳолаш имконига эга бўлади.

Маънавиятга эътиборсизлик бу барча ижтимоий иллатларнинг сабабчисидир. Жамиятда буюк қадриятлар, маънавият бўлмаса, улар ўз қимматини йўқотади.

Ўзбек халқининг бетакрор маданияти, азалий маънавияти, ахлоқий камолоти айрим ёшларимиз орасида ватансизлик, эгоцентризм, беҳаёлик иллатларини ёйилишига йўл қўймайди.

Маънавий қадриятларга аввало, инсон одоби, билимлари, истеъдоди, қобилияти, амалий малакалари, виждони, иймони, эътиқоди, дунёқараш қадриятлар тизими мезонидир.

Ёшларимизда қадрлаш туйғусини шакллантириш ва тарбиялаш ҳозирги кунда жуда муҳим. Бу туйғу инсонга она сути, ота васияти боболар ўғити, авлодлар ёди, мозий сабоқлари билан мерос бўлиб ўтади ва бутун ҳаёти давомида тарбияланиб шаклланиб боради.

Маълумки, ислом дини билан боғлиқ қадриятлари ахлоқий, ҳуқуқий қадриятларнинг кўплари Қуръони Каримда ва ҳадисларда ҳам катта ўрин олган. Ислом таълимотига кўра, Қуръон Аллоҳ таолонинг сўзи ва унинг азалий илмидир.

Муҳаммад пайгамбарнинг айтган сўзлари, қилган ишлари ёки у кишига берилган сифатларни ўзида мужассам қилган хабар ва ривоятлар Ҳадислар деб юритилади. Ҳадисларда шундай дейилади, "Мевали шоҳ эгилади. Мевасиз дарахт гўлдайиб туради. Пайгамбар ҳам жуда камтарин бўлган. Чунки ҳар икки оламнинг мевалари унда мужассам эди. Салом бериш борасида Оллоҳнинг Элчисидан устун бўлолмаган. Пайгамбаримиздан олдин биров салом беришга улгурмаган. Чунки у



хокисор бўлгани сабабли ҳар сафар ўзи бошлаб салам берарди. Атрофдагилар салам беришни пайғамбардан ўрганган эдилар." Хадислар бизга қадрият сифатида ижтимоий ҳаётимизда амал қилишимиз зарур бўлган ахлоқ нормаларидир.

"Бунда қадриятларнинг регулятив функцияси ва маънавий мезон сифатидаги аҳамияти яққол намоён бўлади."

Хадисларда баён қилинган ахлоқий нормалар инсон камолотига катта ижобий таъсир кўрсатиши шубҳасиздир. Муҳаммад алайҳиссаломнинг кўпгина ахлоқий фазилатлари, оиласига, фарзандларига, ёру дўстларига муносабати ҳам хадисларда катта ўрин олиб, тарбиявий аҳамиятга эга бўлган қадриятларга айланган. Хадисларда, шаърий ҳуқумларда ўртага ташланган барча ахлоқий ва ҳуқуқий қадриятлардан ҳозирги кунда ҳам жамиятимизда маънавий ахлоқий дунёқарашимизга ижобий таъсир этиб келмоқда.

Динлардаги ижтимоий, маънавий аҳамиятга эга бўлган кўплаб қадриятларни фанатизмдан, бидъат ва хурофотдан ажрата билмоқ учун аввало, диний қадриятларнинг нақадар инсонпарварлигини, олимлар, маърифатпарварлар ҳақиқий ижтимоий ва маънавий камолотнинг муҳим заминига айлантиришга ҳаракат қилиб келганлар.

Ислом дини қадриятларининг муҳим таркибий қисмларидан бири бу кекса ёшли кишиларга иззат-ҳурмат кўрсатишдир. Оилавий аъёнларда ҳам кексаларнинг қарорлари ва маслаҳатларига қулоқ тутадилар. Байрамларда, ҳайитларда кекса қариндошлар, ота-оналарни зиёрат қилиш, уларга совға-саломлар ва ноз-неъматлар олиб бориш, кўнглини сўраш ананаси сақланиб қолмоқда. Ота-она ва кекса ёшларларга гамхўрлик қилиш муҳим. Шунингдек, беваларга, етимларга, ёрдам бериш "савоб иш" ҳисобланади.

Хадислар ўз даврида ахлоқий кодекс вазифасини бажарган ва қадриятга айланган. Ҳозирги кундаги ҳам маданиятимизнинг таркибий қисмига айланиб бўлган.

Айниқса ислом динида ота-онани эъзозлаш фарзандлик бурчи ҳисобланади. Жумладан, хадисларда келтирилишича, "Бир яманлик одам ўз онасини опичлаб, хонаи Каъбани тавоф қилдириб юрганини кўрдилар. У одам қуйидаги байтни оҳанг билан ўқирди:

Онаи зорим учун бўйнимни эгган теваман.

Тевага минган онам ҳорсалар ҳам мен чарчамам.

У шуни ўқиб туриб Абдуллоҳга қарадида, Эй Абдуллоҳ ибн Умар, мана шу хизматим билан мен онамнинг ҳаққини адо қила олмадимми, деб сўради. "Йўқ, бу хизматинг билан сени туғиш вақтида онангни қийнаб тутган тўлғоқларнинг биттасига ҳам баробар эмас",-дедилар.

Жамиятда аёлнинг ўрни, қадр-қиммати, иймон-этиқоди ҳақидаги хадисларда баён этилган фикрлар йўл-йўриқлар асос бўлиб хизмат қилган.

Улуғ мутафаккир Алишер Навоийнинг кўпина асарларида ҳам ота-она, аёл қадрият сифатида улуғланган. Унда Алишер Навоийнинг "Насойимул муҳаббат" асарида шундай дейилади: Бир киши Шайхдан ҳаж ниятим бор деб айтади. Шунда Шайх онанг борми? Деб сўрайди. У ҳа бор деб жавоб беради. Шайх: ёниб онанг мулозаматига бор. Мен 50 ҳаж қилибман, бош яланг, оёқ яланг ва зоду хамроҳсиз. Барчасин сенга бердим, сен онинг кўнгил шодлигин менга бер!" -каби хадислар ислом динидаги маънавий ахлоқий қадриятларимизнинг замонлар оша бизга хизмат қилаётгани айни ҳақиқат.

Ислом динида авлиё даражасига кўтарилган кишилар ҳаётдан олинган хикоялар, хадислар маънавий ахлоқий тарбия учун аҳамияти катта.

Маънавий маданиятимизнинг шарқона илдишлари ислом динига бориб тақалар экан, ҳозирги глобаллашув даврида унинг имкониятларидан фойдаланишимиз муҳим. Чунки, қадриятлар жамият ва инсон фаолиятига таъсир кўрсатади. Маънавий мезон сифатида бошқарувчи, кишилар хатти - хакакати, турмуш тарзини тартибга солувчи сифатида фаолиятини йўлга солади. Инсонда маънавий маъсулият, жамиятга, оилага, инсонга қадриятли муносабатни шакллантиради.

Инсоннинг қалби ва онгини эгаллашга, ёшларнинг маънавий дунёсига турли таҳдидлар кучайиб бораётган бугунги кунда ўзининг бебаҳо меросини теран англаб, она юртга муҳаббат ва садоқат ҳисси билан яшайдиган, имон-этиқоди мустаҳкам ёш авлодгига муқаддас заминни ёт ва бегона таъсирлардан, бало-қазолардан сақлашга, Ватанини ривожлантиришга қодир бўлади. Шундай экан ёшларни тарбиялашда ислом динидаги асл инсонпарварлик ғоялари, юксак маънавий ахлоқий қадриятларларни мазмун моҳиятини тўғри тушуна билиш, аждодларимиз меросидан фойдалана олиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Ҳалқимизнинг ахлоқ ва одоб ҳақидаги қадриятлари минглаб йиллар давомида шаклланиб, ривожланиб борган исломдаги маънавий қадриятлар, буюк мутафаккирларнинг маънавий ахлоқий қарашлари, фикрлари миллий маънавиятимизга асос бўлиб хизмат қилди. Булар иймон этиқодилик,



андишалилик, халоллик, поклик, бировнинг ҳаққига ҳиёнат қилмаслик, ота онага меҳрибонлик, инсонни қадрлаш, устозларга ҳурмат, меҳмондўстлик, саҳоватпешалик каби қадриятлардир.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, ислом динининг муқаддас китоби Қуръонда таърифлаб берилган илоҳий қадриятлар ҳалқимизнинг маданиятига ниҳоятда катта таъсир кўрсатган. Қуръондан кейинги муқаддас манба сифатида имом Бухорий, ат-Термизий каби буюк хадисшуносларнинг ислом маданиятига қўшган хиссаси беқиёсдир. Айниқса, тасаввуф таълимотида комил инсоннинг ахлоқ кодекси ишлаб чиқилган бўлиб, Алишер Навоий каби буюк мутафаккирларнинг тасаввуфий қарашларида комил инсон ҳақидаги қарашлари диний қадриятлар мезони сифатида тушунтирилади. Исломи динидаги маънавий қадриятларнинг асл инсонпарварлик, маърифатпарварлик, умуминсонийлик, бағрикенглик каби қадриятларининг моҳиятини ёшларга тўғри тушунтириш бугунги кунда нафақат миллат балки, умуминсоният олдидаги муҳим масалалардан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Қаранг: Lex.uz. © Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги "Адолат" ҳуқуқий ахборот маркази "Диний маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 апрелдаги ПФ 5416-сонли фармони.
2. Мавлоно Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадир: Фалсафий асар. // Маъсул муҳарир Н.Комил. -Т.: Ёзувчи. 1997. - Б. 95.
3. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси. (Аксиология) - Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2004. - Б.44.
4. Имом Исмоил Ал-Бухорий. Ал-Адаб ал-муфрад. (Адаб дурдоналари) - Тошкент: Ўзбекистон, 1990. -Б.13.
5. Комилов Н. Тасаввуф. - Т.: "Movarounnahr"- O'zbekiston, 2009. -Б.131.



ЁШЛАРДА ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ.

Ў.Каримов, ФарДУ ўқитувчиси,
Н.Хасанов, ФарДУ талабаси

Аннотация: ушбу мақолада ватанпарварлик туйғуси ижтимоий нуқтаи назардан ёритиб берилган. Шунингдек, ёшларда ватанпарварлик руҳини шакллантириш омиллари очиб берилган.

Калит сўзлар: ватан, ватанпарварлик, таълим-тарбия, фаоллик

Ўзбекистон тарраққиётининг янги босқичида кузатилаётган ҳозирги жараёнлар бир ижтимоий тузумдан, иккинчисига ўтиш муқаррар равишда кучли ижтимоий-сиёсий фаоллик асосида амалга оширилиши ҳеч кимга сир эмас, кўпчилик бу жараёнга табиий ҳолат сифатида қарашмоқда. Ана шу табиийлик жамият аъзоларини айниқса онгги, тафаккури ҳали тўла шаклланиб улгурмаган ёшларнинг ҳаётида бир мунча қийинчилик билан амалга ошади. Чунки, ёшлар ижтимоий-сиёсий онгини ўстириш ва янгича дунёқарашини шакллантириш масалалари маънавий етукликка асосланган ҳамкорлик, ҳамжиҳатлик, ҳамфикрлик омиллари турли инқирозли ҳолатлар, тўқнашувларнинг олдини олиш жараёнида намоён бўлади. Бу эса тараққиётнинг тадрижийлигига олиб келади.

Шиддат билан ривожланаётган ҳозирги давр "Ёшларимизга муносиб таълим бериш, уларнинг илм-фанга бўлган интилишларини рўёбга чиқаришимиз керак. Шу мақсадда мактабгача таълим тизимини ривожлантиришимиз, ўрта ва олий ўқув юрларининг моддий-техник базасини, илмий ва ўқув жараёнлари сифатини тубдан яхшилашимиз керак"[1,8] бўлади. Яъни ёшларни Ватанга бўлган муҳаббатини маърифатга эътибор билан амалга ошириш мақсадга мувофиқ эканлиги ойдинлашади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 августдаги "Ўзбекистон Республикаси Қуроли Кучлари ҳарбий хизматчиларининг маънавий-маърифий савиясини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида"ги 3898-сон қарори қабул қилинди. Шу муносабат билан Ўзбекистон Республикаси Қуроли Кучлари тизимида ҳафтанинг ҳар Жума куни "Маънавий юксалиш ва ватанпарварлик куни" деб белгиланди. Ёшларда ва ҳарбий хизматчиларда жасурлик, мардлик, фахр ва ифтихор туйғуларини ошириш, ҳарбий хизматчилар ва уларнинг оила аъзоларининг маънавий-маърифий билимларини мустаҳкамлаш, уларда ватанпарварлик, Ватанга муҳаббат, миллий ғояга содиқлик туйғусини шакллантириш мақсад қилинган.

Мамлакатимиз аҳолисининг қарийб 65 фоизидан кўпроғини ташкил этувчи ёшлар катта ижтимоий-сиёсий куч эканлиги бир томондан давлат зиммасига улкан масъулият юкласа, иккинчи томондан эса ёшларга оид мақбул сиёсат юргизиш натижасида ижобий имкониятлар юзага чиқади. Яъни, ёшларни ҳаётга тўғри йўналтириш, уларга ўзларини ҳаётда ўз ўрнини эгаллаши учун моддий ва маънавий шароит яратиб бериш асносида ёшлар ва давлат ўртасидаги муносабат мустаҳкамланади. Бу табиий равишда ёшларнинг Ватанпарварлик туйғусини хис қилишлари ва уни юксалтиришлари учун хизмат қилади. Давлат томонидан ёшларга нисбатан юритилаётган бундай сиёсат бевосита ёшларнинг ўз ҳуқуқлари ва бурчларига риоя қилиш масъулиятини оширади. Глобаллашув даврида мазкур механизмни мамлакатимизда амал оширилиши мавжуд ижтимоий-сиёсий муаммоларни ҳал этилишига сабабчи бўлади. Жамиятда "инсон-жамият-давлат" тарзидаги формула Конституциявий асосга боғлиқдир. Негаки, дастлаб инсоннинг иродаси кейин жамиятнинг иродаси ва сўнгра давлат иродасининг ифодаланиши умумбашарий демократиянинг муҳим талабларидан биридир. Инсон тушунчаси замирининг асосини ёшлар ва уларнинг фаоллик даражаси ташкил этиши табиий. Шу нуқтаи назардан, бизнингча ушбу асосимиз глобаллашув шароитида ёшлар сиёсатида ватанпарварлик туйғусини шакллантириш ва юксалтиришнинг долзарблигини белгилайди.

Бугунги глобаллашув ва модернизация жараёнларида ҳеч бир жамият, давлат ўзича яшай олмайди. Шундай экан, уларнинг ижобий ва салбий таъсирлари ижтимоий ҳаётда, айниқса мамлакатнинг истиқболлини белгилашда ўз таъсир кучини кўрсатмоқда. Айниқса, турли йўللار билан ёшларимизни ўз таъсир доирасига олишга уриниётган оқимлар, "оммавий маданиятлар" ёшларимизда миллий ўзликдан бегоналашиш, ватансизлик, лоқайдлик ва шу каби иллатларни келтириб чиқаришга қаратилмоқда. Бундай замонавий таҳдидларга қарши тура олиш мамлакатнинг стратегик мақсад ва вазифаларини амалга оширишда миллий ғоя ва унинг асосий тамойилларидан ҳисобланган миллий маънавий мерос ва ислом маданиятидан баҳоли қудрат оқилона фойдаланиш замон талабидир. Зеро,



"... тарбиявий - ахлоқий масалаларда, маънавий ҳаётда, керак бўлса, миллий манфаатларимизга мос келадиган сиёсатни изчил олиб боришда ўз йўлимизни йўқотмаслигимиз учун ҳеч қандай гоёвий бўшлиққа йўл қўймаслигимиз даркор"[2,526]. Дунёнинг мафкуравий манзараси ҳозирда жуда мураккаблашиб кетди. Унда таъсир кучига эга бўлишни энг мақбул йўли сифатида, маблағ қанча кетишидан қатъий назар йирик ахборот тарқатувчилик мавқеини эгаллаш эканлиги ҳозирда сир бўлмай қолди.

Жамият ва давлат тараққиётининг ҳозирги босқичи ҳуқуқий муносабатлардаги иштирокчиларнинг ҳуқуқий маданияти, ҳуқуқий саводхонлигини ҳар томонлама оширишни тақозо этмоқда. Шунинг учун ёшларнинг ҳуқуқий муҳофазасига ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимларини янада кенгроқ жалб этиш керак. Бунинг учун жойларда, ўқув юртларида ёшлар ўртасида ҳуқуқий мавзуда суҳбатлар, вақтли матбуот нашрлари ва оммавий ахборот воситалари орқали кўпроқ чиқишлар қилиш талаб этилади.

Хулоса сифатида ёшларнинг ватанпарварлик руҳида тарбиялаш бугунги кунда яна ҳам кенг миқёсида авж олиши шароитида таълим-тарбиянинг уйғунлигида амалга оширилса мақсадга мувофиқ. Чунки, агар таълим тарбиядан ажралган ҳолда, яъни ёшларга фақат билим бериш билан чекланадиган бўлсак, уларни ана шу билимларни эгаллашлари мумкин, аммо ватанпарварлик, миллатпарварлик ота-она, маҳалла олдида масъулият каби қадриятлардан бебахра бўлиб қоладилар. ёшлардан катта масъулият талаб этиладиган ватанпарварлик туйғусини давлат ва жамият учун энг муҳим тушунча эканлигини ҳеч қачон унутмаслигимиз керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28 декабрь 2018 йил. Тошкент. "Ўзбекистон". 2019.
2. Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. - Т.: Ўзбекистон, 2000.
3. Абу Наср Фаробий Фозил одамлар шаҳри. Тошкент. Янги аср авлоди. 2016.



JALOLIDDIN RUMIY ASARLARINING G'UYALAR KO'LAMI VA FALSAFIY QARASHLAR

**Farg'ona viloyati Rishton tumani 10-umumta'lim maktabi o'qituvchisi
Olimova Nazokatxon Raxmataliyevna**

Anatatsiya: ushbu maqolada Jaloliddin Rumiylarning asarlarining g'oyaviy ko'lami va falsafiy qarashlari o'rganilgan va tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, e'tiqod, tafakkur

Annotation: in this article the ideological scope and philosophical views of Jaloliddin Rumiylarning work have been studied and analyzed.

Key words: mysticism, belief, mentality

Tasavvuf asrlar osha kishilarni sog'lom e'tiqod, yuksak ma'naviyat irfoniy tafakkur, ma'rifat va madaniyatga chorlagan va tarbiyalagan. Tasavvufiy qarashlarning yaxlit ta'limotga aylanib, islom o'lkalariga keng yoyilib ketgani bu yaqqol namoyondir. Ayni shu ta'limotga o'xshagan falsafasiga ega bo'lgan shaxs Mavlono Jaloliddin Rumiylarning bo'ladi. Uning yuqorida keltirilgan asarlarida ham ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy mushohadalari o'z aksini topgan.

Jaloliddin Rumiylarning majoziy ishq bilan ilohiy sevgini shu darajada yuqori pardada tasvirlaydiki, professor R.Hodizoda ta'kidlaganidek, "o'quvchi g'azallarning so'fiyona ma'nosini batamom unutib, ularni lirik she'riyatning tengsiz na'munalari" sifatida qabul qiladi. Shoir aksariyat she'rlarida ayriliq dardini ham, oshiqning yoriga iltijosi-yu husn-u kamolini ham ajib bir jozibada tasvirlaydi:

Az ruzu lab gulshakar bisyor dorad husni tu.

Koshki bifro'xti, to porae bixaridame.

(Sening husning - yuzing lablaring gulshakar manbaidir,

Koshki sotsang edi, biroz xarid qilgan bo'lardim).

Mazkur g'oyalar ta'sirida Navoiy ijodida ham Oллоh jamolini yor vaslida ko'rish, ya'ni zohiriy tasvirlar orqali ilohiy sevgini tarannum etish usulini ko'rishimiz mumkin:

Olmag'on bo'lsa chuchuk jonim labi birla ko'zi,

Ham shakarxandig'a boqing, ham shakarxobin ko'rung.

Asar "Xutba"sida mavlononing o'zi izohlashicha: "Bu yuraklarga malham bo'lguvchi, g'am-g'ussalarni ketgazuvchi, "ulug' itoatli mirzolar qo'llari" bilan bitilgan, "tahoratli pok kishilar"dan boshqalarning ushlab harom etilgan, "oldidan ham, ortidan ham hech qanday botil-nohaqlik kelmaydigan", rizq-ro'zni mo'lik qiluvchi, axloqni poklaguvchi va yaxshilaguvchi Qur'oni karim ma'nolarini kashf etguvchi kitobdir". Jaloliddin Rumiylarning tasavvufga yuz tutgani sababini Rasul Hodizoda Shams Tabriziylarning talqinidan deb bilsa yana bir sababini XII-XIII asr donishmandlarning nufuzli ta'sirilaridan deb bilar edi. Chunki u rasmiy dinda falsafiy mulohazalarni ko'rolmasdi. O'sha zamonda ozod fikrlashning yagona yo'li faqat tasavvufga yuz tutish edi. Chunki bu jarayon falsafiy va ijtimoiy tafakkurda o'z aksini topgan edi. Barcha donishmand va olimlar tasavvuf tariqatlariga o'z moyilliklarini bildirar edilar. Jaloliddin Rumiylarning din mazhablari va marosimlarini rad etib, barcha jahon xalqlarini bir umuminsoniy mazhabga sig'inishlari tarafdori edi va shu orqali xalqlar do'stligini targ'ib etardi.

G'azal insonning ruhiy jismoniy his hayajonini ifodalovchi bir janrdir. She'rning bu janri qadimdan his- hayajon va insonlarni bir-birlariga bo'lgan mehr muhabbatlarini ifodalab kelgan. Tasavvufning asosiy vazifalaridan biri ham shundan iborat edi. G'azal esa bu buyuk shaxsning o'z diniy irfoniy fikrlarini yetkazib berishiga bir sabab edi. Mavlono gacha g'azal orqali ishqni kuylagan bo'lsalar, endilikda u g'azaldan umuminsoniy fazilatlarini komil insonning hissiyotlari yoritishda foydalandi. Jaloliddin Rumiylarning o'zining ko'p vaqtini suhbatlar va so'fiyona samo raqsida o'tkazib Haqning jamoliga yetishishni istardi.

Buyuk mutafakkirga olamshumul shuhrat keltirgan asar "Masnaviy ma'naviy" kitobidir. Bu asarning o'ziga xos yaratilish tarixi bo'lgani kabi, unda ifodalanyotgan masalalar qamrovi ham juda kengdir. Yeti jildidan iborat asarning dastlabki qismlarini shogirdi Hisomiddin Chalabiy ustoziga o'zidan yozib olib keyin tahriridan o'tkazgan. Chalabiy vafotidan so'ng Rumiylarning asar davomini o'n yilda yozib tugatdi. Asar o'z vaqtida va keyinchalik ham muallif nomi dunyoga keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Chunki, birinchidan, Jaloliddin Rumiylarning masnaviyda Sharq-u G'arb olimlarning, hatto antik dunyo faylasuflarning falsafiy qarashlarini keng



o`quvchilar ommasiga tushunarli va sodda bir uslubda she'riy yo`l bilan ta'riflab beradi. Ularni islomiy ahkomlarga yo`g`irib, Qur'on va hadislardan keltirib o`tadi. "Tadqiqotchilar "Masnaviyi ma'naviy"da Rumiylar Qur'oni Karimga 760 marotaba murojaat etganligini aniqlashgan. " . Ikkinchidan, u o`zining ijtimoiy - falsafiy, diniy, so`fiyona qarashlari badiiy ifodasi jarayonida juda ko`p hikoyat, afsona, masal va latifalardan foydalanadi. Sanoiy va Attor kabi shoirlardan farqli o`laroq, Rumiylar hikoyatlarida ilohiy va irfoniy tafakkur in'ikosi bilan birga hayot haqiqatiga yaqinlik aniq seziladi. Masalan, "Baqqol va to`tining yog`ni to`kib yuborishi", "Savdogar va uning to`tisi", "Saxovatda Hotami Toydan o`tgan xalifa", "Qavziniyning kuragi ostiga naqsh tushirishi", "Karning bemor qo`shnisini ko`rishga borgani", "Luqmon va qullar", "Muhtasib va mast" kabi yuzlab hikoyatlarida jaloliddin Rumiylar noshudlik, g`irromlik, tuhmat, kaltafahmlik, takabbur, sudxo`rlik, poraxo`rlik, badnafslilik singari g`ayriinsoniy xatti-harakatlarni qattiq qoralab, aql-u farosat, sabr-toqat, rostgo`ylik, halollik, kamtarlik, saxovatpeshalikni targ`ib etadi. Bugungi kun nuqtayi nazaridan olib qaraydigan bo`lsak, Mavlono Rumiylar o`sha davrda aytgan fikr va g`oyalari jamiyat uchun tamal tosh bo`lib kelyapti. Buni biz har bir sohada ko`rishimiz mumkin. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich ham har so`zlagan nutqida yuqoridagi illatlarni gapirib o`tadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mavlono Rumiylar insonni, avvalo, ko`zini ochishga va ochilgan ko`zlar bilan o`z mohiyatiga nazar tashlashga undaydi, insonning o`zi bir butun olam ekanligini uqtiradi.



YOSHLAR TARBIYASIDAGI QADRIYATLARNING O'RNI

Abdulaxatov A.R. Tosh.vil.CH.D.P.I. dotsent v.b.
Juraboyev M.M. Tosh.vil.CH.D.P.I. Talaba.

Annotatsiya: Jismoniy tarbiya va sport yoshlarni nafaqat jismoniy balkim har tomonlama aqliy-axloqiy, siyosiy-g'oyaviy tarbiyalash uchun ham katta imkoniyatlarga ega. Uning uchun ham hozirgi kunda vatanimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uni yanada ommalashtirish, aholi turmish tarziga singdirib boorish uchun katta amaliy tadbirlar qilinmoqda

Kalit so'zlar: milliy sport, kurash, umuminsoniy qadriyat, jismoniy tarbiya

Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda va barkamol kamol topishida milliy sport turlarining xususan kurashning ro'li va o'rni kattadir. Kurash sporti qadimiy sport turlaridan biridir. Kurash o'zining muayyan tarixiga ega bo'lib, u doimiy ravishda xalqimiz tamonidan mazmunan boyitilib, har tamoniama ezozianib kelinmoqda. Qadimiy salnomalarda yozilishicha eramizdan oldingi davirlarda ham kurash, ommaviy musobaqalar tarkibidan munosib o'rin olganligi haqida bitiklar mavjud. Kurash sporti dunyoga tanitish bo'yicha hozircha bir qancha ilmiy-amaliy ishlar bajarilmoqda. Bu ijobiy ishlarning mantiqiy davomi sifatida birinchi galda O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning 1999-yil 1-fevralda „Xalqaro kurash assotsiatsiyasi qo'llab quvvatlash to'g'risida“gi farmoni bunga yaqqol misol bo'la oladi. O'z vaqtida qabul qilingan bu farmon kurashning butun jahonga keng quloq yozishiga xizmat qiladi. Bu farmonning ahamiyati kurashni yanada rivojlantirishdagi o'rni hususida xalqaro kurash assotsiatsiyasining birinchi prezidenti Komiljon Yusupov quyidagicha fikr yuritadi; Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasining tashkil etilishi, shunchaki oddiy hodisa emas. Unga yuzaki qarab ham bo'lmaydi. Bu voqea nafaqat kurash tarixida, balki butun dunyo sport olamida olamshumul ahamiyat kasb etadi. Bir so'z bilan aytganda, kurashni dunyo tanidi.

Jismoniy tarbiya va sport yoshlarni nafaqat jismoniy balkim har tomonlama aqliy-axloqiy, siyosiy-g'oyaviy tarbiyalash uchun ham katta imkoniyatlarga ega. Uning uchun ham hozirgi kunda vatanimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uni yanada ommalashtirish, aholi turmish tarziga singdirib boorish uchun katta amaliy tadbirlar qilinmoqda. Bunday ijobiy ishlarni amalga oshirishda birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbuslari bu borada ko'plab farmon va qarorlar qabul qildiki, ular hozirgi kunda o'zining amaliy ahamiyatini ko'rsatib kelmoqda. Birinchi prezidentimiz tashabbusi bilan respublikamizda milliy sport turlarini rivojlantirish va uni jahonga olib chiqish borasidagi ishlarni alohida takidlash joiz. O'zbek xalqining to'laqonli milliy qadriyatlari aks etgan kurashda xalqimizning ruhiyatiga asl hislatlariga azal-azaldan xos bo'lgan fazilatlar mardlik, jasurlik, bag'rikenglik, halollik, insonparvarlik falsafasi va g'oyasi mujassamlashgan. Kurash yoshlarda nafaqat jismoniy, axloqiy, ma'naviy, insoniylik fazilatlarini talab etuvchi balkim o'zbek millatining o'ziga xos milliy qadriyatlari, ularning ongiga singdiruvchi vosita hamdir. Shuning uchun ham hozirgi kunda kurash sporti orqali yoshlarni nafaqat jismoniy rivojlantirish, balki ularni ma'naviy, aqliy, axloqiy o'zbeklarga xos insoniy fazilatlarini tarbiyalash kabi muhim sifatleri ahamiyatlidir. Kurashga milliy qadriyat sifatida qarash, uni har tomonlama chuqure o'rganish va yoshlar tarbiyasida undan samarali foydalanish dolzarb muammo sanaladi. Kurash allaqachon dunyo sporti turlari qatoridan munosib o'rin oldi. Kurash bilan dunyo mamlakatlari bolalari va yoshlari sevib shug'ullanmoqda. Ya'ni kurash endilikda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlanib borishi tamoillariga ko'ra milliylikdan mintaqaviylikga undan umuminsoniylikga o'tdi. Kurash endi nafaqat milliy qadriyat, balki u butun dunyo xalqlariga xizmat qiluvchi umuminsoniy qadriyat darajasiga yetdi, zero kurashni umuminsoniy qadriyat ekanligi uning tarixi falsafasi va g'oyalari o'z aksini topgan.

O'zbek xalqi kurash sportini insonni jismoniy tarbiyalash vositasi deb qaraydi. Xalq o'zida kuchlilikni, irodav botirlikni mehnatkash xalqning axloqiy sofligini mujassamlashtirgan kurashga, polvonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lar edi. Tomirlarida ne-ne Alp pahlavon bobolarimiz qoni oqayotgani; isbot qilgan kurashchilarimiz soni tobora ortib bormoqda. Ulardan Kamol Murodov, Baxrom Avazov, Akobir Qurbonov, Isoq Ahmedov, Furqat Mamatov, Rishod Sobirov, Olim Ravshanov, va boshqalar eli, yurti, xalqining shon-shavkatini jaxonga ko'z-ko'z qildi. Bu milliy qadriyatimizning o'rni beqiyosligidan dalolatdir. Davlatimizning birinchi prezidenti tomonidan belgilab berilgan yuksak maqsadimiz-jismoniy yetuk, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan



avlodni voyaga yetkazish yo'lida sport eng muhim va samarali vositaga aylangan.

Kurash millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlardir. Yer yuzida o'zining milliy qadiryati bo'lmagan biror bir millat yoki elat bo'lmasa kerak. Kurash mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biridir. Qadiryatlarni xalq ijod qiladi va u xalqning bebaxo merosi hisoblanadi. Xalqning o'zi bu qadiryatlarni saqlaydi va hayotga joriy qiladi. Shu bilan birga zamon talablariga kelib chiqib, uning ma'nosiga hamda mazmuniga sayqal beradi. Xalqimiz yaratgan o'zbekona qadiryatlar rang-barang va beqiyosdir. Mustaqillik milliy va umuminsoniy qadiryatlarni yuksaltirish uchun tom ma'noda mustaqil poydevor yaratdi. Milliy istiqlol g'oyasi esa bu qadiryatlarni tiklashga nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Yoshlarni sport hayotida, musobaqalarda, bayramlarda, Olimpia Osiyo o'yonlarida sportga oid janoat ishlarida ishtirok etishlari ularning hayotiga yaqinlashishlarida boshqa kishilar, jamoalar bilan aloqa o'rnatishlarida, muomila doirasini kengaytirishlarda, ishtimoiy munosabatlar tizimiga qo'shilib ketishlarida yordam bermoqda. Tarbiyaviy hayot bilan bog'liqligi talabidan kelib chiqqan holda, beyvosita mashg'ulot faoliyatining tarbiyalovchi ahamiyatini alohida takitlab o'tish zarur. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov 'Sport millatni ulug'laydi', deb bejizga atmaganlar. Darhaqiqat O'zbek degan nom, O'zbekiston deya atalmish yurtimizni dunyo miqyosida ulug'lab, davlatimiz obro'siga-obro' qo'shmoqda. Sportchilarimiz g'alabalari o'sib kelayotgan farzandlarimiz fel-atvorini toblamoqda, ularning qalbida o'z xalqi, yurti bilan faxirlanish tuyg'ularini uyg'atmoqda.

Kurashni o'zbek xalqi ko' qorachig'idek asrab-avaylab, avlodlarga meros qilib, shu kungacha yetkazib kelmoqda. U ayrim shaxslar irodasiga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir, bu an'ana shu xalqning turmush talabidan kelib chiqqan ma'naviy boyligidir.

Xulosa qilib aytganda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadiryatlar tuhida tarbiyalashda kurash sporti benihoyat katta o'rin tutadi va ahamiyat kasb etadi. Qadiryatlarni yoshlar ongiga singdirib borish tajribali pedagoglar, murabbiylardan tinimsiz mehnat va ilmiy izlanishini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jondor Tulenov. „Qadiryatlar falsafasi“ T. 1998y. 236 b
2. Jondor Tulenov. „, Milliy Qadiryatlar va ijtimoiy taraqqiyot“ T. 1999 y.
3. Axmedov.F.Q. Abdulaxatov.A.R. „O'zbek kurashi-milliy va umuminsoniy qadiryat durdonasi“ T. 2017 y.



МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА ВА ДАРСДАН ТАШҚАРИ МАШЁУЛОТЛАРДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ МИЛЛИЙ МАЪНАВИЙ МЕРОСНИ АСРАШ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ

Матёқубова Гулнора, Байжанова Мехрибон
Шовот туман 37-мактаб математика фани ўқитувчиси,
Шовот туман 38-мактаб математика фани ўқитувчиси

Аннотация: Буюк алломалар меросини ўрганиш, тарихимиз ва ўзлигимизни англаш, мустақил давлатимиз пойдевори бўлган ёшларда юксак маънавий, ахлоқий қадриятларни шакллантириш ва уларнинг баркамол авлод бўлиб вояга етишлари учун мустаҳкам маънавий замин тайёрлаш.

Калит сўзлар: "Тарих ҳақида китоб", "Ал-жабр ва ал муқобала ҳисоби ҳақида китоб", "Маҳбуб ул-қулуб".

Математика ўсиб келаётган ёш авлодни камол топишида ўқув фани сифатида кенг имкониятларга эга. У ўқувчи тафаккурини ривожлантириб, уларнинг ақлини пешлайди, уни тартибга солиди, ўқувчиларда мақсадга йўналганлик, мантиқий фикрлаш, топқирлик хислатларини шакллантира боради. Шу билан бирга теоремаларни исботлаш жараёни ва мулоҳазаларнинг тўғри, гўзал тузилганлиги, симметрия тушунчасининг шаклланиши билан ўқувчиларни дидли, гўзалликка эҳтиёжли қилиб тарбиялайди. Улуғ алломаларимиз Ал-Хоразмий, Абу Носир Форобий, Аҳмад Фарғоний, Абу Али Ибн Сино, Абу Райҳон Беруний, Абул Вафо Бузжон, Фиёсидди Ал - Коши, Умар Хайём, Насриддин Ат-Тусий, Мирзо Улуғбек ва унинг шогирдларидан бири бўлган Али - Қушчиларнинг математикага қўшган хиссаларини ўрганиш жараёни ўқувчиларни Ватанпарварлик, миллий ифтихор руҳида тарбиялайди. Математика ривожига улкан ҳисса қўшган қомусий олимларнинг кашфиётлари ўқувчиларда ўтмишимизга нисбатан ҳурмат, фахрланиш туйғусини шакллантиради, миллий қадриятларни тиклаш билан бир қаторда, уларда кўпроқ халқимизнинг ўзига хос маънавият, фикрлаш усуллари, муомала ва муносабат маданиятини илмий - маънавий ахлоқий сифатларига эътибор ва диққатни таркиб топдиради, ривожлантиради.

Хўш, шундай экан математика дарсининг қайси жараёнида бу ғояларни ўқувчиларнинг қалбига ва онгига синдириш мумкин?

Республикамиз олимлари томонидан яратилган математика дарсликларидида ўқувчиларнинг ёшига мос ҳолда Ал-Хоразмий, Абу Райҳон Беруний, Мирзо Улуғбек ва унинг шогирди Али - Қушчи, Жамшид Ал - Коший, Насриддин - Тусийларнинг фандаги кашфиётлари келтириб ўтилган. Дарсликдаги мураккаб масала, машқларни ечиш ўқувчиларни ҳаётдаги ҳар қандай тўсиқларни енгишга, чидамлиликага, сабр қаноатли, тоқатли бўлишга ундайди.

5-синф дарслигида "Натурал сонларнинг ёзилиши ва ўқилиши" мавзусини ўтганда араб ва Рим рақамлари, абжад ҳисоби ҳақида сўз юритилади.

Шарқ мамлакатларида абжад ҳисоби кенг тарқалган бўлиб, унда араб (ёки эски ўзбек) алифбосидидаги ҳар бир ҳарфга аниқ бир сон қиймати берилади. Бирор сўздаги, жумладаги ҳарфларга мос сонларни қўшиб, шу сўз, гапга тўғри келадиган сонни ҳосил қиламиз. Кўпинча, шундай жумлалар тузиладики, ундаги маълум сўзнинг ҳарфларига мос сонлар қўшилса, бирор муҳим ходисанинг содир бўлган йили келиб чиқади. Бундай жумлалар "таърих" деб аталади. Алишер Навоийнинг "Маҳбуб ул-қулуб" асари ёзиб тугатилган йилни асардаги ушбу "таърих"дан билиб оламиз.

"Таърихи чу" "хуш" лафзидин бўлди ҳосил,

Ҳар Ким ўқуса, илоҳи, бўлгай хушдил!

"Хуш" сўзини араб ҳарфлари билан ёзиб, ҳар бир ҳарфга мос келувчи сонларни қўшсак ва ҳижрийдан милодий ҳисобга ўтсак, 1500 ҳосил бўлади. демак, А.Навоий "Маҳбуб ул қулуб"ни 1500 йилда ёзиб тугаллаган экан. Алишер Навоий вафоти муносабати билан машҳур тарихчи Хондамир ёзган шеърда "Руҳига раҳмат нурлари тушгани учун, Вафоти таърихин "анвори раҳмат"дан изла" - деган мисралар бор. "Анвори раҳмат" араб милодий 1505 йилга тўғри келади. Яъни Навоий вафот этган йили келиб чиқади. Бундай тарихий манбааларнинг дарсликда келтирилиши математика фанининг адабиёт, тарих фанлари билан алоқадорлигини, қолаверса буюк алломаларни математика



фанига бўлган муносабатини кўрсатади. Ўқитувчи бу мавзунини ўтганда алоҳида эътибор билан қараши лозим. Ёки машҳур ўзбек астрономи Улугбек математикани, жумладан геометрияни билмасдан туриб, юлдузларни ҳаракат ва ўрнини, ернинг қуёш атрофида айланиши, қуёш ва Ойнинг тугилиши ҳодисасини айтиб бера олармиди?

Ота - боболаримиз геометрия қонун-қоидаларига асосланмаганларида Самарқанд, Бухоро, Хивадаги машҳур минора, мадрасаларни, ундаги чиройли безак ва нақшларни кура олмас эдилар. Мустақилликка эришганимиздан кейин айниқса мамлакатимизда ҳар томонлама юксалиш яққол сезилди. Инсонларнинг, шу жумладан ўқувчи ёшларимизнинг мафкуравий онги ўсди.

Ўзбекистоннинг буюк алломалар юрти эканлигига ишонч ҳосил қилдилар, ота - боболаримизнинг қолдирган бой мерослари бизлар учун азиз, мўътабар эканлигини англаб етдилар.

Ўқувчиларимиз онгида ўтмишимизга нисбатан бундай ҳурмат ҳиссини ҳосил қилишда тўғрақ машғулотларидан ҳам фойдаланиш зарур. Тўғрақ машғулотларида қомусий олимларнинг бой илмий мероси ҳақида кенг суҳбатлашиш мумкин. Тарихий ёдгорликларни ўқувчиларни ўзлари бориб кўришлари, асрлар оша яшаб келаётган бу иморатларнинг мустаҳкамлигига, ота - боболаримизнинг иродали саботли бўлганлигига ишонч ҳосил қилишлари табиийдир. Ватанимизга нисбатан туйғулари ана шу ерда таркиб топади. Улар кашфиётлар, ихтиролар осонлик билан қўлга киритилмаслигининг, булар заминиде инсон меҳнати, унинг машаққатлари ётганлигининг гувоҳи бўладилар, ёшларимизда мулкка эгалик ҳисси намоён бўлади. Келгусида авлодларимиз, келажак ёшлар учун бирор эзгулик, ёдгорлик, илмий мерос қолдириш ўзларининг инсонийлик бурчи эканлигини, бунинг учун барча фанларни мукамал ўрганишлари зарурлигини тушуниб етадилар. Миллий меросимизни авайлаб-асрашга ҳаракат қиладилар.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Муҳаммад Ибн Мусо Ал-Хоразмий, Танланган асарлар. Математика, астрономия, география. "Фан", Тошкент 1983й.
2. Юшкевич А.П. История математики в средние века М. 1961й.



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

КО'ННА ВА БОҚИЙ БУХОРО

Buxoro davlat universiteti talabasi G'ayratova Gulzoda
Guliston davlat universiteti talabasi Shominova Nafisa

Anotatsiya: Uch ming yildan ziyod tarixga ega Buxoro jahon tamadduniga beqiyos hissa qo`shgan shaharlardan biri. Qadimdan ilmu ma`rifat, madaniyat maskani bo`lgan bu go`sha ta`rifi butun olamga yoyilgan.

Kalit so'zlar: Masjidi Kalon, Chorbakr, Ark qal'asi Abdulxoliq G`ijduvoni, Bahouddin Naqshband ziyoratgohlari va boshqalar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, Yurtboshimiz rahnamoligida milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, madaniy merosni, ayniqsa tarixiy-memoriy obidalarni asrash, ularni kelgusi nasllarga yetkazish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Masjidi Kalon, Chorbakr, Ark qal'asi kabi qator asori atiqalar ta`mirlanib, asl qiyofasiga keltirildi. Bevosita Prezident I.Karimov tashabbuslari bilan tasavvuf namoyandalari, Naqshbandiya tariqati asoschilari Abdulxoliq G`ijduvoni, Bahouddin Naqshband ziyoratgohlari obod etildi.

Ayniqsa, Buxoro madaniy markazi bunyodkorlik ishlari doirasida alohida o`rin egallaydi. Prezidentimiz tashabbusi va g`oyasi asosida barpo etilgan 107 gektardan iborat madaniy markaz yirik inshootlar - 700 o`rinli viloyat musiqali drama teatri, 2000 tomoshabinga mo`ljallangan amfiteatr, ular o`rtasida esa "Ko`hna va boqiy Buxoro" monumentidan iborat.

Chunki Buxoro azaldan oltin makoni bo`lgan. Asl va toza oltin konlari, yombilar shu yerdan topilgan. Ayni chog`da monumentda nafaqat Buxoroning oltin zamini oldida, balki Buxoroni sharif shaharga aylantirgan uning fidoyi, mehnatkash odamlari oldida bosh egish kerak degan g`oya ifoda etilgan. Bu zamin kishilari ezgu ishlari bilan tilga tushganlar. Buyuk olim Abu Ali ibn Sino, tarixchi olim Narshaxiy, islom dini ravnaqi va madaniyatiga beqiyos hissa qo`shgan Imom Buxoriy, tariqat allomalari Abdulxoliq G`ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Xoja Orif Regariy, Xoja Mahmud Anjir Fag`naviy kabilar, shuningdek, millatimiz adabiyoti, madaniyati taraqqiyotida munosib iz qoldirgan Ahmad Donish, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo`jayev, xalqimizning boshqa asl farzandlari yetishib chiqqan. Ularning nomlari obidada zarhal harflarda naqshlangan. Bu bitiklar yuqorisida "Ilm o`rganmoq har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir" degan hadis o`zbek, arab va ingliz tillarida yozilgan. Ajdodlarimiz va ularning bugungi vorislari bu da`vatni hayot mazmuniga aylantirishgan. Buxoroning dunyoda ilm-ma`rifat maskani sifatida shuhrat qozongani bejiz emas.

Istiqlolning dastlabki yillarida respublikamizda qator teatrlar rekonstruktsiya qilinib, ijodiy jamoalar ixtiyoriga topshirilgan edi. Buxoro davlat musiqali drama teatrining madaniy markazdagi muhtasham binosi so`nggi chorak asrda mamlakatimizda poydevordan qurilgan yagona teatrdir. San'atkorlar va tomoshabinlarning bir necha avlodi armonlari ro`yobga chiqib, barpo etilgan bu teatr o`zining ko`rkamligi, zamonaviy sahna imkoniyatlari va yoritkichlari bilan jihozlangani, unda yaratilgan qulay shart-sharoitlari bilan Markaziy Osiyodagi eng go`zal san'at maskanidir.

"Ko`hna va boqiy Buxoro" monumenti, viloyat teatrining yangi binosi hamda zamonaviy loyiha asosida barpo qilingan amfiteatrn o`z ichiga olgan, gulzor va xiyobonlardan iborat madaniy markaz ham ular qatoridan o`rin olib, istiqlolimiz sharofati, xalqimiz qudrati hamda Prezidentimiz tashabbuskorligi va rahnamoligi bilan sharif shahar yanada go`zallashib, chinakam Sharq gavhariga aylandi.



HERMAN VAMBERI ESDALIKLARIDA O'RTA OSIYO XONLIKLARIDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNI YORITILISHI

Adashaliyev Azizbek
Namangan davlat universiteti
Tarix yo'nalishi talabasi

Anotatsiya. XIX asr ikkinchi yarmi o'zbek xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida Herman Vamberining "Trevels in Central Asia" asarida ma'lumotlar berilgan. 1840-yildan 1850-yilgacha Rossiya va O'rta Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi o'n yillik davrdagi savdo jadvali. Buyuk Britaniya hukumatining Rossiya imperiyasini O'rta Osiyodagi harakatlarini kuzatib borishi.

Kalit so'zlar: Herman Vamberi, "Trevels in Central Asia", Rossiya imperiyasi, Buyuk Britaniya elchixonasi, savdo karvonlari, export, Saville Lumley,

XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo Rossiya va Angliya manfaatlariga to'qnash kelgan mintaqaga aylandi. Ushbu hududni qo'lga kiritish uchun har ikki mamlakat o'z vakillarini yubora boshladilar. Bu vakillar mintaqaga darvesh, qalandar, sayyoh va tijoratchi qiyofasida kirib kelishgan hamda Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida faoliyat olib borib, bu hududlar haqida qimmatli ma'lumotlar to'plashgan.

Ana shunday vakillardan biri, olim-sayyoh Herman Vamberi edi. U 1832-yil 19-martda Avstriya-Vengriya imperiyasining Nidermarkt shahrida kambag'al yahudiy oilasida tug'ilgan. Yosh Herman 8 yoshidayoq venger, yahudiy va slovak tillarini o'rganib olgan edi. 20 yoshidan boshlab u o'zining sevimli sohasi turkologiya bilan shug'ullana boshlaydi. Aynan shu qiziqish uni Usmonli turklar keyinchalik esa O'rta Osiyoga sayohat qilishga undaydi. Herman Vamberi 1861-yilda "Rashid efendi" nomi bilan darvesh qiyofasida Trabzon orqali Texronga borib, u yerdan Makka ziyoratidan qaytayotgan turkistonliklarning karvoniga qo'shilib oladi. Bazi manbalarda Herman Vamberi o'z sayohati oldidan Londonga ham borib kelgani va ingliz maxfiy xizmatlaridan Turkistondagi sayohat bo'yicha va Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyodagi ingliz mustamlakalari tomonga siljib borish oqibatlari xususida ma'lumotlar to'plash haqida yo'l yo'riqlar olgani ma'lum qilinadi.

Herman Vamberi "Trevels in Central Asia" asarida Markaziy Osiyo xonliklari o'rtasidagi munosabatlarga alohida to'xtalib o'tadi. U Buxoro amirligi va Qo'qon xonliklari o'rtasidagi munosabatlarni shunday tariflaydi: "Qo'qon va Buxoro o'rtasidagi adovat qadim tarixga ega. Shayboniylar xonadoni Turkistonni boshqarishni boshlagan davrdan beri davom etadi. Bu adovat amir Nasrullo va Muhammad Ali xon davrida kuchayib ketadi. Bunga shahzoda tomonidan chegaralarni kengaytirilgani va Buxoroning raqibi Xiva bilan ittifoq tuzilgani bo'lsa, boshqa manbalarda esa kapitan Konoliga ko'rsatgan mehmondo'stligi qo'shimcha sabab sifatida ko'rsatiladi". Shuningdek uning esdaliklarida Qo'qon xonlari Xudoyorxon va Mallaxonlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. Herman Vamberi o'z asarida xonliklar o'rtasidagi savdo- iqtisodiy aloqalar, ularning tashqi aloqalari, shaharlar orasidagi masofalarni ham qayd etib boradi.

Savdo aloqalariga e'tibor berar ekan: "Markaziy Osiyo bilan bog'liq bo'lgan barcha xorijiy davlatlar ichida Rossiya eng katta ahamiyatga ega. Xiva karvonlari Astraxan va Orenburgga qatnaydilar, u erdan ko'plab badavlat savdogarlar Nijniy Novogorod va hatto Sankt-Peterburggacha yetib borishadi. Buxoro Orenburg bilan uzluksiz va faol aloqada bo'ladi. Savdo karvonlari ellik oltmish kunda borib kelishadi. Toshkentdan karvonlar Orenburg va Qiziljar (Petrovsk) ga doimiy borib-kelishadi. Birinchisiga (Orenburgga) ellik kundan oltmish kungacha, ikkinchisiga ellik kundan yetmish kungacha yetib borishadi. Qo'qon savdo karvonlari Namangan va Oqsudan Pulatgacha(Semipalatinsk) bo'lgan yo'ldako'p qatnaydi, ular kuchli kuzatuv ostidaharakatlanib, qirq kun ichida o'z manzillariga yetib boradilar". Ushbu ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki, XIX asr o'rtalarida Markaziy Osiyo davlatlarining eng yaqin savdo hamkori bu Rossiya imperiyasi edi. Buni quyidagi jadval asosida ham ko'rish mumkin:

1840-yildan 1850-yilgacha Rossiya va O'rta Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi o'n yillik davrdagi savdo jadvali. Export. Funt sterling hisobida.

Mahsulot turi	Buxoro	Xiva	Qo'qon	Umumiy
Oltin va kumush	213,969	512,210	375	229,554
Mis	45,776	1,856	2,043	49,675



Пахта	156,707	58,915	7,559	223,181
Jun	50,476	25,869	1,976	78,312
Ипак	10,550	4,799	71	15,520
Тери	81,543	37,921	4,069	123,533
Yog'och buyumlar	8,595	460	826	9,881
Bo'yoqlar	48,635	17,904	693	67,232
Turli xil tovarlar	85,416	27,567	2,031	115,012
Umumiy	783,785	199.830	30,622	1,014,237

Buyuk Britaniyaning Sank- Peterburgdagi elchixonasi kotibi janob Saville Lumley Rossiyaning O'rta Osiyo bilan sanoat qobilyati rivojlanganligi to'g'risidagi ma'ruzasida 1840-yildan 1850-yilgacha bo'lgan davrda export 1,014,237 funt sterlinga import esa 1,345,741 funt sterlinga ko'tarilgani qayd etgan edi. Britaniya hukumati ham o'zi O'rta Osiyoga kirishga harakat qilish bilan birgalikda, Rossiya imperiyasini hatti-harakatlarini sinchkovlik bilan kuzatib borganligi ushbu ma'lumotlardan bilib olishimiz mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Herman Vamberi O'rta Osiyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, ularning o'zaro va tashqi savdo aloqalari, hukumdorlarning ichki va tashqi siyosatini juda yaxshi o'rgangan. Har bir hukumdor faoliyatiga tanqidiy ruhda baho bergan. Ayni paytda Herman Vamberi asarlarini mahalliy manbalar bilan bir-biriga qiyoslagan holda tadqiq etish XIX asrdagi Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari hayoti haqida mukammalroq ma'lumot olishimizga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Armin Vamberi. Trevels in Central Asia. London, 1864.
2. Элтазаров Ж. Герман Вамберининг Ўрта Осиёдаги сиёсатини ўрганиши. www.kh.davron .uz
3. Lumley Saville John Report by Mr. Lumley, Her Majesty's Secretary of Embassy at St. Petersburg, on the Tea Trade of Russia, dated May 4, 1867. Extracted from "Commercial reports" presented to Parliament, July 1867.
4. gutenberg.org



TARIX DARSLARIDA MUTAFAKKIRLARNING HUQUQIY QARASHLARINI O'RGANISH

**Asatova Sevara,
Navoiy viloyat Navbahor tuman
28-maktab tarix fani o'qituvchisi**

Inson manfaati va huquqlarining ustuvorligini, xayrli va savobli ishlarni targ'ib etishdan elimiz hurfikrirligi va tasavvufining ko'zga ko'ringan namoyandasi, mutafakkir va faqih So'fi Oллоhyor ham chetda qolmagan. Alloma va shoir ijodiyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, u o'zining hayot mazmunini haqiqatga yetishish, unga to'siq bo'ladigan jihatlarni yengish uchun bajariladigan ma'lum vazifalarni bajarishdan iborat deb bilgan. Allomaning "Maslak ul-muttaqin", "Sabot ul-ojizin", "Murod ul-orifin" asarlarida insonparvarlik, insonning manfaatlarini, huquqlari va erkinliklari qadrlangan hamda jamiyat oldidagi burch va vazifalari ham belgilab berilgan. Shuningdek, adolatparvarlik, haqiqatparvarlik g'oyalari diniy-ma'rifiy ruhda talqin etilgan.

So'fi Oллоhyorning "Sabot ul-ojizin" asarida insofu adolat, tenglik ulug'lanadi, zulm va shafqatsizlik, xudbinlik, nopoklik, nafs-havoga berilish shariat nomidan qoralanadi, mehr va muruvvat, pokko'ngillilik, himmat va saxovat, shirin tillilik, kamtarlik fazilatlarini madh etiladi. Xususan, So'fi Oллоhyorning qoldirgan huquqiy va axloqiy asarlari o'z davrida va keyingi davrlarda huquqiy amaliyotda bo'lgan va nodir manbalar sifatida huquqiy merosimiz xazinasida o'ziga xos qadr-qimmatiga egadir. Faqihning qoldirgan asosiy huquqiy asari "Maslakul-muttaqin" ("Taqvodorlar maslagi") hisoblanib, ushbu asar bugungi kunda islom huquqi va odob-axloqi masalalarini o'rganishda muhim manba sifatida qadrlanadi.

So'fi Oллоhyorga zamondosh, o'qimishli, orif shoirlardan biri uning vafotiga bag'ishlab marsiya-tarix yozgan. Bu tarix-she'rdagi tarix moddasidan abjad hisobiga ko'ra hijriy 1333-yil, milodiy 1724-1725-yil chiqadi. Shu tarix-marsiyada So'fi Oллоhyorning islom ma'naviyatida tutgan o'rni yuksak baholanib, "Abu Hanifai vaqt ast"-hanafiy mazhabidagi musulmonlarning sardori Imom A'zam Jiloniy (Giloniy) bilan bir qatorda qo'yiladi. Ma'lumki, Imom A'zam sunniy (hanafiy) musulmonlarining rahnamosi bo'lib, "Savodi A'zam" ilohiyot kitobida Qur'oni Karim va Hadisi sharif asosida shariat aqida hamda ahkomlarini tartibga solgan fiqh olimlarining to'ng'ichidir.

Bu asar she'riy shaklda, fors tilida bitilgan bo'lib, asosan fiqh, ya'ni shariat qoidalari, e'tiqod va axloq kabi masalalardan bahs etadi. Mutafakkir ushbu asarni yaratishda islom olamidagi yuzdan ortiq sha'riy-huquqiy manbalarga murojaat etib, fiqhiy masalalar yuzasidan naql, rivoyat va fiqhiy masalalarning javoblarini keltirib, shu asosda masalalar hukmlarini dalillaydi va xulosalaydi. Xususan, asarda soliq, ushr va xiroj masalalariga oid muhim ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan hukmlar bayon etilgan. Faqihning ushbu asarda soliq haqida va boshqa masalalar yuzasidan chiqargan hukmlari insonlarning hayotiy turmush-tarzi va shart-sharoitlariga mosligi, insonparvarlik va adolatparvarlik g'oyalariga asoslanganligi sababli ham bir necha asrlar mobaynida musulmon mamlakatlarida fiqhiy masalalar bo'yicha asosiy huquqiy qo'llanma sifatida qaralgan.

So'fi Oллоhyorning fikricha, har bir kishining mol-mulki zakot olinadigan darajadagi miqdorga yetsa, zakot berishi shartdir. Zakotlar soliq sifatida podshohlik tomonidan tayinlagan ushr oluvchi mutasaddi fuqarolar tomonidan amalga oshirilgan. Zakotlar o'sha davr shariat hukmiga binoan, islom diniga mansub kishilardan mol-mulki miqdorining qirqdan bir qismi sifatida olingan. Davlat tomonidan zakot va boshqa to'lovlarning soliq sifatida undirilishi mamlakat tijoratchilarining xavfsizligini saqlash, davlatning moddiy kuch va sarf-xarajatlarini qoplash uchun sarflangan. So'fi Oллоhyor asarining zakot kitobi qismida zakot olinishi mumkin bo'lgan mol-mulk miqdori to'g'risida, tuya, qo'y, chorva mollari zakot miqdori to'g'risida, tillo va kumushning zakoti, ushr oluvchi shaxslarning vazifalari haqida, konlar zakoti, ushriy va xarajiy yerlardan olinadigan soliqlar hamda zakot sarf qilinadigan ba'zi o'rinlar haqida hukmlar bayon etilgan.

Faqih hukmlarida fuqaroning yoki oilaning shaxsiy moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan mol-mulkni emas, balki ma'lum miqdorga yetib, fuqaroga foyda keltiradigan mol-mulk nazarda tutilganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda, adolatparvarlik jihatidan mol-mulk egasining huquq va manfaatlariga zarar keltiruvchi jihatlarni istisno qilish holatlari ham nazarda tutilgan.

Mutafakkirning ta'kidlashicha, davlat sarf-harajatlaridan tashqari zakotning sarf qilinishi lozim bo'lgan ba'zi o'rinlari ham mavjud bo'lgan. Masalan: zakot kambag'al kishilarga, hech narsasi bo'lmagan beva-bechoralarga, zakot yig'uvchi mutasaddi shaxslarga oylik ish haqi sifatida, qullarni xo'jayinlaridan ozod qilish ishlariga, fuqaro qarzdor bo'lsa-yu, qarz to'lashga hech narsasi bo'lmagan kishilarga, hajga bora



olmagan kishilarga sarflangan. So'fi Ollohyorning insonparvarlik va adolatparvarlik, mehr-oqibat, xayru-saxovat, rahmdillik, insof, halollik va diyonatga da'vat etuvchi shar'iy hukmlari va g'oyalari bugungi kunda ham ijtimoiy-ma'naviy hayotimizni sog'lomlashtirish borasida o'rnak olishimiz zarur bo'lgan huquqiy merosimizning ahamiyati yuqori bo'lgan qadriyatlaridan biridir. "Mutafakkir faqihning yuqorida keltirilgan soliq to'g'risidagi fikr va mulohazalari ijtimoiy-ma'naviy jihatdan qimmatga egadir. Ularda eng asosiysi, har bir kishini mehr-muruvvatli, rahm-shafqatli, haqiqatgo'y va adolatli, o'z burchi va vazifasiga mas'uliyat va adolat bilan yondashishga qaratilgan fikrlar mujassam etilgan bo'lib, kishilarning axloqiy kamolotini yuksaltirishga, jamiyat oldidagi o'z fuqarolik burchlarini halollik bilan bajarish kabi insoniy fazilatlarni egallashga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda insonparvarlik, jamiyat turli tabaqalari o'rtasida adolatli munosabatlar o'rnatish, turli millatlararo hamkorlik hamda bag'rikenglik kabi tuyg'ular bilan yo'g'rilganligi tufayli jamiyat va mamlakat hayotida katta ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lib kelgan.



ROSSIYA FEDERATSIYASI VA XITOIY XALQ RESPUBLIKASI BRICS DOIRASIDAGI HAMKORLIKNING YANGILANISHI

Qahramon Atakulov
O'zMU Tarix fakulteti magistranti

Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarning rivojlanishi hamda, BRICS doirasidagi hamkorlikning olib borilishi, ikki mamlakatning mintaqadagi iqtisodiy-siyosiy salohiyati, BRICS guruhidagi o'zaro manfaatli jarayonlar haqida ilmiy fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya va Xitoy munosabatlari, BRICS guruhi, Iqtisodiy ustunlik.

Globallashgan bugungi dunyoda davlatlar o'rtasidagi munosabatlar turlicha tus olmoqda. Oxirgi ikki asr davr mobaynida xalqaro munosabatlarda katta ahamiyatga ega bo'lgan shartnoma va konvensiyalar davlatlar o'rtasidagi kelishuvlar siyosiy munosabatlarni gohida keskinlashuviga, gohida iliqlashuviga olib keldi. Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Xalq Respublikasi hamkorligining rivojlanishi ham IV asrlik tarixiga ega. Rossiyani Xitoy Xalq Respublikasini rivojlanishi va oyoqqa turishida ulkan hissa qo'shgan davlat desak mubolag'a bo'lmaydi. Zamonaviy davrda ham o'zaro munosabatlardan tashqari ayrim xalqaro va mintaqaviy tashkilot va uyushmalarda ham ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, BRICS guruhi doirasida Rossiya va Xitoy hamkorligi o'ziga xos iqtisodiy va siyosiy o'rin tutmoqda.

BRICS-ruscha abbreviatura bo'lib, (ishtirokchi davlatlar inglizcha nomlarining bosh harflaridan olingan: Braziliya Rossiya, Indiya, Kitau, SAR,) beshta mamlakat: Braziliya, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Janubiy Afrika respublikasidan iborat qit'alararo global guruh. Dastlab to'rt mamlakatdan iborat guruhga 2011-yilda JAR qo'shildi va hozirgi abbreviaturani oldi. Argentina bu guruhga qo'shilish arafasida. Bundan tashqari, Indoneziya, Meksika, Qozog'iston va Turkiya ham guruh faoliyati bilan qiziqmoqda.

BRICS guruhining ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy rivojlanish masalalari, Global va mahalliy miqyosdagi iqtisodiy muammolarning yechimini izlash, Monitoring va tashqi siyosiy muammolarni aniqlash, inqirozli siyosiy vaziyatlarda yechim izlash, Ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, ilmiy ishlanmalar, Davlatlar fuqarolarining hayot sifatini yaxshilash, Ekologik muammolarni hal qilish kabi maqsadlari bor.

Rossiya YIM hajmi bo'yicha dunyoda oltinchi iqtisodiyotdir. U eng katta hududga, eng katta tabiiy resurslarga, shuningdek, Rossiya juda katta tabiiy zaxiralarga, shuningdek, fikrimizcha, texnologik imkoniyatlarga ega. Bu turli sohalarga sarmoya kiritish nuqtai nazaridan mamlakatni jozibador qiladi. Rossiya sayyoradagi eng yirik qurol-aslaha eksportchilaridan biri bo'lib, ularning salmoqli qismi eng so'nggi texnologiyalar asosida ishlab chiqariladi. Ayniqsa, neft narxlarining pasayishi va ularning keyingi dinamikasi bo'yicha noaniqliklar tufayli BRICS (Xitoy) Rossiya Federatsiyasi uchun ulkan bozordir (asosiy eksport mahsulotlarini sotish nuqtai nazaridan). Kelajakda Rossiya va G'arb mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikka nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan sanksiyalarni hisobga olgan holda, investitsiyalarni jalb qilish vositasi bo'ladi.

Xitoy dunyodagi eng katta YaIM. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Xitoy allaqachon AQShni ortda qoldirdi. Dunyodagi eng katta aholi, Mamlakat eng ko'p sanoat ishlab chiqarishga ega. Aslida dunyodagi sanoat mahsulotlarining aksariyati Xitoyda ishlab chiqariladi. BRICS tashkiloti, iqtisodiy jihatdan aniq etakchiga ega. Darhaqiqat, bugungi kunda Xitoy dunyoda AQShdan keyin ikkinchi yirik iqtisodiyotdir. U tez o'sishda davom etmoqda. Biroq, XXR hukumati davlatning iqtisodiy rivojlanishida shubhasiz muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa ham, mamlakat dunyo miqyosida doimiy sheriklarni izlamoqda. Xitoy uchun istiqbolli aloqalarni o'rnatish vositalaridan biri BRICSni birlashtirish bo'lishi mumkin. Tegishli aloqalarni amalga oshirish orqali, Xitoy tovarlar uchun yangi bozorlarni, ishonchli xom ashyo etkazib beruvchilarni va potentsial investorlarni qidirmoqda. Xitoyda mashinasozligi rivojlanganligining hisobiga Xitoy iqtisodiyotining o'sish dinamikasi, xalqaro guruhning jahon iqtisodiyotidagi ulushi faqat o'sishini kuzatishga imkon beradi.

Rossiya va Xitoy dunyodagi siyosiy vaziyatga biron-bir tarzda ta'sir qilishi, ular doimiy ravishda BMT Xavfsizlik Kengashining tarkibiga kirgan va shuning uchun - BRICSdagi hamkorlikning dolzarb jihati hozircha ma'lum emasligiga qaramay, ushbu ittifoqning siyosiy nuqtai nazaridan yuqori baholash mumkin. Hozirgi vaqtda jahon miqyosidagi vaziyatda BRICS mamlakatlari muammolarni hal qilishning umumiy tamoyillariga amal qilmoqdalar. Kelajakda ushbu assotsiatsiyaga kiruvchi davlatlar o'rtasida siyosiy sohadagi hamkorlik yetarlicha faol bo'lishi mumkin.

Dunyoda hukumronlikni o'rnatishda faqatgina yangi qudratli davlat va davlatlar paydo bo'lishigina emas



balki, yangi mafkuralar paydo bo'lishi ham muhim omil hisoblanadi. Birqancha rivojlangan mamlakatlar jahon tartibotini qo'lida ushlab turibdi, ular bunday o'zgarishlarga qarshi chiqadi. Mavjud jahon tartibotini huquqiy instrumentlar bilan saqlab qolishga harakat qiladi. Bu bilan bog'liq holda professor O.N. Barabanov BRICSni global boshqaruvni zamonaviy modeliga muqobil sifatida taklif qiladi. Xitoy nuqtayi nazariga ko'ra muqobil dunyo tartiboti o'zida barkamol rivojlanishni namoyon qilish kerak, yagona mafkura bilan bog'langan bo'lishi kerak. BRICSning iqtisodiy qudrati ishtirokchi davlatlar yangi xalqaro tartibotlarni va huquqiy vositalarni o'rnatishini yengillash tiradi bu ularni mafkurasiga ta'sir qiladi. Birlashish doirasida yangi huquqiy vositalar ish samaradorligini oshiradi va ular o'z navbatida boshqa rivojlanayotgan davlatlarga ta'sir ko'rsata oladi. Xuddi G7 kabi BRICS ham o'zining ta'sir doirasini BRICS rivojlanish bankini tashkil qilish orqali kuchaytirmoqchi, bu ishtirokchi davlatlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lgani kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun ham katta ahamiyatga ega, yani BRICS oldida turgan muhim maqsad rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy tizimlarini modernizatsiyalashga ko'maklashishdir. Hammadan ko'proq BRICS kambag'al davlatlarga yordamning yangi usulini tashkil qildi. BRICSning Rivojlanayotgan davlatlarga yordami BRICS iqtisodiy o'sishi darajasi sezilarli pasayishi sharoitida ham hatto G7 davlatlari yordami bilan taqqoslaganda o'n barobarga ko'p o'sdi, ammo, agar BRICS o'zining ta'sir doirasini kuchaytirishni hohlasa ularga mustahkam hamkorlik zarur bo'ladi. BRICS davlatlari Alohida holatda juda kuchli iqtisodiyotga ega, birlashish ular rolini yana bir barobarga kuchaytiradi. Itifoqning ishtirokchilari bir birini o'zaro to'ldirish kerak. Agar BRICSni savdoga yo'naltirilgan iqtisodiy ittifoq sifatida qaralsa BRICS davlatlari o'rtasidagi mustahkam munosabatlarda savdo katta ahamiyatga ega bo'lsada, zamonaviy jahon tartibotiga muqobil bo'lish haqida gapirib bo'lmaydi, bunday holatda faqatgina energetika masalasi va savdo masalasi haqida gap ketmaydi. Dunyo aholisi doimiy ko'payib borar ekan oziq-ovqat xavsizligi masalasi yuzaga chiqadi. BRICS mafkurasida bu masalani qay darajada taminlab beradi. Ayni paytda BRICS mamlakatlarida jahon aholisining 42 % I yashaydi (2,9 mlrd odam), shu jumladan Xitoyda 1,384 mlrd dan ko'proq odam, Hindistonda 1,340 mlrd odam (mos ravishda dunyoda 1-2 o'ronda), Braziliyada 211 mln odam (5-o'rin), Rossiyada 146 mln odam (9-o'rin), Jarda 55 mln odam (25 o'rin), BRICS davlatlari hududi. Butun yer shari ustki qismini tahminan 30 % ni egallaydi (40 mln kv. km.). BRICS davlatlariga global iqtisodiy resurslarning 8 % I va butun jahon ishchi kuchining 50 % i to'g'ri keladi. 2011-yilda 5 ta davlat valyuta zahirasi hajmi 3,63 trln dollar (jahon valyuta zahirasi 1/3) tashkil qildi va G7 davlatlari zahirasidan oshib ketdi. Hozirgi kunda 20 ta yirik energetika kompaniyalarining har uchtdan bittasi BRICS davlatlariga tegishli, shunchasi Yevropa mamlakatlariga va yana shunchasi AQSH ga tegishli, xuddi shunga o'xshash holat oziq-ovqat, farmatseftika, ko'mir sanoatiga tegishli. BRICS hamkorliga ishtirokchilari rivojlanayotgan bozorlarning yetakchi davlatlari ular dunyoda ohirgi ro'lni o'ynamaydigan bozori tez rivojlanayotgan davlatlar. Barcha xalqaro hamjamiyat manfatlari hamdo'slik doirasida kuchli hamkorlik sifatida mustahkamlanmoqda. Aynan shu sababli BRICS qator masalalarni kuchaytirib boradi. Umumiy manfaatlar doirasidagi umumiy qarashlarni, hamkorlikni faollashtirish va muvofiqlashtirishni kuchaytirishga erishish.

BRICS-guruhi doirasidagi integratsiya Rossiya va Xitoy hamkorligi kelgusida mustahkamlanishi uchun keng imkoniyatlar ochadi. Iqtisodiy hamkorlikning ikki asosiy komponenti mavjud. Iministitsiya loihalari va savdo aloqalar.

Hozirgi kunda Rossiy Xitoy savdo hamkorligi katta salohiyatga ega va yuqori darajada rivojlanib bormoqda. Xitoy xalqaro investitsiya bozorida juda katta ro'l o'ynaydi eng katta kapital aylanmasi quyidagi sohalarda joylashtirilgan: qayta ishlash sanoati jumladan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, kimyoviy tavarlar ishlab chiqarish, mineral xomashyolarni qayta ishlash va yetkazib berish, transport uskanalarini ishlab chiqarish, transport xizmatlarini ko'rsatish, qurilish va boshqalar. 2014-yilgi kelishuvlarga ko'ra Rossiya hududida 25 ta mayda gidroelektrostansiyalar barpo etishga kelishdilar, o'z navbatida Xitoy bu korxonalarini jixozlaydi.

Xitoy va Rossiya 2015-yilda YIM darajasi bo'yicha birinchi o'ntalikga kirgan iqtisodiy jihatdan yirik ikki davlat hisoblanadi. Xitoy ikkinchi o'rinni egallagan (10354832 mln dollar), Rossiya esa 10-o'rinni egalladi. (1860598 mln dollar). So'ngi yillarda Rossiya YIM darajasi oltinchi o'ringa chiqqanligini, Xitoy YIM hajmi esa oldingi o'ringa chiqqanligini aytish mumkin.

Xulosa shuki, XX asrning 50-yillaridagi ikki buyuk davlat o'rtasidagi munosabatlar mafkuraviy asosga qurilganligi uchun mustahkam kechadi. Bu esa keyingi davrlar uchun poydevor vazifasini bajaradigan kelishuvlar imzolangan davr bo'ldi. ShHT va BRICS kabi tashkilotlar hamda o'zaro har tomonlama aloqalarning o'rnatilishi shular jumlasidan. Ikki davlat umumiy chegaralarga ega, oxirgi yillarda o'zlarining savdo iqtisodiy hamkorligini faol ravishda kuchaytirib bormoqda. Har xil sohalarda qo'shma siyosat va loyihalar yetarli darajada olib bormoqda Rossiya va Xitoyning birgalikdagi salohiyati ularning manfaatdorligi va kelajakga ishonchi va mintaqaviy hamkorlik va integratsiyani rivojlantirishning keng imkoniyatlarini ochib berishga asos bo'lmoqda bugungi kunda Xitoy va Rossiya federatsiyasi BRICS doirasidagi o'zaro aloqalarda manfaatdorlik namoyon bo'lmoqda. Bunday shakldagi sherikchilik iqtisodiy va siyosiy sohadagi davlatlarning xalqaro mavqeyini mustahkamlash qobiliyatiga ega davlatlar oldida yechimlari birgalikda hal qilinishi kerak bo'lgan umumiy tashqi siyosiy vazifalar



turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. To'xliyev N. Osiyo taraqqiyot modeli T.: "O'zbekiston" -2015. 161-b
2. Sirojov O. Markaziy Osiyo mintaqasida hamkorlik jarayonlari T.: "O'zbekiston" -2016.
3. Мясников В.О., академик РАН, зам. Директора Института Дальнего Востока РАН. Мы и Китай: Перспективы стратегического партнерства // Свободная мысль-XXI, №1, 2001г.
4. Мясников В. Оросийско-китайских отношениях в XXI веке //РАН, 09. 2001.
5. Цыганков П.А. Теория международных отношений. -М., 2002 г.
6. Цыганов Ю. Российско-китайские отношения и Тайвань-ИДВ, 2001 б. ТанШипин. Экономическая интеграция в Центральной Азии и китайско российские отношения-"AsianSurvey", 2000, vol. XL, №2, p. 360-376.
7. Хольбиг Х. Вступление Китая в ВТО в политической перспективе -взаимосвязь между переговорными процессами на национальном и международном уровнях. // China aktuell (Hamburg), 1999, Jg. XXVII, №12, S. 1251-1265.
8. Пекинская декларация Российской Федерации и Китайской Народной Республики. // Проблемы Дальнего Востока, 2000, №5, стр. 7
9. Сборник российско-китайских договоров 1949-1999. -М.,1999
10. Бородавкин А. Россия и Китай: пути добрососедства и сотрудничества // (Проблемы Дальнего Востока №5, стр. 12. 2009 г.)
10. Галенович Ю.М. Россия в "китайском зеркале". Трактаты в КНР в начале XXI века истории России и русско-китайских отношений.-М.:Восточная книга, 2011.-416с.
11. Галенович Ю. М. Китайские интерпретации. - М.: Восточная книга, 2011.-400с.



BUXORO-ISLOM MADANIYATI POYTAXTI (TARIX VA KELAJAK).

Boboqulov Oxunjon

Buxoro viloyati, Jondor tumani 27-maktab tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Buxoro shahrining kelib chiqishi, Buxoro toponomiyasi xususida va Buxoroning Islom madaniyati poytaxti haqida.

Kalit so'zlar: Siyovush, Narshaxiy, An, Bixor, Baxor, Foxira, ISESCO.

Buxoro yer yuzidagi qadimiy shaharlardan biridir. Buxoroning bunyod etilishi haqida mavjud ko'plab afsonalar ham uning qadimiy shahar ekanligini anglatadi. Uning tarixini yaratishga uringan dastlabki tarixchilar tomonidan tilga olingan afsonalar ichida Buxoro qa'lasining Siyovush tomonidan bunyod etilganligi to'g'risidagi afsona kishining diqqatini o'ziga tortadi.

Buxoro tarixchisi Narshaxiy Siyovush afsonasini esga olib, Siyovushni ko'handizning (qa'la) ichida sharq tomondagi darvoza yonida ko'milgan degan afsonani ham keltiradi. Buxoro otashparastlari bu joyni muqaddas deb sig'inganlar. Narshaxiy ko'rsatmalariga qaraganda shahar uzoq vaqtgacha xaroba holatida turgan va faqatgina milodiy VII asrda Buxorxudot Bedun davrida qayta tiklangan [1].

Buxoro nomini kelib chiqishi ham ko'pchilikka qiziq bo'lishi tabiiy. O'rta asrlarda O'rta va Yaqin Sharqda ilm-ma'rifat va madaniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan bu qadimiy shaharga „Buxoro“ nomi ham tabiatidan kelib chiqqan holda qo'yilgan. Buxoro nomi so'g'diycha ikki so'zdan „Bug' yoki bag“ va aro birikmasidan iborat bo'lib, bug'-tangri, xudo, aro esa bezak, sayqal degan ma'noni anglatadi. Agar ikki so'z asosida „Buxoro“ atamasi beriladigan bo'lsa, Xudo sayqal bergan o'lka, Tangri nigohi tushgan joy yoki „Tangri jamoli degan mazmunni anglatadi [2].

Buxoro turli davrlar, turli tarixiy manbalarda turlicha nomlar bilan atalgan. Masalan, Vixara (qadimgi sanskritda), An (xitoy tilida), Bixor (Zardushtiylarda), Ilmlar jam bo'lgan joy (Juvayniyda) Ilm ko'p joy (Burxon qotida), Ilm (G'iyos ul lug'otda), Buxor (uyg'urchada), Baxor (Farxangi lug'oti Shohnomada), Foxira, Madinat ut-tujjor, Madinat us sufriya, Bumijkat, Numijkat, Mis shahar (Narshaxiyda Lug'atnomayi Dehxudoda. "Buxoro" so'zining ma'nosi "ilm" demakdir. Chunki aksariyat olimlar, fozillar, xukamolar (xokimlar), adiblar shu yerdan yetishib chiqqan. Buxoro qadimda ibroniy tilidagi "Bixor" nomi bilan atalganki, bu so'zning ham ma'nosi "ilm" demakdir. Ahmad bin Nasr o'z kitobida Buxoroni "Bumiskat" deb tilga oladi va Buxoro shaxrining ko'p nomlarga ega bo'lganligini ta'kidlaydi. U yozadiki, "Madina al-a'sar", "Shaxristoni ru'in", "Madinat ut-tujjor" nomlari Buxoroning faxrli nomlaridandir. Hazrat Sulaymon forsiy hazrat Muhammad sallaloxi alayxi vasallamdan rivoyat qilib yozadi: "Rasuli akram sallaloxi alayxi vasallam Rasuli Jabroildan so'radilar: Buxoroni nega "Foxira" deyдилar. U javob berdi: "Buxoro o'z bag'rida o'tgan shahidlar sonining ko'pligi bilan boshqa shaharlarga nisbatan iftixoridir" [3].

Arablar bosqinidan keyin, vohada islom asoslari o'rnatilgach bu yer IX asrda boshlangan Musulmon Rennessansi markazlaridan biriga aylandi. Bu juda yorqin va murakkab jarayon bo'lib, uning qirralari juda keng ko'lamlidir. Tarixiy dalillarga tayangan holda, IX-XI asrlarda Buxoroda madaniyat juda tez o'sganligi jahonga mashhur bo'lganligini baralla ovoz bilan aytishimiz mumkin. O'sha paytdagi mashhur qomusiy olimlardan Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, mashhur shoirlardan Abdulla Jafar Rudakiy, Daqiqiy va yana qanchadan qancha olimlarni Buxoro tarbiyaladi desak noto'g'ri bo'lmaydi

Bekorga 2020-yilda ISESCO tomonidan Buxoro Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinmadi. ISESCO tomonidan shaharlarni Ilom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishida:

- Qadimiy islom yodgorliklari va me'moriy obidalar;
- Islom madaniyatiga hissa qo'shadigan ilmiy, madaniy asarlar;
- Ilmiy tadqiqot markazlari, qo'lyozmalar markazlari va arxeologik markazlari;
- Madaniy muassasalar o'tkazgan festivallar, madaniy tadbirlar, kitoblar, rasmlar, tajriba ishlari va nashr ishlari;
- Shahar tarixi haqida yuqoridagi talablar asosida ma'lumotlarning mavjudligiga asoslanadi.

Hozirda ham Buxoro ahli ilm-fanda yuqori o'rinnlarni egallaydi. Tabiati ham nomiga mos. Chunonchi, bekorga Buxoro xoni Shayboniyxon Buxoroni Ka'ba darajasida ulug'lamagan!!!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Narshaxiy „Buxoro tarixi“. Toshkent. Fan. 1966.



2. Barakayev. J., Haydarov. Y., Buxoro tarixi'' (Eng qadimgi davrdan oktabr inqilobigacha). Toshkent. O'qituvchi. 1991.
3. Sayyid Mansur Olimiy, „Buxoro-Turkiston beshigi“. Anqara. Turkiya. 1996.



O'ZBEKISTONDA SAYOHATNING YANGI TURLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Normuradova Mahbuba,
Samarqand viloyati, Paxtachi tumani,
3-maktab o'qituvchisi
Turaev Alisher,
Samarqand viloyati, Paxtachi tumani,
3-maktab o'qituvchisi**

Kalit so'zlar: Ekologik turizm, "Ekosan", ba'diy muzeylar, xalq-amaliy san'at muzeyi

O'zbekiston ekologik turizm va uning sarguzasht turlaridan rafting, trekking, miniladigan turizm ("door of road"), agroturizm, alpinizm va boshqa sport turlarini rivojlantirish uchun boy imkoniyatlarga va o'ziga xos xususiyatlariga ega. Ekoturistlar uchun qiziqarli bo'lgan obyektlar, ya'ni alohida muhofazaga olingan hududlar doirasidagi turli tabiiy va madaniy vujudga kelgan landshaftlar, o'simlik va hayvonot olami resurslari, kam uchraydigan va kamayib borayotgan organizmlar genofondi, ajoyib tabiat komplekslari, tabiat yodgorliklari ekoturizmni rivojlantirishning muhim asosi hisoblanadi. Ekologik turizm nuqtai-nazaridan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tayanch hududlar sifatida qaralmog'i lozim. G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'zlarining tabiiy landshaftlaridan allaqachon mahrum bo'lganliklari sababli, yildan yilga boshqa mamlakatlarning tabiatiga bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Shuning uchun turistik resurslardan samarali foydalanishda tabiat muhofazasining o'rni katta. Ekologik turizm hozirgi kunga kelib jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan turizm sohasiga aylandi. O'zbekistonda ekoturizm rivojlanishi tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni vatanimizga jalb etish, noyob o'simliklar va hayvonot dunyosini saqlash, ko'paytirish muammolarini hal qilishga, balki mahalliy aholini ish bilan ta'minlab iqtisodiyotimizni rivojlantirishiga katta hissa qo'shadi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston hududida - qo'riqxonalar, milliy bog'lar, tabiatning nodir yodgorliklari mavjud. O'zbekiston hududining muhofaza etilayotgan tabiiy hududlar tarkibida 2164 km² maydonni tashkil etgan 9 ta davlat qo'riqxonasi, 6061 km² maydonni tashkil etgan 2 ta milliy bog' va noyob turlarga kiruvchi hayvonlarni ko'paytirish "Jayron ekomarkazi", 12186 km² maydonni tashkil etgan 9 ta davlat buyurtmaxonalari mavjud. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni umumiy maydoni 20520 km², yoki O'zbekiston hududining 5,2 % ni tashkil etadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yetarli darajada shart - sharoitlar, infratuzilma, hamda moddiy - texnik bazasining, servis xizmatlarini yaxshi yaratilmaganligi mamlakatimizda ekoturizmni rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu munosabat bilan, Yo'nalishlar hozircha Zomin milliy bog'i va Nurota qo'riqxonalariga uyushtirilgan. Undan tashqari ekoturizmni rivojlantirish maqsadida Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi va uning yaqin kelajakdagi istiqbollarini ishlab chiqdi. O'zbekiston tabiati rang - barang bo'lib, yilning issiq vaqtlaridan tashqari, qish va kuz fasllarida ham dam olishni tashkil etishni imkoniyati mavjud. Misol uchun tog'li hududlarda qishki sport - dam olishni amalga oshirish mumkin. Toshkent viloyatida joylashgan Chimyon sport - dam olish majmuasi katta imkoniyatlarga ega. Bu yer osti suvlari kimyoviy tarkibi, tibbiy - biologik va boshqa xususiyatlariga kadio'ra bir - biridan farq qiladi. Shuning uchun bu joylarda turli shifoxonalar, sanatoriy - kurortlar va boshqa sog'lomlashtirish muassasalar qurish mumkin. Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon, Sangzor, Ohangaron va boshqa bir qancha daryolarga oqib tushuvchi tog' soyliklari rekreasiya resurslariga boy bo'lib, bu mintaqalarda dam olish oromgohlarini tashkil etish ko'paysa, birinchidan, aholini salomatligi yaxshilanadi, ikkinchidan, shu joy aholisi ish bilan ta'minlanib, iqtisodiy daromad oshadi. Muzei turizmi turizmning xilma-xilligi bo'lib, o'ziga xos xususiyati muzeylar va ularga yondashgan hududlardan turistik potensial sifatida foydalanish. Muzeilar va turizmning hamkorligi tarixiy madaniyat va tabiat hududlari tizimi shakllanishiga asoslangan. 42 Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 110 muzei bor. Ularning 28tasi (shu jumladan yirik muzeylarning filiallari ham) vazirlik ixtiyorida. Turli kolleksiyaga ega bo'lgan muzeylarning mavjudligi O'zbekistonning ijtimoiy va madaniy rivojlanishini xususiyatlarini aks etdiradi. Muzeilar madaniy, tarixiy, badiiy me'rosimiz, xalqlar dini va e'tiqoti, ularning an'analari bilan tanishtirib, yoshlarimizni vatanparvarlikka va buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishga o'rgatadi. Respublika muzeilarining ichida 3 ta muzei-qo'riqxonasi: Samarqand, Buxoro, Xiva ("Ichan-Kala"); 3ta yirik badiiy muzeilari: O'zbekiston Davlat san'at muzeyi (Toshkent shahari); Davlat xalq-amaliy san'ati muzeyi, Nukus shaharidagi Saviskiy nomidagi Davlat san'at muzeyi mavjud. O'zbekiston Respublikasi hududida turizmning maxsus turlarni rivojlantirish, ularni kengroq targ'ib etish butunjahon turizm olamida yurtimizning omad sari tashlangan samarali qadami bo'lgan bo'lar edi. Turizmdagi maxsus turlar hozircha turizm turlari



emas. Maxsus turlarning ayrim turlarini hozirdanoq ommaviylashtirishning katta imkoniyatlari bor. Masalan, tobora unutilib borayotgan dorbozlik o'yinlarini qaytadan tiklash, doimiy dorbozlik maskanlarini belgilash lozim. Bunday holatda turistlarni bu o'yinlarga taklif qilish vaqtlari aniq bo'ladi. Xuddi shuningdek, ko'pkari-uloq 2-3 oy davom etadigan, turistlarning katta oqimlarini o'ziga jalb qiladigan g'oyat qiziqarli turistik obyekt. Bu turni ommaviylashtirish uchun eng muhim muammo turistlarni kutib olish, xizmatlarni tashkil qilish, joylashtirish, dam olish, ovqatlantirish va tunashi sharoitlarini tashkil qilish ishlarining haligacha boshlanmaganligidir. Ma'lumki, xalqaro turistlar oqimi Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Farg'ona vodiysi va Shahrisabz shaharlarida kuzatilmoqda. Bu turistlar asosan tarixiy va madaniy obidalarga va ziyoratgoh joylarga tashrif qilmoqdalar. Ana shu turistlarni ushbu shaharlardagi maxsus turizm turlariga takliflar qilish, qiziqtirish usullarini qo'llash vaqti keldi nazarimda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibragimov.N.S "O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinasion menejment konsepsiyasini qo'llash" Avtoreferat. Samarqand - 2008.
2. F.S. Qulimurotov, "Turizm infratuzilmasi", o'quv qo'llanma. -Toshkent 2007.
3. X. Abulqosimov. "O'zbekistonda turizmni rivojlantirish muammolari va istiqbollari". Magistirlilik dissertatsiyasi. TDIU 2005 - 81 b.
4. "Finansi i statistika". Moskva, 2003.



TARIX DARSLARIDA ZARDUSHTIYLARNING TA'LIM TIZIMINI O'RGANISH

O'rinova Dilnoza,
Navoiy viloyat Xatirchi tuman 31-maktab
tarix fani o'qituvchisi

Tariximizdan ma'lumki, yakkaxudolik e'tiqodiga asoslangan zardushtiylik dini budparastlik, otashparastlik e'tiqodiga qarshi uzoq davom etgan kurash jarayonida miloddan oldingi VII asrning oxiri va VI asrning birinchi choragida Xorazmda shakllangan. Bu dinning muqaddas kitobi "Avesto" Zardusht va ulamolar tomonidan yozilib, ta'rtif berilgan. Kitobda o'sha davrdagi ijtimoiy siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotning barcha sohalarini, jumladan ta'lim tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Mazkur yodgorlikdagi ayrim qayd va ishoralar, nom va atamalarga ko'ra zardushtiylikning ilk kurtaklari paydo bo'la boshlagan, eramizdan oldingi IX asrdayoq hozirgi Movarounnahr va Xuroson xalqlari yashagan mintaqalarda ta'lim tarbiya juda yaxshi rivojlangan. Barcha qavm va qabila ahillari orasida "lajom zadan" (otga suvliq solish), "zin zadan" (Otni egarlash) "kamarbastan" odatiga qat'iy amal qilingan. Ko'hna sarchashmalar va "Avesto" dagi dalillar ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida kundalik hayot uchun zarur barcha bilimlar o'qitilgan, hunarlar o'rgatilgan. Masalan, chorvachilik bilan shug'ullanadigan qavmlarda ko'proq shu sohaga doir hunar va malakalar o'rgatilgan. Qiz bolalarga yungdan ip, yigirish urchuq va charxda ishlash, har xil liboslar to'qish, tikish, yung olishni bilish shart bo'lsa, o'g'il bollar mollarni boqish, urchitish va ko'paytirish, tuya, otlarni parvarishlash, ularni boshqara olish, uzoq yaylovlarga suruv haydash, chorvoni daranda hayvonlar, qorachig'idan muhofaza qilish, o'ttiz ikki harbiy hunarni bilishlari majburiy bo'lgan. Ana shu malakalar hosil bo'lgach, qizlar 15 o'g'il bolalar 17 yoshdan "lajom zadan" va "zin zadan" imtihonidan o'tgan. Natijada ular balog'at yoshiga yetib, ro'zg'or yuritishni o'rganib, "kadbonu" (uy bekasi) va "kad hudo" (uy xo'jasi oila boshlig'i) bo'lish chupon-chulig'ini olib, ot, tuya minib yurish huquqini qulga kiritgan. Alohida iqtidorli yigitlar esa chavondoqlikka maxsus tayyorlangan, harbiy hunarlar o'rgatilgan.

Hunarmandchilik, dehqonchilik bog'dorchilik bilan shug'ullanadigan hududlarda yigitlar "kamarbastan" rasmidan o'tishgan. Bunda qavm oqsoqollari yig'ini har bir yigitni ota kasbidan tashqari, harbiy bilimlar, chavondoqlik, kurash tushish, "kuhnavardlik" (har xil tusiqlarda oshib kechib o'tish) bo'yicha imtihondan o'tkazgan. Aftidan harbiy ta'limga etbor berilgan. Zero "Avesto"da 50 dan ziyod harbiy qurollarning, jumladan, shahar va qala devorlarni buzishda ishlatiladigan, ulkan toshlarni otadigan palaxmon, sovut ostidan kiyiladigan misdan to'qilgan yupqa kamzullar tilga olingan. Bu dalillar ajdodlarimiz hunarmandchilikning barcha turlarini rivojlantirishga e'tibor berilganligini ko'rsatadi.

Zardushtiylik rasman qabul qilingach, ibodatxona huzirida podshoh tasarufidagi maxsus maktablar ochilgan, ularning ta'lim tizimi ishlab chiqilgan. Bolalar 4 yoshgacha ota-ona qo'lida, 5 yoshdan 8 yoshga qadar xususiy muallimlar nazorati va tarbiyasida bo'lgan. Qizlar 15 yoshgacha, o'g'il bolalar 17 yoshgacha jamoat ixtiyoridagi maktablarda ta'lim olishgan. Ularga ma'qul (diniy) va manakul (dunyoviy) bilimlar mutanosib tarzda o'qitilgan. Ular otashkada tasarrufidagi darmongoh (poliklinika), sihatgoh (kasalxonalar) larda o'tishgan o'qish bevosita ishlab chiqarish bilan, foydali mehnat bilan qo'shib olib borilgan. Masalan, o'qituvchi, talabalar "qilni qirq yoradigan" ustozlar rahbarligida dorivor o'simliklar yig'ishga jalb etilgan ibodatgoh ixtiyoridagi vaqf yerlarda turli yumishlar bilan shug'illanishgan. Ta'lim jarayoniga asta-sekin matematika, astronomiya, tibbiyot bilimi, gigiyena singari fanlar ko'piroq kirib borgan. Yoshlarning ma'naviy kamolatini ko'zlab, ularga zardushtiylik dini asoslari, Axuramazdaning farzlari-yu Zardusht o'g'itlari puxta o'qitilib, kalomi bade' asoslarga suyangan holda, harflar maxsus yodlantirilgan. Ikkinchi tomondan, uch yaxshi ishda suskashtlik qilmaslik, andeshai nek (yaxshi hулq), guftori nak (yaxsh so'z) kirdori nek (yaxshi amalni) ni hamisha yodda tutish hamda yomon ishlardan yuz ugurishga odatlantirilgan.

Ahuramazda tomonidan buyurilgan farzlar hamda zardusht o'g'itlardagi kursatmalarni to'la bajaradigan, har jihatdan pok, yuksak ahloqlik me'yorlarini o'zida namayuvon etgan, ustoz nasihatini olgan dindor oq matodan chakmon, kuylak keyib ustida yupqa harir kamar bog'lab yurishi rasm bo'lgan. Qish paytlarida ham asosiy libos ostida sidra kiyib yurish shart bo'lgan. Bu odat yaqin XIII asrgacha davom etgan bizningcha muqanna boshchiligidagi qo'zg'olonchilarning oq libos kiyib yurganligi ham ana shu an'ana bilan bog'liq bo'lsa ehtimol. Har bir zardushtiyning pok niyat, halol qilib voyaga yetkazish talablaridan kelib chiqib "Avesto"da tarbiyachilar va muallimlarning burchlari belgilangan. Ustoz haqida gap ketganda "Avesto" ning bir necha o'rnida "ustozlar-ustoz" "barcha bilim hunarlarining kaliti" yuzdon madh etiladi. U hamma narsaning



yaratuvchisi, har ikki olam sirini bilguvchi, bandalariga tafakkur in'om etuvchidir.

Zardusht esa barcha pok niyat odamlarga buyurgan ilmlarni "yaxshilik yusini ila o'rgatib, ularni yaxshi bilan yamoni ajrata oladigan qiladi, ularni to'g'ri yulga hidoyat etadi" deyiladi. Ustozlar: "sog'lom, aql -hushli farzandlarni, jasur, dono va to'rli tillarni biladigan o'g'il-qizlarni, elni balo-qazolardan himoya eta oladigan o'g'lonlarni, porloq hayotni ravshan ko'z bilan ko'ra oladigan avlodni" tarbiyalaydi. "Yomon ustoz hayot chirog'ini sundiradi. Ular johillarni buyuk bilib, eng mu'tabar ayol erkaklarni tangri yo'lidan qaytaradilar. Ular o'z nodonliklari bilan xalqni eng yaxshi hislatlardan yuz o'girtiradilar. Jahon xalqlari hayotini yolg'on gaplar bilan parishon qiladilar.

Zardusht Tangri bilan muloqoti bayonida ham yaxshi va yomon ustozlar haqida mulohazalar ko'p. "Noshud, yomon muallim o'quvchi qalbidan xiradmandlikni yo'qotar ekan, ey yazdon, yomon ustozdan o'z panohingda asra", - deydi Zardusht yaxshilik timsoli O'sha tarafga bag'ishlagan sahifalarda ham ta'lim-tarbiyaga xususan, ma'naviy tarbiyaga doir diqqatga molik mulohazalar bor. Xullas, eng ko'hna yodgorligimiz "Avestoda" da ta'lim-tarbiyaning ayrim jihatlari haqidagi qiziqarli dalillar anchagina. Ta'limning amaliy tomonlari, ustozning yosh avlod tarbiyasi, jamiyat oldidagi burch haqidagi ana shu mulohazalar hanuz o'z qimmatini yo'qotgan emas. Xulosa o'rnida ayatishimiz mumkinki, biz o'quvchilar ongiga durdona asarlarda bayon etilgan qimmatli ma'lumotlarni yetkazib bera olsak, ularni boy tariximiz va madaniyatimiz bilan yaqindan tanishtirishga yordam bergan bo'lamiz.



SHAROF RASHIDOVNING DIPLOMATIK SALOHİYATI HAMDA XALQARO MAYDONDA TINCHLIK UCHUN QO'SHGAN HISSASI

Azimova Mabuda
Qaxxarov Xusnidin
Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani
58-sonli maktab o'qituvchilari

Sharof Rashidov nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro maydonda ham katta obro'ga ega bo'lgan shaxs hisoblanadi. Sharof Rashidov o'z davrining mashhur vatajribali diplomati bo'lgan, desakayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Uning tashabbusi bilan Toshkent shahrida "Toshkent ruhi" yoki "Toshkent uchrashuvi" nomi bilan kirgan tarixiy voqea bo'lib o'tadi. Hindiston bilan Pokiston o'rtasida 1965-yil ro'y bergan qurolli to'qnashuvni hal qilish maqsadida Pokiston prezidenti M. Ayubxon bilan Hindiston hukumati rahbari L.B. Shastrining uchrashuvi (1966-yil 4 - 10-yanvar). Uchrashuv SSSR Ministrlar Soveti Raisi A.N. Kosigin ishtirokida o'tgan. Toshkent uchrashuvida Toshkent deklaratsiyasi imzolanib, unda mamlakat o'rtasidagi janjalli masalalarni tinch yo'l bilan hal qilishga kelishilgan. Ijtimoiy taraqqiyot qonuniyati mana shunday. Davr taqozosi ana shunday. Tarix hukmi ana shunday. Toshkent deklaratsiyasi tarixiy ahamiyatga molik hujjat bo'ldi. Unda Osiyodagi ikki qo'shni davlat - Hindiston bilan Pokistonning tinch-totuv yashashi uchun zamin yaratilgan edi.

Har ikkala davlat boshliqlari Toshkent deklaratsiyasida o'z mamlakatlari o'rtasida normal va tinchlik munosabatlarini qayta tiklashga, o'z xalqlari o'rtasida hamjihatlik va do'stona aloqalarni o'rnatishga ko'maklashishga azmu qaror qilganliklarini tantanali ravishda e'lon qildilar. Ular kuch ishlatmaslik hamda bahslarni tinch yo'l bilan hal etish yuzasidan o'z zimmlariga olgan majburiyatlarni tasdiqladilar.

Ular har ikkala mamlakatning harbiy kuchlari 1965-yil 5-avgustga qadar egallagan mavqeyiga qaytariladi, har ikkala tomon o't ochishni to'xtatish haqidagi shartlarga rioya qilib boradi, Hindiston bilan Pokiston o'rtasidagi munosabatlar bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplari asosida olib boradi, har ikki mamlakat o'rtasida do'stona aloqalarni rivojlantirishga yordam beruvchi propandaga amal qiladi, deb kelishib oldilar. Hindiston bilan Pokiston hukumatlarining rahbarlari har ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlarni tiklash, iqtisodiy, savdo-sotiq va madaniy aloqalarni yana boshlab yuborish haqida, harbiy asirlarni ayirboshlash, ikkala mamlakatga taaluqli masalalar bo'yicha ham eng oliy, ham boshqa darajalardagi uchrashuvlarni davom ettirish to'g'risida bir bitimga keldilar.

Toshkentda bo'lib o'tgan Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilarini xalqaro anjumani ham aynan Sharof Rashidovning nomi bilan bevosita bog'liq tushunchadir. 1958-yil oktabr oyida Afrika va Osiyo mamlakatlarining vakillari o'zlarining yangi anjumanlariga to'plandilar. Bu gal bu yig'in O'zbekistonning poytaxt Toshkentda o'tkazildi. Bu yerda Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilarining Birinchi birdamlik konferensiyasi bo'ldi. Konferensiyada ikki buyuk qit'aning taniqli adabiyotchilari bir-birlari bilan ilk dafa shaxsan ko'rishib, aloqa o'rnatdilar. Toshkent konferensiyasining so'nggi daqiqalari aslo esdan chiqmaydi. G'oyat hayajonli damlar edi u. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat opera va balet Katta akademik teatrining ulug'vor zalini liq to'ldirib o'tirgan delegatlar konferensiya yopiq deb e'lon qilingandan keyin gur etib o'rinlaridan turdilar, gulduros qarsaklar boshlanib ketdi. Yozuvchilarning o'z xalqlariga, birdamlik prinsiplarigasadoqat qasamyodi edi. Ularning saflari qanchalik jips ekanligini, milliy vasotsial ozodlik, yorqin kelajak yo'lida, yer yuzida tinchlik barqaror bo'lishi yo'lida xalqlar olib borayotgan kurash ishiga ular o'z iste'dodi va qalb ko'rini bag'ishlashga tayyor ekanliklarini ko'rsatuvchi yaqqol dalil edi bu.

Toshkent konferensiyasida Osiyo va Afrika mamlakatlarining yozuvchilarining birdamlik binosi poydevoriga ilk g'isht qo'yildi. Bu konferensiya keyinchalik Osiyo va Afrikaning bepoyon sarhadlari osha qudarotli to'lqin bo'lib mavj olgan yozuvchilar harakatini boshlab berdi. Osiyo va Afrika mamlakatlarining yozuvchilari "Toshkent ruhi"ga sodiq bo'lib qoldilar. Toshkent konferensiyasi g'oyalari 1961-yil noyabr oyida Qohirada to'plangan yozuvchilar konferensiyasining muhitini belgilab berdi. Sharof Rashidovni biz bejizga mohir diplomat deb aytganimiz yo'q. Chunki u o'z davrida uchinchi jahon urushini to'xtatib qolgan shahsdir. Bizga tarixdan ma'lumki, 1959-yilning 1-yanvarida Fidel Kastro Kubada inqilobiy harakat g'alaba qozonganini e'lon qildi. Diktator Batista mamlakatdan qochib ketishga majbur bo'ldi. Bu o'z navbatida AQSH uchun katta yo'qotish edi. Avvaliga Vashington isyonkorlar harakatiga betaraflik maqomida bo'ldi. Biroq Fidel Kastroning hatti-harakatlari Vashingtonga yoqmasligi aniq edi. Chunki Fidel Kastroning Moskva tomon yuz burishi aniq bo'lib qolgandi. AQShning yangi prezidenti J. Kennedi aksilkuba siyosatni davom ettirdi. 1961-yilning 4-



aprelida AQSh milliy xavfsizlik kengashi yig'ilishida Kubaga bostirib kirishni ko'zlovchi "Pluto" nomini olgan reja qabul qilinadi. Biroq bu reja barbod bo'ladi.

1961-yilning noyabr oyida AQShda "Mangusta" nomini olgan o'ta maxfiy reja ishlab chiqildi. 1962-yilning yanvar oyida Kuba Amerika Davlatlari tashkiloti saflaridan chiqarildi. Bir vaqtning o'zida Kubaga nisbatan savdo embargosi joriy qilindi. Orolga qo'poruvchi - terror guruhlarini tashlandi. Bu o'z navbatida armiyani qurol-yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlanishini taqozo qilardi. Umid faqat Kremldan edi. Moskva so'zsiz Fidel Kastroni qo'llab-quvvatlashga qaror qildi va ikki marta (1960-yilning 9 va 16-iyulida) bu haqda Amerika ma'muriyatini ogohlantirdi. Aynan o'sha yilning iyul oyida Moskvaga Fidel Kastroning ukasi - Kuba Inqilobiy Qurolli kuchlari vaziri Raul Kastro yetib keldi. Erishilgan bitimga muvoffiq Moskva Gavanaga qurol-yarog', zamonaviy zirxli tanklar, artilleriya va o'q otar qurollarini yetkazib bera boshladi. Shuningdek, Kubaga qishloq xo'jaligi mutaxassislari nomi ostida harbiy mutaxassislar va maslaxatchilar yuborildi. Shu bilan birga Moskva Kubaga yadro kalvakchali raketalarni joylashtirish rejasini e'lon qildi. 1962-yilning may oyi boshlarida Kremlda N. S. Xrushyev, A.I. Mikoyan, F.R. Kozlov, SH.R. Rashidov, mudofaa vaziri R.Ya. Malinovskiy, tashqi ishlar vaziri A.A. Gromiko, Strategik ahamiyatdagi Raketa qo'shinlari qo'mondoni S.S. Biryuzov ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tadi. Kubaga yadroviy raketalarni joylashtirish borasidagi yakuniy qaror 24-mayda bo'lib o'tgan Mudofaa vazirligi Kengashining kengaytirilgan majlisida qabul qilinadi. Shundan so'ng muzokoralar olib borish uchun Gavanaga yuboriladigan delegatsiya tasdiqlanadi. Chunki buning uchun Gavana hukumatining roziligi kerak bo'lardi. O'sha vaqtdagi SSSR rahbari N.S.Xrushyevga Kuba inqilobchilari bilan muzokoralar olib borish uchun tajribali diplomati kerak edi. Tahlilchilarning so'zlariga qaraganda, bu borada N.S.Xrushyev deyarli hech kim bilan maslahatlashmagan xolda Sharof Rashidovni tanladi. Shu tariqa, go'yoki qishloq xo'jaligi borasida tajriba almashish maqsadida, Kubaga yo'l olgan delegatsiyaga O'zbekiston rahbari Sharof Rashidov boshchilik qiladigan bo'ldi. Unga Strategik ahamiyatga ega Raketa qo'shinlari qo'mondoni, Marshal S. Biryuzov, aviatsiya general-leytenant S. Ushakov, general-mayor P. Ageev va boshqalar hamrohlik qildi.

Sharof Rashidov Fidel Kastroga Kreml rejalarini bildirishi kerak edi. Biroq Moskvaning rejalarini Fidel Kastrodan orozilik kayfiyatlarini keltirib chiqardi. Ammo Sharof Rashidov bor diplomatik mahoratini ishga solib "kommandante" Fidel Kastroni ishonitirdi. O'sha yili iyun oyi so'nggida Moskvaga kelgan Raul Kastro Kuba rahbariyatining roziligini ma'lum qildi.

Shundan so'ng "Anadir" nomini olgan mutloqo maxfiy reja ishlab chiqildi. Nomdan ham ko'rinib turibdiki, bu go'yoki mamlakatning shimoliy xududlarida qandaydir tadbir bilan bog'liqdek edi. Shunday qilib uchinchi jahon urushini oldini olishda Sharof Rashidovning xizmati kattaligini eslatib o'tishimiz shart.

ADABIYOTLAR

1. Рашидов Ш. Асарлар. Бешинчи жилд. -Т.: ?афур ?улом. 1983.
2. Рашидов Ш. Асарлар. Учинчи жилд. -Т.: ?афур ?улом. 1982.
3. Рашидов А. Р. Акам ?а?ида. -Т.: Фан, 1992. - 37 б.
4. Ризаев С. Шараф Рашидов штрихи к портрету. -Т.: Ёзувчи - Нур, 1992
5. Бобоматов Т., Эргашев Ш. XX аср: та?дирларда акс этган тарих. -Т.: О`zbekiston, 2014. - 214 б.



TARIXIY OBIDALARGA EKSKURSIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING SAMARALI JIHALARI

Nazokat Rasulova Abdurahimovna
Toshkent shahar Olmazor tumani
261-maktab tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarix fanidan dars beruvchi o'qituvchilar uchun umumta'lim maktabi o'quvchilarining fang abo'lgan hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida tarixiy obidalarga ekskursiya darslarini tashkil etishning foydali jihatlari muhokama qilinadi. Tadqiqotda o'quvchilarning tarixiy tafakkuri o'sishi bilan bog'liq jarayon va Konstitutsiyamizning 49-moddasiga asosan madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish zarurati izohlandi.

Kalit so'zlari: Ekskursiya, obida, kompetensiya, madaniy meros, tarixiy tafakkur, ko'hna tarixiy yodgorliklar.

"Tarixiy ziyorat - ta'limiy saodat"

Yurtimizda boy tariximiz va madaniyatimizni ifoda etadigan moddiy boyliklarimiz muhim tarbiya vositasi hisoblanadi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy boyliklar bitmas-tuganmas xazina yosh avlod ongiga singdiriladigan, ularni o'z yurti tarixi bilan faxrlana oladigan kadrlar qilib tarbiyalaydigan bebaho omillardan biridir.

"Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi"[1:22]

Tarix fani o'quvchilarimiz ongida o'tmishni gavdalantira olishdek murakkab jarayonlarni qamrab oluvchi fan. O'tmish haqidagi fan yuzasidan egallangan nazariy bilimlarning amaliyotdagi ifodasi sifatida tarixiy obidalarimiz qad rostlagan joylarga ekskursiya darslarini tashkil etish yoki muzeylarga sayohat uyushtirish fan o'qituvchilari uchun mavzuni mustahkamlashdagi eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Tarixiy obidalarga ekskursiya darslarini tashkil etishning samarali jihatlari:

- O'zbekiston tarixining davrlari, ijtimoiy tuzumlar, ularning atalishiga mos xususiyatlar haqida tasavvurga ega bo'ladilar;
- Tarixiy obidani o'z ko'zlar bilan ko'rish o'quvchida darsda egallangan ma'lumotlarni yana takrorlanishi va obida haqida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish istagini kuchaytiradi;
- Asr va yil hisobini bilish orqali tarixiy tafakkurga ega bo'ladilar;
- Tarixiy obidalarni barpo etgan shaxslar haqida, tarixiy jarayonlarga mustaqil munosabatlarini bildira oladilar;
- Milliy me'morchilik an'analari, binokorlik, xattotlik, xom-ashyolar haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar;
- O'qituvchi darsi yuzasidan belgilangan kompetensiyaviy maqsadga erisha oladi;

Eng muhimi, ekskursiya darslari orqali o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyat bilan bog'langan holda tarixiy obidalarga hurmat, ularni muhofaza qilish kabi tuyg'ularni shakllantira olish bilan ahamiyatlidir.

"Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida: "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidir" [2:17] deya ta'kidlab qo'yilgani ham o'quvchilarning ekskursiya davomida egallagan ma'lumotlarining asosini tashkil etishi shubxasiz.

Albatta, biz ona zaminimiz bag'ridagi har bir moddiy va ma'naviy meros namunasini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, qayta tiklash va ta'mirlash bo'yicha qilayotgan bu ishlarimizni kimgadir namoyish qilish, ko'z-ko'z etish uchun emas, aksincha, kelajagimizni o'ylab, ongimiz va qalbimiz da'vati bilan amalga oshirmoqdamiz. Toki ertaga bizning o'rnimizga keladigan, biz boshlagan olijanob ishlarni munosib davom ettirishga qodir bo'lgan yoshlarimiz ana shu bebaho ma'naviy boylikdan bahramand bo'lsin, shu asosda o'zining kimligi, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini anglab yetsin.[3:5]

Xulosa o'rnida ayta olamizki, mustaqilligimiz sharofati bilan tarixiy-madaniy obidalarimizning deyarli barchasi ta'mirlanib, go'zal va obod maskanlarga aylantirildi. Milliy qonunchiligimizda madaniy merosni muhofaza qilishga oid qator hujjatlar qabul qilindi. Bizning vazifamiz esa, o'tmish va kelajak o'rtasidagi bog'liqlikni yanada mustahkamlash maqsadida o'quvchilarimizga ekskursiya darslarini tashkil etish orqali o'z



yurtlariga bo`lgan faxr hissini kuchaytirishdan iboratdir. Zero, yurtimiz ilm-fanning turli sohalarida butun dunyoga yetakchi allomalar yetishtirib bergani bilan mashhur. Bu haqiqat xalqimizga nisbatan boshqa xalqlarda havas uyg`otsa, bizning qalblarimizni shunday yurt farzandi ekanligimizdan faxrlanish tuyg`ulariga to`ldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov Islom Abdug`aniyevich - Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: "Ma`naviyat", 2008.
2. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent - "O`zbekiston", 2018.
3. U.Alimov - Hazrati Imom. - Toshkent - "Movarounnahr", 2013.



XX АСР ИЖТИМОЙ ИЛОҲОТЧИЛИҚДА ҲАМЗА ҲАКИМЗОДА НИЁЗИЙ ФАОЛИЯТИ: ТАЛҚИН ВА ТАКЛИФ

Исламов Шарифжон

ЎзРФА Шарқшунослик институти кичик илмий ходими

Тарихий шахслар фаолияти ўша давр жараёнларини ўрганишга хизмат қилса, иккинчи тарафи ёш авлодни иштиёқини шакллантиришга ҳисса қўшади. Шу боис ҳар бир давлат ўзининг тарихий қаҳрамонларини янгитдан кашф этиш, улар фаолияти кенг ўрганиш ва таълим жараёнларига киритишни давлат сиёсати даражасига кўтаради. Айниқса, шарқ маданиятида аждоқларга ҳурмат руҳида тарбиялаш ўзининг ижобий натижаси қафолатланган тарбия услубларидан бири ҳисобланади. Шарқнинг ўзига хос тарбия тизимини издан чиқариш, собиқ мустабид ҳукуматларнинг асосий мақсадлари бўлганлиги сир эмас. Мазкур сиёсат мустахлак ҳукумати манфаатларини таъминлар ва уларнинг ҳукумронлигининг қафолати эди. Шу боис ёшлар ва катта ёшдаги қатлам ўртасига раҳна солиш, ёшларнинг янги замон вакиллари, кекса ва диндорлар қатламини эскилик тарафдорлари сифатида талқин қилиш сиёсати кенг тарғиб этилди. Ёшларнинг алоҳида ажратиб олиш мақсадида уларни "хуррият", "мустақил яхшаш ва фикрлаш" каби шиорлар билан ўз истақлари йўлида фаолият юритишга тарғиб этиларди. Албатта, уларнинг фаолияти жиддий назоратга олинган бўлсада, маҳаллий тарбия тизимини издан чиқариш учун мазкур сиёсати устувор бўлди. Албатта, расмий ҳукуматнинг "сунъий хуррият" сиёсатини англамаган, том маънода мустақил бўлиш истагини билдирган барча ёшлар "ватан хоини" сифатида жисмонан йўқ қилинди.

Тадқиқотчиларнинг таълим олган муҳити ёки тадқиқот манбалари уларнинг олиб бораётган тадқиқотлари натижаларида ёрқин ўз ифодасини топади. Биз мазкур ҳолатни айниқса тарих ва манбашунослик йўналишидаги тадқиқотларда кўпроқ кузатамиз. Нисбатан узоқ тарихга эга бўлмаган совет даврида тарбия топган ёки ўша давр тадқиқотларидан фойдаланган тадқиқотчилар ҳулосаларида совет тузумининг ёндошуви ва замонавий сиёсатнинг манфаатлари қоришигини кузатамиз. Тадқиқотлар сиёсат манфаатларига мослашиши, аниқроғи, унинг мақсадларини тарихий фактлар асосида ёритишга асосланган тадқиқотлар шулар жумласидандир. Мазкур йўналиш илм-фан ёки жамият ривожига қай даражада манфаатли бўлишидан қатъий назар ўзига хос алоҳида йўналиш сифатида намоён бўлади. Масалан, Ҳамза Ҳақимзода Ниёзий фаолияти совет ҳукумати сиёсатида давр қаҳрамони сифатида идеаллаштирилганлиги, мазкур ёндошув собиқ тузумга тегишли эканлигини инобатга олиб, унинг номи берилган Ҳамза тумани номини ўзгартиришга ишора қилувчи мақола шулар жумласидандир. Мақоланинг қизиқ тарафи, унинг муаллифи келтирган аксарият далиллар собиқ тузум манбаларига асосланади. Яъни қанчалик муаллиф янги сиёсатга мослашишга ҳаракат қилмасин, у бевосита уни шакллантирган давр манбаларига асосланади ва бу табиий ҳолат. Шу билан бирга совет даврида ва ундан кейинги даврларда олиб борилган жуда кўплаб тадқиқотлардаги таниш ёндошувлардан бири бу "ўтмишдаги тарихга ва унинг иштирокчилари фаолиятига баҳо бериш". Мазкур ёндошув маҳаллий маданият талабларидан кескин фарқ қилган ҳолда совет сиёсатининг устувор мақсадларини ўзида акс эттиради. Қолаверса шарқ маданиятига кўра кекса авлодга баҳо бериш, уларнинг фаолиятини танқидий ўрганиш тушунчаси мавжуд эмас. Балки, уларни фақат яхши фаолиятларини ибрат сифатида ёд этиш орқали ёш авлодни тарбиялаш услуби мавжуд эди. Этик нуқтаи назардан олганда ҳам тадқиқотчи фақат ўтмишни ўрганиши, тадқиқ этиш, маълумотларни олиш ваколатига эга. Жараёнга ёки тарихий шахслар фаолиятига баҳо бериш учун эса камида ўша даврда қаҳрамони билан яшаган бўлиши лозим. Қаҳрамонига таъсир этган ташқи ва ички омилларни ҳис этган ҳолатига воқеълик ва фаолиятга баҳо беришга ҳақли бўлади.

Ҳ.Ҳ.Ниёзий ҳаёти ва фаолият йўналишлари тадқиқотлар, асарлар, манбуот нашрлари ва фильмларда турлича талқин этилади. Масалан, совет даври манбаларида у ўз даврнинг буюк қаҳрамони, халқ шоир, драматург сифатида талқин этилади. Айниқса СССР совет министрлиги буюртмаси асосида тайёрланган, унинг фаолиятига алоҳида эътибор қаратилган "Огненные дороги/ Оловли йўллар" фильми ўша давр тобошабинлари тасавурида "Ҳ.Ҳ.Ниёзий - совет қаҳрамони" симосини шакллантирган бўлиши шубҳасиз. Сиёсий тарғиботлар материаллари фильмда муваффақиятли тарзда талқин этилади.

Мустақилликнинг илк даврларидан бошлаб, Ҳ.Ҳ.Ниёзийнинг фаолияти, унинг қайси тузумга



мос эканлиги ҳақидаги баҳсларни кўпроқ учратамиз. Жумладан, "у даҳрий бўлганми ёки йўқ?" деган савол атрофида илмий ва оммабоп нашрларни кўп учратамиз. Мавзунинг ёритишда эса муаллифлар архив материаллари бўлаган ҳужжатлар, Ҳ.Ҳ.Ниёзий фаолиятига доир қайта чоп этилган замонавий манбалар асос қилиб олинади. Биринчидан, аслида, архив материаллари совет тузуми сиёсати эътиборидан четда қолишига катта шубҳа бор. Гарчун, Ҳ.Ҳ.Ниёзий номидан ёзилган автобиографик ҳужжатлар ўша давр тили ва ёзув услубида ёзилган бўлсада, совет сиёсатининг ёндошуви аниқ сезилиб туради. Иккинчидан, қайта чоп этилган тўпламлар ҳам мустақилликнинг илк йилларида совет даврида нашр этилган пьесалар ва шеърлари асосида тайёрланган. Шу боис улар орқали муаллиф ва унинг фаолиятига объектив баҳо бериш мураккаб.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, Ҳ.Ҳ.Ниёзий фаолиятини ўрганиш, унинг таклиф этган гоялари, уламолар билан бўлган зиддиятли тўқнашувлар, унинг сабабларини ўша давр ёзма манбалари асосида ўрганишни таклиф этамиз. Мазкур материаллар унинг фаолият даврига жуда яқин бўлганлиги боис объектив таҳлил ва хулоса чиқаришга асос бўлади.



ТУРКИСТОН АССРДА СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ СОЎЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИДА СИЁСАТИ.

Каромов Ф. ҚарДУ

Аннотация. Ушбу мақолада Туркистон АССРда соғлиқни сақлаш соҳасининг йўлга қўйилиши, вилоятларда даволаш муассасаларининг очилиши, ўлкада турли юқумли ва ижтимоий касалликларга қарши кураш тадбирлари ҳамда тиббий кадрлар муаммоси таҳлил этилган. Соғлиқни сақлаш тармоғини шакллантириш ва ривожлантириш ишига давлат бюджетидан ажратилаётган маблағларнинг камлиги, аҳолининг моддий жиҳатдан ночор ҳаёти, очарчилик, тез-тез такрорланиб турган эпидемиялар жиддий тўсиқ бўлиб турган. Туркистонда кам сонли даволаш муассасалари бўлиб уларнинг аксарияти йирик шаҳарларда фаолият олиб борган. Тизим фаолиятидаги бу каби ноҳуш ҳолатлар, қолаверса, профилактика ишларининг қониқарсизлиги ўлкани эпидемия ўчоқларидан бирига айлантирган.

Калит сўзлар: Туркистон, соғлиқни сақлаш, врач, аҳоли, касаллик, шифохона, амбулатория, эпидемия, санитария, бўлим, шаҳар.

Ключевые слова: Туркестан, здравоохранения, врач, населения, заболевания, больница, амбулатория, эпидемия, санитария, отделения, город.

Key words: Turkistan, healthcare, doctor, population, illness, hospital, dispensary, epidemic, sanitary, section, town.

Маълумки Ўзбекистонда давлат йўли билан соғлиқни сақлаш соҳасини йўлга қўйиш совет ҳокимиятининг илк давридаёқ бошланган эди. Буни биз Туркистон АССР мисолида кўришимиз мумкин. Соҳани йўлга қўйиш ишлари жуда оғир сиёсий ва иқтисодий қийинчиликлар шароитида амалга оширилган. Бу жараён ўта мураккаб тарихий шарт-шароитларга, хусусан мамлакатда сиёсий, ижтимоий-иқтисодий муаммолар кескинлашган, аҳоли маиший турмуш шароити ниҳоят қашшоқлашган, бир-бирига қарама-қарши кучлар тўқнашувлари кучайган, табиий офатлар туфайли қурғоқчилик ва бунинг оқибатида халқ орасида очарчилик ва йўқсиллик авж олган бир даврга тўғри келган.

1918 йил сентябрда Туркистон Халқ Комиссарлари Советининг тиббий муассасаларни Соғлиқни сақлаш халқ комиссарлиги ихтиёрига ўтказиш тўғрисидаги буйруғи эълон қилинган. Туркистон АССРнинг Сирдарё, Самарқанд, Фарғона ва Амударё вилоятларида соғлиқни сақлаш бўлимлари ташкил этилди. Масалан, Самарқанд вилояти соғлиқни сақлаш бўлими 1918 йил 12 апрелда тузилиб, вилоят соғлиқни сақлаш комиссари вазифасига ҳарбий врач В.В.Космачевский тайинланган. Вилоятда 11 та даволаш муассасаси бўлиб, уларда 154 та даволаш ўринлари мавжуд эди. Бўлим ходимлари тиббий хизмат тармоқларини йўлга қўйиш, профилактика ва санитария маорифи ишларини олиб бориш, эпидемияларнинг олдини олиш ва уларга қарши кураш чора-тадбирларини уюштириш, оналар ва болалар саломатлигини сақлаш юзасидан тадбирлар ташкил этиш ишларини олиб борган.

Туркистон аҳолисини даволаш ўринлари билан таъминлаш жуда оғир аҳволда бўлган. Масалан, бу даврда ҳар 1000 кишига даволаш ўринлари 0,38 тадан, туманларда эса бу 0,07 тага тўғри келган.

Туркистон ўлкасида соғлиқни сақлаш соҳаси раҳбарлари тез-тез ўзгартирилиб турилган. Масалан, 1917-1924 йиллар давомида соғлиқни сақлаш раҳбарлари 12 марта ўзгартилган. Шулардан Н. Ф. Баранкин, К. Я. Успенский, С. Турсунхўжаев, Т. Рисқулов, Г. Т. Трофимов, И. И. Орлов, С. Д. Асфандиёров, К. З. Геллер, Я. С. Дашев, Л. О. Гельфогт кабилар бу даврда соғлиқни сақлаш халқ комиссари лавозимида фаолият кўрсатишган.

Шунга қарамасдан Туркистон соғлиқни сақлаш соҳасида аста-секинлик билан баъзи ўзгаришлар амалга оширилиб, унинг моддий-техникасини мустаҳкамлаш, шаҳар ва қишлоқларда тиббий муассасалар тармоғини барпо этиш борасида тадбирлар олиб борилган. 1918 йил сентябрда Тошкент ҳарбий госпитали клиникаси лабораторияси базасида микробиология лабораторияси очилган. Тошкент шаҳри билан бирга Самарқанд, Андижон, Фарғона, Наманган шаҳарларида даволаш муассасалари тармоғи кенгайтирилган. Хусусан, Наманган вилоятда 60 ўринли эркаклар шаҳар шифохонаси, 30 ўринли аёллар шифохонаси, 30 ўринли юқумли касалликлар шифохонаси ташкил этилган.

Туркистон аҳолисининг кўпчилиги қисми чорвачилик билан шуғулланиб, бир-биридан узоқда



жойлашган манзилларда яшаб, ўзаро кам алоқада бўлишган. Бундай шароитда уларни даволаш муассасалари билан таъминлаш анча мушкул эди. 1922 йил РСФСРда 1 та даволаш ўрнига қишлоқ жойларда 1430 нафар киши тўғри келган бўлса, Туркистонда бу 2994 нафарни ташкил этган. Шунингдек, меъёр бўйича 314 кв. верст ҳудудга битта даволаш маскани тўғри келиши лозим бўлса, бу РСФСРда 2717 кв. верст, Туркистонда 23397 кв. верстга тўғри келди.

Бу даврда аҳоли турли юқумли ва ижтимоий касалликлардан азият чекиб келган. Безгак, шилпиқ(трахома), тери-таносил, сил каби касалликлар кенг тарқалган эди. Совет ҳокимиятининг дастлабки йилларида Ўрта Осиёнинг деярли барча шаҳарларида тез-тез эпидемия ўчоқлари пайдо бўлиб, кўплаб аҳоли масканларига тарқалган. Масалан, 1921 йили 29 та аҳоли масканида вабо эпидемияси юз бериб, 3315 нафар киши вабо билан рўйхатга олинган ва шундан 1179 нафари ёки 35,6 фоизи вафот этган.

Аҳоли орасида кенг тарқалган эпидемияларни тугатиш тadbирлари олиб борилган. 1922 йил февралда эпидемияга қарши кураш ҳафталиги эълон қилинган. Туркистоннинг қатор шаҳарларида ҳаммомлар мактаб ва интернат ўқувчилари учун очиб қўйилган. Бундан ташқари врачлар аҳоли орасида ич терлама, вабо, сифилис касалликлари бўйича маърузалар ўқишиб, тушунтириш ишларини олиб боришган.

Совет давлати санитария маорифини йўлга қўйишга ҳам ҳаракат қилган. 1923 йили Туркистон шаҳарларида санитария маорифи уйлари ташкил этилган. Масалан, Кўқон шаҳрида санитария маорифи уйи ташкил этилиб, унинг зиммасига аҳоли орасида турли касалликлар тўғрисида тушунтириш ва уларга қарши кураш бўйича тарғибот олиб бориш вазифалари юклатилган. Шунингдек, даволаш масканларини турли мавзулардаги плакатлар ва кўргазмалар билан таъминлаш, санитария маорифи бўйича услубий қўлланмалар ишлаб чиқиш ва тарқатиш вазифаларини бажариш ҳам уларга топширилган.

Тиббий даволаш отрядлари ташкил этилиб, улар турли аҳоли масканларида фаолият кўрсатган. 1924 йили Туркистонда 6 та шундай ҳаракатдаги отряд тузилган. Отрядларда В.А.Доброхотов, Т.А.Гончарова, Л.Ф.Пародоксов, И.Е.Бронштейн, В.А.Покровский, Е.А.Букина каби тажрибали врачлар ва доришунослар фаолият кўрсатган. Тиббий отрядлар жами 14 та уездда 21626 нафар кишини назоратдан ўтказиб, улардан 9772 нафарида турли касалликлар аниқланган. Тиббиёт ходимлари касалликнинг олдини олиш ва тугатиш ишларини жуда қийинчиликлар билан олиб боришган. Кўп ҳолларда маҳаллий аҳоли уларга ишончсизлик билан муносабатда бўлиб, беморларни улардан яширишга ҳаракат қилишган.

Совет даврида соғлиқни сақлаш ишини йўлга қўйишда тиббиёт ходимлари муҳим роль ўйнаган. Туркистонга Россиядан кўплаб жонқуяр врачлар келиб иш бошлаган. Фидойи врачлардан В. Ф. Шмидт, И. Б. Воврижин, В. Ю. Воеводский, К. П. Олифинг, М. С. Эрнест, Н. А. Кинзе, М. С. Голошевская, Н. Я. Василевский, В. В. Кашурниковлар Фарғона водийсининг турли шаҳар ва қишлоқларида аҳолига тиббий ёрдам кўрсатганлар.

Туркистонда тиббий кадрлар сони кўпайтириш тadbирлари ҳам олиб борилган. Масалан, 1923 йили Туркистонда жами 460 нафар врач бўлиб, шундан 347 нафари ҳозирги Ўзбекистон ҳудудида фаолият кўрсатган. Улардан 238 нафари Тошкент шаҳри ва Сирдарё вилоятида иш олиб борган. Самарқанд вилояти уездларида 22 та, Фарғона уездида 16 нафар врач ишлаган. Тошкент шаҳрида ҳар 2372 кишига 1 нафар врач тўғри келган бўлса, Самарқанд уездларида бу 28.208 нафар кишига, Фарғона уездларида 79. 011 нафар кишига тўғри келган.

Хуллас, Туркистонда совет давлати соғлиқни сақлаш тизими ишини йўлга қўйишга ҳаракат қилган. Соғлиқни сақлаш тармоғини шакллантириш ва ривожлантириш ишига давлат бюджетидан ажратилаётган маблағларнинг камлиги, аҳолининг моддий жиҳатдан ночор ҳаёти, очарчилик, тез-тез такрорланиб турган эпидемиялар жиддий тўсиқ бўлиб турган. Туркистонда кам сонли даволаш муассасалари бўлиб уларнинг аксарияти йирик шаҳарларда фаолият олиб борган. Тизим фаолиятидаги бу каби ноҳуш ҳолатлар, қолаверса, профилактика ишларининг қониқарсизлиги ўлкани эпидемия ўчоқларидан бирига айлантирган.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бўйича Ҳаракатлар стратегияси". Т.2017.- 112 б
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг тиббиёт соҳасидаги долзарб масалалар муҳокамасига бағишланган йиғилишдаги нутқи. // "Халқ сўзи". 2017 йил 13 декабрь.
3. Алиев М. М. Роль русских врачей в развитии здравоохранения в Ферганской долине // Советское здравоохранение. - М.: Медицина, 1986-№ 9. - С. 74.



4. Арипова Т.У. Здравоохранение и здоровье населения Самаркандской области. Автореф. дисс...канд. мед. наук.- Ташкент, 1975.- С.14.
5. Заиров К. С. Развитие здравоохранение в Узбекистане за 60 лет Советской власти // Медицинский журнал Узбекистана.- 1977-№ 10. - С. 18.
6. Кадыров А. А. История медицины Узбекистана. - Т., 1994. - С. 151 - 152.
7. К борьбе с эпидемия // Наша газета, 1918, 9 июня-№ 115;
8. Мобилизация врачей //Нашагазета. 1918. 12 июня-№ 117.
9. Мухитдинов М., Хужаков А.Здравоохранение Андижанской области. - Т.: Медицина, 1985. - С. 19.
10. Подвижные обследовательски-лечебные отряды и их значение в организации медпомощи сельскому населению в Средней Азии. - Ташкент, 1925.- С.10-16.
11. Сагатов Р. С. Развитие народного здравоохранения в Узбекистане. - Т., 1958. - С. 18.
12. ЎзР МДА, Р-40-фонд, 1-рўйхат, 16-йиғма жилд, 6 - 13-варақлар, 56-йиғма жилд, 9-варақнинг орқаси.
13. ЎзР МДА, Р-40-фонд, 1-рўйхат, 137-йиғма жилд, 399-варақ.
14. ЎзР МДА, Р-25-фонд, 1-рўйхат, 1820-йиғма жилд, 8-варақ.
15. ЎзР МДА, Р-40-фонд, 1-рўйхат, 303-йиғма жилд, 18-варақ.
16. ЎзР МДА, Р-25-фонд, 1-рўйхат, 1821-йиғма жилд, 126-варақ.
17. uzssgzt.uz/cgi-bin/main.cgi.



КАРМАНА МОДДИЙ ВА МАЪНАВИЙ МАДАНИЯТ ЎДГОРЛИКЛАРИНИНГ АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАРИ.

**НДКИ ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАР
КАФЕДРАСИ МУДИРИ ДОЦЕНТ ОЛМАХОН ХАЙТОВА**

Аннотация Кармана шаҳрининг тарихи, тарихий географияси, унинг атрофида жойлашган обидаларни ўрганиш борасидаги тадқиқотлар Кармана тарихий обидаларини археологик жиҳатдан ўрганиш бўйича айрим олимлар турли йилларда тадқиқот ишлари

.КАЛИТ СЎЗЛАР: Кармана, Мир Саййид Баҳром, Қосим Шайх, Кармана қўрғон деворлари, дарвозалари, Кармананинг меъморий обидалари ва бошқалар.

Кармана шаҳрининг тарихи, тарихий географияси, унинг атрофида жойлашган обидаларни ўрганиш борасидаги тадқиқотлар XIX аср охири ва XX аср бошларидан бошланади. Рус шарқшуноси В.В. Бартольд ўзининг "Туркестан в эпоху монгольского нашествия" асарида ўрта аср араб тарихчилари, Ўрта Осиё муаррихлари асарларига суянган ҳолда Кармана атрофидаги қишлоқлар, қўрғонлар, уларнинг Карманага нисбатан жойлашуви тўғрисида фикр юритади. Кармана атамасини Арманистонга қиёс қилиб, "Ка-Армания" сўзидан келиб чиққан, -деган фикрни билдиради. Муаллиф, Карманадан 2 фарсах шимолда жойлашган Худиманкан қишлоғи ҳақида сўз юритиб, XII асрда қишлоқда жомеъ масжиди бўлганлигини, Карманадан бир фарсах узоқликда эса Харганкан (ҳозирги Қалқон ота) қишлоғи жойлашганлигини қайд этади.

Кармана тарихий обидаларини археологик жиҳатдан ўрганиш бўйича айрим олимлар турли йилларда тадқиқот ишлари олиб бордилар. Хусусан, ўтган асрнинг 20-йилларида И.И. Умняков, орадан 60 йил ўтгач эса Н.Б. Немцева ўзларининг тарихий-археологик тадқиқотларида Работи Малик карвонсаройи, Мир Саййид Баҳром мавзолеи қурилиши даври, ўлчамлари, ушбу ўдгорликлар топографияси, уларнинг тарихий аҳамиятига тўхталиб ўтганлар. Аммо муаллифлар ушбу ўдгорликларнинг қурилиши тарихи, кимлар томонидан бунёд этилгани хусусида фикр билдирмаганлар. Шунингдек, А. Писарчик ўз тадқиқотларида Кармана обидаларининг меъморий хусусиятларига тўхтаган, аммо бу обидаларнинг ким томонидан қурилганлигига ишора қилмайди.

В.Нильсен Карманадаги X аср ўдгорлиги Мир Саййид Баҳром мавзолеи қурилиши услуби ҳақида ёзган.

Е.Г. Некрасова Қосим Шайх меъморлик мажмуасида тадқиқотлар олиб бориб, Абдулаҳадхон ҳазираси ва унинг атрофида жойлашган биноларнинг қурилган вақти, ўлчами, вазифаси ва меъморий аҳамиятига тўхталади.

Кармана ва унинг атрофларида олиб борилган археологик тадқиқотлар, жой номларининг келиб чиқишига оид қисман тарихий маълумотлар Ф.Облоқулов ва Х.Ҳамидовлар китобларидан жой олган. Тадқиқотчи А.Қандаҳоровнинг "Бухоро хонлигида Кармананинг тутган ўрни" "Кармананинг икки буюк алломаси" каби рисолаларида XVI аср Бухоро хонлигида юз берган ижтимоий-сиёсий ва маданий жараёнларга, айниқса хонлик ҳаётида тасаввуф тариқати вакиллариининг тутган ўрни, Шайх Худойдод Вали "Маноқиб" ва Қосим Шайх Азизоннинг маънавий фаолиятини ёритган. Исмаиловнинг "Ҳазоранинг нурли инсонлари" рисоласида Кармана тумани Ҳазора қишлоғининг яқин ўтмиши, у ердаги тарихий қадамжоларнинг зиёратгоҳга айлантирилганлиги ҳақида маълумотлар келтирилган. А.Ҳотамов ва Н.Бекниёзовнинг "Кармана-қадимий диёр" рисоласида Кармана қўрғон деворлари, дарвозалари, Кармананинг меъморий обидалари, мустақиллик йилларида амалга оширилган ўзгаришлар хусусида фикрлар баён этилган. Кармана маънавий ҳаётининг айрим жиҳатлари хориж илмий адабиётларида ҳам ўз аксини топган. Жумладан, немис шарқшуноси Юрген Паул тадқиқотлари бунга мисолдир. Бошқа бир немис олимаси Анке фон Кюгельген тадқиқотларида эса Кармана сиёсий тарихининг айрим қирралари қамраб олинган.

Адабиётлар

1. Умняков И.И. К исторической топографии средневековой Бухары. Труды Туркестанского восточного института.-Т., 1925. С. 32; Ёша муаллиф: Рабат-и-Малик-Сб.В.В.Бартольду-его ученики и почитатели.-Т., 1927.С.30.



2. Немцева Н.Б. Рабат-и-Малик. В кн: Художественная культура Средней Азии IX-XII вв. (Сборник статей).-Т., 1983.С.112.
3. Писарчик А. Памятники Кермине. Сообщения Института истории и теории архитектуры... вып. 4-М., 1945.С.23-35.
4. Нильсен В.А. Мавзолей Мир Саид Бахром в Кермине. Монументальная архитектура Бухарского оазиса XI-XII вв. К вопросу о возникновении средневековой архитектуры в Средней Азии.-Т., 1956. С. 37-44.
5. Некрасова Е.Г. Хазирь Бухары.- ОНУ.1998. № 6. С. 54-56;
6. Некрасова Е., Тураев Х. "Касым -Шайх Азизан Карминаги"-Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. № 4.-Москва., 2003.С.41-44.; Яна ?аранг: Некрасова Е.Г. Позднесредневековые мемориально-культурные комплексы Бухары и Бухарской области по археологическим данным. Автореф. дис□канд.ист.наук.-Т.: 1994
7. Обло?улов ?. Навба?ор тумани.-Т., 2000. 10-17 бетлар.
8. ?амидов Х. Дарё со?илидаги ?ишло?. (Кармана туманидаги ?азора ?ишло?и тарихидан кичик лав?алар).-Т., 2004. 6-10 бетлар.



МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИ ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИДА ГАСТРОНОМИК ТУРИЗМ

Раҳмонова Сурайё ЎзМУ тарих факултети магистри

Аннотация ушбу тезис ҳозирги кунда катта эътибор берилаётган соҳа- туризмга бағишланган. Унда Жиззах вилоятининг мустақиллик йилларидаги гастрономик туризм салоҳияти ўз аксини топган.

Калит сўзлар: гастрономик туризм, Жиззах вилояти миллий таомлари, Жиззах сомсаси, Зомин тандири, Зомин патири, Жиззах нишолдаси, Бахмал олмаси.

Ҳар бир давлатнинг ўзига хос миллий ошхонаси бўлиб, бу чет эллик сайёҳларни ўзига залб қилаётган туристик соҳалардан бири ҳисобланади.

Гастрономик туризм, ёки ошхона туризми, туризмнинг асосий турларидан бири бўлиб, асосий мақсади, сайёҳларнинг маълум бир мамлакатга, саёҳат қилиши асносида, ўша давлатнинг миллий ошхонаси ва овқатланиш маданияти билан ҳам, яқиндан танишишидир. Гастрономик сайёҳ, биринчи навбатда, маданиятнинг ажралмас қисми ҳисобланган, миллий ва аъъанавий таомларни, тайёрлаш жараёни, дастурхонга тортиш усуллари, овқатланиш тартиби ва позитсияларини, кўриш ва билиш баробарида, саёҳат қилаётган давлатининг, тарихини, иқтисодиётини, давлат сиёсати ҳамда маҳаллий аҳолининг эътиқодларини ўрганади .

Мустақиллик йилларида миллий пазандачилик санъатининг ривожланиши учун кенг имкониятлар юзага келди. Унигила бошланган кўплаб тансиқ таомлар яна дастурхонлар кўркига айланди. Ўзбек миллий пазандачилигининг ўзига хос хусусиятлари миллий таомлари ўзининг ҳилма-ҳиллиги ҳамда тайёрлаш услуби билан бошқа халқлар таомларидан фарқ қилади. Миллий пазандачилик кўп асрлик тарихга, таом тайёрлаш аъъанаси ва маданиятига эга. Унда халқнинг турмуш-тарзи, урф-одатлари, ўша ҳудуднинг ўзига хос хусусият ва иқлим шароитлари ўз аксини топгани учун ҳам умумхалқ қадриятларининг ажралмас қисми ҳисобланади.

Дунё халқларининг миллий аъъаналари ва маданиятини ҳурмат қилиш ва ўрганиш, жаҳон пазандачилик санъатидан хабардор бўлиш-мамлакатлар ва халқлар ўртасидаги дўстлик ва ҳамкорлик алоқаларини мустақамлашга замин яратади .

Ўзининг аъъана ва қадриятларига эгалиги билан дунёнинг барча минтақаларида машҳур бўлган ўзбек пазандачилигининг обрў-этибори мустақиллик йилларида янада ортиб бормоқда. Ўзбек таомлари ҳилма-ҳиллиги, серқувватлиги, парҳез-шифобахшлиги билан алоҳида ажралиб туради. Шу билан бирга ҳудудларга хос бўлган минтақавий таом тайёрлаш аъъаналари ва маданияти уйғунлашиб, умуммиллий пазандалик санъатини ташкил этади.

Республиканинг ҳар бир вилояти ўзининг машҳур таомларига эга. Жиззах вилояти ҳам гастрономик туризм салоҳиятига бой ҳудудлардан бири ҳисобланади. Жиззах вилояти Зарафшон водийсидаги Нурота тоғ тизмалари, Тянь-Шаннинг шимолий тармоғида жойлашган ва ўз даврида ўзбек хонликлари ўртасида баҳсли, талаш ҳудуд ҳисобланган. Ушбу ҳолат масқур вилоятнинг ошпазлик аъъаналарига ҳам ўз таъсирини ўтказган, бойси унда Самарқанд, Фарғона ва Бухоро пазандачилик мактабларининг аъъаналари яққол кўзга ташланади. Жиззах вилоятининг аъъанавий таомлар рўйхати ҳали тўлиқ ва батафсил ўрганилмаган. Маҳаллий, диний, сўфий, шифобахш таомларни ўз ичига олган ушбу ҳудудга оид этнографик маълумотларни чуқур ўрганиш талаб этилади .

Бироқ, 2019 йилнинг 9-11 август кунлари Тошкент шаҳрида бўлиб ўтган I Халқаро гастрономик фестивалда Жиззах вилояти ўз миллий ошхонаси билан иштирок этиб,гастрономик имкониятларини намоён қилди. Жиззах вилояти табиий таъмлор макони шиори остида миллий таомлардан афсонавий Жиззах сомсаси, бетакрор Зомин тандири, Зомин патири, Айдар-Арнасой кўллар балиғи, Жиззахнинг машҳур жизи, Жиззах нишолдаси, ширинликлари, Мирзачўлнинг машҳур қовунларини фестивал иштирокчиларига намойиш этилди .

Бундан ташқари, Жиззах вилоятининг Бахмал туманида етиштириладиган олмалар ҳам нафақат Республика ҳудудида балки кўшни мамлакатларда ҳам таниқлидир.Боғбонлар Бахмал олмаларининг такрорланмас таъмини тоғ иқлими ва тупроқ таркиби билан боғлайдилар. Бинобарин, боғдорчилик ҳудуд қишлоқлари аҳолисининг асосий даромад манбаларидан саналади. Маҳаллий аҳолининг 80 % дан ортиғи боғдорчилик билан шуғулланиб, у ерда олмаларнинг кремсон, беш юлдуз, коре, симеранка,



годен, вайенсоп, апорт каби турлари етиштирилади .

Зомин тоғ асали ўзининг ширинлиги ҳамда шифобаҳшлиги билан ҳам машҳурдир. Зомин тоғ асалининг шифобаҳшлиги ҳудудда ўсадиган 107 та доривор ўсимликлар сабабли ҳамдир. Асал ҳар бир даволанувчи ва сайёҳни ўзига жалб қилади.

Зеро, тиббиёт олими Абу Али ибн Сино асалнинг хосиятларини санаб ўтган: асал мижозни тозалайди, томир йўлини равон қилади, ҳўллик ва газакни шимдирувчи қуввати бор. У ҳўллик ва газакни баданнинг чуқур жойларидан тортади, чирикли чуқур яраларни тозалайди. Асал кўз хиралигини кетказди. Асални танглай билан эзиб сўриш ва фарғара қилиш бўғмадан халос этади, бодомча безларининг яллиғланишига қаршилиқ қилади. Асал суви меъдани кучайтиради, иштаҳани очади, ҳазмни яхшилайдди. асал аччитош билан темиратки касаллигидан ҳалос этади. Ибн Синонинг фикрига кўра ёш ва навқиронликни сақлаш учун асалдан истеъмол қилиш лозим .

Жиззах сомса вилоятнинг энг машҳур таоми бўлиб, бутун мамлакат бўйлаб таниқлидир. Жиззах сомсаси қадимий туркий ошпазлик санъати анъаналарининг ёрқин намунаси сифатида севиб истеъмол қилинади . Айниқса, 2019- йил 9- 11 август кунлари Тошкент шаҳрида бўлиб ўтган I Халқаро гастрономик туризм ва 6-8 ноябр кунлари Жиззах вилоятида "Олтин куз 2019" халқаро агротуризм фестивалида ҳам Жиззах сомсасининг тайёрланиш жараёни чет эллик меҳмонларга кўрсатилди. Шунингдек, Ледий газетасининг 46- сониди вилоятнинг бу машҳур таоми ҳақида ва унинг тайёрланиш жараёни ҳақида маълумотлар келтириб ўтилган.

Жиззах вилоятининг деярли ҳар бир чойхонаси ёки овқатланинг пунктларида бу анъанавий таомни тайёрлашади. Битта оддий чойхонада бир кунда 600 дона сомса тайёрланиб сотилади. Бир дона сомса 500 гр оғирликка эга .

Сомса тайёрланиш жараёни жуда оддий: Сувга хамир қилиб олинади. Сомса ичига майда тўғраб олинган мол гўшти туғралган пиёз ва зираворлар аралаштирилиб, қалинроқ, думалоқ шаклдаги ёйилган хамирга, масаллиқ солиниб тугилади. Тугилган хамир устига кунжут сепилиб, қизиб турган тандирга ёпилади. Тандирдан узилган иссиқ сомса устига ўсимлик ёғи қуйиб дастурхонга тортилади. Махаллий аҳолининг айтишича, бир дона сомсага бир киши тўя олади. Халқ орасида ва бошқа вилоятдан келган хўррандалар орасида вилоятда жойлашган "Даврон ота" чойхонаси анъанавий сомса тайёрлаш борасида машҳурдир .

Жиззах нишолдаси бу ширинликни тайёрлаш учун керак бўладиган етмак ўсимлиги фақатгина Ўзбекистондагина ўсиши ширинликни таъмини такрорланмас маза беради ва сайёҳларни зига жалб қилади. Булар ичида Жиззах нишолдаси алоҳида этиборга моликдир. Нишолда тайёрлаш учун 0.5 кг шакарга-0,5 литр сув, бир чимдим лимон кислотаси ва ванилин, 2 та тухум оқи ва 20 гр етмак илдизи керак бўлади. Оқ рангли кремга ўхшаш шакарли ширинликни тайёрлаш жараёни қуйидагилардан иборат. Аввал шакар билан сувдан қиём қайнатилади ва совутилади. Етмак ўсимлигининг илдизи тозаланиб, майда бўлақларга бўлинади ва сув солиб қайнатиладди. Тайёр бўлган етмак суви докадан сузиб олинади ва совутилади. Етмак суви билан тухим оқи яхшилаб уриб кўпиртирилади. Бунинг учун беҳи новдаларидан тайёрланган чил чўплардан фойдаланилади. Тайёр бўлган тухум оқига оз-оздан шакарли қиём солиб, қуюқ, қаймоқсимон масаллиқ ҳосил бўлгунга қадар кўпиртирилади. Маромига етказиб урилган нишолданинг қиёми, тухум кўпигидан ажралиб тагига чўкиб қолмаслиги керак. Ҳушбўй бўлиши учун нишолда кўпиртирилаётганда ванилин ёки лимон кислотасини қўшиш мумкин. Нишолда ширинлигини асрлардан буён тайёрлаб келинаётганлигига унинг муқаддас рўза-рамазон ойларида севиб истеъмол қилинадиган ширинлик эканлиги яққол исботидир .

Зомин тандири тоғлик аҳолининг яна бир машҳур таомларидан бири бу- тандир гўшидир. Ушбу таомни тайёрлаш бошқа ҳудудларда тайёрланадиган тандирлардан кескин фарқ қилмасида, Зомин тоғларининг мусаффо ҳавоси, зиравор тарзида қўшиладиган тоғ арчаси ажойиб таъм беради. Аввало, йирик-йирик бўлақларга бўлиб олинган қўй гўштини маромига етказиб туз, зира, мурч аралашмаси сепилади ва 40 дақиқа тиндирилади. Бунинг сабаби аралашманинг гўштга яхши сингиши лозимлигидир. Сўнгра арча шохлари гўшт ораларига жойлаштирилади. Мева дарахтларидан тайёрланган ўтинлар таомга ўзгача маза беради. Тандирда ёнаётган ўтиндан йирик ўтинлар олинади ва тиндирилган гўшт бўлақлари сихга тортилиб, чўғнинг юқори қисмига қўйилади. Усти ҳаво кирмаслиги учун ёпилган гўшт бир соат давомида пиширилади .

Зомин патир нони нонушта учун туристларга ҳам ҳуш ёқувчи анъанавий Зомин патир нони қуйидагича тайёрланади. Сутга туз, ачитқи, истемол содаси ва ун солиниб хамир қориб олинади. Тайёрланган хамирни ярим соат тиндиришга қўйилади. Сўнг, ўчоққа ўт ёқилиб, қозон қиздирилади. Патир нон учун махсус ёғсиз қозон бўлиши керак. Тиндирилган хамирдан патир ясалади ва қозонга солиниб, аввал патир юзи қизартирилиб олинади ва оғдарилиб қатиқ суртилади сўнг орқа томони



қишириб олинади. Патирни қишириш давомида қўл билан айлантирилиб турилади. Одатда, пишган иссиқ патир устига сариёғ солиниб танаввул қилинади. Нонушта учун тўйимли бўлган патир нон тушгача 5-6 кишини тўқ тутди .

Хулоса қилиб шунни айтиш мумкинки, Жиззах вилояти катта гастрономик салоҳиятга эга ҳудуд. Бой табиати бунинг яққол исботи. Ошпазлик мактаби ҳам чуқур тарихга эга. Мустақиллик йилларида, айниқса, сўнги йиллардаги ислоҳатларда бу соҳага берилаётган этибор ҳам салмоқли.



РОЛЬ ИСЛАМА АБДУГАНИЕВИЧА КАРИМОВА В ПОСТРОЕНИИ НЕЗАВИСОМОГО УЗБЕКИСТАНА.

Саломов Азимжон

Учащийся Ташкентского юридического колледжа

Ислам Абдуганиевич Каримов - первый Президент Республики Узбекистан руководящий страной с 1989 по 2016 год.

Ислам Абдуганиевич родился 30 января 1938 года в городе Самарканд в семье служащего. Всего в семье Каримовых было 8 детей и Ислам Абдуганиевич был седьмым. Отец, будущего Президента, работал обычным служащим. Был очень строгим и требовательным. Мать - Санобар-ая, была домохозяйкой. Она была умной, терпеливой, любящей свою семью матерью. Санобар-ая всю свою жизнь посветила дому и семье. Детство Ислама Абдуганиевича пришлось на войну, а юность - на тяжёлые послевоенные годы. С детства Ислам Абдуганиевич знал цену труда и цену куска хлеба.

Школу он окончил в 1953 году в Самарканде. Эта школа №21, имени А.С.Пушкина. Затем в 1960 году окончил Среднеазиатский Политехнический институт и получил специальность "инженер-механик". За спиной у Ислама Абдуганиевича никто никогда не стоял, рассчитывать он мог только на себя, на свои силы и способности. Его рабочий путь поначалу так таковы ничем не отличался от карьеры обычного гражданина. Начал работу с должности простого работника в заводе "Ташсельмаш", после нескольких лет усердного труда, поднялся до должности технолога. Проработал он также на авиационном объединении имени В.П.Чкалова(с 1961 по 1966г.) инженером-конструктором. В 1966 году Ислам Абдуганиевич перешел на работу в Госплан Узбекской ССР, где поднялся до должности первого заместителя председателя Госплана. А в 1967 году Ислам Абдуганиевич окончил Ташкентский институт народного хозяйства (ныне Ташкентский государственный экономический институт) и получил вторую специальность "экономист". Ислам Абдуганиевич был министром финансов Узбекской ССР (1983-1986годах), председателем Госплана Республики и заместителем председателя Совета министров Узбекской ССР (1986 году), 1-м секретарем Кашкадарьинского обкома (1986-1989 годах), первым секретарем ЦК КП Узбекистана (1989-1991 годах). 31 августа 1991 году, провозгласил государственную Независимость Республики Узбекистан. 29 декабря 1991 года на Всенародных выборах, которые прошли на альтернативной основе Ислам Абдуганиевич одержал победу с большим преимуществом голосов и был избран первым Президентом Независимой Республики Узбекистан. В последующем, Ислам Абдуганиевич еще четыре раза подряд (1995, 2000, 2007, 2015 годах) одерживал победу на президентских выборах с огромным преимуществом голосов (более 90%).

После обретения Независимости, перед Узбекистаном стоял долгий и трудный путь развития. И в такие тяжелейшие времена истории, когда Узбекистан оказался в одном шагу от гражданской и межнациональной войны, Ислам Абдуганиевич взял всю ответственность в свои руки и начал всестороннюю борьбу с оппозицией.

Ярким примером того являются события 1999 года. 16 февраля по главным телеканалам большинства стран мира было передано сообщение, которое растираживали все ведущие газеты этих стран. Его содержание было таковым: "Сегодня в Ташкенте неизвестными лицами были осуществлены террористические акты, ответственность за которые пока не взяла на себя ни одна террористическая группа. Было произведено 5 взрывов, в результате которых погибли 16 человек и около 150 получили ранения, в том числе многие члены правительства. Существуют несколько версий происшедшего. Одна из них - инцидент, с целью убийства Президента Узбекистана и высших руководителей государства". После покушений, Ислам Абдуганиевич реформировал систему органов местного самоуправления, и появились отряды "стражей махалли". Они были созданы с целью контроля и охраны за населением.

Как было уже упомянуто выше, у Ислама Абдуганиевича было высшее проявление патриотизма. Он говорил, что если кто-то хочет знать, что такое узбек, в чём сила и мощь узбекской нации, в чём её справедливость безграничные возможности, каков вклад, внесённый в мировое развитие, и через всё это постичь её веру и будущее, должен вспоминать личность Амира Темура.

После обретения независимости именно Амир Темур был выбран для роли героя своего народа и символа его великой многовековой истории. Даже свою резиденцию Ислам Абдуганиевич назвал по примеру своего великого деда, соотечественника - Ак-Сарай.



Ислам Абдуганиевич является инициатором и руководителем исторических преобразований в стране. Под его руководством разработаны и осуществлены:

Программа независимого развития страны, подготовлена и принята Конституция Республики Узбекистан, отвечающая всем демократическим требованиям и международным критериям, образована новая система управления на местах, была создана программа государственного и общественного строительства.

Что на счет программы независимого развития страны, нужно сказать, что именно Ислам Абдуганиевич "создал" "узбекскую модель" развития, в основе которого лежали пережитые опыты и ошибки развитых стран мира.

Эта модель развития поражала мировое сообщество своими результатами в экономической и социальной сфере.

Она включает в себя пять принципов:

- верховенство экономики над политикой;
- государство- главный реформатор;
- верховенство закона;
- проведение сильной социальной политики;
- переход к рыночной экономике поэтапно и обдуманно, на эволюционной основе.

Узбекская модель развития отвечает всем международным демократическим требованиям, она является прочной основой для построения свободного, демократического государства, формирования гражданского общества, повышения экономической мощи и дальнейшего развития нашей Родины.

Первый Президент нашей страны своей многогранной политической деятельностью, благородными качествами оставил яркий, неизгладимый след в многовековой истории нашей Родины. Руководитель нашей страны прославился как выдающаяся личность и государственный деятель, по праву пользовавшийся огромным уважением и авторитетом не только в Узбекистане, но и на международной арене. На мировой арене с его мнением считались все политические деятели, международные организации, он был дальновидным и искусным политиком, который в первую очередь руководил государством в интересах развития и благополучия своего народа. Под его руководством Узбекистан достиг высоких результатов на всех направлениях реформ, были возрождены национальная гордость и достоинство, богатейшая история и культура, духовности народа.

За свою трудовую деятельность во благо народа Ислам Абдуганиевич был удостоен таких высоких наград, как: "Орден Трудового Красного знамени", Орден "Дружбы народов", Герой Узбекистана, Орден "За выдающиеся заслуги", Орден "Мустакиллик", Орден "Амира Темура", а также множество других орденов, медалей, международных премий, почетных лент. Одним словом, если перечислять всё, то не будет им конца.

В заключении стоит отметить, что принятие постановления Президентом Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёевым от 25.01.2017 г. "Об увековечении памяти первого Президента Республики Узбекистан Ислама Абдуганиевича Каримова" в целях увековечения его светлой памяти, установление ему памятников, создание Республиканского благотворительного фонда имени Ислама Каримова, присвоение его имени многим учреждениям и объектам национального значения, установление 2 сентября Днем памяти Первого Президента, учреждение Государственной стипендии имени Ислама Каримова, выпуск специальных почтовых марок с его портретом являются достойным выражением искреннего уважения народа и признание им, его неопределимые усилия, которые он вложил в становлении независимой страны.

Список использованной литературы:

1. Конституция РУз;
2. Каримов И.А. Торжество Основного закона. Т., 1995 г.
3. Каримов И.А. Жизненный источник приоритета закона и справедливости. Т.,1998 г.
4. Каримов И.А. Высокая духовность - непобедимая сила. Т., 2008 г.
4. Ш.М. Мирзиёев. Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. Т., "Ёзбекистон" - 2016 г.
5. Ш.М. . Мирзиёев. Обеспечение верховенства закона и интересов человека -гарантия развития страны и благополучия народа. Т., "Ёзбекистон" - 2017 г.
5. ПП РУз "Об увековечении памяти первого Президента Республики Узбекистан Ислама Абдуганиевича Каримова" от 25.01.2017 г.



6. УП РУз "Об организации изучения Конституции Республики Узбекистан" от 4 января 2001 г.
7. Х. Адилкариев, Р. Каюмов, Х. Назаров. Изучение Конституции Республики Узбекистан. Т.: Шарп, 2006 г.
8. Усманов К. История Узбекистана : Период национальной независимости. Т., 2006 г.
9. Костецкий В.А., Ташпулатова М.А., Асадова Э.С., Тансыкбаева Г.М., Ашрафханова Ш. Путешествие в мир Конституции. Т., 2001 г.
10. Костецкий В.А., Тансыкбаева Г.М., Асадова Э.С., Афанасьева И.В., Ташпулатова М.А., Соловьева С.Е. Путешествие в мир Конституции. Т., 2007г.
11. Интернет официальные сайты: www.Wikipedia.org www.LEX.UZ



ЎЗБЕКИСТОНДА СОҒЛОМ ОНА ВА СОҒЛОМ БОЛА МАСАЛАСИГА ЭЪТИБОР ВА УНИНГ НАТИЖАСИ

Тоштемирова Н.,
Қар ДУ мустақил-изланувчиси

Аннотация. Ўзбекистонда оналик ва болаликни муҳофаза қилиш соҳасига мустақиллигимизнинг дастлабки йиллариданоқ эътибор берилга бошланди. Бунга мисол тариқасида Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши томонидан 1992 йил 9 декабрда Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция ратификация қилинганлигини, 1993 йили "Соғлом авлод учун" жамғармаси ташкил этилганлиги, 2019 йил 8 ноябрда Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Репродуктив ёшдаги аёллар, ҳомилдорлар ва болаларга кўрсатиладиган тиббий ёрдам сифатини ошириш ва кўламини янада кенгайтириш тўғрисида"ги Қарори қабул қилинганлигини айтиб ўтиш лозим. Ўзбекистонда сўнгги ўн йил ичида кўрилган амалий чора - тадбирлар натижасида туғма ривожланиш аномалиясига эга болалар сони 1,3 марта камайди. 6-15 ёшда бўлган болалар орасида ўтқир юқумли касалликларга чалиниш 34,4 фоизга, пневмония ҳоллари - 49,7 фоизга, бронхит - 32,8 фоизга, сколиоз - 32,7 фоизга қисқарди. Ўтган ўн йил мобайнида вазни меъридан кам бўлган болалар сони икки бараварга камайди, уларнинг бўйи эса ўртача уч сантиметрга чўзилди. Шу билан бирга, бизнинг ҳудудга хос бўлган касаллик - анемияга чалинган аёллар сони 2,5 бараварга камайди. Мақолада Ўзбекистонда соғлом она ва соғлом бола соҳаси ҳозирги кунда жамият ҳаётининг асосий бўғини сифатида давлат сиёсатининг стратегик йўналишларидан бири бўлиб, доимий диққат марказида турган мавзулардан бири эканлиги ва бу соҳада амалга оширилаётган чора-тадбирлар самараси тўғрисида хулоса чиқарилади.

Калит сўзлар: Ўзбекистон, давлат, оналик, болалик, муҳофаза, соғлом, конвенция, оила, тиббий, скрининг, турмуш, ижтимоий.

Ўзбекистонда оналик ва болаликни муҳофаза қилиш давлат сиёсатининг стратегик йўналишларидан бири этиб белгиланганки, бунинг замирида миллат генофондини яхшилаш, оилада тиббий маданиятни юксалтириш, аҳолининг турмуш фаровонлигини ва узоқ умр кўриш даражасини оширишдек улғувор мақсадлар кўйилди.

Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши томонидан 1992 йил 9 декабрда Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция ратификация қилинди. 1993 йили "Соғлом авлод учун" жамғармаси ташкил этилди. 1996 йил 22 февралда эса Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг тиббий-ижтимоий патронаж тизимини ташкил қилиш тўғрисида қарор қабул қилди. Шунингдек, Ўзбекистонда 1998 йил "Оила йили", 2000 йил "Соғлом авлод йили", 2001 йил "Она ва бола йили", 2008 йил "Ёшлар йили", 2010 йил "Баркамол авлод йили", 2012 йил "Мустақкам оила йили", 2014 йил "Соғлом бола йили", 2016 йил "Соғлом она ва бола йили" деб эълон қилинган ҳамда шу муносабат билан Давлат дастурларининг бажарилгани бу борадаги эзгу ишларга мустақкам асос бўлиб хизмат қилди. Бунинг самарасида "Соғлом она - соғлом бола" концепцияси ҳаётини ифодасини топиб, халқаро миқёсда кенг эътироф этилди.

"Соғлом она ва бола йили" Давлат дастури доирасида оила, оналик ва болаликни муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштириш, соғлом ва баркамол авлодни тарбиялаш, соғлиқни сақлаш тизими моддий-техника базасини янада мустақкамлаш тадбирларини амалга ошириш давом эттирилди. Ушбу мақсадлар учун барча манба ҳисобидан 7 триллион 480 миллиард сўм ва 190 миллион АҚШ долларидан зиёд маблағ йўналтирилди.

Даволаш-профилактика муассасаларининг моддий-техника базасини мустақкамлаш, туман тиббиёт бирлашмаси иншоотларини реконструкция қилишга 3 миллиард 228 миллион сўм маблағ сарфланди. "Саломатлик-1", "Саломатлик-2", "Саломатлик-3" лойиҳалари доирасида туман тиббиёт бирлашмалари, оилавий поликлиникалар учун жарроҳлик ускуналари ҳамда бошқа жиҳозлар харид қилинди.

Ўзбекистонда 2000-2010 йиллар давомида ирсий ва туғма нуқсонли болалар туғилиши 1,7 баробардан зиёдга камайди. "Save the children" ("Болаларни асрайлик") мустақил халқаро ташкилотининг маълумотларига кўра 2006 йилга келиб Ўзбекистон жаҳондаги 125 та мамлакатлар орасида аёллар учун қулай шароитларни яратиш даражаси бўйича 19-ўринни, оналикни муҳофаза қилиш бўйича 27-ўринни эгаллади. "Аҳоли саломатлигини муҳофаза қилишни янада яхшилаш, халқимизни тиббиёт тизими фаолиятидан рози қилиш-барчамизнинг энг муҳим вазифамиздир." дея



таъкидлайди Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёев. Шунингдек, "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси"да ҳам оналик ва болаликни муҳофаза қилиш масаласига алоҳида тўхталиб ўтилади. Соҳада ўз ечимни кутаётган муаммолар жуда кўп. Қишлоқ врачлик пунктлари ишининг талабга мувофиқ эмаслиги, кадрлар етишмовчилиги, диагностика ва врачлар малакасининг пастлиги оналик ва болаликни муҳофаза қилиш ишига тўсиқ бўлмоқда.

Шу билан бирга амалга оширилган тадбирлар натижасида перинатал ва скрининг марказлари, уларнинг ҳар бир вилоятдаги филиаллари, соғлиқни сақлаш тизимида ўз ўрнини мустақкам эгаллади. Республика доялик ва гинекология, педиатрия илмий-амалиёт марказлари тузилди ва жойларда уларнинг бўлимлари ташкил этилди. Скрининг марказлари, вилоят кўптармоқли болалар шифохоналари ва ихтисослаштирилган педиатрия тиббий муассасаларини замонавий тиббий асбоб-ускуналар билан таъминланишига алоҳида эътибор берди. Оналар ва болалар учун тизим асосида тиббий кўрик ташкил этилиб, 2015 йилда 6,5 млн. мактабгача бўлган муассасалар тарбияланувчилари, мактаб, касб-ҳунар коллеж ва академик лицейлар ўқувчилари чуқурлаштирилган тиббий кўриқдан ўтказилди. Бу эса касалликларни эрта босқичларда аниқлаш ва самарали даволашда муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Ўзбекистонда сўнгги ўн йил ичида кўрилган амалий чора - тадбирлар натижасида туғма ривожланиш аномалиясига эга болалар сони 1,3 марта камайди. 6-15 ёшда бўлган болалар орасида ўткир юқумли касалликларга чалиниш 34,4 фоизга, пневмония ҳоллари - 49,7 фоизга, бронхит - 32,8 фоизга, сколиоз - 32,7 фоизга қисқарди. Ўтган ўн йил мобайнида вазни меъридан кам бўлган болалар сони икки бараварга камайди, уларнинг бўйи эса ўртача уч сантиметрга чўзилди. Шу билан бирга, бизнинг ҳудудга хос бўлган касаллик - анемияга чалинган аёллар сони 2,5 бараварга камайди. Умуман, оналар ва болалар ўлими уч баравардан ортиқга камайди. Ўзгаришлар самарадорлиги натижасида умр давомийлиги 1990 йилдаги 67 ёшдан 2009 йилдаги 73,1 ёшга узайди, умумий ўлим кўрсаткичи эса 1000 киши бошига 6,1 дан 4,8 гача камайди.

Соғлиқни сақлаш соҳасини ривожлантиришга 2014 йилда Давлат бюджетидан 4,4 млрд. сўм ажратилган бўлса, 2015 йилда эса бу кўрсаткич 5,2 трлн. Сўмни, 2016 йили 6,0 трлн. Сўмни ташкил этди. Шунингдек, биргина 2016 йил давомида Инвестицион дастур асосида Давлат бюджети ҳисобидан 553,3 млрд. сўмдан ортиқ бўлган маблағ миқдорида 166-та замонавий тиббиёт муассасалари фойдаланишга топширилди.

"Соғлом она ва бола йили" Давлат дастури доирасида ногирон, туғма нуқсонли бор болалар чет эл клиникалари ва марказларида соғлигини тиклаб қайтди. 2016 йили Германиянинг "Friedensdorf International" ташкилоти томонидан шартнома доирасида Тошкент шаҳридан икки бемор бола хориз клиникаларига даволанишга юборилди.

Ҳозирги глобаллашув шароитида тиббиётда муваффақиятларга эга бўлиш, соҳага илғор технологияларни жорий этиш ниҳоятда долзарб вазифалардан биридир. 2013-2016 йилларда Ўзбекистонда 960 мингдан ортиқ янги туғилган чақалоқлар ва 1 млн. 400 мингга яқин ҳомиладор аёллар скринингдан ўтказилди. Ўтган икки ярим йил давомида ультратовуш ва биокимёвий усулларни қўллаш натижасида 35 мингга яқин аномалиялик болалар туғилишининг олди олинди.

2019 йил 8 ноябрда Ўзбекистон Республикаси Президентининг № ПҚ-4513-сонли "Репродуктив ёшдаги аёллар, ҳомиладорлар ва болаларга кўрсатиладиган тиббий ёрдам сифатини ошириш ва кўламини янада кенгайтириш тўғрисида"ги Қарори эълон қилинди. Қарор репродуктив ёшдаги аёллар, ҳомиладорлар ва болалар учун замонавий, юқори технологик, ихтисослаштирилган тиббий ёрдам кўрсатиш тизимини янада такомиллаштириш мақсадида ҳамда 2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасининг соғлиқни сақлаш тизимини ривожлантириш концепциясига мувофиқ ишлаб чиқилди. Ҳужжатда репродуктив ёшдаги аёллар, ҳомиладорлар ва болаларга кўрсатиладиган тиббий ёрдам сифатини ошириш ва кўламини янада кенгайтиришнинг устувор йўналишлари этиб белгиланди.

Кейинги йилларда оналар ва болаларга кўрсатиладиган бирламчи тиббий ёрдамни кенгайтириш, уларга малакали, ихтисослаштирилган юқори технологик тиббий ёрдам кўрсатиш учун замонавий инфратузилмани шакллантириш, ихтисослаштирилган юқори технологик тиббий хизмат кўрсатадиган муассасаларнинг моддий-техника базасини мустақкамлаш тадбирлари изчиллик билан олиб борилди. Айниқса, бу соҳадаги биноларини реконструкция қилиш, мукамал таъмирлаш ва янгиларини қуриш, ногиронлиги бўлган болаларни тиббий-ижтимоий реабилитация қилиш ва соғломлаштириш, уларнинг жамият ҳаётида иштирок этиши учун шарт-шароитлар яратиш бўйича кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Соғлом фарзандларнинг туғилиши бўйича аҳоли орасида тушунтириш ишлари олиб борилиб, ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзи кўникмаларини шакллантириш кун тартибига долзарб қилиб қўйилди.



Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Аҳолининг репродуктив саломатлигини мустаҳкамлаш, оналар ва болалар саломатлигини муҳофаза қилиш Кенгаши ташкил этилди. Кенгаш она ва бола саломатлигини муҳофаза қилиш бўйича кенг тарғибот ва тушунтириш ишларини ташкил этиш, улар саломатлигини муҳофаза қилиш тизими муассасалари фаолиятини чуқур таҳлил қилиш ишларини олиб борди. Бунда Кенгашга тиббиёт ва таълим муассасалари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ва Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси, оммавий ахборот воситалари вакиллари яқиндан ёрдам берди.

Хуллас, мустақиллик йилларида она ва бола саломатлигини муҳофаза қилиш кун тартибининг долзарб масаласига айланди. Бу соҳани ривожлантиришда эълон қилинган йиллар бўйича қабул қилинган давлат дастурларининг ўрни катта бўлди. Ўзбекистон ҳукумати томонидан бу борада олиб борилган чора-тадбирлар натижасида оналар ва болалар ўлими ва касалланиши кўрсаткичи жуда пасайди ва бу ютуқ жаҳон ҳамжамияти вакиллари томонидан ҳам эътироф этилди.

Фойдаланган манба ва адабиётлар рўйхати:

1. Жонихонов М., Фарзандлари соғлом юрт // Халқ сўзи, 2017 йил, 1 январь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон Фармонининг 1-илоvasида келтирилган "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси". <http://strategy.regulation.gov.uz>
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг тиббиёт соҳасидаги долзарб масалалар муҳокамасига бағишланган йиғилишдаги нутқи. // "Халқ сўзи". 2017 йил 13 декабрь.
4. Ўзбекистон Республикасининг Соғлиқни сақлаш вазири Анвар Алимов., "Изчил ислоҳотлар таъсири мамлакатимиз соғлиқни сақлаш тизимида юз бераётган ўзгаришларда номоён бўлаяпти" // Халқ сўзи, 2016 йил, 21 сентябр.
5. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг Ахборот хизмати., Истиқлол берган имконият// Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш. Здравooхранение Узбекистана. 2006 йил 29-август. № 35, -Б .4.
6. Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат Архиви, 37-фонд, 1-рўйхат, 2569-йиғма жилд, 22-варақ.



"ТУЗУКИ БОБУРИЙ" ЁҲУД "БОБУРНОМА" ҲОТИРАНОМАСИ ЖАҲОН ОЛИМЛАРИ ТАСАВВУРИДА

Замирахон Туракулова

Аднийон Давлат университети ўқитувчиси

Изоҳ: Ўқитувчи Тўракулова Замирахоннинг худди шу сарлавҳаси билан мақола "Бобурнинг асосий мақсади бобосининг ҳукмронлигини тўлиқ тиклаш ва бошқариш бўлганлиги сабабли, у бу йўлдаги иштиёқи, мақсадлари ва ниятларидан воз кечди, ҳаёти давомида у муҳим мақсадларга ҳам эришди."

Калит сўзлар: мақсад, қайта тиклаш, ҳукмронлик қилиш, ниятлар, эришилган нарсалар.

Annotation: The article with the same title of the teacher Turakulova Zamirakhon says "As Babur's main purpose was complete re-establishment and ruling of his grandfather's reign, he gave up his passion, his aims and intentions on this way and he tried during all his life and achieved important goals too."

Key words: purpose, re-establishment, reign, intentions, achieved.

Жаҳон адабиётининг ноёб асарларидан ҳисобланган "Бобурнома" XX асрда катта муваффақиятларга эришди, айниқса, истиқлол саодати билан бу асар жаҳоннинг турли мамлакатларида ўрганилишга киришилди. Ушбу асар хорижда, шу жумладан Англия, Америкада ўрганилиши билан боғлиқ илмий-назарий кузатишлар тақсинга сазовордир.

Эътироф этмок лозимки, хорижлик мутахассислардан мақола ва тадқиқотлари салмоқли қисмида асосли гаплар айтилган. Келинг, ҳозир АҚШ шарқшуноси В. М. Текстоннинг "Бобурнома" асари таржимасида Бобур тўғрисида берилган шарҳларидан бошласак:

"Zahiriddin Muhammad Babur (1483-1530) , - born prince of Fergana in Transoxiana (modern Uzbekistan and Tajikistan), was a scion of the dynasty that had reigned undisputed throughout eastern Iran and Central Asia since the time of its progenitor, Amir Temur (1336-1405)." (Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483-1530) - шаҳзода Фарғона шаҳридан Трасохианада туғилган "ҳозирги Ўзбекистон ва Тожикистон" шарқий Эрон ва Марказий Осиёда ҳукмдорлик қилган Амир Темур сулоласидир (1336-1405)).

Кўринадики, дунё олимлари бобурнинг Умаршайх Мирзонинг меросхўри ва Буюк Амир Темурнинг чевараси бўлган шаҳзодагина эмас, балки, саргузаштгалаб сайёҳларнинг энг улуғи сифатида қадрлайдилар. Унинг дунё маданияти хазинасига қўшган ҳиссасини унинг мўъжазгина Фарғона давлати тахтидан улкан ва қудратли Ҳиндистон империяси тахтигача босиб ўтган шахсий ҳаёт йўлини тасвирлаб берувчи "Тузуки Бобурий" ёҳуд "Бобурнома" деб аталган ҳотираномасисиз тасаввур қилиб бўлмайди.

Маълумки, Амир Темур ва темурийлар сулоласининг вакиллари Мовароуннаҳр, Ҳуросонда 136 йил, Бобур ва бобурийлар Афғонистон ва Ҳиндистонда 352 йил ҳукмронлик қилганлар. Амир Темур авлодидан бизгача номлари етиб келган шаҳзодалар сони ҳозирча 191 нафарни ташкил этади. Улардан тарих саҳифаларида фақат Амир Темурнинг учинчи ўғли Мироншоҳ Мирзо авлодининг охириги вакилларгина 1858 йилгача яшаганлиги бизга маълум. Бу авлодининг кўзга кўринган вакиллари Халил Султон, Султон Абусаид Мирзо, Умаршайх Мирзо ва унинг ўғли Заҳириддин Бобур боболари Амир Темур асос солган буюк салтанатни сақлаб қолишга ҳаракат қилган бўлмасаларда, орзуларини амалга ошира олмадилар. Лекин улардан Бобур гарчи Мовароуннаҳр тахтини эгаллай олмаса-да, тақдир тақазоси билан ўзга юртларга кетиб, ўз юртида рўёбга чиқара олмаган орзу-умидларга эришиб, ибратли сулоланинг вакили сифатида дунёга танилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. (Muhammad Haydar Dughlat, A History of the Moghuls of Central Asia, trans. E. Denison Ross, ed.
2. Ney Elias [London: Samson Low, Marston, 1898: reissue, New York: Praeger Publications, 1970], 173).
3. W. M. Thackston, Sources of Oriental Languages and Literatures 18, Sources of Turkish Literature 16, part 1 (Cambridge, Mass.: Harvard University Department of Near Eastern Languages and Civilizations, 1993)
4. Babur's name has also appeared as Baber and Babar. There is not the slightest doubt, however, that



the name is Babur (BAH-boor), which is ultimately derived from the Indo-European word for beaver. Although it has often been suggested that Babur means tiger, it has, in fact, nothing to do with the Persian word *babr*, "tiger". Mirza Muhammad Haydar explains how Babur was given his nickname: "At that time the Chaghatai were very rude and uncultured, and not refined as they are now; thus they found [his given name] Zahir-ud-Din Muhammad difficult to pronounce, and for his the name of [Babur]" (Muhammad Haydar Dughlat, *A History of the Moghuls of Central Asia*, trans. E. Denison Ross, ed. And annot. Ney Elias [London: Samson Low, Marston, 1898; reissue, New York: Praeger Publications, 1970], 173). For evidence of the reading Babur, see Baburnama, ed. W. M. Thackston, *Sources of Oriental Languages and Literatures* 18, *Sources of Turkish Literature* 16, part 1 (Cambridge, Mass.: Harvard University Department of Near Eastern Languages and Civilizations, 1993), XV, and E. Denison Ross, ed., "A Collection of Poems by the Emperor Babur" *Journal and Proceedings of the Asiatic Society of Bengal* 6 (1910): extra no., IV-VI.

5. Because he had a lifelong limp caused by a wound suffered during his youth, Amir Temur was known to his foes as Temur-I Lang (Temur the Lame); that epithet, misunderstood as part of the name, has given a host of Western forms, such as Tamerlane, Tamburlaine, and Timurlink (via Arabic). Since there is no doubt that his real, Turkish name was Temur (iron), there is no reason not to use it.



ҚОРАҚАЛПОҚ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ

Дильфуза Хабибуллаева

Қорақалпоқ давлат университети Юридика факультети талабаси

Аннотация: Мазкур мақолада юртимизнинг олий таълим соҳасида халқаро ҳамкорлик алоқаларининг ривожланиши Қорақалпоқ давлат университети мисолида сўз этилиб, олий таълим соҳасидаги ҳамкорлик алоқаларининг ривожланиши иқтидорли ёшларнинг хорижий давлатларда таълим олиш ва малака ошириш орқали, илм-фан соҳасидаги тадқиқотларнинг замонавий усулларини ўрганишда кенг имкониятлар яратилади.

Калит сўзлар: халқаро ҳамкорлик алоқалари, халқаро лойиҳалар, халқаро анжуманлар, бакалаврият, магистратура.

Бугунги кунда республикада кўплаб нуфузли олий ўқув юртлари фаолият кўрсатмоқда. Қорақалпоғистон Республикасида ҳам республикамизнинг барча ҳудудларида бўлгани сингари нуфузли олий ўқув юртлари фаолият юритаётган бўлиб, айниқса Қорақалпоқ давлат университети юртимиздаги етакчи олий ўқув юртларидан бири саналади. Ҳозирги вақтда ушбу олий ўқув юрти жамиятимизнинг турли соҳаларига етук илмий-педогогик кадрлар тайёрлаб бериш билан бирга, университетда олий таълим соҳасида халқаро ҳамкорлик алоқаларини кенг йўлга қўйилган ҳолда, иқтидорли ёшларнинг чет эл давлатларида малака ва кўникмаларини оширишлари учун кенг имкониятлар ва қулай шароитлар яратилиб берилмоқда.

Қорақалпоқ давлат университети бугунги кунга келиб илм-фан соҳасидаги дунёнинг кўплаб етакчи давлатлари ва улардаги олий таълим муассасалари билан халқаро ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйган. Жумладан, Россия, Хитой, Қозғистон, Беларус, Словакия, Италия, Португалия, Озарбайжон, Испания, Венгрия, Польша каби давлатлар олий таълим муассасалари билан ҳамкорлик алоқаларини ривожлантириш орқали, иқтидорли ёшларнинг билим ва кўникмаларини яна ҳам юксалтиришга замин яратилмоқда.

Қорақалпоқ давлат университети ҳозирги вақтда чет эл давлатларининг олий таълим муассасалари ва илмий марказлари билан 20 га яқин халқаро шартномага эга. Шартномалар олий таълимнинг турли соҳалари бўйича тузилган бўлиб, университет профессор-ўқитувчиларининг малака ошириши ва халқаро лойиҳаларда фаол иштирок этиши назарда тутилган. Шунингдек, университет республикамиз олий таълим тизимида амалга оширилаётган халқаро лойиҳаларнинг бир нечасида фаол иштирок этиб келмоқда. Университет профессор-ўқитувчилари ва иқтидорли талаба ёшлари дунёнинг етакчи халқаро ташкилотлар томонидан ташкил этилган лойиҳаларда фаол қатнашиб, илм-фан соҳасидаги тажрибаларини янада орттириб бормоқда. Шу билан бирга, чет эл давлатлари билан халқаро ҳамкорлик алоқаларининг яна бир ижобий томонларидан бири, университетда фаолият олиб бораётган кўплаб ёш тадқиқотчилар ва талаба ёшларнинг хорижий илмий марказларда ва олий ўқув юртларида тажриба алмашиш, халқаро анжуманлар, ўқув курслари ва семинар-тренингларда иштирок этиш сингари бир қатор имкониятларни ҳам яратилмоқда. Университетнинг олий таълим соҳасида халқаро ҳамкорлик алоқаларини ривожлантиришдан асосий мақсадлардан яна бири таълимнинг турли йўналишлари бўйича янги ўқув дастурлари, ўқув-методик қўлланмалар, илмий адабиётлар яратиш масаласини яна ҳам замонавий усуллар билан бойитиб боришдир. Ушбу масала олий таълимнинг турли соҳаларида таълим жараёнининг сифатини ошириш ва такомиллаштиришда муҳим аҳамиятга эга саналади.

Бугунги кунда юртимизнинг Россия Федерацияси, Беларус Республикаси каби давлатлар билан мустақам халқаро алоқалари жадаллик билан ривожланиб бормоқда. Юртимизнинг ушбу давлатлар билан олий таълим тизимида ҳам ҳамкорлик алоқалари кенг йўлга қўйилган бўлиб, Қорақалпоқ давлат университети профессор-ўқитувчилари ва талаба ёшларининг ушбу давлатлар олий таълим муассасаларида малака оширишлари ва магистратурада ўқишлари учун ката имкониятлар яратилган. Жумладан, Қорақалпоқ давлат университети Россия Федерациясининг Москва давлат қурилиш миллий тадқиқот университети ва Астрахань давлат университети билан, шунингдек Беларус Республикасининг Беларус давлат технология университети билан бакалавриятнинг 3 та йўналиши ва магистратуранинг 8 та мутахассислигида қўшма таълим дастурлари асосида кадрлар тайёрлаш бўйича келишувлар тузилган. Жумладан, Москва давлат қурилиш миллий тадқиқот университети



билан биргаликда қўшма таълим дастурлари асосида бакалавр ва магистратура таълим йўналишлари ва мутахассисликлари бўйича кадрлар тайёрлаш йўлга қўйилган. Ушбу олий таълим муассасаси билан биргаликда қуйидаги бакалавр таълим йўналишлари бўйича мутахассислар тайёрланади:

- Қурилиш материаллари, буюмлари ва конструкцияларини ишлаб чиқариш;
- Инженерлик коммуникациялари қурилиши ва монтажи (турлари бўйича);
- Архитектура (турлар бўйича).

Магистратура босқичида эса, қуйидаги йўналишлар бўйича мутахассис кадрлар тайёрланади:

- Бинолар ва иншоотлар қурилиши (турлари бўйича);
- Қурилиш материаллари, буюмлари ва конструкцияларини ишлаб чиқариш;
- Сув таъминоти, канализация, сув ресурсларини ҳимоя қилиш ва улардан натижали фойдаланиш;
- Бино ва иморатлар архитектураси.

Шунингдек, Қорақалпоқ давлат университети ва Астрахань давлат университети ўртасидаги қўшма таълим дастури асосида Тарих (йўналишлар бўйича) ва адабиётшунослик: рус адабиёти магистратура мутахассисликлари бўйича мутахассис кадрлар тайёрлаш йўлга қўйилган.

Қорақалпоқ давлат университети ва Белорусь давлат технология университети билан биргаликда қўшма таълим дастури асосида қуйидаги магистратура мутахассисликлари бўйича илмий кадрлар тайёрлаш йўлга қўйилган:

- Ноорганик буюмлар кимёвий технологияси (ишлаб чиқариш турлари бўйича);
- Кимёвий технология жараёнлари ва аппаратлари (ишлаб чиқариш турлари бўйича).

Қорақалпоқ давлат университетининг халқаро ҳамкорлик алоқаларининг кенгайтириши, республикаимиз таълим тизими, шунингдек, саноат, қишлоқ хўжалиги ва бошқа соҳалар учун етук кадрлар тайёрлаб беришда муҳим аҳамият касб этади. Бу алоқаларини яна ҳам кенгайтириш ва илғор хорижий давлатлар тажрибасини ўрганиш ва келажакда узлуксиз ривожлантириб бориш зарур.

Хулоса қилиб айтганда, ҳукуматлар аро шартномалар асосида амалга оширилётган олий таълимдаги халқаро ҳамкорлик юртимиз ривожини учун ҳар томонлама фойда келтириши табиий. Ривожланган давлатлар тажрибасини ҳар томонлама чуқур ўрганиш орқали, юртимиз равнақи учун ҳисса қўшадиган миллий кадрлар сонининг ортиб бориши, давлатимиз тараққиёт йўлининг яна ҳам мустаҳкам бўлишига замин яратади.



JONAJON O'ZBEKISTONIM, MANGU B'OL OMON! O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIDA TUTGAN O'RNI

Artiqova Hosiyat

Xiva tuman 13-son maktab o'qituvchisi,

Shakirova Lobar Abdirahim qizi

Urganch davlat universiteti tarix fakulteti talabasi

Har bir shaxs hayotda o'z o'rnini va mavqeyiga ega bo'lishida, albatta, unga tinch va farovon vatan hamda mustaqillik, erkinlik va qulay shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak. Shundaygina u o'zini erkin namoyon qila oladi. Shuningdek har bir davlat dunyo miqyosida ya'ni jahon hamjamiyatida alohida o'ringa ega bo'lishi uchun, avvalambor, mustaqillikka ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Vatanimizning mustaqillikka erishishi uchun yillar davomida ajdodlarimiz tinimsiz kurash olib borganlar va bu jarayonda hatto jonini qurbon qilishgan. O'tgan asrning 1980- yillari o'rtalarigacha davom etgan siyosat natijasida millatimizni yuksaltirishni maqsad qilgan ajdodlarimizning hayot yo'li biz yosh avlodga ibrat namunasidir.

1938-yil o'nlab ziyolilar, shu jumladan, o'zbek xalqining zabardast farzandlari bo'lmish Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Otajon Hoshim va boshqa o'nlab kishilarning joni shu davrdagi siyosat qurboniga aylangan. O'tgan ajdodlarimizning biz uchun obod va ozod vatan qoldirish yo'lida o'z jonini fido qilganidan, shuni ko'rish mumkinki, biz ham ota-bobalarimiz singari, vatanimizni kelajak avlodga erkin va farovon qilib qoldirishga hamda mustaqil O'zbekistonimizni yanada yuksaltirishga va jahon hamjamiyatida muhim o'rin egallashi uchun munosib hissamizni qo'shishimiz darkor. Jonajon O'zbekistonimizning mustaqillikka erishganiga 28 yil to'lganligini inobatga olgan holda bo'lib o'tgan yillarni sarhisob etar ekanmiz, avvalo, o'tmishga nazar salmoq lozim. Buyuk bobolarimiz taffakuri va dahosi mahsuli bo'lgan minglab asarlar tarix, adabiyot, san'at, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, kimyo, astronomiya, me'morlik va boshqa sohalarga oid noyob qo'lyozmalar bizning bebaho ma'naviy boyligimizdir. Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, bunday boy merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan kam topiladi. Dunyo miqyosida hozirga qadar o'z mavqeyini yo'qotmasdan kelayotgan buyuk allomalarimiz bo'lmish Abu Rayhon, Beruniy, Muhammad ibn Musa al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud az-Zamaxshariy, Mahmud Kashg'ariy, Imom al-Buxoriy, Abu Mansur al-Motrudiy, buyuk ajdodlarimiz doimo Vatanga muhabbat tuyg'usi bilan yashagan. Vatan ajdodlardan avlodlarga bebaho merosdir.

Xalqaro tashkilotlarda faol qatnashish mustaqil O'zbekistonni jahon hamjamiyatida tanitishning uning xalqaro mavqeyining oshirishning muhim va samarali yo'lidir. O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgandan so'ng 50 dan ortiq jahonning eng nufuzli tashkilotlariga a'zo bo'ldi. O'zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar - Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, Xalqaro bolalar jamg'armasi (YUNISEF), Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro Olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlarning a'zosi bo'lib, ular bilan hamkorlik qilmoqda. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, uning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuviga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar - Xalqaro valuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ham ko'maklashmoqdalar. Xalqaro savdo markazi (YUNKTAD), Tariflar va savdo Bosh bitimi (GATT) bilan hamkorlik qilinmoqda.

O'zbekiston ko'pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, Yevropa Ittifoqi, Nato, EKO, Islom konfyerensiyasi, qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda.

O'zbekiston O'rta Osiyo davlatlari bilan Turkiya, Pokiston, Yevropa tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi va Trans Osiyo temir yo'li qurilishida faol ishtirok etmoqda.

Davlatimizning tashqi siyosatda Hamdo'stlik Mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldova, MDH ning boshqa mamlakatlari bilan siyosiy, savdo, iqtisodiy va boshqa sohalarda ikki tomonlama shartnomalar izalanib o'zaro manfaatli hamdo'stlik aloqalar uchun mustahkam asos yaratildi.

O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar. Qozog'iston, Qirg'iston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik qurdoshlarcha do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Tashqi iqtisodiy aloqalarda respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarning tuxtovsiz kirib kelishini ta'minlamoqda. O'zbekiston xukumiati Kanada, XXR, Turkiya, Gollandiya, Germaniya, Shveytsariya banklari va firmalari bilan 1,5 milliard AQSh dollari hajmida 32 ta yirik kredit



bitimi tuzdi va ular amalga oshmoqda. Janubiy Koreya sarmoyadorlari bilan O`zDEU avto, O`zDEU elektronika hissadorlik birlashmalari keng faoliyat ko`rsatmoqda. Germaniya va Janubiy Koreya bilan hamkorlikda telefon tarmoqlari yangilanmoqda.

Jamiyat va davlatlar tarixi shuni ko`rsatadiki, biron-bir mamlakat boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilmasdan taraqqiyotga erishgan emas. Sharq va G`arb mamlakatlarini bir-biriga bog`lagan Buyuk Ipak yo`lining markazida joylashgan O`zbekiston bir necha asrlardan buyon dinlar, millatlar va madaniyatlarining tu tashuv nuqtasi bo`lib kelmoqda. Ayniqsa, Amir Temur hukmronligi temuriylar davrida dunyodagi yirik davlatlar Samarqand bilan o`z aloqalarini o`rnatganlar. Amir Temurning Fransiya, Angliya, Ispaniya qirollari, o`nlab qo`shni davlatlarning hukmdorlari bilan yozishmalari o`sha davrdagi jo`shqin siyosiy, madaniy va tijoriy aloqalardan guvohlik beradi.

Mustaqil davlat xalqaro tashkilotlarda qanchalik keng qatnashsa, u xalqaro hamjamiyatga shu darajada keng kirib boradi, jahonda, tinchlik, osoyishtalik, o`zaro hamkorlik uchun kurashda tegishli darajada faol qatnasha oladi, imkoniyat taraqqiyotiga qo`shayotgan o`z ulushini yanada oshirib boradi, jahonning ilg`or davlatlari bilan tobora yaqinlashadi, ularning fan-tehnika va texnologiya sohasidagi yangiliklarini samaraliroq qabul qilib oladi. Shu nuqtayi-nazardan mustaqil O`zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarini yil sayin kengaytirishi juda katta ahamiyatga egadir. Shunday qilib, O`zbekiston tarixan qisqa bir davrda jahon hamjamiyatiga qo`shildi, xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda, umumiy va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda faol qatnashayotgan nufuzli

davlatdarajasiga ko`tarildi. Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo`lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati, uni jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta`minladi.

O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi nufuzli davlatlar tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o`rnatildi. Toshkentda 43 mamlakatning elchixonasi ochildi. Bular jumlasiga AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston Pokiston va boshqalarni kiritish mumkin. Shuningdek, O`zbekistonda 88 xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotning vakolatxonalari faoliyat ko`rsatmoqda. Dunyodagi 30 dan ortiq davlatda - AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Pokiston va boshqalarda O`zbekistonning elchixonalari va konsulliklari ishlab turibdi.

O`zbekiston butun dunyo ko`z o`ngida tashqi siyosiy va madaniy aloqalarining boy tarixiga ega bo`lgan, mustaqil ravishdazamonaviy diplomatikaloqalarni amalgaoshirayotgan tinchliksevar huquqiy davlat sifatida namoyon bo`lmoqda. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda, O`zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta`minlashda Xalqaro valuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik ijobiy samara bermoqda. O`zbekiston xalq xo`jaligidagi aniq loyihalarga sarflanayotgan xorijiy sarmoyalar miqdori yildan yilga ortib borayapti. Keyingi yillarda qad ko`tarayotgan zamonaviy inshootlar va yirik korxonalar bunga misol bo`la oladi. O`zbekistonda investitsion muhitni shakllantirish, eksportga yo`naltirilgan iqtisodiyot vujudga keltirish bo`yicha aloqalar rivojlanib bormoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish jarayoni izchillik bilan davom ettirilmoqda. Ayni paytda, mamlakatni jahon bilan bog`lovchi kommunikatsion tizimlarni rivojlantirishga katta ahamiyat berilayapti. Chet ellardagi taniqli iqtisodchilar, xorijiy kompaniyalar vakolatxonalari rahbarlari va mutaxassislari, yozuvchilar va jurnalistlar bu tadbirlar tufayli O`zbekiston yaqin kelajakda mintaqadagi eng ilg`or davlatlardan biriga aylanishini bashorat qilmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADOBIYOTLAR:

1. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz." Shavkat Mirziyoyev. Toshkent: "O`zbekiston", 2017
2. Jo`raev S. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot (ilmiy-tahliliy maqolalar to`plami). T.
3. Jumaev R.Z. Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo`lida. -T.: "Sharq",
4. Otamurotov S. Hokimiyat va demokratiya mutanosibliigi. - Ta`lim tizimida ijtimoiy- gumanitar fanlar. №1-2 sonlar,



СОЎЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ИСЛОҲ ҚИЛИШДА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР БИЛАН ҲАМКОРЛИКНИНГ ЎРНИ

Ҳолиқов Ғ., ҚарДу магистранти

Аннотация. Ўзбекистон соғлиқни сақлаш соҳасида доимий равишда халқаро ташкилотлар ва хорижий давлатлар билан яқиндан ҳамкорлик қилиб келмоқда. Ўзбекистон Россиянинг етакчи тиббиёт муассасалари билан ҳамкорлик қилиб келмоқда. Масалан, Республика ихтисослаштирилган кардиология марказининг Хоразм ҳудудий филиалида (Урганчда) негизда Россия Федерациясининг А. Бакулев номидаги юрак-қон томир жарроҳлиги илмий-амалий маркази филиали ташкил этилди. Корея Республикасининг "Siloam Center for the Blind" хайрия ташкилотининг бир гуруҳ мутахассислари Қорақалпоғистон Республикаси кўз касалликлари шифохонасида беморларни тиббий кўриқдан ўтказиб, ўттиз нафардан зиёдини жарроҳлик йўли билан даволади. Ўзбекистон тиббиёт соҳасининг турли йўналишлари бўйича хорижий давлатлар билан ҳамкорлик қилиши натижасида, жаҳон тиббиёт фанининг илғор ютуқларини мамлакатимизда тадбиқ этиш имконияти яратилди.

Калит сўзлар: Аҳолишунослик, ҳамкорлик, кардиология, болалик, муҳофаза, соғлом, жарроҳлик, оила, тиббий, скрининг, турмуш, ангиографик жиҳозлар.

Ўзбекистонда турли соҳаларда амалга оширилаётган ислохотларнинг муваффақияти кўп жиҳатдан хорижий мамлакатлар билан ҳамкорлик масаласига ҳам боғлиқдир. Хусусан, Ўзбекистон соғлиқни сақлаш соҳасида доимий равишда халқаро ташкилотлар ва хорижий давлатлар билан яқиндан ҳамкорлик қилиб келмоқда.

2011 йили Тошкентда "Ўзбекистонда она ва бола саломатлигини муҳофаза қилишнинг миллий модели: "Соғлом она - соғлом бола" халқаро симпозиуми бўлиб ўтди. Тадбир Ўзбекистон Республикасининг Соғлиқни сақлаш вазирлиги томонидан Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти, БМТнинг Болалар жамғармаси (ЮНИСЕФ) ва БМТнинг Аҳолишунослик жамғармаси (ЮНПФА) билан биргаликда ўтказилди. Тадбирда нуфузли халқаро ташкилотлар раҳбарлари, 40га яқин мамлакатларнинг (АҚШ, Хитой, Россия, Канада, Буюк Британия, Германия, Италия, Испания, Франция, Финляндия, Швейцария, Чехия, Дания, Жанубий Корея ва бошқалар) Соғлиқни сақлаш вазирликлари вакиллари ҳамда 300 га яқин мутахассислар, шу жумладан дунёда тан олинган олимлар, халқаро экспертлар ва таҳлилчилар, иштирок этди.

Ўзбекистонда тиббиётнинг турли йўналишларини йўлга қўйиш ва ривожлантиришда хориж мутахассисларининг ҳам ўрни бор. Ўзбекистон Россиянинг етакчи тиббиёт муассасалари билан ҳамкорлик қилиб келмоқда. Масалан, Республика ихтисослаштирилган кардиология марказининг Хоразм ҳудудий филиалида (Урганчда) негизда Россия Федерациясининг А. Бакулев номидаги юрак-қон томир жарроҳлиги илмий-амалий маркази филиали ташкил этилди. Россия Федерациясининг А. Бакулев номидаги юрак-қон томир жарроҳлиги илмий-амалий маркази директори, академик Лео Бокерия Ўзбекистонга келиб, Хоразм вилояти филиали фаолияти билан яқиндан танишди.

Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг маълумотларига кўра, дунёда ҳар минг чақалоқнинг 6-7 нафарига тўғма юрак нуқсонни қайд этилади. Ваҳолонки, бу хасталикни операция йўли билан бутунлай бартараф қилиш ва беморни тўлақонли ҳаётга қайтариш мумкин. Бундай оғир хасталикка чалинган болалар қанча эрта даволанса, касалликни асоратсиз бартараф этиш шунчалик самарали кечади. Марказ филиали Хоразмда иш бошлаши хорижлик ҳамкасблар билан бирга, шу ернинг ўзида бир ёшгача бўлган болаларда ҳам мураккаб юрак жарроҳлигини амалга ошириш имкониятини берди.

Академик Л. Бокерия ўзбекистонлик мутахассислар билан ҳамкорликда Республика ихтисослаштирилган кардиология маркази Хоразм филиалида тўғма юрак хасталиги билан оғриган 20 нафарга яқин чақалоқларни тиббий кўриқдан ўтказди ҳамда зарур хулосаларни берди. Боғот туманилик 16 ёшли Мақсадбек Йўлдошевнинг юрагида мураккаб жарроҳлик амалиётини бажарди. Булар маҳаллий кардиожарроҳлар учун ўзига хос маҳорат дarsi вазифасини ўтади.

2017 йил июнда Россиянинг Уфа шаҳридаги кардиология маркази жарроҳлик бўлими мудирини, тиббиёт фанлари доктори Темур Ҳафизов бошчилигидаги бир гуруҳ мутахассислар республика



ихтисослаштирилган кардиология марказининг Хоразм филиалида маҳаллий шифокорлар учун маҳорат дарслари ўтказди. Кардиология, кардиохирургия, кардиореабилитация, физиотерапия бўлимлари ва ихтисослаштирилган поликлиника фаолият кўрсатаётган мазкур шифо масканида мураккаб жарроҳлик амалиётларини ўтказиш учун зарур шароитлар яратилди. Янги тиббиёт ускуналари ёрдамида 8 хил турдаги 450 га яқин жарроҳлик муолажалари амалга оширилди. Россиялик мутахассислар иштирокида ўтказилган маҳорат дарсларида уйқу артерияси, оёқ қон томирларидаги жарроҳлик амалиётлари филиал шифокорлари билан ҳамкорликда бажарилди.

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги Голландиянинг "Philips Healthcare" компанияси билан ҳамкорликда Фарғона вилояти кўп тармоқли тиббиёт маркази қошида интервенцион кардиология бўлимини ташкил этиш лойиҳасини амалга оширди. Лойиҳа доирасида шифо маскани энг замонавий "Philips AlluraClarity" русумли ангиографик жиҳозлар тўплами билан таъминланди. Бундай тиббий ускуналар барча турдаги томир касалликларини даволашда муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизимида олиб борилаётган ислохотларни, тиббиёт соҳасидаги янгиликларни хориж мутахассислари катта қизиқиш билан кузатиб борди. Шунингдек, тиббий дори-дармонлар ва асбоб-ускуналар ишлаб чиқариш саноатини ривожлантириш, замонавий шифохоналар барпо этиш ва тиббиёт ходимлари меҳнатини рағбатлантириш, дунёдаги энг етакчи клиникалар билан ҳамкорликни йўлга қўйиш борасида амалга оширилаётган ишлар муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Корея Республикасининг "Siloam Center for the Blind" хайрия ташкилотининг бир гуруҳ мутахассислари Қорақалпоғистон Республикаси кўз касалликлари шифохонасида беморларни тиббий кўриқдан ўтказиб, ўттиз нафардан зиёдини жарроҳлик йўли билан даволади. Бундан ташқари, хайрия ташкилоти мазкур тиббиёт муассасасига 54 минг 500 АҚШ долларилек 500 номдаги офтальмология ускуналари ҳамда дори-дармонларни совға қилди. Мазкур ташкилотнинг ёрдами билан уч нафар шифокор Жанубий Кореяда малака ошириб қайтди.

Германия халқаро ҳамкорлик ташкилотининг "Юқори технологик тиббий асбоб-ускуналардан фойдаланиш бўйича тиббий ва техник мутахассисларнинг малакасини ошириш" лойиҳаси доирасида Андижон давлат тиббиёт институти клиникасида замонавий лапораскопия ўқув маркази ташкил этилди. Германия халқаро ҳамкорлик жамияти (GIZ) нинг лойиҳа раҳбари Гунар Штротте бир неча марта Ўзбекистонда бўлиб, Республикада аҳоли саломатлиги муҳофазаси билан танишди. Ўқув марказини илгор ахборот ва тиббиёт технологиялари билан жиҳозлаш ишларига 355 миллион сўм йўналтирилди. Натижада бу ерда беморларга аниқ ҳамда тезкор ташхис қўйиш, даволаш имконияти юзага келди.

2017 йил июнда Тошкент педиатрия тиббиёт институти ўқитувчи ва талабаларидан иборат Ўзбекистон делегацияси Германияда бўлди. Мазкур ўқув-танишув сафари Германия академик алмашувлар хизматининг (ДААД) грант лойиҳаси доирасида ташкил этилди. Ўзбекистон делегацияси аъзолари Берлин ҳамда Дюссельдорф университетларининг тиббиёт факультетлари, шунингдек, Билефельд шаҳар клиникасида мутахассислар тайёрлаш, қайта тайёрлаш тизими ва замонавий тиббий ускуналардан фойдаланилган ҳолда, касалликларни ташхислаш ҳамда даволашнинг илгор усуллари билан танишди. Берлиндаги энг йирик Шарите университети клиникасининг фаолияти билан танишув доирасида мазкур университет тиббиёт мажмуасининг талабалари, ўқитувчи, илмий тадқиқотчилари ҳамда Ўзбекистоннинг Германия Федератив Республикасидаги элчихонаси вакиллари иштирокида давра суҳбати бўлиб ўтди. Шунингдек, "Жаҳон" ахборот агентлиги муҳбири билан суҳбат чоғида Берлиндаги Шарите университети клиникаси профессори Роланд Вауэр Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш жабҳасида амалга оширилаётган изчил ислохотларнинг натижаларига юқори баҳо бериб, шундай дейди: "Ўзбек шерикларимиз билан илмий-маърифий ҳамкорлик доирасида бир неча маротаба, шу жумладан, қатор халқаро илмий конференция ва симпозиумлар қатнашчиси сифатида Ўзбекистонга бордим. Қувонарли жиҳати, мамлакатингизда юқори малакали тиббиёт кадрлари тайёрлашга устувор даражада аҳамият берилаяпти. Ўзбекистоннинг тиббиёт соҳасидаги олий ўқув юртлари талабалари, ёш тадқиқотчи ҳамда ўқитувчиларининг Германияга уюштирилган сафарлари ҳам мазкур фикрни тасдиқлайди. Ишончим комилки, уларнинг бу ерда орттирган тажриба, билим-қўникмалари Ҳаракатлар стратегияси мақсадларига эришиш учун йўналтирилади".

Ўзбекистоннинг хорижий мамлакатлар билан тиббиёт соҳасидаги ҳамкорлигида халқаро кўرғазмалар ҳам муҳим роль ўйнади. Масалан, "UzMedExpo" халқаро ихтисослаштирилган тиббиёт кўрғазмаларини Тошкентда уюштириш анъанага айланиб борди. "UzMedExpo-2016" кўрғазмасида Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Савдо-саноат палатаси, Тошкент шаҳар ҳокимлиги, "Дори-дармон" акциядорлик компанияси, Хорижий фармацевтика компаниялари ва



ишлаб чиқарувчиларнинг Ўзбекистондаги ваколатхоналари уюшмаси томонидан "IEG Uzbekistan" халқаро кўрғазма компанияси кўмагида "Ўзэкспомарказ" мажмуида ташкил қилинди. "UzMedExpo - 2016" тиббиёт кўрғазмасида Ўзбекистон, Хитой, Жанубий Корея, Россия, Германия, Швейцария, Ҳиндистон, Польша сингари давлатлардан ўнлаб корхона ҳамда фирмалар иштирок этди. Анжуманда янги русумдаги технологиялар, дори-дармон, ультратовуш, рентген аппаратлари, физиотерапевтик ва кардиологик жиҳозлар, стоматология асбоб-ускуналари, санитария-гигиена ҳамда реабилитация воситалари, тренажёрлар, тиббиёт кийимлари, ортопедик маҳсулотлар, мебеллар, дорихоналар учун ускуналар тақдим этилди.

Павильондаги энг катта стенд Хитойнинг "Premium Technics" масъулияти чекланган жамияти маҳсулотлари учун ажратилди. Мазкур корхона компьютер томографияси, рақамли рентген, ультратовуш текширув аппарати ва яна кўплаб техника қурилмаларини ишлаб чиқаради .

Хуллас, Ўзбекистон тиббиёт соҳасининг турли йўналишлари бўйича хорижий давлатлар билан ҳамкорлик қилиши натижасида, жаҳон тиббиёт фанининг илғор ютуқларини мамлакатимизда тадбиқ этиш имконияти яратилди.

Фойдаланган манба ва адабиётлар рўйхати:

1. Аҳмедов Ҳ., Ўзаро ҳамкорлик давом этмоқда // Халқ сўзи, 2016 йил 12 ноябрь.
2. Файзиев О., Энг замонавий тиббий технологиялар пойтахтимизда иш бошлаган // Халқ сўзи, 2016 йил, 26 сентябрь.
3. Германия бўйлаб ўқув-танишув сафари // "Жаҳон" АА. Берлин, 06 Июнь 2017 йил.
4. Ҳусанов С., Изчил ҳамкорлик самараси // Халқ сўзи, 2016 йил, 29 сентябрь.
5. Мусулмонов М., Ҳамкорлик самараси // 2016 йил, 8 январь.
6. Халқ сўзи, 2017 йил, 4 июль.
7. Зиёдинов М., Машҳур кардиожарроҳ Хоразмда бўлди // Халқ сўзи, 2017 йил, 1 январь



SHARQ QO'LYOZMALARI VA ULARNING SVILIZATSIYA TARIXIDAGI O'RNI

Davlatova Guloyim Ulug'bekovna
Hazorasp tumanidagi 19-maktabning tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolaning mohiyati shundaki, buyuk allomalarimizning O'zbekiston tarixi sivilizatsiyasiga qo'shgan xissasi va ularning sivilizatsiya tarixidagi o'rnini belgilab berishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: Sivilizatsiya, ma'naviy taraqqiyot, mafkura, O'rta Osiyo, Arab Xalifaligi.

O'zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligini qo'lga kiritish bilan o'zbek xalqi tarixida tub burilishi sodir bo'ldi. Milliy istiqloq goyasi o'zbek xalqining o'z huquqlari, milliy o'zligini tiklashga, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyot sari yuz tutishga cheksiz imkoniyatlar yaratdi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sari yo'l tub islohotlar bilan belgilangan bo'lsa, ma'naviy taraqqiyotga milliy ma'naviyatni tiklash va mustaxkamlash, fan, maorif madaniyatni rivojlantirish, tafakkurga erkinlik berish bilan asoslandi. Bu jarayonda tarix, tarixiy ong va xotira xalqqa ruxiy kuch quvvat bag'ishlovchi, unga ma'naviy ozuqa beruvchi muxim omil sifatida maydonga chiqdi. O'zbek xalqining xaqqoniy tarixini tiklash va xalqni shu tarix bilan qurollantirish zaruriyati kun tartibidagi dolzarb vazifaga aylandi. Zero Mustaqillikka qadar, ya'ni mustabid tuzum xukmronligi sharoitida xaqqoniy tarixni tiklash va uni xalqqa etkazishga yul berilmadi. Chunki mustabid tuzum manfaatlariga xizmat qilgan kommunistik mafkura va uning tazyiqi ostida bo'lgan sovet tarixshunosligining uslubiy, nazariy, g'oyaviy asoslari xaqqoniy tarixni yoritishga imkon bermas edi. Ular xalq tarixini emas, marksizm, leninizm ta'limotini, sinfiy kurash goyalarini va kommunistik mafkura aqidalarini targib etishga buysundirilgan edi. Bu goyalar va aqidalar jamiyat taraqqiyot qonunlariga, xalqning tabiatiga, real voqelikka zid bulib ularni nafaqat xayotdan balki utmishdan xam izlash mutlaqo befoyda edi.

Shunga qaramay, mazkur ta'limot aqidalariga va tamoyillariga asoslangan sovet tarixshunosligida nafaqat o'zbek xalqining balki jahon tarixini xam juda kup muxim masalalarai mutlaqo noto'g'ri buzib talqin etildi. Natijada tarixiy xaqiqat yashirilib xalq o'z utmishidan va demak, uzligidan uzoqlashtirildi.

O'rta Osiyo xalqlarining Arab xalifaligi tarkibiga kirishi arafasidagi va undan keyingi ahvoli haqida gap borganida so'zsiz arabcha, forscha va qadimgi turkiy-runiy yozuvlarga murojaat qilamiz. Tarixda uch joydan O'rta Osiyo xalqlari tarixiga doir hujjatlar arxivi topilgan: hozirgi Turkmanistonning Niso shahrida - Parfiya davlati (miloddan avvalgi I asr) hujjatlari, Tuproqqal'ada (III asr) Xorazm davlati hujjatlari, Mug' togida (Samarqand) So'g'diyona hujjatlari (VII asr) topilgan. Bundan tashqari, erlardan juda ko'plab epigrafik yodgorliklar toshdagi bitiklar, ro'zg'or buyumlari va san'at asarlari topilgan. O'rta Osiyo tarixidan daliliy ashyolarga boy ma'lumotlarni o'rta asrda yashashgan muarrix Tabariy asarlaridan, shu asarning Bal'amiy tuzgan forscha-tojikcha nusxasidan, jahonshumul qomusiy olim Beruniy asarlaridan topishimiz mumkin.

Binobarin, Sharq xalqlari madaniyati muammolariga oid hozirgi tarixiy-monografik tadqiqotlarning qo'lyozma manbalarga bevosita aloqadorligi tabiiydir.

Arab tarixshunosligi to'g'ridan-to'g'ri fol'klor (xalq ijodi) va adabiy an'analar bilan, shuningdek, ilohiyot qur'on an'analari bilan uzviy bog'liqdir.

Arabcha tarixiy asarlarning mazmuni islom jamoalari tarixi, bu jamoalarning siyosat va aql-idrokda faol toifalari vakillarining hayoti, faoliyati bilan bog'liqdir.

Qur'on matni bilan aloqador ko'pgina muammolar aks etgan filologik (adabiy), tarixiy, diniy asarlar tasvirlarda aks etgan bo'lib, ularda qur'on suralari va oyatlari birma-bir sharhlanadi. Bunday tafsirlarning hajmi va salmog'i ancha kattadir. Bunday kitoblar VIII asrgacha barmoq bilan sanarli bo'lgan bo'lsa, 750-1050 yillar davomida ellikka yaqin shunday asarlar yaratildi. Shulardan ham yarmigina bizgacha saqlanib qolgan. 200 yildan ziyod vaqt davomida yozilgan qur'on tavsiflari Tabariyning (838-923) fundamental "Tafsir" kitobida umumlashtirilgan. Bu asarning nufuzi bizningcha, avvalgi ko'pchilik asarlarni muomaladan siqib chiqargan bo'lishi mumkin. Tabariy tafsiri juda katta hajmda (bosma nashrda 30 jild) ekanligidan qat'i nazar, juda ko'p xattotlar uni qunt bilan qayta-qayta ko'chirib yozganlar. Shu tufayli bu asarning ko'pgina nusxalari bizgacha etib kelgan. Tabariy, Narshaxiy, Beruniy asarlarini tarixshunoslik yuzasidan tahlil qilishga o'tishdan avval islom diniga doir bir masala ustida to'xtashimiz lozim. Ma'lumki, Qur'on va Muham-mad payg'ambar hadislari hikmatli so'zlari imon ramzi, shariat islom huquqshunosligi va ilohiyot fanlarini tashkil etadi. A. B. Halidov, Shamsuddin Boboxon va Abdusodiq Irisovlar ta'kidlashicha, imom Ismoil Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, Abu Dovud Sijistoniy, Ahmad an-Nasaviy, ibn Madj al-Qazviniy va boshqa muhaddislar to'plagan



hadislar bir yarim millionga etadi. Bulardan Abu Dovud, at-Termiziy, ibn Madj va an-Nasaviylar to'plagan hadislar ("As-Sunan") va ayniqsa Ismoil Buxoriyning "Jome`-as-Sahih" nomli hadislar to'plami Sharq xalqlari orasida mashhur bo'lgan. Gap shundaki, al-Buxoriy jahonga tanilgan, buyuk muhaddis bo'libgina qolmay, o'z zamonasining [Mazdak ta`limoti, va`zlari keng shuhrat Qozondi. Tabariyning aytishicha, "oddiy fuqaro fursatdan foydalanib, Mazdakka va uning tarafdorlariga qo'shilib, ular atrofida uyushdilar". Bu fikrni Beruniy xam tasdiqlaydi: "Son-sanoqsiz odamlar ularga ergashdilar". eron shohi Qubod I siyosiy vaziyat taqozosi bilan, ko'nglida xohlamasa xam o'zini Mazdak tarafdori deb e`lon qildi 528-529 yil voqealari shundan dalolat beradi. Qubod tarafdorlari Mazdakni o'ldirib, markaziy hokimiyatni qaytarib olishganida, mazdakchilarning etakchilarini qirib tashladilar va ularning izdoshlarini shafqatsiz kaltaklab, quvg'in qildilar.

Tabariyning Turk hoqonligi haqidagi hikoyasi qiziqarli. O'rta Osiyodan ancha olisdagi Oltoy o'lkasida juda katta Turk hoqonligi davlati tarkib topdi. Bu davlat hududlari Koreyadan to Qora dengiz bo'yigacha, O'rta Osiyo va Xitoyni ham o'z ichiga olar edi. Usha zamonda eron va Rum (Vizantiya) eng yirik davlatlar bo'lishiga qaramay, Turk hoqonligi oldida ta`zim qilib turar edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I . O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T 1992 yil.
2. Karimov I.Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1998 yil
3. www.ziynet.uz sayti.



ЎЗБЕКИСТОНДА АРХЕОЛОГИК ВА ЕТНОГРАФИЯГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАР

Davletova Dilafruz Ulug'bekovna
Hazorasp tumanidagi 19-maktabning tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola mustaqil O'zbekistonning haqiqiy tarixini yaratishda arxeologik va etnografiyaga oid tadqiqotlarni rolini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Arxeologik tadqiqotlar, etnografiya, arxeologiya fani, svilizatsiya, ko'xna yodgorliklar.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng mamlakatimizda barcha sohani isloh qilishga kirishildi. Lekin islohotlar o'tkazish uchun avval biz aslida kimligimizni barchaga anglatish, undan tashqari bu haqda endigina yetuklik ostonasiga qadam qo'yayotgan yoshlarimizga ma'lumot berish zarurati yuzaga keldi. Fanlar tizimida muhim o'rin egallagan tarix bo'yicha darsliklarimizda esa necha ming yillik o'tmishga ega diyorimiz tarixi sho'rolar davrida soxtalashtirilganligi uchun aytarli haqiqiy ma'lumotlar mavjud emas edi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov haqqoniy tariximizni yaratishda bir necha masalalar muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan edilar. Ulardan birinchisi, tarix o'qituvchilarining zimmasiga yuklatilgan mas'uliyat bo'lib, unga ko'ra tarixchilar hamma eshitgan narsasiga ishonishi emas, balki chuqur tahlil va mantiqiy xulosalarga tayanib ish yuritishi lozim. Chunki faqat bahs, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin edi.

Tarix taqazosi shunday bo'ldiki, O'rta Osiyo mintaqasida markaziy o'rinni egallovchi O'zbekiston hududi qadim zamonlardan boshlab, o'troq dehqonchilik va ularning chorvador-kuchmanchilar madaniyati bilan o'zaro ta'sirga kirishi jarayoni yuz bergan makonga aylandi. Mazkur svelizatsiyalarning moddiy yodgorliklarini o'zbek tuprog'i o'z bag'rida saqlab kelyapdi. Biroq, O'zbekistonda arxeologiya fani eng yosh ilmiy sohalardan biridir. Shuni qayt etish lozimki, ulkani tadqiq etishga oid birinchi qadamlar XIX asrning oxiridan boshlab quyilgan edi. Avval bu ish bilan havaskor o'lkashunoslar va kolleksionerlar shug'ullanganlar. Faqat bir marta, 1884 yilda bu yerga markazdan arxeolog olim N.I.Veselovskiy boshchiligidagi arxeologiya hayati yuborilgan edi. Ammo bu hay'at Osiyoning xom g'ishtlaridan barpo etilgan murakkab inshootlarida qazish ishlari olib borishga tayyor emas edi va u qadimgi tarixning Afrosiyob qal'asidek nodir yodgorligi haqida salbiy taqrizni taqdim etdi. Ko'xna yodgorliklarning haqiqiy qimmati va ahamyatini ko'rsatib bergan asosiy ishlar esa Turkiston arxeologiya havaskorlari tugaragi V.L.Vyatkin, E.T.Smirnov, M.S.Andreev, N.G.Malliskiy, A.A.Divaev va boshqa entuzeastlarning faoliyati bilan bog'liq.

Taniqli rus sharqshunosi V.V.Bartold ulkani o'rganish ishqibozlari va havaskorlarini qullab-quvvatladi. Biroq, bu asosan, mutaxasis bo'lmagan, yolg'iz kishilarning sayi-harakatlari edi. Ko'plab qadimgi yodgorliklar osori-atiqalar bilan savdo qilivchi sovdogarlardan tomonidan talon-taroj qilindi va chet ellarga sotib yuborildi.

Ko'hna obidalarning vayron qilinishi ko'p hollarda mustamlakachi ma'muriyati tomonidan ham rag'batlantirilar edi Ularning bu soxadagi tutgan yo'li general -gubernator Samsonovning quyidagi suzlarida ham yaqqol o'z ifodasini topgan: "Rossiya davlatchiligi nuqtai nazaridan ushbu qadimgi obidalarning tezroq buzilib ketgani yaxshi bo'lar edi".

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrga kelib mahalliy ziyolilardan havaskor ulkashunoslar yetishib chiqq boshladi. Ular o'z madaniyati yodgorliklarining katta ahamiyatga ega ekanligi haqidagi haqidagi g'oyaga tobora katta ishonch bilan qarab, uni saqlash va ommalashtirish ishiga butun kuch-g'ayratlarini sarfladilar.

Mana shunday kishilar sirasidan Akrom Asqarov, Mirza Buxoriy, Abduraxmon, Abu Said mag'zun, Sattorxon Abdulg'afforov kabi ayrim ziyolilar faqat ko'hna yodgorliklar, shu jumladan, tangalarni to'plash bilan cheklanmasdan Rossiya imperiyasining ilmiy hayotida ham o'ziga xos tarzda ishtirok etdilar.

Masalan Sattorxon Rossiyaning kuzga ko'ringan sharqshunoslarining tashabbusi bilan 1876 yilda Petrburgda bo'lib utgan sharqshunoslarning III xalqaro s'ezdiga taklif etilgan Turkiston deligatsiyasiga rahbarlik qildi. Akrom Asqarov "arxeologiya fani yutuqlariga yordam berganligi" uchun rus arxeologiya jamiyatining kumush medali bilan taqdirlandi.

Turkiston ulkasining mustamlakachi ma'muriyati "begona xalqlar vakillarining davlat xizmatida yuqori o'rinni egallashga hartomonlama tusqinlik kursatayotgan bir vaqtda, fan, Sattorxon qayt etib o'tganidek, "turli dindagi turli elatlarga mansub kishilarni yaqinlashtirdi".

Qadimgi madaniyat yodgorliklarini tadqiq qilishda yangi bosqich XX asrning 20-yillaridan boshlandi. Mana shu davrda sovet hokimiyati tomonidan o'tkazilgan milliy chegaralash natijasida to'zilgan O'rta Osiyo



hududlarida bir qator arxeologik ishlar olib borildi. Ular jumlasidan, samarqandlik havaskor o'lkashunoslar, sharq qulyozmalarining bilimdoni V.L.Vyatkin olib borgan qazishishlarini aytish mumkin. U o'z arxeologik qazish ishlarini 1925-1928 yillarda M.E.Masson Ohangaron vodiysida birinchi arxeologik marshrutlarni hamda Tuytepa yaqinidagi qazilmalarni, keyinchlik esa Termiz atrofidagi Ayritom qal'asidagi kazilmalarni amalgam oshirdi. Biroq, 30-yilarning o'rtalariga qadar hali endigina tug'ilib kelayotgan qadimshunoslik fanida tarixiy jarayonlarning sanasini belgilash masalalarida idealistik tasavvurlar hukmronlik qilar, topilmalarga ham ashyoviy nuqtai nazardan yondoshilar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q" T 1998 y
2. Saidqulov T.S. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavxalar (1-qism) T. 1993 y.
3. Axmedov B. Tarixdan saboqlar T. "O`qituvchi" 1994 y.



СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДА ТУТГАН ЎРНИ

KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATINI YARATISHDA OILA MA'NAVIYATINI MUVAFFAQIYATLI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Zuhraxon Hoshimova Rahimovna
(Farg'ona viloyati Bag'dod tumani XTB
39-umumiy o'rta-ta'lim maktabi MIG'MA fani o'qituvchisi)
Zarnigor G'ulamova Ikromjon qizi
(Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi)

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda huquqiy demokratik davlatlar oldida turgan asosiy masala hisoblangan fuqarolik jamiyatini yaratishda uning asosiy qadriyatlaridan biri bo'lgan oila hamda oila ma'naviyatini muvaffaqiyatli shakllantirishning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, oila, oila ma'naviyati, huquqiy demokratik davlatlar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

Bugungi kunga kelib dunyoning aksariyat davlatlarida huquqiy demokratik tizimlar umumbashariy va milliy qadriyatlar uyg'unligi sifatida qaror topayotganligi fuqarolik jamiyatini barpo etish insoniyat hayot tarzining eng maqbul rivojlanish yo'li ekanligini belgilab bermoqda. "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" ildam harakatlanayotgan mamlakatimizda bu xususda ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmogda hamda jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan oilaga katta e'tibor qaratilmogda, keng imkoniyatlar yaratilmogda.

Oila - Vatan timsoli. Negaki, oila va Vatan tushunchalari bir-biriga chambarchas bog'liq. Vatan tuyg'usi oiladan, ona bag'ridan boshlanadi. Oila esa jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy boyligi hisoblanadi.[1.14] O'zbekistonda oila davlat muhofazasida. Oilaga muntazam g'amxo'rlik qilish, unga har tomonlama moddiy va ma'naviy ko'mak berish insonparvar demokratik huquqiy davlatning muhim vazifalaridan sanaladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan to shu kunga qadar oila haqida 50 ga yaqin qonun, 70 ga yaqin qaror va farmoyishlar e'lon qilindi, ularning katta qismi ijtimoiy, moddiy va ma'naviy himoya qilish va oila farovonligini ta'minlashdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Oila" deb nomlangan XIV bobining 63, 63, 65, 66-moddalarida oila jamiyatning asosiy negizi ekanligi belgilab qo'yilgan. Zero, Oila asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas va, albatta, millat taqdiri uning oilasining holatiga bog'liq. XX asr Turkiston jadidchilik harakatining buyuk namoyondalaridan biri Abdurauf Fitrat: "Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi." [2.4] Umuman, odamlar jamiyatining saqlanib qolishida ham oila ayrim alohida olingan shaxs bilan yaxlit jamiyat o'rtasida o'ziga xos "bufer" - ko'priklarni o'ynab kelmoqda. Zero, madaniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab, avlodlardan avlodga yetkazishda davlat va jamiyatdagi ta'lim muassasalari, madaniyat o'choqlarining ham muayyan roli bor, lekin ularda o'zgarishlar tez-tez ro'y bergani sababli ularning avlodlararo muqaddas sanalib kelinayotgan qadriyatlarni asrab-avaylashdagi roli oilachalik yuqori bo'lolmaydi.[3.17] Oila ijtimoiy-psixologik yaxlitlik sifatida shaxsga shunday normativ va axborot ta'sirlarini ko'rsatadiki, oqibatda bola eng avvalo, jamiyatdagi qonuniy normalar, xulq-atvor andozalarini egallaydi.[4.220]

Xulosa qilib aytganda, oila ma'naviyatini shakllantirish kuchli fuqarolik jamiyatini yaratish yoxud rivojlantirish yo'lidan borayotgan mamlakatning asosiy vazifalaridan biri ekanligi tan olinmogda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik Vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, Vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarda, Vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!" [5. Videoselekt]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ma'naviyat asoslari 10-11-sinf: V. Qo'chqorov, O. Mahmudov, Z. Zamonov. - Birinchi nashr, -



Toshkent: "Yangiyo'l poligraf servis", 2017. - 144b

2. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari//Mas'ul muharrir: D.A. Alimova. - 2-nashr -T.: "Ma'naviyat". 2000-112b

3. Oila psixologiyasi. Darslik. Pedagogika oliygohlari uchun// Muallif: V.M. Karimova. - T.: "Fan va texnologiya", 2008. - 170b

4. Социология семьи: Учебник / Под ред. проф. А.И. Антонова.- М.: ИНФРА-М, 2005-С.220

5. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi, 2018.19.01



O'ZBEKISTONDA AYOLLARNING IJTIMOYIY HOLATI: MUOMMO VA ISTEQBOLLARI

Nazarova Muharram Yunus qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Ijtimoiy ish(oilalar va bolalar bilan ishlash) 1-bosqich magistranti

Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi AFIDUM psixologi

Annotatsiya: Maqolada bugungi kundagi Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilish jihatlari sotsiologik tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy himoya, ijtimoiy holat, ayollar huquqi, ijtimoiy muommo va gender tengsizlik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarining birida: "Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi" deb ta'kidlab o'tganlar. Davlat siyosatining muhim sohasi ijtimoiy sohada ayollarga qaratilayotgan katta e'tibor va keng imkoniyatlarga dalolat qilib, bu borada oxirgi yillarda bir qancha qonun, farmonlarning qabul qilinayotganini keltirish mumkin. Shuningdek, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va uning hududiy bo'linmalari, Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etildi, "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etildi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti lauretlarini qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi joriy etildi. Bugungi kunga kelib Respublikamizda 1ming besh yuz nafar ayollar rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqdalar.

Shuningdek, Xotin-qizlar qo'mitasining hududiy bo'limlari huzurida "Ilm-fan va ayol", "Ijodkor ayollar", "Tashabbuskor ayollar", "Ayol va salomatlik", "Faxriy ayollar" jamoatchilik uyushmalari faoliyati yo'lga qo'yilgani, "Yil ayoli", "Ibratli oila" tanlovlari muntazam o'tkazilayotgani xotin-qizlarga yuksak e'tibordan dalolat beradi. Shu bilan birga, davlatimiz rahbarining qaroriga muvofiq, 2019-yilning 1 mayidan ayollar mehnatini muayyan soha yoki kasblarda qo'llash bo'yicha taqiqlarning bekor qilinishi, ayollar sog'lig'iga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan soha yoki kasblar ro'yxatini tasdiqlash amaliyoti joriy etilishi, bola parvarishlash ta'tili bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar berilishi xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish tizimini yanada kuchaytirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, ish paytida ikki yoshga to'lmagan farzandini tarbiyalash bilan shug'ullanadigan ota-onalarga imtiyozlar, xususan, dam olish va ovqatlanish, bolani ovqatlantirish uchun beriladigan tanaffuslar hisobidan ish beruvchi bilan kelishilgan holda kun davomida foydalaniladigan tanaffus vaqtini belgilash huquqi xotin-qizlar mehnat huquqlarini ta'minlashda muhim kafolat bo'lyapti. Davlat pensiyasini olish huquqi vujudga kelgan ishlovchi ayollar bilan tuzilgan nomuayyan muddatli mehnat shartnomasini 60 yoshga to'lgunga qadar yoki muddatli mehnat shartnomasini muddati tugagunga qadar ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish amaliyotining taqiqlanishi ham xotin-qizlarning moddiy va madaniy turmush darajasi yuksalishiga xizmat qiladi.

Xotin-qizlarning gender tengligini himoya qilish bo'yicha komissiya tuzildi. Uning asosiy vazifalariga gender tenglikni ta'minlash, davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan ayollarning gender tengligi buzilishiga doir murojaatlarini ko'rib chiqish, kasbiy segregatsiya, ish haqi o'rtasidagi farq, aholining iqtisodiy faol qatlami orasida ayollarning ulushini ko'paytirish masalalari bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, ayollar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish bo'yicha umume'tirof etilgan xalqaro normalarni milliy qonun hujjatlariga implementatsiya qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqish, ayollarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan choralarni belgilash va samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda keng qamrovli targ'ibot ishlarini tashkil etish kiritildi. Ayollar huquqlarini himoya qilish borasida Xalqaro aloqalarda faol siyosat olib borilayotganini alohida e'tirof etish mumkin. Misol tariqasida, BMTning Statistika komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan minimal gender ko'rsatkichlarga oid ma'lumotlarni gender.stat.uz saytida joylashtirib borish va doimiy ravishda yangilab turish amaliyoti faqat O'zbekistonda mavjudligini, Mamlakatimiz BMTning Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasiga Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib qo'shilganini keltirib o'tish mumkin.

Shu bilan birga, bu sohadagi ishlarning holati xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va



sog'lomlashtirishning samarali mexanizmlarini yaratishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar ham mavjudligidan dalolat beradi. Jumladan:

- yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni manzilli qo'llab-quvvatlash tizimi mavjud emas, ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlar bilan yakka tartibda ish olib borish faoliyati yo'lga qo'yilmagan

- yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy negizlari va an'anaviy oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha maqsadli ishlar olib borilmayapti, erta nikohlarning, oiladagi nizoli holatlar va ajrashishlarning oldini olish bo'yicha choralarning samaradorligi past darajada qolmoqda;

- xotin-qizlarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish borasidagi faoliyat yetarli darajada tashkil etilmagan, onalar kasalligi va perinatal kasalliklar profilaktikasi va ularning oldini olish bo'yicha samarali tizim, ayniqsa, chekka qishloq hududlarida mavjud emas;

- xotin-qizlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha samarali choralar ko'rilmayapti, xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularga yuridik maslahatlar berish mexanizmlari zamon talablariga javob bermaydi;

Bu muammolarni bartaraf etish yuzasidan ijtimoiy dastur va loyihalarni ishlab chiqish hamda amaliyotda qo'llash ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy holatlarini yaxshilashda, shubhasiz, muhim ahamiyatga ega. Zero bugungi kun islohotlarining bosh maqsadi ham Inson manfaatlari va farovonligiga xizmat qilishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni

2. Annayeva Nazokat Rajabbayevna: Ayollar tadbirkorligining genezisi, nazariyasi va amaliyoti, Avtoreferat, Toshkent, 2018

3. Ahmedova Go'zalxon O'tkurovna: "Ayollar tomonidan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tashning o'ziga xos xususiyatlari va uning takomillashtirilishi" Avtoreferat, Toshkent, 2019

4. www.lex.uz.

5. www.ziyonet.uz



O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINI BARPO ETISHDA FUQAROLARNING SIYOSIY- HUQUQIY BILIMLARINI OSHIRISH DAVR TALABI

Nazarova Gulbohor Matkarimovna
Xoram viloyati, Hazorasp tumani,
Pitnak shahridagi 6-son maktab o'qituvchisi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda inson va fuqarolarning siyosiy huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi va ta'minlanishi borasidagi olib borilayotgan amaliy ishlar .Aholining siyosiy bilim darajasi, aholining siyosiy va huquqiy bilimini oshirishga qaratiladi. Siyosiy huquqlardan foydalanish orqali fuqarolar mamlakatning siyosiy hayotida ishtirok etadi, aniqrog'i, davlat organlarini tuzishda, deputatlar saylashda, mansabdor shaxslarni saylashda,ularning faoliyatini nazorat qilishda, muxim qonun va boshqa hujjatlar ishlab chiqishda, davlatning iqtisodiy,siyosiy faoliyatini belgilashda bevosita ishtirok etadi. Mamlakatimizning asosiy qonunida belgilangan, yuqoridagi huquqlarimiz kafolatlangan bo'lishiga qaramasdan, bugungi kunda sodir etilayotgan jinoyatlarning asosida fuqarolarning o'z huquq va erkinliklari poymol qilinganda qaysi vakolatli davlat organi yoxud muassasalariga murojaat qilish yoki murojaatning qaysi turi(ariza, taklif, shikoyat) bilan murojaat qilishni bilmasligi muammosi va ushbu muammoning yechimini yoritamiz.

Kalit so'zlar: davlat organi, ariza, deputat,saylov,huquq, erkinlik, siyosat,shikoyat, taklif.

Bugungi kunda mamlakatimiz jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rni va nufuziga ega. O'zbekiston o'z oldiga maqsad qilib, har tomonlama rivojlanish strategiyasini qo'ygan davlat sifatida tanilayotgan ekan,demak uning hududida yashovchi fuqarolar ham o'z huquq va erkinliklari, majburiyatlari va burchlarini to'laqonli anglab etishlari va ma'suliyat bilan amalga oshirishlari lozimdir. Ammo, ushbu masala dolzarb muammoligicha qolmoqda. Shunday ekan, bu muammoning oldini olish va bartaraf etish zarurdir. Aholining siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, bevosita O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga murojaat qilamiz. Konstitutsiyamizning ikkinchi bo'lim, VIII bobi "Inson va fuqarolarning siyosiy huquqlari"ga bag'ishlanadi. Ushbu bobga tegishli 35- moddasida : "Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'z fuqarolariga: tegishli idoralar va muassasalarga ariza, iltimosnoma, shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqlarini ta'minlaydi.O'zbekistonda hokimiyatining yagona manbai xalqdir, bu Konsitutsiyada ham (7-modda) belgilab qo'yilgan. O'zbekiston xalqini esa fuqarolar tashkil etadi (8-modda).Demak, hokimiyat manbai fuqarolar hamdir.Ular hokimiyatning manbai bo'lgach,uni amalga oshirishlari kerak.Hokimiyatni amalga oshirishda fuqarolar siyosiy huquqlaridan foydalaniladi,yani siyosiy huquqlar fuqarolarga davlat va jamiyatni boshqarish, ularning ishida ishtirok etish imkoniyatini beruvchi huquqlardir.Siyosiy huquqlardan foydalanish orqali fuqarolar mamlakatning siyosiy hayotida ishtirok etadi, aniqrog'i, davlat organlarini tuzishda, deputatlar saylashda, mansabdor shaxslarni saylashda,ularning faoliyatini nazorat qilishda, muxim qonun va boshqa hujjatlar ishlab chiqishda, davlatning iqtisodiy,siyosiy faoliyatini belgilashda bevosita ishtirok etadi. Qisqa qilib aytganda, siyosiy huquqlar fuqarolarning siyosatda ishtirokini ta'minlaydigan huquqlardir. Mamlakatimizning asosiy qonunida belgilangan, yuqoridagi huquqlarimiz kafolatlangan bo'lishiga qaramasdan, bugungi kunda sodir etilayotgan jinoyatlarning asosida fuqarolarning o'z huquq va erkinliklari poymol qilinganda qaysi vakolatli davlat organi yoxud muassasalariga murojaat qilish yoki murojaatning qaysi turi(ariza, taklif, shikoyat) bilan murojaat qilishni bilmasligi yotadi deb o'ylayman. Bunday fikr yuritishimga sabab esa, to'g'ri davlat qonunlar ishlab chiqmoqda va ularni xalq muhokamasiga qo'yimoqda, lekin aksariyat aholi u bilan tanish emasligidir. Bu esa anashu aholining o'zi uchun zarar keltirmoqda. Buyuk mutaffakkir Abu Nasr Farobiy "Talışu navomisi Aflotun"(Aflotun qonunlari mohiyati)nomli asarga asoslanib shunday deydi: "Xalq qonunlarga ehtiyoj sezishi va ularni o'rganishi zarur, chunki ular keyinchalik xalqning o'ziga foyda keltiradi".

Ibn sino O'rta Osiyo , butun musulmon Sharqi tabiiy -ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikriningbuyuk nomoyondasi tibbiyot falsafa qator tabiiy-ilmiy fanlar badiiy adabiyot sohalari bo'yicha ko'plab asarlar mualifi mashhur taniqli olim Ibn sino deydi: "O'zaro bog'liqlik va aralashuv jarayonida insonlar bir-birlarini qandaydir muhtojlikdan holi etadilar. Buning ushun insonlar o'rtasida o'zaro kelishuv zarur bo'lib bu kelishuv tufayli



adolat qoidalari va qonunlari o'rnatiladi. Qonunshunos esa bu qoidalarga bajarilishi shart bo'lgan majburiyat tusini beradi. Shuningdek, u yomon ishlarni qiluvchilarga ham, yaxshi ishlarni ro'yobga chiqaruvchilarga ham baho berishi zarur. Buning uchun oliy qonunshunos va sudyani tan olish zarurki, insonlar o'z faoliyatlarida ularning hukmlaridan foydalansinlar".

Bulardan shunday hulosa qilish mumkinki, qonunlar inson uchun, insonlar esa uni anglay bilishi va undan foydalana olishlari zarur. Bunga esa mening fikrimcha, davlatimizdani eng quyi boshqaruv organi hisoblangan "mahalla" larda malakali huquqshunoslar faoliyati bilan ta'minlangan huquqiy maslahathonalar ochish bilan erishishimiz mumkin deb o'ylayman. Siz o'zi o'rganmagan aholiga shu narsa yordam beradimi deb taajublanishingiz mumkin, ammo shu huquqiy institut boshqaruv organlari bilan yaxlit tizimda mustahkam faoliyat olib borsa, menimcha samarali natija beradi. O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlatni barpo etishda siyosiy bilimga ega bo'lgan fuqarolarni tarbiyalash burchimiz ekan, nega buni manashu yo'l bilan qilib ko'rmasligimiz kerak.



СОЦИОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТНИ ИЛМИЙ БОШҚАРИШДА ТУТГАН ЎРНИНИНГ СОЦИОЛОГИК ТАХЛИЛИ

Кахарова Нилуфанр Ражаб Қизи,

Сатторова Анора Карим Қизи

Ўзбекистон Миллий университети

Ижтимоий фанлар факультети Социология йўналиши

"Ижтимоий тизим ва жараёнларнинг ахборот ва психологик хавфсизлиги"

Магистр I босқич ташлабаси

Иш жойи "Ижтимоий фикр" Республика жамоатчилик фикрини ўрганиш маркази

кичик илмий ходимаси

Анотация: Ушбу мақолада социологиянинг бошқарув функцияси эътиборга олиниб, социологиянинг фуқаролик жамиятининг пайдо бўлиш жараёнига таъсир етиш имкониятлари тахлил қилинади. Социологиянинг ижтимоий тартибга солишдаги динамикаси ва салоҳиятини ошириш жараёнлар тавсифланади. Социология ва ҳокимиятдаги ўзаро таъсир муоммосининг мураккаблиги кўрсатилади.

Калит сўзлар: Социологиянинг бошқарув функцияси, фуқаролик жамият социологияси, нодавлат жасият социологияси, социология ва ҳокимият.

Мамлакатимизда мавжуд бўлган жамият асосан фуқаролик жамияти бўлиб, мамлакатимизда социология ҳам айнан шундай кўринишдаги жамиятни функционаллаштиради. "Социология ва фуқароликсиз жамият" ибораси фан сифатида социологиянинг табиати ва моҳиятига зид,

чунки социология фан сифатида фуқаролик жамияти ва унинг еҳтиёжлари ва талаблари дотрасида яралгандир. Аммо "Социология ва жамият" муоммосига чуқурроқ назар соладиган бўлсак социология фуқаролик жамияти муҳитида яралган аммо деярли икки аср мобайнида у турли хил социал шароитларда мавжуд бўлган. Социология ўз вазифаларини хаттоки алоҳида тоталитар тизимларда ҳам тутатмаган (мисол учун Италаяда Муссолин даврида).

Бу ерда ишлатиладиган терминларга аниқлик киритиш керак. Биз "Фуқаролик жамияти" тушунчасини жамиятнинг аниқ бир тури сифатида кўрмаймиз, бизнинг тахлилда Фуқаролик жамияти бу фуқаролик ҳаётининг муҳим қисми бўлиб, ўз ўзини намоён этиши ва ихтиёрий равишда уюшма ва ташкилотларни шакиллантира олиш қувватига эга жамиятдир. Фуқаролик жамиятининг асосий хусусиятлари унинг тузилмалари фаолиятининг сиёсий емаслиги балки сиёсий (давлат) тизимига муқобил ёндашувдир. Фуқаролик жамиятининг вазифалари биринчи навбатда, аҳолининг салмоқли қисмининг ижтимоий фаоллигини ифодалаш учун шарт-шароитлар яратиш, уларнинг манфаатлари йўлида кўплаб ижтимоий муаммоларни ҳал етишдан иборат, ҳар бир шахснинг ҳуқуқ ва еркинликларини таъминлаш. Бундан келиб чиқадики, фуқаролик жамиятининг Марказий муаммоларидан бири ўзаро давлат ҳокимияти билан унинг асосий вазифаларини амалга ошириш ва бу ўзаро алоқани оптималлаштириш йўллари топишдир. Яъни моҳиятан муаммо социал бошқарувчиликдир.

Фуқаролик жамияти (социологик тахлил натижасига кўра), турли хил алоқалар, уюшмалар, тузилмалар, одамлар бирлашмалари, давлатдан мустақил ижтимоий жамоаларнинг мажмуи (нодавлат нотижорат ташкилотлари, турли партиялар ва ҳаракатлар ва ҳоказо), ҳукмронлик ва бўйсунуш муносабатларини ўз ичига олмайдиган ва бошқарув ва манипуляциянинг пассив кўринишидир. Фуқаролик жамиятининг йўқлиги фуқаролик жамияти сифатида ҳаракат қилиши мумкин бўлган фуқаролик жамиятининг қарама-қарши турининг мавжудлигини аниқлатади. Улар икки асосий турда намоён бўлиши мумкин: "defi nitio per negatio" тамойилига асосан биринчи кўринишини инкор орқали аниқланиувчи жамият яъни у ривожланиш даражасининг пастлиги, алоқалар тизимининг йўқлиги билан характерланади. Иккинчи тури ҳам юқоридагидек бўлиб, ҳукумат томонидан манипулатсия қилиш ва бошқаришга қаратилган туғридан-туғри аралашувлар билан фарқланади. Ушбу турдаги фуқаролик жамияти бўлмаган жамият турига биз бугунги кундаги Россия Федерациясини мисол қилишимиз мумкин ва шу ўринда бизнинг мамлакатда ҳам фуқаролик жамияти бўлмаган жамиятнинг кўринишларини учратамиз. Бундай шароитда эса жамиятни бошқаришда иштрок этиш функциясини амалга ошириш томонлама социологиянинг фан сифатидаги аҳамияти ошиб



боради. Шу ўринда шуни таъкидлаймизки (социологик таҳлил натижасига кўра), социологиянинг асосий вазифалари когнитив, предметли ва бошқарувчиликдир.

Таҳлилимизнинг бевосита объекти замонавий бугунги кунда Ўзбекистонда социология билан боғлиқ вазият ва унинг ижтимоий бошқарув тизимига киритилишидир. Аммо бу муоммони 1960-80 йиллар СССР социологиясидаги жамият, давлат ва сиёсий режим билан боғлаган ҳолда таққослаш орқали яхшироқ тушуниш мумкин. Ўзбекистон социологик фанидаги ўзгаришларни босқичма-босқич таҳлил қилишда биз 1960 йиллардан бошлаб амалга оширсак мақсадга мувофиқ бўлади. Ушбу йиллардаги социология "Совет социалистик жамияти социологияси" номини олиб, унда "фуқаролик жамияти" атамаси ва унинг антоними "фуқаролик жамияти бўлмаган жамият" атамаси илмий адабиётларда мавжуд бўлмаган. Мамлакатимизда илк кўринишдаги социология ҳам социалистик жамият социологияси сифатида бўлган. Ўзбекистон Республикасида 1997 йилда келиб социологиянинг назарий, эмпирик ва ташкилий характердаги чуқур ўзгаришлар юз берди. Чунки Ўзбекистон Республикаси Президентининг "ҳуқуқий таълимни такомиллаштириш, аҳолининг ҳуқуқий маданияти даражасини юксалтириш, ҳуқуқшунос кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш, жамоатчилик фикрини ўрганиш ишларини такомиллаштириш тўғрисида" ги фармони билан 1997 йил 25 июндаги 1791-сонли Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 343-сонли тегишли қарори билан "Ижтимоий фикр" Жамоатчилик фикрини ўрганиш маркази ташкил этилди.

XXI асрдан бошлаб янги ўзбек социологиясининг хисоботларини кўриб чиқар эканмиз, бир қарашда сезиларли даражада ўзгаришлар кузатилмади. Аммо уларнинг муҳим шарт-шароитлари ривожланиб бориб, социология учун энг яхши муҳит бўлмаслиги тахмин қилина бошлаган эди. Социологиянинг ривожланиши ва ўрни ҳақида гапирар эканмиз шу ўринда Б.М.Фирсовнинг "социологиянинг қарама - қарши бўлган икки турдаги ривожланиши: табиий ва назорат қилинадиган (еркин, руҳсатсиз, юқоридан тартибга солинадиган) табиати ҳақида қизиқарли фикр бериш ўринли. Мамлакатимизда илм-фан олимлари ва маъмурларининг ҳокимият, биринчи навбатда, партия ва давлат институтларига тўлиқ қарамлигини белгилловчи социологияни бошқаришнинг гайриилмий шакли устунлик қилди "

Мамлакатимизда социологиянинг ривожланишини таҳлили социологиянинг икки турини очиб беради. Фуқаролик жамияти социологияси ва фуқаролик жамият мавжуд бўлмаган социология. Уларнинг ҳар бирининг ўзига хос хусусиятлари қандай? Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, фуқаролик жамияти социологияси фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг реал йўллари, ҳуқуқий давлат ва шу жамият аъзоларининг манфаатларини таъминлайдиган ва амалга оширадиган демократик ҳокимият режимини яратиши лозим. Социологик билимларнинг бундай ўзгариши мамлакатда кечаётган ижтимоий жараёнлар табиатини ўзгартирмасдан туриб амалга ошириб бўлмайди. Бошқа томондан, фуқаролик жамияти социологияси ижтимоий ўзгаришнинг муҳим омили бўлиши мумкин. Бу унинг ривожланиш истиқболларидан бири ва у қаерга бориши кераклиги ҳақидаги саволга жавобдир. Фуқаролик жамияти бўлмаган жамият социологияси ҳукумат билан ҳамкорликда ривожланиш унинг социал буюртмаларини бажариш, "Жамиятнинг илмий бошқарув тизимига кириши" остидаги сўзлар билан илмнинг давлат элита қисмига айлантириш йўналишларига эга. Фуқаролик жамияти бўлмаган жамият социологияси социологиянинг фан сифатида муҳим функциясини келтириб чиқарадиган тадқиқотлар билан ифодаланади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, авторитар ва тоталитар тузумлар мавжуд бўлган фуқаролик жамияти бўлмаган мамлакатларда социология ҳам, чор Россияси ва Совет Иттифоқи тажрибаси кўрсатганидек, аутентификация (ҳақиқий) йўли билан ривожлана олмайди. Ҳокимиятнинг вертикали ҳукмрон бўлган жойда фуқаролик жамиятининг ҳақиқий институтлари бўлмаган ва еркинлик майдони торайган жойда назорат қилинадиган давла ташкил этилади, социология етарли даражада қўллаб-қувватланмайди ва тўлиқ институционал еътирофга ега бўла олмайди. Шунинг учун ҳам унинг ривожланиши кўп жиҳатдан ҳақиқий (фақатгина ҳужжатларда мавжуд бўлибгина қолмай) фуқаролик жамиятининг пайдо бўлиши билан боғлиқ. Акс ҳолда, у фақат Давлат ҳукуматнинг қисми бўлади. Ушбу интилиш турли шаклларга ега бўлган енг профессионал жамиятда (бир нечта ташкилий тузилмалар, уларнинг ҳар бири "бўлинадиган" социологлар, автоном, баъзан параллел Конгресс ва конференцияларни ўтказиш, нашрларнинг йўналиши ва табиати бўйича турли нашрлар ва бошқалар). Социолог ўзи учун рақобат майдонини танлайди. Засонавий социологияни ривожланиш йўлида ҳукумат билан муносабатларга боҳлиқ бўлмаган фатор йўналишлар ва муоммолар мавжуд. Эртами кечми тадқиқотчи ушбу муоммоларга дуч келади ва уларни ҳал этма олмаслиги ёки ахамият бермаслиги социологиянинг ривожланишига тўсқинлик қилади ва шу ўринда тадқиқотчи ўзининг мавқеини йўқотади. Таклиф ва тавсиялар ўрнида етук ва малакали социолог, тадқиқотчи кадрларни етишиб чиқишини таъминлаш ўринлидир.



- Россия, Қозоқистон ёки Европпа мамлакатларидаги жамоатчиллик фикрини ўрганувчи тадқиқот марказлари ёки социология кафедралари талаба ва педагоглари билан "социологлар мактаби"ни йўлга қўйиш.
- Социология назариясини ўзлаштириш бўйича услубий ўқув қўлланмалари сонини кўпайтириш ва амалий социологияни ривожлантириш.
- Устоз-шогирд анъанасини йўлга қўйиш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Горшков, М.К. Россия жамияти қандай бўлса (социологик диагностика малакаси) / М.К. Горшков. - М. : Новый хронограф, 2011. - 672 бет.
2. Горшков, М.К. Жамият - социология - хокимият / М.К. Горшков // Социологик тадқиқотлар. - 2012. - № 7. - 23-28 бетлар.
3. Зборовский, Г.Е. Умумий социология / Г.Е. Зборовский. - М. : Гардарики, 2004. - 592 с. 4. Осипов, Г.В. Жамият томонидан социологияни илмий бошқарув тизимига киритиш муоммолари / Г.В. Осипов // Социологик тадқиқотлар. - 2012. - № 7. - 5-17бетлар.
4. Тощенко, Ж.Т. Россия социологияси ривожланишидаги янги босқичлар / Ж.Т. Тощенко // Социологик тадқиқотлар. - 2013. 3-13 бетлар.
5. Фирсов, Б.М. СССР социологияси тарихи: 1950-1980 йй / Б.М. Фирсов. - СПб : Европейский университет в Санкт-Петербурге, 2012. - 476 бетлар.
6. М. Ганиева. Социология в Узбекистане состояние и перспективы/ М. Ганиева// Социологик тадқиқотлар. - 2019.



INTERNET TARMOQLARIDA BLOGGERLAR KOMMUNIKATIV STRATEGIYASINING IJTIMOIIY XUSUSIYATLARI VA MANBALARI

Qahhorova Nilufar Rajab qizi
Sattorova Anora Karim Qizi
O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi
"Ijtimoiy tizim va jarayonlarning axborot va psixologik xavfsizligi"
Magistr I bosqich talabasi
Ish joyi @Ijtimoiy fikr@ Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi
Kichik ilmiy hodimasi

Anotatsiya: Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi faqatgina zaruratligi uchun emas balki bugungi kundagi internet texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishida O'zbekistondagi bloggerlarning kommunikativ strategiyalari o'rganilmayotganligidadir. Ushbu maqolada biz bloggerlik tabiatini ochib ko'rsatilgan bo'lib unda Rossiya va Yevropa mamlakatlaridagi tadqiqotlar izoxlangan.

Анотация: научная новизна этой статьи заключается не только в необходимости, но и в том, что в современном интенсивном развитии интернет-технологий не изучаются коммуникативные стратегии блогеров в Узбекистане. В этой статье мы раскрываем характер блогинга, в котором объясняется исследование в России и европейских странах.

Anotatsiya: the scientific novelty of this article is not only because it is necessary, but also because the communicative strategies of bloggers in Uzbekistan are not studied in the rapid development of today's internet technologies. In this article we have highlighted the nature of blogging and the research in Russia and European countries as shown in it.

Kalit so'zlar: Blog, internet kommunikatsiyalar, nutqiy janr, elektron janr, chat

Блог, интернет коммуникация, речевой жанр, электронный жанр, чат.

Keywords. Blog, Internet communication, speech genre, online genre, chat.

Bugungi kunda blogosfera, birinchi navbatda, shaxslararo virtual aloqa vositasidir. Ko'p Internet-saytlar (bloglar, forumlar, ijtimoiy tarmoqlar, suhbatlar va h.k.) virtual dunyoda muayyan elektron janrlar sifatida qo'llaniladi va an'anaviy yozma va og'zaki shakllardan farqli yangi aloqa qoidalarini joriy qiladi. Bizning holatimizda janr ostida biz estetik kategoriyani nazarda tutmaymiz aksincha M. M. Baxtinning "nutq janrlari" deb ataganligi" ya'ni har bir alohida bayonot, albatta, individualdir, lekin tilni ishlatishning har bir sohasi nutq janrlari deb ataydigan bunday so'zlarning nisbatan barqaror turlarini ishlab chiqaradi. Zamonaviy kommunikativ raqamli polikodli aloqa amaliyotlari bugungi kunda nutq janrlarining repertuarini faol ravishda shakllantirmoqda. Elektron janr ostida "Internet orqali amalga oshiriladigan aloqa janri" degan ma'noni anglatadi. Ta'kidlash joizki, Internet makonida mavjud bo'lgan janrlar masalasi bilan bog'liq terminologiyada nom haqida hech qanday kelishuv mavjud emas. Bizning fikrimizcha, tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan barcha janrlarning nomlari tarmoqda sinonimdir: elektron (en Vavilov, La Kapanadze, A. N. Saenko), virtual (O.V.Lutovinova, Kaumova, L.F.Kompantseva), raqamli (L.yu.Shchepitsina), tarmoq (naTrofimova), Internet janrlari (EI Goroshko, EA Jigalina) va boshqalar. Umuman elektron janrlar va xususan, blog-nisbatan yangi hodisa

bloglarni o'rganish o'rtada boshlandi Blog sintetik hodisa bo'lgani uchun, u Internet sohasidagi mutaxassislar va sotsiologlar tomonidan o'rganish mavzusiga aylanadi,

madaniyatshunoslar, faylasuflar, tilshunoslar va adabiyotshunoslar. Har doimgidek, tadqiqot mavzusi fanlararo tabiatga ega bo'lgan taqdirda, tadqiqotchilarning xulosalari ko'pincha ziddiyatli va tizimlashtirish qiyin. Ushbu maqolada mavjud tahlillarni tahlil qilishga urinish mavjud blogni Internet-kommunikatsiya janri sifatida o'rganishga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy ishlar. Maqolaning maqsadi yangi Internet janrlarining asosiy xususiyatlari va xususiyatlarini aniqlash, blogni tavsiflash algoritmini ishlab chiqishdan iborat. Shu bilan birga, Internet kontentning tabiati bo'yicha lokalizatsiya bilan o'z makonini yaratadi. Bu makonda har bir foydalanuvchi o'z manfaatlarini va ehtiyojlari asosida kerakli ma'lumotlarni yoki suhbatdoshlarni topib, o'z o'rnini topadi. Shunday qilib, Internetning heterojen va ko'plab muhitlardan iborat ekanligini aytish mumkin. Ular orasida muloqot qilish imkonini beruvchi foydalanuvchilarning doimiy tarkibiga ega bo'lgan har bir



resurs ijtimoiy muloqot tashkil etadigan alohida muhitdir-suhbat, forum, bloglar yoki yangiliklar saytiga tashrif buyuruvchilar. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, so'nggi 15 yil ichida jamiyatning siyosiy voqealarga qiziqishi pasayib ketgan bo'lsa-da, saylovlarga befarq munosabat va fuqarolik o'zligini anglash darajasining pasayishi kuzatilgan bo'lsa-da, Internet hamjamiyatida (va eng avvalo bloggerlar orasida) ijtimoiy-siyosiy faoliyatning o'sishi kuzatildi. Ushbu jamoa ichida jamiyatga ijtimoiy ahamiyatga ega qarorlar qabul qilishda ishtirok etish zarurligini isbotlashga urinayotgan tashabbuskor guruh ajratildi. Bu blogosferaning o'z nuqtai nazarini erkin ifoda etish va himoya qilish imkonini beradigan maxsus muhit sifatida paydo bo'lishi bilan bog'liq va axborot tarqatish vositasi sifatida uning mashhurligini oshirish an'anaviy ommaviy axborot vositalarining (bundan buyon matnda ommaviy axborot vositalari) mavjud voqealarni ko'p tomonlama yoritishda jamiyatning ehtiyojlarini qondirishning to'lovga layoqatsizligini ko'rsatmoqda. Rasmiylashtirilgan tuzilmalarni yaratish orqali bloggerlar bilan munosabatlarni tartibga solish uchun davlatning urinishlari, masalan, jurnalistlar Ittifoqidagi blogger xujayrasi, hukumat an'anaviy usullar bilan nazorat qilinmaydigan yangi ijtimoiy birlashma mavjudligini tan olganini ko'rsatadi. Mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayotida bloggerlarning rolini oshirish, ularning ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarni muhokama qilish va hatto hal qilish zarur bo'lganda tez o'z-o'zini tashkil etish qobiliyati va shu bilan birga ushbu uyushmaning tabiatini tushunish sohasida ishlab chiqilgan ijtimoiy kontsepsiyaning yo'qligi, uning rivojlanish tendentsiyalari dissertatsiya tadqiqotlari mavzusining nazariy va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Bugungi kunning dolzarb muammoviy masalalarida biri O'zbek bloggerlarining ijtimoiy hamjamiyatini rivojlantirishning o'ziga xosligi va yo'nalishini aniqlanmaganligi va harakterlanmaganligidadir desak ham bo'ladi. Bugungi kunda internet axborot jamiyatiga bag'ishlangan asarlarni aniqlash mumkin. Xorijiy olimlar orasida axborot jamiyati muammolarini tahlil qilishda D. Bell , J. Bodriyar , I. Vallerstein, N. Viner, M. Castels, J. - F. Liotar, M. McLuhan , I. Masuda , A. Mol' , E. Toffler, A. Turen , F. Webster, F. Fukuyama, Yu.Xabermas, G. Shiller va boshqalar. Jamiyatni axborotlashtirish muammolari bilan shug'ullanadigan olimlar orasida Vg Afanasyev , VM Glushkova, LG Ionina, Ai Rakitova, A. D. Ursula, A. Popov , D. V. Ivanova asarlari mavjud. Ushbu yo'nalishda R. F. Abdeev , G. T. Artamonov , O. N. Vershinskaya, M. S. Vershinin, N. B. Kirillov, V. N. Kostyuk, I. S. Melyuxin , E. H. Pasxin, ya. V.Reizm, yu.A.Savostitskiy , G.L.smolyan, V.F.Xalipov, R.I.Tsvylev, D.S.Chereshkin va boshqalar faol rivojlanmoqda.

Yangi tashkil etilgan jamoa o'z tarkibida heterojendir. Mualliflarning o'z-o'zini namoyon qilish turi, ular nashr etadigan kontent, foydalanadigan resurs turi, yozuvlarni yaratish mustaqilligi va jamiyatning asosiy resurslariga ega bo'lish darajasi bilan ajralib turadi. Barcha guruhlar o'zaro ta'sirning qoidalari va intensivligida farq qiladi. Ijtimoiy ahamiyatga molik voqealarga bag'ishlangan bloglar ijtimoiy hamkorlikning o'ziga xos intensivligi bilan ajralib turadi. Ushbu sahifalar maqsadli ko'nikmalarga ega bo'lgan va uning atrofidagi ijtimoiy muhitni o'zgartirishga intilayotgan ijtimoiy amaliyotlarga faol ravishda kiritilgan shaxslarni boshqaradi.

O'zbekiston blogerlarining Yevropa va amerikaliklardan sezilarli farqlari, jumladan, "shaxslararo munosabatlarni qo'llab-quvvatlash va kommunikatsiyalarning mumkin bo'lgan sonini oshirish uchun texnik vositalardan foydalangan holda yozuvlarni saqlash bo'yicha axborot almashinuvi uchun bloglardan foydalanishning ustuvorligi" O'zbekiston ijtimoiy haqiqatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Xuddi shu xususiyatlar, bizning fikrimizcha, bloggerlarning ijtimoiy hamjamiyatini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bir qator qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatdi. Birinchi qarama-qarshilik, bir vaqtning o'zida parchalanish va birdamlik tendentsiyasining umumiylikida mavjudligidir. Yozuvlar ko'plab o'quvchilarni jalb qiladigan fikr rahbarlari bloglari bloggerlarni to'plash markazlari bo'lib, ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi, biroq fikr rahbarlari o'rtasidagi ziddiyatlar va jamoatning ichki farqlanishi bloggerlarga muntazam hamjihatlikni shakllantirishga imkon bermaydi. Ikkinchi qarama-qarshilik siyosiy salohiyatning o'sishi bilan bog'liq. Bloglashni asosiy faoliyat turiga aylantirgan va maxfiylikdan voz kechgan maxsus guruhlarining shakllanishi yangi jamiyatning ijtimoiy funktsiyalarga ega bo'lishini ko'rsatadi, jumladan, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilishga urinishlar. Biroq, bu jarayonning bir qismi sifatida anglangan bloggerlar guruhi paydo bo'ladi, bu esa jamoatchilikning obro'sini pasaytiradi va jamiyat tomonidan tizimli bo'lmagan va muvofiqashtirilmaganligi uchun tanqid qiladi. Uchinchi qarama-qarshilik bloglarni ommaviy axborot vositasi sifatida juda tor auditoriyaga aylantirishdir, bu esa ommaviy tadbirlarni amalga oshirish uchun qo'shimcha resurslardan foydalanishni talab qiladigan yechimlarni kapitalizatsiya qilish imkoniyatini cheklaydi. Tadqiqotlari natijasida tuzilgan Internet-muloqotning o'ziga xos xususiyatlari, bloggerlarning umumiylik xususiyatlari, shuningdek, ushbu jamiyatning rivojlanish tendentsiyalari va qarama-qarshiliklari boshqa tadqiqot dasturlarini amalga oshirishda, shuningdek, mintaqaning ijtimoiy siyosatini shakllantirish va davlat va jamiyat yoki aholining turli guruhlari o'rtasida samarali muloqotni amalga oshirishda qo'llanilishi mumkin. Ijtimoiy muhitdagi ijtimoiy hamkorlikni tahlil qilish Internet zamonaviy o'zbek jamiyati tuzilmasining murakkablashuv jarayonlariga e'tibor qaratish va ushbu jarayonning davomiyligini taxmin qilish imkonini beradi. Bloggerlarning umumiylikni shakllantirishni tushunish yangi texnologiyaning kundalik hayotning ajralmas atributiga aylangan



yangi ijtimoiy muhitni shakllantirishga ta'sirini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров // Бахтин М.М. Собр. соч. М.: Русские словари, 1996. Т. 5: Работы 1940-1960 гг. С. 159-206.
2. Баженова Е.А., Иванова И.А. Блог как Интернет-жанр // Вестник Пермского университета: российская и зарубежная филология. 2012. № 4(20). С. 125-131.
3. Badyu A. Meta / siyosat: siyosatni o'ylash mumkinmi? Metapolitika bo'yicha qisqa risola / - 240 bet.
4. Dobrenkov VI, Kravchenko A. I. ijtimoiy tadqiqotlar usullari: darslik - 768 bet
5. Gradoselskaya G. V. Sotsiologiyada tarmoq o'lchovlari. "yangi darslik", 2004. - 248 bet
6. Vitgenshteyn L. tanlangan ish / Per. u bilan. va ingliz. "kelajak hududi" nashriyot uyi, 2005. - 440 bet
7. Ivanov D. V.. Jamiyatning virtualizatsiyasi. Versiya 2.0-Sankt-Peterburg.: Peterburg sharqshunosligi, 2002. - 224 bet.
8. Ijtimoiy bo'shliqlarning Sotsiologiyasi. - Irkutsk: RAMN bilan NZ PBX VSNC, 2007. - 96 bet.
9. Sub'ektiv semantikaning psixologiyasi. - Moskva: Moskva universiteti nashriyoti, 1980. - 128 bet
10. Berger P., Lukman T. haqiqatning ijtimoiy qurilishi. Bilim sotsiologiyasi bo'yicha risola. - 323 bet.
11. Adamyanz T. Z. ijtimoiy muloqot. - 138 bet.
12. Antonov K. A. ommaviy-kommunikatsiya jarayonida televizion yangiliklar: ijtimoiy-siyosiy qurilish mexanizmlarini ijtimoiy tahlil qilish. - Kemerovo: "poligrafiya kompaniyasi" MCHJ, 2006. - 282 bet.
13. Berger P., Lukman T. haqiqatning ijtimoiy qurilishi. Bilim sotsiologiyasi bo'yicha risola. - 323 bet.
14. Gradoselskaya G. V. Sotsiologiyada tarmoq o'lchovlari. Nashriyot uy "yangi darslik", 2004. - 248 bet



HUKUMAT QARORLARI TILI TERMINOLOGIYASI VA UNING ILMIY NAZARIY JIHATLARI

ToshDO'TAU 2-bosqich magistranti S. Rajabova

O'zbekiston Respublikasi milliy istiqloq g'oyalari asoslangan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurayotgan bugungi kunda milliy qonunchilik tizimini takomillashtirish eng muhim vazifalardan biridir. Shu bois Oliy Majlis tizimi va qonun ijodkorligi jarayonida tub islohotlar amalga oshirilmoqda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda ikki palatali professional parlament tizimi shakllantirilmoqda.

Huquqshunos olim E.X.Xalilov O'zbekistonda qonunchilik istiqbollarini belgilayotib, hozirgi paytda qonun ijodkorligi amaliyotida qonunchilik texnikasi bilan bog'liq bir qancha muammolar mavjudligini, ularni ilmiy jihatdan o'rganish zarurligini, bunda ayniqsa qonunlarning tili masalasiga ko'proq e'tibor qaratish lozimligini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, SH.Z.Urazaev, professorlar G'.Abdumajidov, G'.Ahmedov, H.Odilqoriev, A.X.Saidov kabi huquqshunos olimlar ham hozirgi paytda o'zbek qonunchiligi tili va yuridik atamashunoslik tizimida jiddiy muammolar borligini alohida qayd etadilar .

Biz mazkur maqolamizda huquqiy normalar, Hukumat qarorlari va boshqa hujjatlardagi ayrim terminlar xususida to'xtalib o'tamiz. Ularning mazmuni, uslubi, tasnifiga keyingi ishlarimizda o'z qarashlarimizni bildirib o'tamiz.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tarkibida Normativ-huquqiy atamalar bo'yicha maxsus komissiya tashkil etilgan bo'lib, unga qonunchilik atamalarining birligini saqlash, ularni tahlil etish, loyihalarni ifoda usuli jihatidan takomillashtirish kabi vazifalar yuklatildi. Biroq, bu vazifa shunday murakkab jarayonki, uni chuqur ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etmasdan hamda o'zbek yuridik tilini takomillashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqmasdan turib, uni amalga oshirish murakkabdir.

Mamlakatimizga esa "qonun tili" tushunchasi 1990 yillardan keyin kirib kelib, bu sohada Respublikamizda ilk ishlar amalga oshirildi. O'zbek yuridik tili va atamaları bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari 1986 yilda M.Qosimova tomonidan "O'zbek yuridik terminologiyasining tarkibiy tuzilishi", 1984 yilda L.M.Boyko tomonidan "Qonunchilik texnikasi (nazariya va amaliyot)", 1991 yilda L.A. Karimova tomonidan "Tillar to'g'risidagi qonunlarning huquqiy va ma'naviy jihatlari", 1995 yilda SH.N.Ko'chimov tomonidan "O'zbekiston Respublikasi qonunlarining tili" mavzularida nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi.

Shuningdek, G'.Abdumajidov, G'.Abdurashmonov, G'.Ahmedov, H.Bektemirov, B.Mamedov, H.Odilqoriev, A.Saidov, L.Saidova, G.Sarkisyants, S.Sodiqov, G'.Sotimov, H.Xolmedov, M.Qosimova kabi huquqshunos va tilshunos olimlar tomonidan o'zbek yuridik tiliga bag'ishlangan bir qancha ilmiy risola, lug'at va ilmiy-ommabop maqolalar nashr etildi.

XXI asr fan, texnika va texnologiyalar sohasidagi yangiliklar, kashfiyotlar jamiyatning barcha sohalariga kirib borishi yangi so'zlar, terminlarning tilimizga

kirib kelishini kuzatamiz. Har qanday tilga kirib kelgan so'z dastlab neologizm sifatida qaraladi va u vaqt o'tib, asosiy leksik qatlamga o'zlashib ketishi yoki aksincha iste'moldan chiqib ketishi mumkin.

Keyingi davrda juda ko'plab so'zlar faol leksik qatlamda qo'llanilmoqda. Xususan, Innovatsiya (ingl. Innovatsion-kiritilgan yangilik, ixtiro) 1. Iqt.Texnika va texnologiyaning yangi turlari (avlodlari)ni joriy etish maqsadida iqtisodiyotga sarflangan mablag`dir. 2. Ilg`or texnika va texnologiya, boshqarish va boshqa sohalaridagi yangiliklar va ularning turli sohalarida qo'llanilishi. 3. Tlsh. Muayyan tilda, asosan uning morfologiyasida eng so`ngi davrlarda paydo bo`lgan yangi hodisalar (til birliklari).

Intellektual (lot. Intellectus - aql-idrok bilish; tushinish) 1. Ot ma'naviy ehtijojar bilan yashovchi yoki aqliy faoliyatning eng yuksak va murakkab turlari bilan shug`ullanuvchi (shaxs). 2. Sft. Intelektga oid: aqliy, ma'naviy. Intellektual mulk-kabi terminlar tilimizda keng qo'llansada ularda neologizmlik xususiyati saqlanib qolgan. Mazkur so'zlar ma'lum bir vaqt o'tib asosiy leksik qatlamdan o'z o'rnini topishi mumkin. Xuddi shunday terminlarga diversifikatsiya, brend, integratsiya, intensiv, biznes-inkubator, startap-akseleratorlar, nou-xau, nomenklatura,, kompleks, novatorlik, preferensiyalar, ekspertiza, konyunktura, konstruktor kiritishimiz mumkin.

O'tgan asrning 90-yillarida tilimizga kirib kelgan bir qator terminlar mavjud bo'lib, ular o'z davrida neologizmlik xususiyatini to'la o'zida saqlagan holda ishlatilgan. Bugungi kunga kelib, bu kabi terminlar neologizmlik xususiyatini



yo'qotib, asosiy leksik qatlamdan muqum o'z o'rnini egallagan. Masalan, monitoring, valyuta, kommunikatsiya, patent, makroiqtisodiyot, liberallashtirish, eksport, import, moderinizatsiya va boshqa bir qancha so'zlarni aytishimiz mumkin.

Sinonimik tarzda parallel qo'llanayotgan terminlar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari hali ham neologizmlik xususiyatini yo'qotgani yo'q. Masalan, kontrakt-shartnoma, korrupsiya - poraxo'rlik, kredit - muddatli to'lov, aksiya - qimmatli qog'oz va boshqa so'zlarni keltirishimiz. Bu so'zlar amalda parallel ravishda keng qo'llaniladi.

Bugungi kunda keng qo'llanilgan "tovar" so'zini rus tilidan o'zlashgan so'z deb bilamiz. Tarixiy manbalarga, xususan, "Devonu lug'atit-turk"da bu so'z

"towar - jonli, jonsiz mol. O'g'uz va boshqalarda tawar deb yuritadilar. Tarixan bu so'z mavjud bo'lgani va u "jonli va jonsiz mol" degan ma'noni anglatgan. Keyinchalik mana shu so'z istimoldan chiqib "mol" varianti qolgan. Keyinchalik esa boshqa tilda o'zlashgan so'z holda yana istimolga kirib keldi. Bu shundan dalolatki, biz terminlarni qabul qilayotganimizda uning ma'nosiga mos variantni tanlashimizda tashqari o'z tarixi manbalarimizni ham e'tiborsiz qoldirmasligimiz kerak. Xoh ijtimoiy termin bo'lsin, xoh yuridik termin bo'lsin har bir manbani sinchiklab o'rganib, tadqiq qilib so'ngra mos variantini tanlashimiz kerak deb o'ylaymiz.

Xulosa qilib aytganda, tilimizdagi yuridik terminlarda ham boshqa sohalardagi terminlar kabi chetdan o'zlashgan terminlar ham mavjud. Bu terminlar neologizmlik xususiyatini saqlagan holda kelganlarini ham, tilimizga singib ketib bu xususiyatini yo'qotganlarini ham yoki terminlar tilimizdagi muqobili bilan parallel ravishda qo'llanganlarini ham ko'rishimiz mumkin. Sof neologizmlik xususiyati mavjud bo'lgan terminlarga: diversifikatsiya, brend, integratsiya, intensiv, biznes-inkubator, startup-akseleratorlar, nou-xau, nomenklatura, kompleks, novatorlik, preferensiyalar, ekspertiza, konyunktura kabi terminlarni keltirish mumkin, sinonim holatda parallel qo'llanilib kelayotgan terminlarga esa: kontrakt-shartnoma, korrupsiya - poraxo'rlik, kredit - muddatli to'lov, aksiya - qimmatli qog'oz va boshqa so'zlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Yuridik terminlarni tahlil qilar ekanmiz yechimini kutib turgan muammolar anchagina ekanligining guvohi bo'lamiz. Ilm fanimizning asosiy vazifalaridan biri mana shu muammolarni bartaraf etishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ko'chimov Sh. Yuridik til nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent-2013 - 125 b.
2. Xayitov X. Qonun ijodkorligida yuridik lingvistikaning o'rni va ahamiyati. - Toshkent-2011. - 25 b.
3. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit-turk" I jild. - Toshkent-2013, - 498 b
4. Bektemirov H., Holmedov H., Sodiqov S. Huquqshunoslikka oid o'zlashma terminlar. - Toshkent: Adolat, 1999. - 66 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. J.II. - Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. - 672 b.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. J.III. - Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. - 688 b.
7. Ziyonet.uz
8. Lex.uz



МАРКАЗИЙ ОСИЁДАГИ АНКЛАВЛАР: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР

Тахмина Абдуллаева

Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли

кадрларни тайёрлаш институти Стратегик Бошқарув кафедраси

Аннотация: Мақолада бутунги куннинг долзарб муаммоларидан бири талқин этилган. Ушбу жараёнга муаллиф томонидан баҳо берилади ҳамда муаммоаларни ҳал этиш учун ечимлар таклиф этилади.

Калит сўзлар: анклав, Марказий Осиё, баҳсли ҳудудлар, Марказий Осиёда ҳудудлар муаммоси, музокаралар.

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы формирования анклавов в Центральной Азии, дана авторская оценка этому процессу, предложены рекомендации по их разрешению.

Ключевые слова: Анклавы, Центральная Азия, проблемы спорных территорий в ЦА, разрешение проблем, переговоры

Abstract: In this paper the author estimates the process of forming enclaves in Central Asia and offers recommendations for solving problems.

Keywords: Enclaves, Central Asia, problem solving, disputed territories, territorial separation of nations in Central Asia, negotiation

Ҳозирги кунда дунёда бир неча ўнлаб анклавлар мавжуд. Бу атама бир мамлакат ҳудудининг бошқа давлат томонидан ўраб олинган муайян қисмига айтилади. Илмий адабиётларда анклав атамаси ҳудуднинг қайси давлат ҳудудида жойлашганига нисбатан турлича номланади. Масалан, Барак Қирғизистон учун эксклав, Ўзбекистон учун анклав ҳисобланади. Лекин кўпгина публистик манбаларда ва кундалик ҳаётда "анклав" атамаси умумий маънода ишлатилади. Марказий Осиё ўртача аҳолиси 100000 минга яқин бўлган саккиз анклавни ўз ичига олади. Конфликтлар ҳолати кузатилса камида ушбу ҳудуддаги 80000 аҳоли ҳаётига таъсир қилади.

Марказий Осиё анклавларининг муаммоларини ҳал этишни учта ечимини таклиф этиш мумкин: ҳудудлар алмашинуви, чегаралардан анклавларга ўтиш йўлақларини ташкил этиш, чегара ҳудудида эркин ҳаракатни жорий этиш кабилар.

Ҳудудларни алмаштиришни фақат кичик анклавларга нисбатан катта қийинчилик билан бўлсада, амалга ошириш мумкин. Юқорида айтиб ўтилганидек, дипломатик саъй-ҳаракатларсиз ҳеч қандай натижага еришиб бўлмайди. Анклавлардан мамлакат ҳудудига ўтиш учун йўлақлар барпо этиш катта саъй-ҳаракат ва хавфсизлик чораларини талаб қилади. Энг яхши ечим - чегара ҳудудларида махсус тартиб жорий этилиши ва маҳаллий аҳолига чегаранинг ҳар икки томонида эркин ҳаракатланишига имкон беришдир. Масалан, ушбу амалиёт Голландия ва Белгия ўртасидаги чегарада жорий этилган.

Анклавлар икки давлатга ва улардаги аҳолига ҳам катта муаммолар олиб келади. Миллий хавфсизлик, ҳудудий бирлик, ҳаракатлар эркинлиги ва иқтисодий ҳолат ушбу можаролар сабаб чекланишга учрайди. Фарғона водийсидаги чегараларни бўлишдаги тарихий ноаниқликлар сабабли Марказий Осиёдаги давлатлар ўртасида чегараларни демаркация қилиш жараёнини амалга ошириш учун бир неча йиллар талаб этилди. Шуларни ҳисобга олган ҳолда, аниқ, тизимли, профессионал музокаралар олиб борилиши керак.

Биринчи навбатда, ҳар қайси давлат чегара мутахассислари ва сиёсатчилар ўзаро жиддий тарзда доимий музокаралар олиб боришлари лозим. Фақатгина энг қуйи поғонадан юқори поғонагача олиб бориладиган тизимли музокаралар ва сиёсий истак ҳудудий анклавлар ва чегараларни демаркация қилиш борасида катта натижаларга олиб келиши мумкин. Чегаравий музокаралар ултиматумларга асосланган бўлмаслиги лозим. Аксинча, улар чегара ҳудудларида провокациялар ва низоларни бартараф этиш учун олиб борилиши керак. Чегаралардан ўтиш чекланганда, чегара пости ёки тўсиқлар қўйилаётганда чегара яқинида яшовчи аҳолининг муносабати ҳисобга олинishi муҳим.

Анклавлар ҳуқуқий бирлик сифатида мавжуд бўлиб, Фарғона водийсида жойлашган анклавларда анклав аҳолисининг эркин кўчиб юришини таъминлаш анклавлар ичида иқтисодий тараққиёт ҳамда давлатлар ўртасидаги икки томонлама муносабатларда қулайлик яратади. Йўлак режимини амалга ошириш эҳтимоли камроқ бўлсада, анклавларда тинч ҳаётни таъминлаш мумкин; улар муаммолар ва таҳдидларга дуч келмасликлари керак. Ушбу фикрни инобатга олган ҳолда, Марказий Осиё анклавларидан сайёҳлик йўналиши(сайёҳларни жалб қилиш) сифатида фойдаланиш ҳам мумкин. Бу



усул анклав ҳудудлар иқтисодиётини ривожлантиришга ёрдам беради, анклавлар аҳолисини агрессив даражасини пасайтиради. Анклав ҳудудларнинг давлат, атроф-муҳит ва бошқа анклав ўртасидаги муносабатлари кўп қирралидир. Ҳар бир томон ўз манфаатларини ҳимоя қилади ва баъзида бу манфаатлар бир-бирига яқинлашади ва бошқа пайтларда бир-бирига зид келади. Умуман олганда, жаҳон амалиётида анклавлар масаласига оқилона ечим - давлатлар орасидаги музокаралар ўтказиш ёки чегаралардан анклавлар аҳолиси ва меҳмонлар кесиб ўтишини осонлаштириш билан чекланиб қолган. Шундай қилиб, иштирокчи давлатлар (Қирғизистон, Тожикистон ва Ўзбекистон) ўртасидаги муносабатлар анклавларнинг икки томонлама муносабатларига таъсирини кучайтиради ва вазиятни ижобий томонга ўзгартиришга ёрдам бериши мумкин. Турли этник гуруҳлар асрлар давомида яшаб келган, сувини, яйловларини бўлишган ҳудудлар учун чегаралар ўрнатиш ҳар доим ҳам муқобил ечим бўла олмайди.

Анклавларга эга давлатлар анклав аҳолисининг талаб ва истакларини эшита олиши керак. Халқаро, миллатлараро ва минтақавий ташкилотларнинг кўрсатаётган ташаббуси муҳим бўлсада, фақатгина айнан иштирок этувчи давлатларнинг чегара музокараларида ўзаро ишонч ва ошкораликни кафолатлаши ва анклавларнинг ҳуқуқий мақомини белгилаши анклав аҳолисининг ижтимоий-иқтисодий фаровонлигини таъминлашига замин яратади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Протокол №7 заседания пленума Средне Азиатского Ликвидационного Комитета от 17 марта 1925 г. ЦГАО СССР, ф. 1235, оп. 120, д.32, л. 8-9
2. www.enclaves.webs.com/centralasia.htm



STRATEGY FOR ENSURING SPIRITUAL SECURITY BY ELIMINATING ERRONEOUS IDEOLOGIES IN UZBEKISTAN

Martin Grebenyuk

Tashkent c., student of UzSIAC

Scientific adviser

Maksim Savochnik

Tashkent c., senior lecturer of the department

of "Informatics and natural Sciences" of UzSIAC

Summary: The article touches upon pressing issues of globalization. Also provides a plan for solving globalization problems

Keywords: globalization, idea, life, people, president, problem, process, solution, spiritual security, strategy, worldview.

The beginning of the XXI century is characterized by deep processes of globalization of the spheres of the international situation and relations between States and people. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, President of the Republic of Uzbekistan, was not indifferent to global problems: "As you all know, at present, ruthless competition, disagreements and contradictions are gaining increasing strength on a global scale... The fact that these and numerous other threats create serious problems in people's lives is a reality, and no one denies it" [1].

The phenomenon of globalization in production processes serves as a kind of mechanism on which the activities of world economy and diplomatic relations of countries are based. It is no secret that there are two sides to the coin, and the process of globalization, which is conditioned not only by the presence of positive trends, but also by the introduction of negative trends, cannot be an exception. First of all, you can feel the negative impact of globalization on life processes by looking at people and their attitude to each other. One can observe a picture of ideological pressure under the cover of globalization, when the war is unfolding from aspects of ideologies, and the main weapon in it is human thought. When establishing and heating up relations among themselves, people sometimes forget about the most important thing - about the future generation, that any idea can have followers, and therefore it is necessary to sow something good, eternal, adequate. Based on all of the above, we can trace the connection of ideology with education, in fact, with spirituality. Since some ideologies pose a threat, it makes sense to talk about the security of spirituality. In General, this idea can be expressed as follows: "under the spiritual threat, first of all, it is necessary to understand the ideological, ideological and information attacks directed against the freedom of life of any person, regardless of their language, religion and worldview, providing for the destruction of their spiritual world..." [2].

As you know, every action has an equal and opposite reaction. Threats to spiritual security are no exception. The power that provides spiritual security and has the ability to resist threats is ideological immunity. First of all, it is aimed at countering incorrect ideologies, defending socially important principles and achieving the goals of civil society. It is necessary to take for granted that destructive ideas penetrate the masses much faster and have a much greater impact on the people than creative, positive ones. Based on this, learned sociologists and political scientists are faced with the question of finding ways to integrate ideas that form ideological and spiritual immunity, which would be perceived and supported by society.

The state and its people face an important and topical issue - the issue of spiritual security, which belongs to a number of tasks that define a nation as an integral part of civil society, a nation as a multinational contingent, as a community of people United not only by a common affiliation to a particular ethnic group, but also by a common ideology and common morality. This question determines the activity of social systems through the presence of spirituality and morality, which in turn are aimed at creating something new and preserving the ancient, which came and inherited from great ancestors [3].

Uzbekistan's policy in this area was reflected in the speech of sh. m. Mirziyoyev at the inauguration of the President of the Republic: "We will steadily and resolutely continue the state youth policy... we will mobilize all the forces and capabilities of our state and society in order for our youth to have independent thinking, high intellectual and spiritual potential, in no area inferior to their peers from other countries, be happy and confident in their future" [4, p. 16]. The strategy for ensuring spiritual security can be defined by



focusing on the main features of civil society, that is, on:

- " Various forms of ownership, among which the main part is private;
- " A well-developed and diverse structure that reflects universal values and ideals of culture and art, built on the basis of democracy;
- " High level of development of society and its individual individuals, including intellectual, psychological and moral development;
- " Realization of the rights of the population as a whole, ensuring adequate laws, as well as objective penalties for non-compliance with them;
- " Freedom of speech, thought and conscience of the population, allowing a person to be an individual, without limiting it in terms different accessories;
- " Freedom of the media and provision of reliable and useful information.

Summing up, we can say that Uzbekistan is moving in the right direction to achieve its goals. In turn, the people must adhere to the established laws and rules of conduct in society, established both at the legislative level and at the level of morality and conscience. Only through joint efforts can progress be achieved, and only through joint efforts can we build an unbreakable civil society with high values and the right ideology.

References:

1. Mirziyoyev Sh. M. We will all together build a free, democratic and prosperous state of Uzbekistan. - Tashkent: Uzbekistan, 2016. - P. 16.
2. Karimov I. A. Our main goal is to steadily follow the course of building a free society and a prosperous life. Narodnoe Slovo. - December 8, 2007. - No. 12.
3. The concept of ideological threats and their specific features // Young scientist. - 2016. - No. 3. - Pp. 750-752. - URL <https://moluch.ru/archive/107/25646/> (Accessed 19.01.2020).
4. We will build a free, democratic and prosperous state of Uzbekistan together with our courageous and noble people: [Electronic resource]. - Tashkent, 2016. URL: <https://www.norma.uz/> (Accessed 19.01.2020).



ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ МУСТАҲКАМЛАШДАГИ ГЕНДЕР ЖИҲАТЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ

**Кулбекова Насиба Закировна - Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат
бошқаруви академияси тингловчиси**

Хулоса: Оилавий ажрим-очиқ ва яширин таҳдидлар мавжуд бўлган ижтимоий ҳодисалардан бири. Ажрим сабаблари турлича бўлади. Ажралиш оиладаги қарама-қаршиликларнинг якуний натижаси, яъни инсон ўзи, бошқа одамлар ва оила ҳақидаги ўз фикрларини ўзгартириш зарурлигини англаган ҳолда амалий тажриба бўлиши мумкин. Алоқа назарияси ва низоларни бошқариш масалаларини кўриб чиқиш оилавий ажрим сабабларини таснифлашда, шунингдек, уларни камайтириш ёки олдини олиш механизмларини яратишда ёрдам беради.

Калит сўзлар: ажралиш, оиланинг муҳим вазифалари, низо.

ОСОБЕННОСТИ И СПЕЦИФИКА ГЕНДЕРНЫХ АСПЕКТОВ В УКРЕПЛЕНИИ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ

**Кулбекова Насиба Закировна - слушатель Академии
государственного управления при Президенте Республики Узбекистан**

Аннотация: Развод – это одно из самых опасных социальных явлений, в котором присутствуют как открытые так и скрытые угрозы. Причины разводов бывают самыми разными. Развод как крайний вариант окончательного решения возникающих семейных противоречий может стать практическим опытом, когда человек осознает необходимость изменения собственных представлений о себе, других людях, семейной жизни. Рассмотрение теории коммуникативности и конфликтологии способствовали классификации причин разводов, а также создания механизмов по их минимизации или недопущению.

Ключевые слова: развод, семейные ролевые функции, конфликты.

FEATURES AND SPECIFICITY OF GENDER ASPECTS IN STRENGTHENING FAMILY RELATIONS

**Kulbekova Nasiba Zakirovna - student of the Academy of Public
Administration under the President of the Republic of Uzbekistan**

Abstract: Divorce is one of the most dangerous social phenomena in which there are both open and hidden threats. The reasons for divorce are very different. Divorce as an extreme version of the final solution to emerging family contradictions can become a practical experience when a person realizes the need to change his own ideas about himself, other people, family life. Consideration of the theory of communicativeness and conflictology contributed to the classification of causes of divorce, as well as the creation of mechanisms to minimize or prevent them.

Key words: divorce, family role functions, conflicts.

Ҳеч шубҳа йўқки, ҳар қандай оилада ажралиш муаммоси нафақат эр-хотинлар учун, балки бутун оила аъзолари учун оғир психологик ва ақлий воқеа. Замонавий дунёда давом этаётган ижтимоий-маданий ўзгаришлар оила-никоҳ муносабатлари моделининг деформациясига олиб келди, шунингдек, шахслараро муносабатларнинг янги шакллари ва турларини келтириб чиқарди. Ушбу мақола оилавий ажрим муаммосини нафақат эр ва хотинларга, балки объектив ва атрофдаги воқелик доирасида ҳам кўриб чиқишга уринишдир.

Анъанага кўра, оилавий ажрим ҳуқуқий, иқтисодий ва психологик нуқтаи назардан қабул қилинади. Табиийки, ажралиш натижасида ҳар қандай ёш эр-хотиннинг ҳаётида бурилиш юз бериши мумкин, бу нафақат кичик гуруҳ яъни оилага, балки бутун жамиятга таҳдид солади.

Оилавий ажримдан кейин, қоида тариқасида, тўлиқ бўлмаган оилалар қолади, бунда турли жинсдаги болаларни тарбиялашда аниқ муаммолар мавжуд. Кейинчалик вояга етмаган ўспиринни бошдан кечирадиган руҳий жароҳатлари жуда жиддий ахлоқий оқибатларга олиб келади.

Шу муносабат билан биз ажралишнинг энг муҳим ва асосий сабабларини таснифлашга мурожаат қиламиз. Мамлакатимизда ва хорижда ўтказилган кўплаб социологик тадқиқотлар шуни кўрсатадики, оилавий ажримларнинг аксарияти уй-жой муаммолари, молиявий ва иқтисодий қийинчиликлар, фарзандсизлик, гиёҳванд моддалар, спиртли ичимликларни истеъмол қилиш ва бошқалар билан



боғлиқ. Бироқ, бу ўнлаб йиллар давомида ўзгармаган сабабларнинг умумий таснифи. Бугунги кунда замонавий дунёда ёш оилада ўзгаришлар юз бермоқда, шунинг учун оилавий ажрим ва низолар сабаблари ўзига хос хусусиятларга эга бўлмоқда.

Никоҳни бузадиган омиллар ҳам моддий, ҳам номоддий бўлиши мумкин, улар турмуш ўртоғлардан бирининг ҳаётидаги кўринишни ўз ичига олади. Ажралиш сабабига ташқи омиллар ҳам таъсир қилади: ишдаги норозилик, учинчи шахслар аралашуви, биргаликда оилавий ҳаёт беҳуда ўтказилганлигини англаш ва бошқалар.

Ташқи омиллар, шунингдек, оиладаги низоларни (ишдаги муаммолар, қариндошлар ва қўшнилар билан қарама-қаршиликлар, зинокорлик алоқалари) ривожланиши ва кучайишини таъминлайди. Ажримнинг яна бир салбий хусусияти оилада можароли вазиятларни, жанжал ва келишмовчиликларни кучайтиради. Айниқса, оилада норозиликларнинг умумийлигини акс эттиради. Бироқ, ажралиш истаги ҳар доим ҳам моддий қийинчиликлар билан боғлиқ эмас, биринчи навбатда, психологик тартибга солувчи ҳал қилувчи механизмдир. Ажралиш тўғрисидаги қарорга, шубҳасиз, ёш мезонлари ҳам таъсир қилади. Ажримдан кейин янги никоҳ қурса, фарзандли бўлса, эски оилавий алоқалар бутунлай йўқ бўлишига ҳаракат қилади, оиланинг сақланиши ва барқарорлиги билан боғлиқ оилавий қадриятлар тубдан қайта кўриб чиқилади.

Оила ҳар хил можароли вазиятлар ва коммуникатив гендер қарама-қаршиликларининг доимий манбаи бўлиб, диққат марказида муайян ҳиссий стресс мавжуд бўлади. Аввало, ақлий ва психологик тажрибага аҳамият қаратилади. Шунинг учун, ажралиш кўпинча чуқур тушкунликни келтириб чиқаради ва унга ҳамроҳ бўлади, узоқ вақт давомида ақлий фаолият ҳам сусайиши мумкин. Тушкунлик ҳолати инсоннинг хилма-хил муносабатларида юзага келади. Масалан: расмий, меҳнат, таълим ва бошқалар. Оила муносабатлари, қоида тариқасида, инсон учун энг муҳим, аҳамиятли томонлар ролини ўйнайди. Шу сабабли, инсон учун, уни қўллаб-қувватлашга ва тушунишга қодир бўлган оиланинг роли катта аҳамиятга эга. Оилавий воқеалардаги инқироз иш, қўшничилик ёки оилавий муносабатлар соҳасидаги ташқи ўхшаш воқеаларга қараганда анча кескинроқ бўлади.

Ҳар қандай оиладаги шахслараро муносабатлар кўп томонлама алоқалар, манфаатлар ва умумий мақсад билан белгиланади. Оилани ижтимоий институт сифатида янада чуқурроқ тушуниш учун оиладаги роль муносабатларини таҳлил қилиш катта аҳамиятга эга. Ушбу масала коммуникатив гендер жиҳатлари билан боғлиқ. Ҳар бир оила аъзосининг оиласидаги роли ижтимоий институт тузилишидаги ижтимоий роль сифатида қаралади. Оилавий роллар, энг аввало, жинсга боғлиқлиги, уларнинг иккала эр ва хотиннинг ўзига тегишли бўлган вазифаларига кўра тақсимланиши билан белгиланади.

Маълумки, тарихан аёл оилада уй бекаси, фарзандларнинг тарбиячиси бўлган, эркак эса моддий таъминотни таъминловчи ҳисобланган. Бироқ, бу ҳолатга замонавий дунё ўз тузатишларини киритди, ҳозирги кунда аксарият аёллар эркаклар билан бир қаторда меҳнат қилмоқда, шунинг учун оиладаги роль функциялари ҳам бир оз ўзгарган.

Бугунги замонавий жамиятимизда яқин вақтгача ижтимоий институт сифатида оиланинг заифлашуви, унинг ижтимоий функциялари, ролсиз оила-никоҳ муносабатлари мавжуд эди. Институционал тизимда оила шахсларни ижтимоийлашувида, бўш вақтни ташкил этишда ва бошқа муҳим функцияларда етакчи мавқеини йўқотишни бошлади. Бир томондан, ролларни ўзгариши аёлнинг ўзини англаш, тенглик ва оилавий муносабатларнинг ўсишига ёрдам берди; иккинчи томондан, зиддиятли вазиятни кучайтирди, демографик хатти-ҳаракатларга таъсир қила бошлади, бу туғилишнинг пасайишига ва патологик касалликларга чалинган болалар туғилишининг кўпайишига олиб келди.

Ижтимоий институт тушунчаси мамлакатимизда ҳам хорижда ҳам кенг қўлланилади. Оила - авваломбор муайян ижтимоий функцияларни бажарадиган ҳаракатлар ва муносабатларнинг мураккаб тизими сифатида тушунилади. Бошқа томондан, ижтимоий институт тушунчасига муҳим ижтимоий эҳтиёжлар ва функцияларни қондириш учун яратилган ва ишлайдиган ижтимоий роллар ва меъёрларнинг ўзаро боғлиқ тизими сифатида қаралади. Ижтимоий институтга киритилган ижтимоий роллар ва меъёрлар муайян ижтимоий ва оилавий эҳтиёжларни қондиришга қаратилган мос ва кутилаётган коммуникатив гендер хатти-ҳаракатларини белгилайди.

Ягона институционал тизимнинг сегменти сифатида ишлайдиган оила ижтимоий институт сифатида таҳлил қилинади, айниқса ёш оиланинг турмуш тарзи ва унинг рол функциялари замонавий ижтимоий эҳтиёжларга мос келадими ёки йўқлигини аниқлаш жуда муҳимдир. Оилавий ҳаёт табиий ва психологик ҳодиса. Оила ҳаётидаги муаммолардан бири шундаки, у кўпинча хаёлий бўлиб, объектив воқеликка мос келмайди ва маълум вақтдан кейин ҳақиқий далилларни намоиш этади. Оила ҳар доим бир лаҳзада қулаши мумкин бўлган нозик кўринмас чегаралардир. Яна бир муаммо шундаки,



ҳар ким ҳам никоҳга таъсирининг олдини олиш учун мавжуд қийинчиликларнинг нозик чегарасидан ташқарида хавфни кўра олмайди. Оила - никоҳ муносабатлари ўз ривожланишида оилавий инқироз парадигмаси деб аталмиш бир қатор босқичлардан ўтади. Ушбу инқирозларнинг умумий тусини енгиб бўлмайдиган таҳдид ёки хавф сифатида қабул қилмаслик керак. Кўп нарса турмуш ўртоқларнинг шахслараро муносабатлари истаги ва маданиятига, уларнинг нотўғри қарашларини қайта кўриб чиқиш қобилиятига, никоҳни сақлаб қолиш, фарзандларининг фаровон келажагини таъминлаш мақсадида ўз оилаларининг бошқа аъзолари билан психологик жиҳатдан соғлом муносабатларни сақлаб қолиш истагига боғлиқ.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Л.П. Максакова Ўзбекистон Республикаси аҳолисининг миграцияси. Т. : Елдинур, 2000 йил.
2. З.А. Расулова Оила ва никоҳ муносабатларини ўрганишда янги услубий ёндашув // 2017 йил.
3. Л.А. Колпакова Қийин вазиятларда мослашиш психологияси. Қозон. 2011 йил.



ЁШЛАР МАНФААТИ - УСТУВОР ВАЗИФА

Мирзабекова Умида Нишанбаевна,
MTFL-21 гуруҳ магистри, Тошкент темир йўл муҳандислари институти

Аннотация. Мақолада муаллиф ёшларнинг ижтимоий фаоллигини оширишда ижтимоий ҳимоя ва хизмат кўрсатиш йўналишлари ва самарадорлигини оширишга қаратилган масалалар таҳлили келтирилган.

Калит сўзлар: Ёшлар манфаати, ижтимоийлашув, ижтимоий фаоллик, ижтимоий хизмат, ижтимоий ёрдам.

Ҳар қандай жамиятнинг келажаги, унинг ривожланиши ва фаровонлиги ёшларга боғлиқдир. Чунки ёшлар жамиятнинг эртанги куни экан, уларни маънавий етук, жисмонан бақувват ва соғлом бўлиб камол топишида уларга кўрсатиладиган ижтимоий ёрдам тизими самарадорлигини ошириш жуда муҳимдир.

Истиқболли ислохотлар доираси, хусусан, ижтимоий соҳадаги аниқ йўналтирилган режаларни амалга оширишда ёшлар манфаати устувор этиб белгиланди. Давлат сиёсати даражасига кўтарилган бундай ишлар ҳақида тўхталар экан, Президент Шавкат Мирзиёев: "Биз ёшларга доир давлат сиёсатини ҳеч оғишмасдан, қатъият билан давом эттирамиз. Нафақат давом эттирамиз, балки бу сиёсатни энг устувор вазифамиз сифатида бугун замон талаб қилаётган юксак даражага кўтарамиз. Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз"[1] - деб таъкидлаши бежиз эмас. Негаки, Ўзбекистонда шакллантирилаётган фуқаролик жамиятини барпо этишда жамиятнинг бошқа барча қатламлари билан бирга аҳолини 16 ёшдан 30 ёшгача бўлган ёшлар қатлами ҳам муҳим роль ўйнайди.

Ижтимоий фаолият ёшлар томонидан ижтимоий аҳамиятга эга бўлган амалий ҳаракатлар йиғиндиси бўлиб, маълум мақсад ва манфаатни кўзлайди ва унга эришиш учун зарурий имконият ва воситалардан фойдаланади. Ижтимоий фаолиятни амалга оширувчи субъектлар - шахс, гуруҳ, синф ёки бутун бир жамият фаол аъзолари бўлиб, маълум мақсадни кўзлаб ҳаракат қилади. Ҳар қандай ижтимоий ҳаракат ўзаро бир-бирига боғлиқ бўлиб, муайян мавжуд имконият ва шароитлар доирасида амалга оширилади.

Ёшлар аҳолининг энг ҳаракатчан шижоаткор қисми бўлиб, жамият ижтимоий тузилиши динамикасига фаол таъсир этади. Ўзбекистон ёшларининг иқтисодий тафаккури - ҳаракатчанлик, тадбиркорлик, ишбилармонлик, ижтимоий-сиёсий фалсафаси жамият ва давлат ишларида фаоллик, фуқаролик туйғуси ва масъулияти билан қатнашишдир. Умуман олганда фаолсиз одам бўлмайди. Одам ўз ҳаётини сақлаб қолиш учун меҳнатнинг бирон-бир тури билан шуғулланиши зарур. Умуман фаоллик индивид, шахсга хос ҳаракатчанлик тури бўлиб, унинг ҳам ўзига хос хусусиятлари, тамойиллари борки, уни эгалламасдан самарали ҳаёт кечириш мумкин эмас. Демак, ижтимоий фаоллик барчага хос фазилят эмас, акс ҳолда дангасалик, ялқовлик, омадсизлик бўлмас эди. Чинакам фаоллик ўзини ўзи англаган шахсдагина намоён бўлади.

Ёшлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини оширишда аввало уларни ижтимоий ҳимоя ва ёрдам кўрсатишга аҳамият қаратиш лозим. Жумладан булар қуйидагилар:

Ҳ ёшларга ижтимоий психологик ёрдам бериш марказларини ташкил этиш ва уларнинг фаолиятини янада ривожлантириш. Бу марказнинг асосий вазифаси таназзуллик ҳолатини бошдан кечираётган, зиддиятли вазиятларга тушиб қолган ёшларга тиббий-психологик-педогогик ёрдам бериш, шу категориядаги ёшларга девиантли ва суицидал (ўз жонига қасд қилиш) хулқ-атворнинг олдини олиш ва оғоҳлантириш билан шуғулланади;

Ҳ ўсмирлар ва ёшлар учун консультиватив марказларни ташкил этиш ва улар фаолиятининг самарадорлигини ошириш. Бунда телефон орқали малакали, шошилинч, анонимли, бепул психологик ёрдам бериш назарда тутилади;

Ҳ ўсмирлар учун бошпана, оила, тарбиявий муассаса, жамиятда ўзининг ривожланиши учун қулай шароитлардан объектив ва субъектив сабабларга кўра узоқлашган, бегоналашган вояга етмаганлар ҳаёт фаолияти учун шароит яратиш;



Ғ ёшлар ижтимоийлашув маркази, жазони ўтаб келганлар учун мўлжалланган бўлиб, уларга, биринчи навбатда, вояга етмаганлар учун консултив, ижтимоий ҳуқуқий, касбга йўналтириш ва психологик ёрдам бериш билан шуғулланади;

Ғ ёшлар учун ахборот марказларини ташкил этиш. Бу эса ўз навбатида ёшлар иши бўйича ижроия ҳокимияти органлари фаолиятини, ёшлар ва ёшларнинг турли гуруҳлари билан иш олиб боровчи ташкилотлар, муассасаларга ахборот ва методик хизматлар кўрсатади.[2]

Хулоса қилиб айтганда, биринчидан, ёшлар ўзига хос ижтимоий демографик гуруҳ сифатида доимо баҳс талаб масала сифатида долзарб мавзу бўлиб қолаверади, иккинчидан, ёшларнинг ҳаётидаги мавжуд муаммоларни социологик тадқиқотлар орқали ўрганиш ва уларни самарали бартараф этиш бўйича амалий таклиф ҳамда тавсиялар ишлаб чиқиш, учинчидан ёшларга йўналтирилган ижтимоий ҳимоя тизимини янада такомиллаштириш лозим.

Шундан келиб чиққан ҳолда қўйидаги таклифни бериш мумкин:

1. Ёшлар онгини ошириш соғлом турмуш маданиятига оид ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатларга риоя қилиш амалиётини кузатиш; ушбу соҳада давлатнинг узоқ муддатли сиёсатини шакллантиришга кўмаклашиш; эришилган ютуқларни баҳолаш, мавжуд муаммоларни аниқлаш; ижобий ва салбий тажрибаларни эълон қилиш ва бошқалар.

2. Ёшларнинг ижтимоий муаммо ва масалаларни ўрганиш ҳамда самарали бартараф этиш йўллари, механизмларини ишлаб чиқиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ /Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: "Ўзбекистан" НМИУ, 2016. - 56 б.

2. Социальная работа: теория и практика. Учеб. пособие. /Отв. ред. Е.И.Холостова, А.С.Сорвина.- М.:Инфра-М, 2002. Б.229-232.



ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА РАҲБАРЛАРДАН ТАЛАБ ҚИЛИНАЁТГАН ХИСЛАТЛАР ВА ЎЗ АТРОФИДА СОЁЛОМ ФИКРЛОВЧИ, ИЗЛАНУВЧАН КИШИЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШИ.

Рахмонова Камолахон Шоиржон қизи.
ЎзДЖТСУ 1-босқич магистранти

Аннотация. Бугун мамлакатимизда олиб борилаётган кенг қўламли ислоҳотлар жараёнида ҳар бир раҳбардан юксак масъулият, ғайрат-шижоат, ҳалоллик ва садоқат билан ишлаши ҳамда раҳбарларга қўйиладиган маънавий мезонлар тўғрисида фикр юритилган.

Калит сўзлар: Ғайрат-шижоат, масъулият, садоқат, ватанпарварлик ва одиллик, ваколат, мансаб.

Бугун мамлакатимизда олиб борилаётган кенг қўламли ислоҳотлар, аввало, ҳар бир раҳбардан юксак масъулият, ғайрат-шижоат, ҳалоллик ва садоқат билан ишлашни талаб этмоқда. Чунки мазкур янгиликлар суръати ва қўлами, белгиланган вазифаларнинг самарали амалга оширилиши кўп жиҳатдан барча бўғиндаги раҳбарларнинг салоҳияти ҳамда маънавиятига боғлиқдир. "Ўзбек тилининг изоҳли луғати"да раҳбар - йўл бошловчи, олдинда борувчи, бошлиқ деб изоҳланган. Бундай ишончга сазовор бўлиш учун эса, инсон ўз олдида улкан мақсадлар қўйиши, одамларни шу мақсадларга ишонтириши ва уни амалга ошириш учун барча кучларни йўналтира олиши зарур.

Ҳозирги замон раҳбари, авваламбор, муваффақият сари интилувчи, жавобгарликни ўз зиммасига олишга қодир, ташкилотчи ва иродаси мустаҳкам шахс бўлмоғи керак. Шунингдек, раҳбардан ўз зиммасидаги вазифаларни самарали бажариши, қўл остидагиларни ҳам шунга сафарбар этиши, жамоани қийнаётган жиддий муаммоларни чуқур ўрганиб, мақбул ечимини топиши, муаммоли вазиятларни донолик билан бартараф этиши, ўз ишига танқидий қараш қобилятига эга бўлиши талаб этилади.

Энг муҳими, ватанпарварлик ва одиллик раҳбарнинг асосий сифатидир. Раҳбарнинг ватанпарварлиги ўзининг бор билим ва маҳоратини Ватан тараққиёти йўлида сарфлашида, бошқаларни ҳам шунга ундашида ўз ифодасини топади. У она Ватанни, муқаддас заминни, улуг аждодларнинг меросини қадрлаши, узоқ ва яқин тарихимизни билиши, буюк мутафаккирларнинг асарларини ўқиб-ўрганиши ва мунтазам равишда касбий маҳоратини ошириб бориши лозим.

Раҳбарлик фақатгина ваколат, мансаб ёки лавозим бўлиб қолмай, балки улкан масъулиятдир. Етакчилик, ҳалоллик, самимийлик, ҳурмат-эътибор, қатъият, ишонч, камтарлик, меҳнатсеварлик ва қўл остидагиларга ғамхўрлик кабилар ҳам раҳбарнинг зарур хусусиятларидандир.

Бунинг учун раҳбарлик вазифасига тайинланган ҳар қандай шахс нафақат ўз ишини яхши билиши, балки етарли билимларга эга бўлиб, жамоасига, жамиятга ва давлатга садоқат билан хизмат қилиши, доимо халқ билан ҳамнафас яшаши керак. Ватанга ва бурчга садоқат эса, сўз ва иш бирлигида кўринади. "Давлат - раҳбарлару фуқароларнинг садоқати ва фидойилиги-ла қудратлидир", деган эди улуг бобомиз Амир Темур.

Раҳбарларга қўйиладиган қуйидаги маънавий мезонлар эса, етук шахсни шакллантиришда муҳим аҳамият касб этади:

Биринчидан, ҳар бир раҳбар, аввало, кўнгли очиқ, қалби тоза, ақл-заковат соҳиби, юксак салоҳиятли бўлиши керак. Бошқаларга етакчилик қилишга, биринчи галда, ҳалол ва диёнатли, халқпарвар инсонлар танланмаса, кўзланган мақсадларга эришиб бўлмайди.

Иккинчидан, раҳбар ўзини тарбиялаб вояга етказган, ишонч билдириб юқори лавозимга муносиб кўрган халқига ҳалол хизмат қилиши, зиммасидаги улкан масъулиятни доимо чуқур ҳис этиши лозим. У халқ олдида, юрт олдида жавобгар эканлигини унутмаслиги керак. Муҳтарам Президентимизнинг "Халқ давлат органларига эмас, давлат органлари халққа хизмат қилиши керак" деган тамойили барча бўғиндаги раҳбарлар фаолиятида асосий қоидага айланиши зарур.

Учинчидан, раҳбар қўл остидаги тажрибали, ўз ишининг билимдони бўлган мутахассисларга таяниши, жамоанинг фикрига асосланиб хулоса чиқариши керак. Бугунги раҳбардан барча соҳаларни яхши билиш, иқтисод, ахборот технологиялари, ҳуқуқ, сиёсат ва маънавият илмларидан хабардор бўлиш, янги инновацион технологияларни ўзлаштириш талаб этилмоқда. Шу боис ҳам у доимо



изланиб, ўз билим ва малакасини юксалтириб, янги тафаккур тарзига эга бўлиши лозим.

Тўртинчидан, раҳбарнинг иш услуби ва у қабул қилган қарорлар фаолият самарадорлигига хизмат қилиши керак. Раҳбар бошқарувнинг маъмурий буйруқбозлик усулларидадан воз кечиши, расмиятчиликка берилмаслиги муҳим.

Бешинчидан, ҳар қандай раҳбарда ташаббускорлик, қатъият ва талабчанлик бўлмоғи шарт. Талабчанликни зўравонликка, қатъиятни манманликка айлантириш ўта калтабинликдир. Бундай иллатлар раҳбарни яхши мутахассис кадрлар ва самимий инсонлардан узоқлаштиради.

Олтинчидан, раҳбар қўл остидагиларни таниш-билиш ва маҳаллийчилик ҳамда шахсий садоқатига қараб танламаслиги лозим. У жамоадаги яхши мутахассисларни қадрлаши, уларнинг хизмат фаолияти давомида орттирган бой амалий тажрибаларидан унумли фойдаланишга интилиши керак.

Еттинчидан, раҳбар адолатсизликка асло йўл қўймаслиги лозим. Ҳар бир ишда одиллик билан қарорлар қабул қилиши, қўл остидагиларга нисбатан ҳурмат билан қараб холисона муносабатда бўлиши керак. Адолат - раҳбарликнинг энг буюк мезонларидан бири. Шу ўринда буюк Соҳибқирон бобомизнинг "Куч - адолатда" деган ҳикматли сўзларини таъкидлаб ўтиш ўринлидир.

Саккизинчидан, раҳбар ўз шахсий ҳаётида ҳам бошқаларга намуна ва ибрат бўлиши, соғлом турмуш тарзига риоя қилиб, турли зарарли одатлардан холи бўлиши зарур. У нафс балосидан сақланиши, қўл остидагиларни ҳам тамагирлик ва лоқайдлик каби турли иллатлардан асрашга интилиши ва раҳбарнинг барча ишлари очиқ ва ошқора бўлиши лозим. Унинг вақти-вақти билан жамоа олдида ҳисобот бериб туриши раҳбарлик фаолиятига фақат обрў келтириб, атрофдагиларда унга нисбатан ишонч—ни оширади.

Хулоса шуки, бугунги кунда раҳбар кадрлар фаолияти самарали бўлиши учун, аввало, уларни танлаш принципларини янгилаш ва қонуний асосларини такомиллаштириш ўзига хос аҳамиятга эга. Шу маънода раҳбар кадрларни тайёрлаш жараёнида, уларнинг онгига ҳар қандай раҳбар халқ олдида, юрт олдида ҳисобдор, жавобгар эканлиги ҳиссини сингдириш керак. Уларни раҳбарликка оид билимлар, айниқса, раҳбарликда муваффақиятга эришишга олиб келадиган ва муваффақиятли раҳбарликка тўсқинлик қиладиган шахс хусусиятлари тўғрисидаги билимлар билан қуроллантириш лозим. Шу билан бир қаторда ҳар бир раҳбар кадрни замонавий раҳбар кадрларга қўйиладиган талаблар ва масъулият мезонларидан хабардор қилиш даркор. Муваффақиятли раҳбарликка эришиш учун раҳбар фаолиятида адолатчилик, одиллик сингари зарур сифатлар акс этиши керак. Асосий мақсад аҳолига давлат хизматлари кўрсатишнинг самарали усуллари билиши ҳамда Президентимиз Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, "Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак".

Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида" Фармонида раҳбар ва педагог кадрларнинг ўқув-методик ва илмий-педагогик фаолияти натижаларини инобатга оладиган, уларга мунтазам равишда касбий ўзини ўзи ривожлантириб бориш имкониятини берувчи узлуксиз малака ошириш тизимини амалиётга жорий этиш бўйича ташкилий-методик тайёргарликни амалга ошириш ҳақида алоҳида банд келтирилган. Ушбу Фармон орқали барча ташкилот ва давлат органларида фаолият юритаётган раҳбарларга бир қанча имкониятлар эшигини очилди.

Таҳлиллар ва кузатишлар шуни тасдиқлайдики, раҳбар атрофида соғлом фикрловчи, изланувчан ва ташаббускор ходимлар кўп бўлса, бундай жамоада муҳит ҳам соғлом, ходимларнинг ишчанлик кайфияти ҳам юқори бўлади. Раҳбар маънавияти фаолият самарадорлиги ва жамоанинг маънавий-ахлоқий жиҳатларини мустаҳкамлашда муҳим омил бўлиб, етакчининг иқтидори жамоа муваффақиятини таъминлайди.

Адабиётлар рўйхати

1. Ш.Мирзиёев "Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак"

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида" 2019 йил 27 августдаги ПФ-5789-сон Фармони

3. "Ўзбек тилининг изоҳли лугати"

4. "Темур тузуклари"

5. Ахборот ҳуқуқий портали.



СОЦИОЛОГИЯ МАССОВЫХ КОММУНИКАЦИЙ КАК НОВАЯ ОБЛАСТЬ, РАЗВИВАЮЩАЯСЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.

Султанова Фируза Мамадалиевна,
Магистр Национального университета им. Мирзо -Улугбека,
Факультета Социальные науки,
По направлению Социология Массовых коммуникаций.

Annotatsiya: Ushbu maqola ommaviy kommunikatsiyalar sotsiologiyasining asosiy tushunchalarini, fanning asosiy funktsiyalarini, shuningdek ommaviy kommunikatsiyalar sotsiologiyasining rivojlanish nazariyalari va tarixlarini ochib berishga bag'ishlangan. Shuningdek, O'zbekistondagi ommaviy axborot vositalarining turlari va rivojlanishi, ularning faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar ro'yxati keltirilgan va ommaviy axborot vositalarini, xususan, ommaviy axborot vositalari sotsiologiyasini o'rganishning dolzarbligi to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Аннотация: Данная статья посвящена раскрытию основных понятий социологии массовых коммуникаций, функций науки, а также теорий и истории развития социологии массовых коммуникации. Также перечислены типы и развитие СМИ в Узбекистане, правовые документы, регулирующие их деятельность, и останавливается на вопросе актуальности изучения СМИ, а именно социологии массовых коммуникаций.

Annotation: This article is devoted to the disclosure of the basic concepts of the sociology of mass communications, the basic functions of science, as well as theories and histories of the development of the sociology of mass communications. It also lists the types of mass media and development of the media in Uzbekistan, legal documents regulating their activities, and dwells on the issue of relevance to the study of the media, namely the sociology of mass communications.

Kalit so'zlar: kommunikatsiya, ommaviy kommunikatsiyalar sotsiologiyasi, ommaviy axborot vositalari, siyosiy boshqaruv funktsiyasi, madaniy funktsiya, axborot funktsiyasi, O'zbekiston, Internet, bosma ommaviy axborot vositalari, veb-sayt, elektron hukumat.

Ключевые слова: коммуникация, социология массовых коммуникаций, СМИ, функция политического контроля, культурологическая функция, информационная функция, Узбекистан, интернет, печатные издания, веб-сайт, электронное правительство.

Key words: communication, sociology of mass communications, mass media, political control function, cultural function, information function, Uzbekistan, Internet, print media, website, e-government.

За всю историю человеческого развития коммуникация являлась необходимой важной составляющей человеческого развития. В первобытном обществе основой коммуникации служили звуки и язык, а также петроглифы (наскальные рисунки), с помощью которых люди передавали информацию следующему поколению. С развитием письменности в Древнем мире надписи на пергаментях, папирусах являлись основным средством передачи информации большому количеству людей. Чтение указов, приказов правителей на огромных площадях, рынках представляли собой тоже некий вид массовой коммуникации, также в этих площадях проводились публичные казни, что было демонстрацией власти правителей. В частности, подобные чтения и казни проводились на площади Регистан в Самарканде. С формированием школ и религиозных учений начали формироваться новые виды массовых коммуникаций. А торговля, в свою очередь, способствовала развитию коммуникации меж культурами.

С появлением печатного станка, книги стали доступными, что помогло книгам стать главным средством массовой коммуникации. Но с развитием технического процесса, с появлением радио, телевидения и Интернета ряд этих средств расширился.

Эти источники или так называемые каналы не только использовались и используются в целях информирования, но и также в целях пропаганды, воздействия на сознание людей. Успешное использование радио Адольфом Гитлером для пропаганды стало наглядным уроком возможных опасностей. Концепция массового общества добавила силы к идее, что электронные СМИ могут создать оруэлловскую ситуацию контроля над разумом, когда в пассивных массах доминирует крошечная элита коммуникаторов.

Лишь в 20-е годы, проблемы массовой коммуникации рассматривались в контексте общей



социологии. Начало исследований массовой коммуникации и обоснование проблемных вопросов связывают с именем немецкого социолога М. Вебера. В 1910 г. Он методологически обосновал необходимость изучения прессы в социологическом аспекте, убедительно показав ориентацию периодической печати на различные социальные структуры и ее влияние на формирование человека как члена социума .

Становление социологии массовой коммуникации в качестве научной дисциплины было вызвано стремительным развитием информационно-коммуникационных технологий, оказавших заметное влияние на социальные и культурные процессы XX в. В США и странах Западной Европы стало формироваться новое гуманитарное научное направление, которое именуют "теорией массовой коммуникации" (Mass Communication Theory). Эта область исследований формировалась и продолжает рассматриваться в западной науке как междисциплинарная, однако в наибольшей степени она была подвержена влиянию социологии.

В 1948 г. американским ученым ГЛассуэллом были выделены три функции: 1) обозрение окружающего мира, что можно интерпретировать как информационную функцию; 2) корреляция с социальными структурами общества, что можно толковать как воздействие на общество и его познание через обратную связь; 3) передача культурного наследия, что можно понимать, как познавательную-культурологическую функцию, функцию преемственности культур. В 1960 г. американский исследователь К.Райт добавил еще одну функцию - развлекательную. В начале 80-х годов специалист по массовой коммуникации Амстердамского университета Мак-Квейл прокомментировал эти функции и предложил еще одну функцию, так называемую мобилизующую, имея в виду специфические задачи, которые выполняет массовая коммуникация во время компаний, чаще - политических, реже - религиозных. По-видимому, эта функция, которую можно квалифицировать как регулирующую или управляющую, приобретает силу и в современном мире .

Основные теоретические направления изучения массовой коммуникации можно рассмотреть через призму их функции.

Функция политического контроля. Первая подгруппа, в котором доминирует материально-экономический. Основные теоретики этой подгруппы были В.Парето, К.Маннгейм (Теория массового общества (теория массового отвлечения)). Исходит из положения о взаимодействии авторитетных и властных институтов общества, в результате чего СМИ оказываются интегрированными в эти институты и, как следствие, поддерживают политико-экономический курс властных структур.

Роль СМИ здесь: а) манипулирование общественным мнением; б) помогают людям выжить в трудных условиях.

Политико-экономическая теория (Г.Мердок и П.Голдинг) Экономический фактор определяет функции СМИ. Политический фактор также учитывается - СМИ находятся в руках владельцев (последовательное использования постулатов марксизма). Критическая теория (М.Хоркхаймер, Т.Адорно, Г.Маркузе)

Функция опосредованного духовного контроля отражена в Структурно-функциональной теории Т.Парсонса, Р.Мертон. СМИ рассматриваются как самоорганизующаяся и самоконтролируемая подсистема, функционирующая в пределах установленных политических правил. (Все действия в обществе обусловлены его потребностями, идеологические факторы при этом несущественны).

Культурологическая функция. Франкфуртская (поздняя) школа (Т.Адорно, Г.Энценбергер). Сохранность марксистского постулата о важности исторического подхода к анализу факторов, обуславливающих социальные отношения в обществе. Разрушительное воздействие СМИ на личность осуществляется посредством распространения стереотипов массовой культуры (Адорно). Прежде чем изучать реакцию различных социальных групп на информацию, передаваемую СМИ, необходимо провести тщательный анализ положения, которое та или иная группа занимает в культурном наследии данного общества .

Но несмотря на определение функций новой науки, еще не установлено ее точное определение. В энциклопедических словарях и научной литературе можно найти следующие определения:

Социология массовой коммуникации означает такую область социологии, которая изучает процессы функционирования и развития массовой коммуникации, средства массовой информации, их роль в жизнедеятельности современного общества.

Социология массовой коммуникации - область социологии, предметом изучения которой являются закономерности массовых информационных процессов и деятельность социальных институтов, производящих и распространяющих массовую информацию .

Новая наука Социология массовых коммуникаций также находит свои истоки развития и в Узбекистане. Это можно обуславливать тем, что средства массовой коммуникации, а именно СМИ



в Узбекистане развивается пропорционально увеличению потребностей населения в информации. Если в 1991 году в Узбекистане действовали 395 средств массовой информации, то на 1 января 2012 года данный показатель составляет 1254, в том числе 706 газет, 255 журналов, 16 информационных бюллетеней, 4 информационных агентства, 64 теле- и 26 радиоканалов, 173 веб-сайта. Из года в год растет количество негосударственных средств массовой информации. На сегодняшний день их количество составляет 739.

И в настоящее время в нашей стране насчитывается порядка 1,7 тысяч средств массовой информации, которых можно разделить на 6 основных видов:

1. Государственные СМИ, создаваемые и финансируемые органами государственной власти и управления.
2. Государственно-общественные СМИ.
3. СМИ организаций и структур гражданского общества.
4. Альтернативные СМИ, которые финансируются негосударственными структурами, и деятельность которых направлена на формирование общественного мнения, взглядов, оценок, отличающихся от официально принятых.
5. СМИ коммерческого характера, создаваемые ради получения прибыли.
6. СМИ неполитических структур и организаций, имеющие "узкую" специализацию и специфическую аудиторию.

Несмотря на развитие Интернета, телевидение все еще не утратило свою популярность среди узбекского народа. Телеканалов, вещающих на общенациональном уровне, насчитывается 12, на региональном 13. А также осуществляют свою деятельность 6 частных телеканалов общенационального уровня и еще 12 телеканалов, вещающих на региональном уровне, как Жаслар TV в Нукусе.

Интернет-сайты, в свою очередь, дают возможность для онлайн-просмотра некоторых телеканалов Узбекистана, наиболее популярен сайт mediabay.uz. Также онлайн-вещание всех государственных телеканалов НТРК Узбекистана ведется на официальном сайте НТРК Узбекистана - mtrk.uz.

Еще одним видом СМИ, популярный в Узбекистане являются Интернет сайты, которые принадлежат государственным органам или частным негосударственным организациям. Сайты сфокусированы на разные тематики начиная от политического характера заканчивая развлекательными сайтами для детей и взрослых.

Радиостанции все еще смогли сохранить свою популярность среди представителей, обладающих автотранспортом. На сегодня в Узбекистане существуют 24 эфирных радиостанций, и 5 Интернет радиостанции (или радиостанции чья частота неизвестна).

Газеты и журналы. Печатные издания все больше теряют свою популярность среди населения в силу роста информационной компетентности телевидения и интернет сайтов. Если цикл производства газеты занимает целый день. Телевидение может подавать новости ежечасно. В интернете они обновляются каждые 15 минут. А в социальных сетях публикация новостей происходит немедленно.

На сегодняшний день на государственном уровне издаются более 200 газет и журналов, а также существуют региональные и частные издания печатных СМИ.

С открытием новых возможностей в Интернете появляются новые формы СМИ, одним из которых является блоги, создаваемые независимыми экспертами, или просто дилетантами. Ведение блога не требует официальных или определенных навыков или знаний, важно привлечь внимание аудитории.

С помощью ведения блогов эксперты и представители определенных специальностей делятся своими субъективным, часто обоснованным мнением по поводу политических, экономических, общественных событий, или делятся о своей обычной жизни- или творческой деятельностью, как представители шоу-бизнеса.

Будучи новым явлением на информационном пространстве, блоггерство в Узбекистане еще не полностью регулируется правовыми нормами.

В частности, основными законами, направленными на регулирование сферы информатизации и вопросов, связанных с поиском, получением, распространением и использованием информации, являются Конституция Республики Узбекистан, законы Республики Узбекистан "Об информатизации", "О средствах массовой информации", "О принципах и гарантиях свободы информации", "О гарантиях и свободах доступа к информации".

Столь огромное число СМИ, воздействующие на "человеческий арсенал" страны, требует структурного изучения и анализа. Государство, структуры гражданского общества, компаниям необходимо следить за развитием общественного мнения, и воздействовать на него соответственно



в целях сохранения порядка в стране для первых, и в целях информированности о потребностях и интересах населения для дальнейшего сбыта продукции для последних.

Анализ вектора развития СМИ позволит государству вовремя предотвратить влияние угрозы внешних негативных сил. Известно, что идеи исламского терроризма и экстремизма проникали в страну именно с помощью средств коммуникации и массовой информации. Кроме того, СМИ служат инструментом повышения лояльности к государству среди населения и повышения имиджа страны внутри и за пределами своей границы путем пропаганды, освещения полной картины реформ и изменений в стране, рекламированием своей исторических, культурных, и даже кулинарных особенностей.

Будучи осведомленным о возможностях СМИ, государство может ими пользоваться для образовательных целей или повышения осознанности населения. Пропаганда правовой грамотности и трансляция реклам и передач о законодательных изменениях в стране послужит основой повышения правовой грамотности населения. Печатные издания и веб-сайты политических партий Узбекистана - главный инструмент информирования населения о целях и задачах, деятельности этих партий. Стремления Узбекистаном создание электронного правительства доказывает насколько изучение функционирования средств массовых коммуникаций, особенно СМИ сыграет немаловажную роль в принятии правильных политических, экономических решений и в установлении обратной связи с населением.

Заключение.

Развитие информационных технологий увеличивает масштабы влияния средств массовой коммуникации на население, на его культуру, мировоззрение, на вкус и даже на развитие речи, то есть на все социологические аспекты жизни. И перед государствами поставлена задача играть роль рычага в просторном информационном пространстве. Для правильного пользования этим рычагом государству необходимо структурный анализ деятельности СМИ, в котором немаловажную роль играет наука -социология массовых коммуникаций.

-формирование базовой национальной литературы по Социологии массовых коммуникаций.

-поощрение исследовательской деятельности новой области Социологии массовых коммуникаций в Узбекистане.

Литература:

1. A Dictionary of Sociology . Encyclopedia.com. (January 16, 2020). [электронный ресурс] URL: <https://www.encyclopedia.com/social-sciences/dictionaries-thesauruses-pictures-and-press-releases/mass-media-sociology> "mass media, sociology of ."

2. Конечная В.П. Социология коммуникаций. Глава X. МАССОВАЯ КОММУНИКАЦИЯ (ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ)

3. Там же.

4. Ротанова М.Б. Введение в социологию массовой коммуникации: Учебно-методическое пособие для высших учебных заведений, курсов повышения квалификации - Нижний Новгород: Нижегородский государственный лингвистический университет им. Н.А. Добролюбова, 2008. - 64 с.

5. Там же.

6. С этого года в Узбекистане начнет издаваться ежедневная семейная газета. [электронный ресурс] URL: <https://www.podrobno.uz/cat/obchestvo/v-Uzbekistane-poyavitsya-novaya-gazeta-v-krugu-semi/>

7. Типология средств массовой информации. [электронный ресурс] URL: <https://socialworkstud.ru/uchebnik-po-osnovam-socziologii/669-ti-pologija-sredstv-massovoj-informacii.html>

8. [электронный ресурс] URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A2%D0%B5%D0%BB%D0%B5%D0%B2%D0%B8%D0%B4%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D0%B5_%D0%B2_%D0%A3%D0%B7%D0%B1%D0%B5%D0%BA%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B0%D0%BD%D0%B5

9. Каталог сайтов Узбекистана. [электронный ресурс] URL: <https://www.goldenpages.uz/saiti/>

10. Ещё раз об ответственности блогеров. [электронный ресурс] URL: <http://uza.uz/ru/society/otvetstvenny-li-blogery-za-kommentarii-21-08-2019>



МИНТАҚАВИЙ ҲАМКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА "ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИ" ОМИЛИДАН ФОЙДАЛАНИШ ЗАРУРИЯТИ

**Холматов Баходир Холмурадович,
Тошкент кимё-технология институти ўқитувчиси,**

Аннотация: Мақолада Марказий Осиё давлатлари ўртасидаги яқин қўшничилик ва ўзаро манфаатли ҳамкорлик алоқаларини ривожлантиришда "халқ дипломатияси"нинг ўрни ва аҳамияти, унинг давлат дипломатиясидан фарқли жиҳатлари ёритилган. Шунингдек, Марказий Осиёни янада барқарор, иқтисодий ривожланган ва юксак тараққий этган минтақага айлантиришга оид ташаббусларнинг мазмун ва моҳияти ҳақида тўхталинган.

Таянч сўзлар: Марказий Осиё минтақаси, минтақа, "дипломатия", "халқ дипломатияси", хавфсизлик ва барқарорлик.

Бугунги кунда Марказий Осиё минтақасидаги мамлакатлар ўртасида яқин қўшничилик ва ўзаро манфаатли ҳамкорликка асосланган савдо-иқтисодий, транспорт-коммуникация, маданий-гуманитар соҳаларда, шунингдек хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш масалаларида кўпгина ишлар амалга оширилмоқда.

Бу борада Президентимиз Шавкат Мирзиёев Марказий Осиё давлатлари билан ўзаро манфаатли алоқаларнинг янги bosқичга чиққанини таъкидлаб, "биз фаол маданий-гуманитар мулоқотни давом эттириш, мамлакатларимизда маданият кунлари ва турли ижодий тадбирларни мунтазам ташкил этиш, таълим ва сайёҳлик соҳасидаги алмашувларни "халқ дипломатияси"нинг энг муҳим воситаси сифатида ривожлантириш тарафдоримиз", дейди.

Бундан ташқари, қўшни мамлакатлар чегарадош ҳудудлари даражасида алоқалар кенгайиб бораётгани, "халқ дипломатияси" механизмларидан фаол фойдаланилаётгани ҳам минтақа давлатлари муносабатларини мазмунан бойитмоқда.

Шу ўринда ўринли савол туғилади? Хўш, "дипломатия" ва "халқ дипломатияси" деганда нима тушинилади?

Аксарият манбаларда "дипломатия" ҳукумат ва унинг махсус органларининг давлат ташқи сиёсатини амалга ошириш ҳамда давлат ва унинг фуқароларининг хориждаги манфаатларини ҳимоя қилиш фаолияти сифатида таърифланади.

Дипломатик луғатда "дипломатия"га давлат ташқи сиёсатини амалга оширишнинг ҳарбий бўлмаган воситаси, муайян шароит ва ҳал қилинаётган вазифаларнинг хусусиятини ҳисобга олган ҳолда қўлланиладиган амалий чора-тадбирлар, усул ва йўллар мажмуи, давлат раҳбарлари ва ҳукуматларнинг, ташқи ишлар вазирларининг, ташқи ишлар муассасаларининг, хориждаги дипломатик ваколатхоналарнинг давлат ташқи сиёсатининг мақсад ва вазифаларини амалга ошириш, давлатнинг, унинг хориждаги муассаса ва фуқароларининг ҳуқуқлари ҳамда манфаатларини ҳимоя қилиш борасидаги расмий фаолияти сифатида таърифланган.

Умуман олганда, дипломатия давлат ташқи сиёсатини амалга оширишнинг мураккаб усули, шунингдек давлатга халқаро ҳуқуқ ва тегишли тартибот асосида халқаро муносабатларда кафолатланган ва тенг иштирок этиш имконини берувчи кўп томонлама механизмдир.

Халқ дипломатияси - умумийлик ва хусусийликнинг қонуний зарурияти бўлиб, ўзида муносабатларнинг барча шакллари, яъни ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маданий мулоқотларни ҳамда аҳолининг барча қатламларини - ишчилар, деҳқонлар, зиёлилар, диний арбоблар ва партия арбоблари, талабалар, мактаб ўқувчиларини жамлаб олган халқаро муносабатларнинг муштарак шаклидир.

Халқ дипломатияси - халқ ва ҳукумат манфаатларининг ифодасидир. У халқ ва ҳукуматнинг ижтимоий-сиёсий мақсадларини рўёбга чиқаради.

Бу халқаро муносабатларда янги воқеликдир, лекин у бугун замонавий дунёда халқларни бирлаштирувчи жуда керакли ресурс сифатида ўзининг мустаҳкам ўрнини эгаллади.

Айни пайтда дипломатиянинг бу шаклини бежизга "юрақдан юракка интилувчи дипломатия" дея таърифлашмайди. Бу инсонларни яқинлаштирувчи алоқалардир, айнан "халқ дипломатияси" орқали инсонлар бир-бирларини яхши тушуна бошлайдилар.

2017 йилнинг 10-11 ноябрь кунлари Самарқанд шаҳрида бўлиб ўтган "Марказий Осиё: ягона



тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусида халқаро конференцияда Президентимиз Шавкат Мирзиёев Марказий Осиёни яқин келажакда барқарор, иқтисодий ривожланган ва юксак тараққий этган минтақага айлантиришга хизмат қиладиган олти муҳим тақдирни илгари сурган.

Яъни, биринчиси, Марказий Осиё давлатларининг ҳудудлар раҳбарлари (ҳокимлари) бизнес ҳамжамиятининг ассоциациясини таъсис этиш, иккинчиси, Транспорт коммуникацияларини ривожлантириш бўйича умумминтақавий дастурни ишлаб чиқиш ва қабул қилиш, учинчиси, Марказий Осиёда хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш мақсадида амалий ҳамкорликни янада мустаҳкамлаш, тўртинчиси, давлат чегараларини делимитация ва демаркация қилиш жараёнини тезда ва узил-кесил якунига етказиш, бешинчиси, минтақада сув ресурсларидан адолатли фойдаланиш муаммосини имкон қадар тезроқ тартибга солиш, олтинчиси, мамлакатларимиз ва халқларимиз ўртасида маданий-гуманитар алоқалар, дўстлик ва яхши қўшничилик муносабатларини мустаҳкамлаш

Шунингдек, 2019 йилнинг 29 ноябрь куни Тошкент шаҳрида бўлиб ўтган Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг иккинчи Маслаҳат учрашувида Президентимиз Шавкат Мирзиёев музокаралар анъанавий дўстлик ва ўзаро англашув руҳида ўтганини, давлат раҳбарларининг минтақада ишонч ва яхши қўшничилик муҳитини янада мустаҳкамлашга бўлган интилиши ва қатъий сиёсий иродасининг яққол ифодаси бўлганини таъкидлаб, бешта муҳим ташаббусни илгари сурган.

Жумладан, биринчи йўналиш - савдо-иқтисодий ва инвестициявий алоқаларни ривожлантиришдир. Катта бозорга эга, табиий хомашё ва инсон ресурслари салмоқли бўлган минтақамизнинг рақобатдош устунликларини имкон қадар тўлиқ ишга солиш;

Иккинчи йўналиш - Бош вазир ўринбосарлари ва ташқи ишлар вазирларининг кўп томонлама учрашувларини мунтазам ташкил қилиш билан бирга Марказий Осиё мамлакатлари Парламентлараро дўстлик гуруҳини таъсис этиш;

Учинчи йўналиш - "Марказий Осиё - ягона ўтмиш, умумий келажак" шиори остида маданий-гуманитар алмашув платформасини яратиш;

Тўртинчи йўналиш - минтақанинг мураккаб сув ва экологик муаммоларини ҳал қилиш ва ечиш;

Бешинчи йўналиш - минтақавий барқарорлик ва хавфсизликни таъминлаш, бу борада замонавий таҳдид ва хавф-хатарларга кенг миқёсда қарши туриш учун мамлакатларимизнинг ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идоралари ва махсус хизматларининг оператив ҳамкорлик қилиши бўйича ишчи механизмларни яратиш .

Бундан ташқари Президентимиз иккинчи Маслаҳат учрашувининг ўтказилиши манфаатларнинг ўзаро муштараклиги, мамлакатлар билан минтақавий тараққиётнинг энг долзарб масалалари бўйича очиқ мулоқот ва биргаликда қарорлар қабул қилишга тайёр эканини яна бир бор яққол тасдиқлашини таъкидлаган.

Юқорида санаб ўтилган барча ташаббуслар Марказий Осиё минтақасида барқарорлик ва хавфсизликни таъминлаш, минтақада кенг маданий-гуманитар алмашувлар учун қулай шароитлар яратиб бериш, давлатлар ўртасида яхши қўшничилик ва шерикликни мустаҳкамлаш борасида "халқ дипломатияси"нинг имкониятларидан самарали фойдаланишга ундайди.

Хулоса ўрнида шунга айтиш мумкинки, "халқ дипломатияси" - давлат дипломатиясидан фарқли ўлароқ кўплаб ижобий ва таъсирчан хусусиятларга эгалиги билан фарқланиб, расмий баёнотлардан ҳоли, бир бирига яхшилик истаган кўнгиллар ва инсонлар туфайли айнан "халқ дипломатияси" сўнгги йилларда халқаро алоқаларнинг муҳим институти сифатида юқори баҳолаш мумкин.

Дунёда глобаллашув ва интеграция жараёнлари кучайиб бораётган бир шароитда "халқ дипломатияси" халқаро муносабатларнинг асосий ва ажралмас қисмига айланиб бормоқда. Жамоат ташкилотлари ва бирлашмалари фаолияти, халқаро ноҳукумат ташкилотларининг ҳамкорликни кучайтириш бўйича ташаббуслари мамлакатлар ўртасида барча даражадаги муносабатларни ривожлантиришга имкон яратади.

Юқоридаги барча саъй-ҳаракатлар минтақа халқларининг фаровонлиги ва равнақи йўлида Марказий Осиё давлатлари салоҳиятини бирлаштиришга қаратилган ўзаро манфаатли ҳамкорлик алоқалари учун мустаҳкам пойдевор бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Сайфуллаев Д.Б. Мустақиллик даврида Ўзбекистон дипломатиясининг шаклланиши ва ривожланиши. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. - Т.: 2017. 15 - бет.

2. Жўраев Р.Т. Ўзбекистон халқ дипломатиясининг халқаро муносабатлардаги роли. Тарих фанлари



номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. - Т.: 1999. 24 - бет.

3. Попов В.И. Современная дипломатия: теория и практика. Курс лекций. Часть 1: Дипломатия - наука и искусство / ДА МИД РФ. - М.: Научная книга, 2000. - 576 с.

4. Дипломатический словарь / Отв.ред. А.А.Громько. Т.1. - М.: Наука, 1984. - С.327.

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Самарқанд шаҳрида ўтказилган "Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик" мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқи. <http://www.prezident.uz/uz/lists/view/1227>.

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг Маслаҳат учрашувидаги нутқи. <http://uza.uz/oz/politics/-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-mar-30-11-2019>



ЎСМИР ЁШЛАР ЎРТАСИДАГИ ЗЎРАВОНЛИКЛАР СОЦИОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА.

Мадрахимов Алишер
Ўзбекистон Республикаси
Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви
академияси қошидаги Ёшлар муаммоларини
ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш
институтини таянч докторанти

Аннотация: ушбу тезисда социология фанида зўравонлик тушунчаси социологик жиҳатдан тадқиқ этилган. Шу билан биргаликда зўравонлик тушунчаси девиант хулқ-атвор сифатида илмий нуқтаи назардан ўрганилган.

Калит сўзлар: ёшлик, девиант хулқ-атвор, жамият, зўравонлик, ахлоқ, таълим-тарбия.

Ижтимоий жамият ҳаёти ўзининг турли жиҳатлари ва қирралари билан тавсифланади. Унда жамият ва давлатнинг, аҳолининг турли қатламлари ижтимоий гуруҳларнинг манфаатлари, талаб ва эҳтиёжларидан баъзида зиддиятли, низоли, гоҳида мутаносиб, уйғун тарзда кўриниш беради. Буни бугунги глобаллашув ҳаётимизда маъноси шуки жамият фақатгина ижобий, эзгу муносабатлар йиғиндиси эмас, балки унда салбий, гайриинсоний, зўравонликка асосланган, одоб-ахлоқ ва маънавиятга зид бўлган муносабатлар ҳам учраб туради.

Ёшлар ўртасида зўравонлик ҳодисалари ҳар қандай жамият ва давлат учун салбий ва нохуш ҳолат ҳисобланиб, унинг келажагига, маънавий- ахлоқий асосларига жиддий зарар етказиши мумкин. Шу сабабли бугунги кунда мамлакатимизда ўқувчи-ёшлар ўртасидаги зўравонлик муаммоларини жиддий таҳлил қилишга, унинг илдизини ва сабаб бўлувчи омилларини аниқлашга катта эътибор қаратилмоқда.

Бугунги кунда Европа ва АҚШда бундай зўравонликлар "Буллинг" деб аталмоқда. Bullying - инглизча зўравонлик, психологик террор, калтаклаш, камситиш, беадаб ҳазиллар, лақаб кўйиш каби салбий тажавбускор жиҳатларни ўзида акс этади.

Таълим муассасаларида ўқувчилар ўртасида пичоқбозлик, безорилик, ўғрилиқ, ҳатто тенгдошининг жонига қасд қилишга уринишлар, айрим мактабларда эса вояга етмаган қизларнинг номусига тегиш каби жиноятлар содир этилгани ҳақида оммавий ахборот воситаларида кўп маротаба эшитилмоқда. Президентимиз Ш.Мирзиёев томонидан 2019 йил 21 январ куни бўлиб ўтган Олий мажлис палаталарининг қўшма йиғилишида ўз маърузаларида "Мамлакатимизда бўйича жиноят содир этган 47 мингдан ортиқ шахснинг 12 минг нафари ёки 25 фоизини ёшлар ташкил этган." Президентимиз жиноятчиликка қарши курашиш ва ҳуқуқбузарликнинг барвақт олдини олиш масаласига Сенат доимий эътиборда бўлиши кераклигини таъкидлаб ўтди. Бундай нохуш ҳолатларнинг замирида албатта зўравонлик ётади.

Ҳар қандай ҳолатда ҳам зўравонлик тушунчасига берилган фикрлар уни биринчи галда амалда ўрнатилган тартибга яъни қонунга ва одоб-ахлоққа зид ҳатти-ҳаракат сифатида намоён бўлади. Зўравонликнинг амалдаги қонунчиликка зид қилмиш деб қаралиши, аниқроғи унинг шундай воқелик сифатидаги ижтимоий хусусияти зўравонликнинг мавжудлигини белгилувчи ҳолатдир. Бироқ зўравонликнинг содир этилиш ҳолати, усуллари, вазиятлари ҳамда воситалари, шароити ва қандай субъект томонидан содир этилиши ва бошқа жиҳатлари мазкур тушунчани чуқурроқ ва батафсилроқ таҳлил этишни тақазо қилади.

Мактабда таълим оладиган болалар ва ўсмирлар турли инқирозли вазиятларга дуч келишади. Бу эса дадил фикрлашга ва ҳаракатланишга зиддиятлар олиб келиши мумкин. Хусусан бугунги кунда мактабларда зўравонлик ҳолатлари ўқувчилар ўртасида оғзаки ҳақорат, кўрқитиш, жисмоний зўравонлик ва ажратиб кўйиш каби ҳолатлар учрайди. Ўқувчилар билан бирма-бир суҳбатлар олиб борилиб аноним сўровномалар ўтказилганда асосан мактаб ўқувчиларида болаларнинг доимий равишда зўравонлик ҳолатига дуч келиши ва бу уларнинг ўқиши, билим олиши ва албатта хулқига салбий таъсир этиши, рухан эзилиб суицидгача олиб бориши илмий асосланган.

Хўш зўравонликка учраган болаларни бундай муҳитдан қандай қутқариб қоламиз. Биз биламизки бундай болалар ўзларини муаммолари ҳақида кўп ҳолларда сукут сақлайди, катталарнинг аралашуви мижраи кучайтиради



деб ўйлашади. Ва албатта зўравонлик аломатларига ёлгон гапиришади. Мисол учун бола изоҳ беролмайди жароҳатлар қаердан келгани, қўқариш ва тирналишлар қандай бўлгани, "йўқолган" нарсалар, синган буюмлар ўки йиртилган кийимлар кабиларга. Яна у мактабга бормасликка сабаб қидиради, ўзини касал қилиб кўрсатади, овқатланиш тартиби бузилади, кўпроқ ёлғиз қолгиси келади. Бу жараёнларда, ижтимоий муҳитдан келиб чиқиб ота-она ва яқинларининг эътибори ниҳоятда муҳимдир. Бир сўз билан айтганда оилавий муҳитни таъсири, ўқитувчилар эътибори ўқувчилар зўравонлигини олишда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.



HARBIY MAHORATNING YOSHLARNING TARBIYASIDAGI O'RNI VA ROLI.

Quvatov Erkin Jurayevich

(BuxDU Harbiy ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi)

Saidov Olimxon Bahodir o'g'li

(BuxDU Harbiy ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi)

Ushbu maqolada Qurolli Kuchlar jangovar shayligini oshirishda shaxsiy tarkib faoliyatining samaradorligi, kasbiy mahoratining takomillashuvi har bir harbiy xizmatchining o'z ustida ishlashi, o'z o'zini rivojlantirishi, takomillashtirib borishi bilan bog'liq jarayonlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Mudofaa, mahorat, Jangovor shaylik, amaliy ko'nikma, axloq, kasb, xizmat, ofitser, jamoat fikri.

Mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash vazifalarini hal etishda, Qurolli Kuchlar jangovar shayligini oshirishda ofitserlar tarkibi katta rol o'ynaydi. Ular armiyaning po'lat qalqonidir. Harbiy bilim va amaliy ko'nikmalari, jangovar an'analari va axloqiy jihatdan namuna bo'lgan holda ofitserlar korpusi armiyamiz jangovar qudratini oshirishda asosiy shakllantiruvchi kuch sifatida chiqmoqda. Ular shaxsiy tarkibga jangovar bilim beradi, Vatan himoyachilarini o'qitadi, qo'shinni boshqaradi, jang maydonida jangni tashkil etadi, urushda g'alabani ta'minlaydi. Ularning mehnati tufayli armiya ma'naviy - axloqiy kamolot, shon - sharaf, intizom va vatanparvarlik maktabiga aylanadi.

Mohiyatan ofitserlar - bu harbiy qism yuragi. Shu sababli yaxshi ofitserlar korpusini vujudga keltirish davlat ahamiyatiga molik vazifadir. Bu esa ofitserlarda quyidagi sifatning shakllantirilishini talab qiladi:

- 1) harbiy kasb ustasi bo'lish (harbiy professional);
- 2) murakkab vazifalarni yechishda o'ziga ma'suliyat olish;
- 3) tashkilotchilikni o'z vaqtida anglash va qo'llash, shaxsiy tarkib matonati va shijoatini safarbar qilish;
- 4) qo'l ostidagilar bilan ishlash va tarbiya qilish.

Harbiy tarbiya o'z mamlakati, Qurolli Kuchlar, kasbi, xizmati bilan faxlanish, o'z burchi va g'ururini his etish, kasbiy mahoratini oshirishga intilish, shaxsiy mas'uliyatni oshirish, o'z hamkasblariga g'amxo'rlik va hurmat bilan qarash, harbiy jamoani birlashtirish sifatlarini shakllantirishga qaratilishi kerak.

Shaxsiy tarkib faoliyatining samaradorligi, kasbiy mahoratining takomillashuvi har bir harbiy xizmatchining o'z ustida ishlashi, o'z o'zini rivojlantirishi, takomillashtirib borishi bilan bog'liq bo'ladi. Shaxs o'z ustida ishlashi natijasida o'z bilimi doirasini kengaytiradi, ko'nikma va malakalarini takomillashtiradi, xulqi, fe'l atvoridagi nuqsonlarni yo'qotishga intiladi.

Ofitser va askarlarning mustaqil rivojlanishi o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan ikki jarayonda, ya'ni mustaqil tarbiya va mustaqil ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Bu har ikkala jarayon o'ziga xos xususiyatlarga o'zining mazmuniga shakl va metodlariga ega bo'lib doimo bir-birini to'ldirib boradi.

Mustaqil tarbiya - insonning o'zida ijobiy xislatlarni shakllantirish va rivojlantirish hamda salbiy xislatlarni yo'qotish yo'lidagi ongli faol maqsadli faoliyatidir. Mustaqil tarbiyaning ichki asosini insonning quyidagi qobiliyatlari tashkil etadi:

- o'zi haqida qayg'ura olishi;
- o'z ishi va kelajagi haqida o'ylashi;
- o'ziga chetdan nazar sola olishi;
- o'z qobiliyati kuchi va imkoniyatlariga to'g'ri va haqqoniy baho bera olishi;
- o'z kamchiliklarini va nojo'ya hatti-harakatlarini ko'rishi xulosa chiqarishi va bartaraf eta olishi;
- o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'la olishi;
- o'z harakatlari va turmush tarzi uchun mas'uliyat his etishi;
- oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish yo'lida qat'iyat bilan harakat qilishi.

Mustaqil tarbiya murakkab aqliy axloqiy ma'naviy va irodaviy jarayondir. Bu jarayon davomida shaxsning o'ziga va atrofdagilariga nisbatan ongli maqsadli va tanqidiy munosabatda bo'lishi talab qilinadi.

Hozirgi islohotlar sharoitida yangi jamiyat fuqarosini tarbiyalash, milliy istiqlol, o'zligini anglash tuyg'usini har bir kishi ongiga singdirish va uning ongli e'tiqodiga aylantirish, hozirgi davr talabi darajasida bilimni, uning ma'naviy dunyosini boyitish kabi ulkan vazifalar eng dolzarb masalalardir.

Bu sharoitlardaharbiy jamoalarning jipslashishlarini yanadakuchaytirish, jamoatchilikruhini mustahkamlash, hamma qismlarda va bo'linmalarda sog'lom ma'naviy - psixologik muhitni yaratish, o'qishda va xizmatda



muvafaqqiyatga erishish va harbiy tayyorgarlikni oshirishda muhim vazifalardan biridir. Har bir yosh jangchi, katta avlod oldida, harbiy estafetani ishonchli davom ettirishi, O'zbekiston Qurolli Kuchlarining harbiy shon - shuhrati va sharafini qadrlashi, Vatan himoyachisi - harbiy unvonini sharaflasshi kerak.

Hozirgi kun tajribalariga tayangan holda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy jamoalarida jamoat fikrlarini o'rganish va shakllantirish zarurdir.

Jamoat fikri - alohida harbiy xizmatchilar fikrining oddiy yig'indisidir. U ayrim fikrlarni baholash yig'indisi majmuini o'z ichiga oladi, bunda harbiy jamoa yoki alohida harbiy xizmatchilarning faoliyati, axloq-odobi, harakati turli umumijtimoiy va xizmat jarayonidagi hodisalarga nisbatan umumiy yoki ustun turadigan munosabatlarni aks ettiradi.

Harbiy jamoaning fikrlari insonlarning o'zaro munosabati va aloqasi jarayonida fikr-mulohaza, maslak, his-tuyg'ularning doimiy almashishida, odob va mafkuraning muayyan ta'sirida rivojlanadi va tashkil topadi.

Komandirning shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari oldida turgan o'rganish ob'ekti, jamoat fikrini o'rganish tartibi, vaqti va vositalarining mavjudligiga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin, ya'ni so'rov, kuzatish, tahlil qilish, eksperiment, so'rov varaqasini to'ldirish, bevosita muloqotda bo'lish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .

1.U.I.Ma'murov Harbiy qismda tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma Toshkent 2012-yil 13-16-b.

2."Yangi asr avlodi". Toshkent 2005-yil.

3. S.S.Xo'jayeva Pedagogika nazariyasi o'quv uslubiy qo'llanma Buxoro-2005.



КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИ

Джурасва Дилбар Нашвановна
Касби тумани 24-умумтаълим мактабининг
Кимё фани уқитувчиси

Президентимиз Шавкат Мирзиёев шу йилнинг 19 март куни Ёшларга эътиборни кучайтириш, ёш авлодни маданият, санъат, жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш, уларда ахборот технологиялардан тўғри фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш, ёшлар орасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш, хотин-қизлар бандлигини таъминлаш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилишида ижтимоий, маънавий-маърифий соҳалардаги ишларни янги тизим асосида йўлга қўйиш бўйича бешта муҳим ташаббусни илгари сурган эди. Шу кунларда Республикаимизнинг барча ҳудудларида мазкур ташаббус ижроси доирасида давра суҳбатлари, тадбирлар, китобхонлик кечалари, спорт мусобақалари ўтказиб келинмоқда.

Китобхонлик маданияти халқнинг маънавий қиёфасини белгилайди. Шу боис бугун юртимизда аҳолининг, айниқса, ёш авлоднинг китобхонлик маданиятини юксалтиришга катта эътибор қаратилмоқда.

Гап шу ҳақда борар экан, Президентимизнинг "Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида"ги фармойиши ёш авлод қалбида китобга меҳр уйғотиш, комил инсонни тарбиялаш борасида жуда муҳим қадам бўлганини айтиш жоиз. Бундан кўринадики, мазкур йўналишда зиммамиздаги масъулият ва вазифалар янада ортди.

Бугунги кунда 9576 та мактаб кутубхонаси ҳамда ахборот-ресурс маркази фаолият кўрсатмоқда. Шунингдек, тизимда 12 вилоят ва 199 туман (шаҳар) ахборот-ресурс марказлари мавжуд. Ушбу муассасалардаги китоб фонди 23 миллиондан ошган. Яъни 4,8 миллион ўқувчининг ҳар бирига ўртача 4,7 донадан китоб тўғри келади. Тизим фондидаги китобларнинг 5 миллион нусхаси (21,7 фоизи) болалар адабиёти ҳисобланади. Улар ҳар бир ўқувчига деярли 1 донадан тўғри келади. Мактаб кутубхоналарида ўртача 50 - 60 номдаги 500 тадан 1500 донагача бадиий адабиётлар бор.

Соҳа мутахассисларининг хулосасига кўра, кутубхоналар фонди ҳар йили камида 15 - 20 номдаги янги адабиётлар билан тўлдирилиши мақсадга мувофиқ. Вазирлик томонидан мактаб кутубхоналари фондини болалар бадиий адабиётлари билан бойитиш мақсадида бадиий адабиётлар етказиб берилди.

Шунингдек, ўқувчилар ва уларнинг ота-оналари ўртасида китобхонликни тарғиб қилиш ҳамда рағбатлантириш мақсадида таълим муассасаларида "Китоб тақдироти", "Адабиёт кунлари", "Китобим - оқтобим" номли маърифий тадбирлар, ота-оналар иштирокида "Бир фарзандга - уч китоб" акциялари ва "Энг яхши китобхон ўқувчи" ҳамда "Китобхон мактаб" танловларини ўтказиш йўлга қўйилган.

Мактаб кутубхоналари ва ахборот-ресурс марказларида миллий ҳамда жаҳон болалар адабиётларига, замонамиз қаҳрамонлари образи очиб берилган ёшларбоп янги асарларга эҳтиёж катта. Шунини ҳисобга олган ҳолда, ўқувчиларда китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш бўйича чора-тадбирлар дастурининг лойиҳаси ишлаб чиқилди. Унда кўзда тутилган тадбирлар, албатта, бадиий диди ҳамда савияси юқори, чин инсоний фазилатларга, кенг дунёқараш ва юксак маънавиятга эга авлодни тарбиялашга замин яратади.

Умуман, давлат ҳамда жамият равнақи ёш авлоднинг интеллектуал салоҳияти, интилиши, шижоати билан узвий боғлиқ. Шунга кўра, таълим-тарбияни замон талаблари асосида такомиллаштиришга мамлакатимиз барқарор ривожининг муҳим шарти сифатида ёндашилаётгани айни муддаодир. Зеро, она Ватанга садоқатли, билимли, чинакам комил инсонларни вояга етказиш бугун барчамизнинг улғувор мақсадимизга айланган.



ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ TUTGAN ЎРНИ

IQTISODIYOTDA INNOVATSIYALARNING TUTGAN O'RNI

M.I.Tilavkobilova, TMI, BET-50 guruh

XX asrda iqtisodiyoti postindustrial davrga to'liq kirib keldi, buni biz yuqori darajadagi intellektual texnologiyalar, innovatsiya, va qolaversa raqamli iqtisodiyotni davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan birga yo'lga qo'yilishi bilan ko'rinadi. "Ilg'or texnologiya"lar - iqtisodiyotning barcha asosiy tarmoqlarida, sohalarida va infrastrukturalarida o'z o'rniga ega bo'lmoqda. Innovatsion g'oya va ilm-fan asosida ishlab chiqilgan texnologiyalar ishonchli, moslashuvchan va albatta o'zgaruvchan sharoitlarga raqobatbardosh bo'lishi lozimdir.

Innovatsion iqtisodiyotni kengaytirishda iqtisodiyotning barcha sektorlarini yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, loyihalash, yaratish va tarqatishga moslashtirish, sun'iy intellektni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga joriy etish orqali erishiladi. Innovatsion tizimning asosiy maqsadi iqtisodiyotning barcha sohalarida zamonaviy information texnologiyalar va kompyuterlashga o'tish, milliy information zahiralari yaratishni ta'minlab beruvchi zamonaviy infratuzilmani yaratish, jamiyatdagi barcha sohalarining ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini tezkorlik bilan kompyuterlashtirish va avtomatlashtirish, jahon miqyosidagi zamonaviy innovatsion talablarga mos ravishda ilmiy-texnologik kadrlarni tayyorlash va malaka oshitishga qaratilgan. Innovatsion sohaning rivojlanish darajasi iqtisodiyotning o'sishining asosini yaratadi va bu butun dunyodagi qashshoq va boy mamlakatlar o'rtasidagi chegara hisoblanadi.

Milliy innovatsion tizimlarda yuqori darajadagi mahsulotlarni yaratish, ularni loyihalashtirish, ishlab chiqarish, aholiga yetkazib berish, moliyalashtirish va boshqarish bilan shug'ullanadigan davlat va xususiy tashkilotlar majmui ish yuritadi.

Mavjud salohiyatimizni to'liq ishga solishimiz, unga yarasha katta daromad olishimiz zarurligini inobatga olgan holda so'nggi yillarda mamlakatimizda mazkur soha yuqori shiddat bilan isloh qilinmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan bog'dorchilik tarmog'i va issiqxona xo'jaliklarida boshqaruv tizimini yaxshilash, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, qishloq xo'jaligida kooperatsiyani yo'lga qo'yish, zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalar asosida yuqori sifatli, raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, oziq-ovqat sanoatini jadal sur'atlarda rivojlantirish maqsadida qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

Shunga qaramasdan, jahon bozorida meva-sabzavot mahsulotlari savdosi 205 milliard dollarni tashkil etgan bir paytda, bizning ulushimiz bir foizga ham yetmayapti. Bugungi yig'ilishda qayd etilganidek, kelgusi yilda meva-sabzavot eksportini 2,5 milliard dollarga yetkazish, keyingi uch yilda bu ko'rsatkichni 5 milliard dollarga yetkazish imkoniyatlari mavjud.

Bugungi kunda dunyo bozorlarida gilos, o'rik, olxo'ri, anor, uzum, bodom, sitrus mevalar kabi mahsulotlarga talab yuqori va ushbu mahsulotlar eksport tushumining asosiy qismini tashkil etmoqda. O'zbekistonda bunday mevazorlar, ayniqsa intensiv usuldagi bog'lar yetarlicha tashkil etilmayotgani, bog' va tokzorlar yaroqsiz holatga kelib qolgani sababli ularning iqtisodiy samaradorligi o'ta past darajada qolayotgani, qator tumanlarda minglab gektar eski bog'lar yillar davomida hosil bermayotgani tanqid qilindi. Hanuzgacha "mahsulot yetishtirish - xarid qilish - saqlash va qayta ishlash - eksport" zanjirini tashkil etadigan kooperatsiya tizimi joriy qilinmagan.

Texnologik jihatdan esa rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o'sishning asosiy qismini korporatsiyalar egallaydi va ular mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy va madaniy talablarini qondirish uchun kerakli barcha bilimlar va informatsiyalarni hosil qiladi. Yangi information texnologiyalarning yaratilganligi sababli xo'jalik faoliyatidariivojlanish ya'ni dunyo miqyosidagi korxonalar bilan hamkorlik qilishga yo'l ochib berdi. O'zbekiston iqtisodiyotida innovatsion sektor juda ham past darajada ekanligi, texnologik innovatsiyalarni ishlab chiqarishi bilan kam miqdordagi korxonalar shug'ullanishi, maxsus bo'lgan mashinalar va asbob uskunalarini boshqa davlatlardan sotib olishimiz sekinlik bilan rivojlanishga olib keladi. Rivojlangan davlatlarda bunday korxonalar 80-87% ni tashkil qiladi. Hozirgi davrda O'zbekiston iqtisodiyotida chet-el investitsiyalari ko'paygan bo'lsada bu davlatimiz uchun yetarli emas chunki o'zbekiston bundanda ko'p investitsiyalarga loyiq. Murakkab innovatsion g'oyalarni amalga oshirish jarayonlarida konsortsiumlar, kontsernlar, holding-kompaniyalar, moliya-ishlab chiqarish guruhleri, assotsiatsiyalar va huquqiy shaxsla birlashmalaridek tadbirkorlik tashkilotlari birlashmalari muhim rol o'ynaydi. Bularning barchasi birgalikda innovatsion



samaradorlikni bir necha marta oshiradi. Innovatsion jarayonning kuchayishi uchun xizmat qiluvchi kichik tashkiliy tuzilmalar ichidagi eng asosiylari venchur, injiniring va yangiliklarni amaliyotga tatbiq qiladigan firmalar hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Innovatsiya - bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash vazifasi e'tiborimiz markazida bo'ladi" degan so'zlari har bir yosh avlod uchun biror fan yoki sohaning nazariy yoki texnologik jihatdan yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda Innovatsion rivojlanish vazirligi Davlat statistika qo'mitasi va Tashqi ishlar vazirligi bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasini Global innovatsion indeks(GII) ro'yxatiga kiritilishi bo'yicha amaliy ishlarni olib bormoqda. Jumladan, GII xalqaro reytingi asoschilari va yuqorida qayd etilgan xalqaro tashkilotlari bilan bir qator uchrashuvlar va muzokaralar olib borish orqali hozirgi kunga qadar O'zbekistonning reytingga kiritilishi uchun to'siq bo'lib turgan muammolar o'rganildi va ularni bartaraf etish choralari ko'rilmogda. Bu yil 12-marta e'lon qilingan GII solishtirma tahlilning global vositasi bo'lib, innovatsion sohada davlat siyosatini yurgizayotgan shaxslar va idoralarga iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning bosh omillaridan biri sifatida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmlarni aniqlashga va baholashga ko'mak beradi. GII 80 ta parametr asosida baholanadi, masalan, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini investitsiyalash darajasi, patentlar va tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazishga xalqaro arizalar sonidan boshlab, yanada zamonaviy ko'rsatkichlargacha, masalan, yaratilgan mobil ilovalar soni va yuqori texnologiyali mahsulotlarning eksport darajasigacha inobatga olinadi.

Xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik doirasida 8 ta davlat bilan jami 38 ta qo'shma ilmiy-texnik loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston-Belarus" hamkorligidagi jami 15 ta loyiha, "O'zbekiston-Germaniya" hamkorligidagi jami 6 ta loyiha, "O'zbekiston-Rossiya" hamkorligidagi jami 17 ta loyiha bajarilmoqda.

2018 yili qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 2019-2021-yillar uchun Innovatsion rivojlanish strategiyasi asosida ishlab chiqilgan "Yo'l xaritasi" yurtimiz innovatsion ekotizimini shakllantirish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, muayyan sohalarni isloh etishga qaratilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, mamlakatimiz sekin-astalik bilan rivojlangan davlatlar qatoriga kirib bormoqda va iqtisodiyotdan tashqari boshqa sohalar siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy, ilmiy sohalarda moderenizatsiyalanayotgani, innovatsion yangiliklar kiriyilayotganiga guvoh bo'lamiz. O'zbekistondagi innovatsion biznesning raqobatbardoshligini kuchaytirish uchun davlat innovatsion korxonalariga larning brendini yuritishga ko'mak berishi to'g'ri bo'lardi. Chunki bu dunyo hamjamiyati oldida O'zbekiston "imidj"ini ko'rsatib, uning raqobatbardoshligini oshiradi. Milliy innovatsion tizimni tadbirkorlik sektoriga ilmiy texnologiyalarni havola qilish, ishlab chiqarishni qayta tuzish, innovatsion tizimlarni davlat dasturlari bilan muvofiqlashtirish orqaali iqtisodiyotimizni moderenizatsiyalshimiz mumkin.



КОНКУРЕНЦИЯ ЗНАНИЙ В ОБЛАСТИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

Альбина Галиева
г. Ташкент, студентка ГИИКУз

Аннотация: В статье затронут вопрос о необходимости и важности инновационной промышленности современного Узбекистана. Также излагаются методологические аспекты экономического сектора, стартом которых прилагается идея о креативном мышлении.

Ключевые слова: экономика, креативный потенциал, рынок, компания, креативная деятельность, конкурентоспособность, человеческий капитал.

В целом, о креативной экономике как об экономике общества, основанной на знаниях и в первую очередь на положительном восприятии "креативных" людей Узбекистана, нужно сказать, что креативная экономика отталкивается от систем и технологий, а также готовности и практической реализации в различных сферах человеческой деятельности. Из этого напрямую исходит вопрос о знаниях, которые в итоге реализуются в товарный вид той или иной услуги (товара), спрос которой зависит от качества.

Стало быть, реалией нашего государства стала инновационная промышленность, которая теперь есть что ни на есть одна из самых движущих сил экономики. А сила эта, это - база индустрии знаний. Эта сфера для сотрудника, как трудовой силы, наиболее качественно-ценными характеристиками на первый план выходят профессионализм, то есть - уровень образования, творческий подход и, конечно же, хватка на обучаемость.

Экономика, как сектор креатива, бывает: постиндустриальной, информационной, инновационной, глобальной сетевой и др.

Касаемо экономики знаний: в ней огромное значение имеет рост человеческого капитала и инвестиций в образование и подготовку кадров. Нужно сказать, что низкий уровень развития человеческого капитала в нынешний период для многих развивающихся стран представляет собой главное препятствие для экономического обновления.

Определив актуальность данного исследования в современности нашей страны необходимо разобрать такое понятие, как источник креативности интеллекта. Итак, давайте разбираться: что же является основной функцией интеллекта? - индуцирование личностного энтузиазма к креативной деятельности. И отсюда можно сказать, что монофункционального сотрудника организации, исполняющего лишь четко изложенную инструкцию в трудовом договоре, невозможно назвать источником креатива. Таким образом, интеллектуальной составляющей человеческого сознания является креативный потенциал. А креативный потенциал провоцирует конкуренцию.

Конкуренция - один из самых ключевых инструментов и главный аспект креативной, да и в принципе любой из вышеперечисленной экономик.

При совершенной конкуренции на рынке, компания, которая является конкурентоспособной, соперничает со многими другими конкурентами, предлагающими такой же продукт и обслуживание. Из-за отсутствия дифференциации продукта, цена одинакова для всех конкурирующих компаний [1, с.75].

Как правило, можно предположить, что конкурентоспособность является особенностью тех, кто конкурирует. Наиболее точное определение конкурентоспособности, предложенное Всемирным экономическим форумом в 1994 году, определяет конкурентоспособность как "способность страны или компании создавать большее богатство, чем их конкуренты на мировом рынке" [2, с.45].

По мнению Райзберга Б.А. - конкурентоспособность, связанна с результатами, определяет результаты конкурса, такие как доля рынка, доля продаж наукоемкой продукции и финансовые показатели компании в сравнении с лидерами или компаниями среднего размера [3, с.90].

Конкурентоспособная позиция компании, как многомерная категория, определяется комбинацией факторов, таких как доля рынка, доля основных сегментов рынка, влияние на рынок, масштабы действия, применяемые технологии и технические навыки, а также приспособляемость к новым условиям. Отражением конкурентной позиции компании является ее конкурентное преимущество



[4, с.45].

Подытоживая идею данной работы, нужно сделать тот вывод, что для реализации такого типа экономики как креативная необходимым условием является капитал как материальный, так и человеческий. Такой инновационный фактор, как уровень развития науки зависит, прежде всего, от интеллектуально-образовательного уровня населения, который напрямую связан с имеющимся человеческим потенциалом и уровнем развития человеческого капитала в Узбекистане.

Список используемой литературы:

- 1) Портер М. Конкурентное преимущество: как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость.: пер. с англ. М. Э. Портер. - М.: Альпина Бизнес Букс, 2018 - 715 с.
- 2) Филобокова Л.Ю., Григорьева О.В. Инновационные подходы к управлению конкурентоспособностью малого предпринимательства / Менеджмент в России и за рубежом - М.: Финпресс. -2018. № 4, 560 с.
- 3) Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. - 6-е изд., перераб. и доп. - М. ИНФРА-М, 2017
- 4) Баринов В.А. Стратегический менеджмент: учебник - М.: ИНФРА-М, 2017 - 237 с.



O'ZBEKISTON ERKIN IQTISODIY ZONALARIGA XITOIY INVESTITSIYALARINI JALB ETISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI ("JIZZAX" EIZ MISOLIDA)

Ibragimov Shaxzod Umirzoq o'g'li
(Toshkent davlat sharqshunoslik instituti talabasi)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston erkin iqtisodiy zonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning asosiy yo'nalishlari "Jizzax" EIZ misolida tahlil etilgan. "Jizzax" EIZda joylashgan, xitoy sarmoyalari asosida ishga tushgan "Quyosh issiqlik energiyasi" MCHJ QK faoliyatiga alohida to'xtalib o'tilgan. Shuningek, hamkorlikning kelgusi istiqbollari xususida ham fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy zona, xorijiy investitsiyalar, investitsiyaviy hamkorlik, Xitoy investitsiyalari, investitsiya muhiti, investitsiya loyihasi.

Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tashqi iqtisodiy aloqalarning, birinchi navbatda investiyaviy hamkorlikning ahamiyati katta. Ma'lumki, investitsiya - iqtisodiyotning drayveri, ya'ni harakatlantiruvchi kuchidir. Shuni hisobga olgan holda O'zbekiston hududida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarining asosiy vazifasi sifatida chet el investitsiyalarini kengroq jalb qilish, import o'rini bosuvchi va eksportbop tovarlar ishlab chiqarish belgilangan. Bu borada "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasida ham samarali ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Milliy iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mamlakatimiz hududida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarining o'rni beqiyos. Bugungi kunda yurtimizda 12 ta erkin iqtisodiy zona, 70 ta kichik sanoat zonalarini faoliyat olib bormoqda. Barcha erkin iqtisodiy zonalarda umumiy qiymati 486 mln AQSH dollariga teng 62 ta loyiha amaliyotga tadbiiq etilib, 4600 dan ortiq ish o'rni yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 18-martdagi "Jizzax" maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan ushbu erkin iqtisodiy zona bugungi kunga kelib O'zbekiston iqtisodiyoti rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

"Jizzax" EIZni rivojlantirish va chet el sarmoyalarni jalb qilishning ustuvor yo'nalishlari asosida quyidagi tarmoq korxonalarini joylashtirish mo'ljallangan: elektronika va elektrotexnika, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, qurilish materiallari, kimyo, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, farmasevtika.

"Jizzax" EIZda Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Koreya Respublikasi, Xitoy, Hindiston singari davlatlar bilan investitsion loyihalar amalga oshirilgan. Muvaffaqiyatli investitsiya loyihalarining umumiy soni 16 tani tashkil etadi.

Erkin iqtisodiy zonada xorijiy mamlakatlar, xususan, xitoylik investorlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlar alohida ahamiyat ega.

"Jizzax" erkin iqtisodiy zonasida Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan investitiya loyihalari

T/r	Investitsiya loyihasi nomi	Faoliyat yo'nalishi	Loyiha qiymati, mln. AQSH dollari	Yaratilgan ish o'rni soni
1.	"Quyosh issiqlik energiyasi" MCHJ QK	yangi avlod quyosh texnologiyalari	3,3	17
2.	"Yorqin chiroqlar" MCHJ QK	svetodiod lampalar	2,5	45



3.	“ZTT Telekom” MCHJ QK	axborot- kommunikatsiya texnologiyalari	0,5	15
4.	“Broandband Solution” MCHJ QK	telekommunikatsiya asbob-uskunalari	3,1	17
5.	“Smart Vision” MCHJ QK	video va IP-telefon apparatlari	1,0	11
6.	“Mingyuan Silu Industry” MCHJ QK	dekorativ oy-nalar	28,9	200

Erkin iqtisodiy zona hududida faoliyat ko`rsatayotgan O`zbekiston-Xitoy qo`shma korxonalar mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishiga, ishlab chiqarish va eksport salohiyatining oshishiga o`z hissasini qo`shib kelmoqda. "Quyosh issiqlik energiyasi" MCHJ QK misolida aytadigan bo`lsak, ushbu korxonalar yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi avlod quyosh isitish tizimlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Bu ekologik jihatdan toza, iqtisodiy jihatdan tejamkor texnologiya hisoblanadi.

Kelgusida erkin iqtisodiy zonada quyoshdan elektr energiyasi olish uchun quyosh panellari, gelioqurilmalar ishlab chiqarish va bu orqali O`zbekistonda ham noan`anaviy va zamonaviy elektr energiya yo`nalishini yo`lga qo`yish ustuvor yo`nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada Xitoy boy tajribaga, ulkan salohiyatga ega ekanligini ta`kidlashimiz lozim.

"Jizzax" EIZ joylashgan hudud qulay iqtisodiy geografik o`ringa, boy tabiiy resurslarga va malakali ishchi kuchiga ega. Shuni inobatga olgan holda bu yerga Xitoy investitsiyalarini jalb etishni yanada kengaytirish, bu boradagi hamkorlikning yangi yo`nalishlarini yo`lga qo`yish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Состояние и перспективы развития свободных экономических зон в Республике Узбекистане. Аналитический доклад. -Т.: 2015.

2. Jo`rayev A. Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish. Bitiruv malakaviy ish. -Т.: TMI, 2013.

3. Karimov D. O`zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish istiqbollari. Magistrlik dissertatsiyasi. -Т.: TMI, 2018.

Internet saytlari:

www.mift.uz - O`zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi ssavdo vazirligi rasmiy sayti

www.mift.uz - O`zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi ssavdo vazirligi rasmiy sayti ma`lumotlari



IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KORXONA INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Niyozov Ma'ruf
TATU asisenti
Ibragimova Nargiza
TATU 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarining investitsion faoliyati qanday yuritilishi, ishlab chiqarish sohasida yuz berayotgan investitsiyalar, iqtisodiy sahohiyatni rivojlantirish, investitsiyalar faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Investitsiya, sertifikat talablari, investitsiya memorandumini.

Korxonalar xo'jalik yuritish va ishlab chiqarish faoliyatining muhim jihatlaridan biri ishlab chiqarish va iqtisodiy sahohiyatni rivojlantirish va saqlab qolishdir. Korxonalarining bu yo'nalishdagi faoliyati investitsion faoliyat deb ataladi hamda investitsion faoliyat to'g'risidagi qonun va boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Investitsiyalarni takomillashtirish va ulardan foydalanish, mamlakat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsion siyosati asosida amalga oshiriladi. Bu siyosat birinchidan, kapital qo'yilmalarning ustuvor yo'nalishlarini, ikkinchidan, ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri joylashtirish va rivojlantirish, uchinchidan, fan-texnika taraqqiyoti va butun iqtisodiyotning rivojlanishini belgilab beradi. Investitsiya loyihasi kapitalni, korxonani, uning ishlab chiqarish quvvati va boshqa sifat ko'rsatkichlarini kuchaytirish maqsadida rivojlantirish va kengaytirishga kiritishni rejalashtirish bo'yicha chora tadbirlar majmuasidir. Investitsiya loyihasi tayyorlash va amalga oshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- investitsiyaviy g'oyani shakllantirish;
- g'oyaning dastlabki asoslanishi;
- loyihada ko'zda tutilgan texnik qarorning taxlili;
- sertifikat talablarining bajarilishini tekshirish;
- investitsiya loyihasi bo'yicha davlat boshqaruv idoralari bilan kelishuvni yuzaga keltirish;
- axborot memorandumini tayyorlash;

Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mustaqilligini ta'minlash bilan bir qatorda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish taraqqiyotimizning muhim tamoyillaridan biri bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, ijtimoiy sohaning rivoji bilan bog'liq masalalarni yechish noishlab chiqarish sohasi tarmoqlari zimmasiga yuklatilgan. Oxirgi yillarda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik yo'nalishdagi taraqqiyoti noishlab chiqarish sohasi rivojining tezlashuviga olib keldi. Mamlakatimizda ham bu sohada investitsiyalarning o'sishi kuzatilmog'da. 2014 yilda jami investitsiyalarning 73 foizi ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan. Jumladan, qariyb 40 %i mashina va uskunalarni harid qilishga sarflandi. 2014 yilda Investitsiya dasturi doirasida moliyalashning barcha manbalari hisobidan umumiy qiymati qariyb 2 milliard 700 million dollardan iborat bo'lgan 150 ta ishlab chiqarish yo'nalishidagi loyihani amalga oshirish ishlari nihoyasiga yetkazildi. Bular qatorida Toshkent issiqlik elektr markazida kogeneratsion gaz turbinali texnologiyani joriy etish;

Janubiy O'rtabuloq - Muborak gazni qayta ishlash zavodi gaz quvurini va kompressor stansiyasini barpo etish orqali Somontepa va Janubiy O'rtabuloq konlarini to'liq jihozlash;

"Angren" konini modernizatsiya qilish orqali Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasining 1-5energiya bloklarini yil davomida ko'mir bilan ishlashga o'tkazish;

"Angren" maxsus industrial zonasi hududida "Ohangaron" podstansiyasini rekonstruksiya qilish, "Bekobodssement" ochiq aksiyadorlik jamiyatida yangi liniya qurish hisobidan faoliyat ko'rsatayotgan ssement ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish, Quyuv-mexanika zavodi sho'ba korxonasida metall quyishni rekonstruksiya qilish va boshqa yirik loyihalar borligini alohida qayd etish lozim. Bundan tashqari, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash bo'yicha qabul qilingan bir qator davlat dasturlari, aholining munosib turmush darajasini ta'minlashga qaratilgan hukumat tadbirlari ijtimoiy sohaning isloh qilinishiga olib keldi, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan minglab binolarning qurilishini taqozo etmog'da.

Boshqaruv faoliyatiga investitsiyalarni jalb qilish samaradorligining shakllanishining nazariy asoslari va kontseptsiyasi, ularning bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos javob beradigan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini



ko'rib chiqish, korxonalarda boshqarishning asosiy kontseptsiyasiga asoslangan boshqaruv tizimlarining samarali amal qilishiga olib keladi. Ushbu kontseptsiya uslubiy yondashuv nuqtai-nazaridan o'zini oqlagan hisoblanadi, zero boshqaruvni isloh etishning butun yo'li sanoat qurilishining samarali amal qilishiga ham yo'naltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. F.Egamberdiyev, S. Topildiyev, J. Hamroqulov. Iqtisodiyot nazariyasi.
2. "Iqtisodiyot- Moliya", 2014. 15. M. Yo'ldoshev, Sh.Mamatqulov, F. Yo'ldoshev Iqtisodiyot nazariyasi.
3. "Ilm Ziyo", 2014. 16.



ТОЁЛИ ХУДУДЛАРДА АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИНИНГ СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ

Мухитдинов Шохижохон Худоёр ўғли

**Мухаммад ал-Хоразимий номидаги Тошкент ахборот технологиялари унверситети Қарши филиали
"Ахборот технологиялари сервиси" кафедраси ассистенти**

Аннотация: Мақолада тоғли ҳудудларда аҳолига хизмат кўрсатиш соҳасини такомиллаштириш орқали аҳоли бандлигини таъминлаш билан боғлиқ масалалар ёритилган. Унда Қашқадарё вилояти тоғли ҳудудлар аҳолисининг турмуш шароитини ошириш ва ижтимоий ривожлантириш мақсадида тизимли таҳлил қилишнинг айрим йўналишлари кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: Турмуш даража, турмуш сифати, фаровонлик, моддий ва номоддий бойликлар, ижтимоий тенглик, бандлик даражаси ва хизмат кўрсатиш.

Ҳозирда халқаро иқтисодий алоқаларнинг кўлами ва таркиби илмий-техника тараққиёти туфайли такомиллашиб, хизмат кўрсатиш соҳасида янги тизимлар шаклланишига омил бўлмоқда. Бу ўзгаришлар янги шаклланаётган хизмат кўрсатиш жараёнларида, ўзига хос ва мураккаб вазифаларнинг ҳал қилинишига боғлиқ эканлигини кўрсатмоқда. Шу боис хизмат кўрсатиш соҳасини ҳудуднинг ижтимоий-иқтисодий вазиятидан келиб чиқиб, янги ёндошувлар асосида тадқиқ қилиш талаб этилади.

Қашқадарё вилоятида аҳоли жойлашувини эътиборга олган ҳолда хизмат кўрсатиш соҳасини такомиллаштиришда, аҳоли яшаб турган ҳудудлар алоҳида ўрин тутди. Айниқса аҳоли гавжум яшаётган тоғолди (юқори) ҳудудлар. Буларга Китоб, Шаҳрисабз, Яккабоғ, Деҳқонобод туманлари ҳамда Чироқчи ва Қамашти туманларининг бир қисми киради.

Мазкур ҳудудларда ичимлик суви табиий ҳолда, яъни булоқ сувлари билан таъминланган. Ер-сув ва табиий ресурсларнинг мавжудлиги. Бу аҳолига хизмат кўрсатиш даражасини ошириш ва турмуш шароитини яхшилашда катта аҳамиятга эга. Тоғли ҳудудларда қишлоқ хўжалик маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг ўзига хос хусусиятлари. Бу шундан ибаротки, вилоят чорвачилик маҳсулотлари етиштиришда ҳам юқори кўрсаткичларга эга. Шунга қарамадан, вилоят тоғли ҳудудлари аҳолисининг турмуш шароити бошқа ҳудудларга қараганда сезиларли даражада паст. Айниқса газ билан таъминланганлик даражаси жуда паст, шу сабабли ёқилги муаммосини дарахтларни кесиб, ўзларини таъминлаб ҳал қилмоқдалар. Бу экологиянинг бузилишига катта таъсир кўрсатади. Ҳозирги вақтда электр энергияси танқислиги яққол кўриниб турибди. Бу ҳудудларда ёгингарчилик кўп бўлганлиги сабабли транспорт йўллари талаб даражасида эмас.

Жаҳон иқтисодиётининг бугунги тараққиёти транспорт соҳаси ва транспорт хизмати кўрсатиш тизимини ривожлантиришни тақозо этади. Ривожланган давлатлар тажрибасида тоғли ҳудудлар транспорт хизматларини ривожлантиришнинг услубий асосларини такомиллаштириш йўналишларини аниқлаш, транспортда хизмат кўрсатишнинг меъёрий-ҳуқуқий асосларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш бўйича қатор илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Мазкур жараёнда транспорт хизматлари кўрсатишнинг таъсирини аниқлаш, транспорт хизматларини ривожлантириш моделини ишлаб чиқиш ҳамда унинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш масалаларига алоҳида эътибор қаратиш ҳозирги куннинг долзарб масаласи ҳисобланади.

Мустақиллик йилларида республикада иқтисодиёт тармоқларини модернизация ва диверсификация қилиш, инновацион ривожлантиришга қаратилган ислохотлар натижасида транспорт хизматлари кўрсатиш соҳаси янги босқичга кўтарилди. Республикада транспорт хизматлари соҳасини, "...транспорт-логистика инфратузилмасини янада ривожлантириш, кўрсатилаётган хизматлар сифатини ошириш..." вазифаси белгиланди. Мазкур вазифаларнинг бажарилиши транспорт хизматларни кўрсатишни инновацион ривожлантириш учун қатор ташкилий-иқтисодий механизмларни, жумладан мавжуд транспорт хизматлари бозори конъюктурасини иқтисодий асослаш, транспорт хизматлари кластерини шакллантириш, тоғли ҳудудларда транспорт хизмат кўрсатиш соҳасининг институционал асосларини ривожлантиришга асос яратиш зарурлигини кўрсатмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида" ПФ-4947-сонли Фармони, 2017 йил 10 январдаги "Аҳолига транспорт хизмати кўрсатиш ҳамда шаҳарлар ва қишлоқларда автобусларда



йўловчилар ташиш тизимини янада такомиллаштириш чора тadbирлари тўғрисида” ПҚ-2724-сонли қарори, 2017 йил 2 декабрдаги “2018-2022 йилларда транспорт инфратузилмасини такомиллаштириш ва юк ташишнинг ташқи савдо йўналишларини диверсификациялаш чора тadbирлари тўғрисида” ПҚ-3422-сонли қарори ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда муайян даражада хизмат қилади.

Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳаларининг ривожланиши, албатта, аҳолининг талаб ва эҳтиёжларига қараб ошади, аммо таклиф қилиш жараёни талаб даражасида эмас. Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳалари қай даражада бўлиши меҳнат унумдорлиги ошиши ёки пасайишига асосий омил сифатида намоён бўлмоқда. Аҳоли турмуш шароитини оширишда, авваламбор, тоғли ҳудудларда доривор ўсимликларни қайта ишловчи кичик корхоналар, ўз-ўзини таъминлайдиган электр энергияси ишлаб чиқарувчи қурилмалар қуриш лозим. Булар, ўз навбатида, транспорт хизматини яхшилаш билан боғлиқ. Аҳолига хизмат кўрсатиш даражасини ошириш аҳолини иш билан таъминлайди, хизмат кўрсатиш соҳаларини ривожлантиришга катта таъсир кўрсатади, аҳолининг бандлигини таъминлайди ва ишлашга бўлган ғайратини янада оширади.

Бунинг учун ҳудудда иш уринларига бўлган эҳтиёжни доимий равишда қондириб бориш лозимдир. Тоғли ҳудудларда куйидаги йўналишларда иш олиб бориш мақсадга мувофиқ:

1. Кичик корхоналар ва микрофирмалар ташкил этиш, шахсий якка тadbиркорликни ривожлантириш.

2. Янги замон талабига жавоб берадиган ва ҳудуд учун эҳтиёжи бор объектларни қуриш ва ишга тушириш.

3. Фермер ва дехкон хўжалиқларини ривожлантириш, ҳудудга мос мос тadbиркорик тизимларини яратиш.

4. Касаначилик ва уй хужалигида тadbиркорликни ривожлантириш.

5. Ҳудудда сервис соҳасига алоҳида аҳамият бериш ва унинг энг кичик элементларидан бошлаб ташкил қилиш ва аҳолининг турмуш даражасининг ошиши билан сервисга булган эҳтиёжларни ҳисобга олган ҳолда иш тутиш.

Келажакда тоғли ҳудудларда сервис соҳасини ривожлантириш аҳолининг даромадларини купайтириш, турмуш даражасини оширишнинг ута муҳим бўлган аҳолининг бандлик масаласининг ҳам хал бўлишини таъминловчи муҳим омиллардан биридир.

Қашқадарё вилоятида 2018 йил ва 2017 йилда кўрсатилган хизматларнинг туманлар кесимида кўрсаткичлари. 1 -жадвал

№	Шаҳар ва туманлар	Жами кўрсатилган хизматлар		Ўсиш суръати %	Кичик тadbиркорлик субъектлари томонидан кўрсатилган хизматлар		Ўсиш суръати %	Аҳоли жон бошига
		2018 йил (млрд. сўмда)	2017 йил (млрд. сўмда)		2018 йил (млрд. сўмда)	2017 йил (млрд. сўмда)		
	Вилоят бўйича	6975,9	5859,3	119,1	4897,9	4228,0	115,8	2193,1
1	Қарши ш.	3724,3	3026,5	123,1	1852,3	1579,0	117,3	13824,5
2	Шаҳрисабз ш.	210,3	178,2	118,0	191,0	164,2	116,3	1547,4
3	Ғузур	238,6	212,3	112,4	217,0	185,9	116,7	1208,1
4	Дехқонобод	142,1	124,9	113,8	140,0	122,6	114,2	999,5
5	Қамаш	224,1	194,4	115,3	220,0	193,2	113,9	854,8
6	Қарши т.	237,1	209,9	112,9	229,8	201,6	114,0	991,5
7	Косон	371,4	324,7	114,4	364,4	320,4	113,7	1348,9
8	Касби	132,6	118,2	112,2	130,1	112,7	115,4	698,5
9	Китоб	303,3	257,4	117,8	289,3	251,3	115,1	1182,1
10	Миришкор	111,9	97,0	115,4	108,0	96,0	112,5	967,4
11	Муборак	276,7	238,4	116,1	175,2	151,7	115,5	3297,7
12	Нишон	169,8	148,1	114,7	166,8	146,4	113,9	1156,4
13	Чирокчи	266,6	230,9	115,5	265,7	230,0	115,5	675,2
14	Шаҳрисабз	316,2	278,8	113,4	302,9	256,8	118,0	1460,7
15	Яккабоғ	250,9	220,1	114,0	245,2	216,3	113,4	983,6



1-жадвалдан кўриш мумкинки, вилоятда хизмат кўрсатиш соҳасини таҳлил қилсак, туманлар кесимида олганда аҳоли жон бошига тўғри келадиган хизматлар орасидаги тафовут сезиларли даражада.

Вилоятда оилалар тузилмаси юқори даражадаги боқимандалик кўрсаткичи билан тавсифланади, зеро, оиладаги бир нафар ишлайдиган аъзога шаҳар жойларида ўртача 2,8 нафар, қишлоқ жойларида эса 3,4 нафар ишламайдиган аъзо тўғри келади. Энг юқори даражадаги боқимандалик кўрсаткичи таркибида бир нафар ишлайдиган аъзога ўртача 4 нафар тобе аъзо (улардан 3,5 нафари болалар) тўғри келадиган кам даромадли оилаларда қайд этилмоқда. Аҳолининг 55,1 фоизи меҳнатга лаёқатли ёшдагилар гуруҳига мансуб бўлиб, 39 фоизи меҳнатга лаёқатли ёшдан кичик ёшдагилар, 5,9 фоизи шу ёшдан катта ёшдагилардир.

Вилоятнинг тоғли ҳудудлари бўлган яккабоғ, Шаҳрисабз, деҳқонобод туманларида хизмат кўрсатишда тафовут жуда катталигини кўришимиз мумкин.

Масалан аҳоли жон бошига тўғри келадиган хизматлар Қарши шаҳрига 13824,5 минг сўмни ташкил қилса, яккабоғ туманида 983,6 минг сўмни ташкил қилапти.

Аҳолининг Қашқадарё ҳудуд бўйича тақсимланиши номуносивдир. Энг катта қисми аҳоли нисбатан гавжум бўлган шарқий Қашқадарёда яшайди. Ундан кичикроқ, аммо нисбатан салмоқли қисми - бошқа ҳудудларга қараганда кам таъминланган марказий Қашқадарёда истиқомат қилади. Энг кам аҳоли гарбий Қашқадарёда яшайди ва вилоятнинг ушбу қисмида истиқомат қилаётган одамларнинг аксарияти Муборак туманида жамланган.

Мазкур соҳанинг аҳолини иш билан бандлигини таъминлаш ва ялпи ички маҳсулотни яратиш борасида муҳим аҳамият касб этишига қарамай, қишлоқ хўжалигига йўналтирилаётган сармояларнинг умумий инвестициялар ҳажмидаги улуши ҳали ҳам жуда кичик миқдорни (тахминан 5 фоизни) ташкил қилмоқда. Ирригация ва дренаж тизимларига ажратилаётган инвестициялар миқдорининг етарли даражада эмаслиги қишлоқ хўжалиги соҳасидаги кейинги ўсишга жиддий тўсқинлик қилмоқда.

Вилоятда, асосан, саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришга эътибор қаратиляпти. Умуман олганда, вилоятда нафақат газ саноати ва пахта билан боғлиқ соҳалар, балки бутун иқтисодиётни ҳар томонлама ривожлантириш ва ички бозор учун халқ истеъмоли моллари ишлаб чиқариш секторига кўпроқ эътибор берилляпти.

Вилоятда амалга оширилиши мумкин бўлган стратегиялардан қуйидаги йўналишлар эътиборга лойиқ: қишлоқ хўжалиги, ишлаб чиқариш ва замонавий хизматлар кўрсатиш соҳалари. Вилоятни бир-биридан фарқ қиладиган учта ижтимоий-иқтисодий ҳудудга бўлиш мумкин:

1. Юқори-марказий қисми (Шаҳрисабз, Китоб ва Қарши шаҳри) аҳолининг катта қисми яшайдиган ҳудуд бўлиб, вилоят бўйича энг юксак иқтисодий салоҳият ва энг яхши ижтимоий кўрсаткичларга эгадир. Мазкур ҳудуд унумдор ерлар, боғлар, сув манбалари, тарихий обидалар, хуш манзарали тоғлар, юқори ва ўрта малакали меҳнат ресурслари, ривожланган агросаноатга эга бўлиб, бу ерга катта миқдорда пул ўтказмалари келиб тушмоқда. Шу сабабли мазкур ҳудуд мавжуд ресурслардан унумли фойдаланиш борасида самарали рағбатлар ва қулай имкониятлар яратишга қаратилган сиёсатнинг амалга оширилишидан катта фойда кўриши мумкин.

2. Марказий қисм (Қарши, Деҳқонобод, Ғузор, Қамашчи ва бошқа туманларни олади) салоҳияти нуқтаи назардан ҳам, ижтимоий ривожланиш нуқтаи назардан ҳам пастроқ кўрсаткичларга эга. Қашқадарё вилояти марказий қисмидаги (гарбий ҳудудларининг аксарият қисмидаги) кўпгина ҳудудлар- суғорилмайдиган, мелиорация қилинган ерлардир. Бу ерларда қишлоқ хўжалигининг қурғоқчиликка заифлиги юқори даражада бўлиб, яйловларнинг жиддий тупроқ (шамол) эрозиясига олиб келадиган ҳолатлар учраб туради, эски инфратузилмага қониқарсиз хизмат кўрсатилиши ва ирригация тизимига янги инвестицияларнинг етишмаслиги асосий экинлар ҳосилининг пасайишига ва чорва маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмининг камайишига олиб келмоқда.

3. Аҳолиси тахминан 70 минг нафар кишини ташкил қиладиган гарбий қисм (Муборак тумани) Муборак шаҳри, 32 та қишлоқ ва 21 та маҳалладан иборат. Ушбу ҳудуд аҳоли сийрак жойлашганлиги билан ажралиб туради, шу билан бирга, у меҳнат унумдорлиги, аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромадлар, бандлик кўрсаткичлари, сув (97%) ва газ (86%) билан таъминланганлик даражасининг юқорилиги ҳамда ижтимоий ривожланиш кўрсаткичларининг ижобийлиги билан тавсифланади. Албатта, бу ҳудудда ҳам айрим оилалар кам таъминланган оилалар тоифасига киради, аммо туман раҳбарияти уларга ишлаб чиқаришда иштирак этиш учун шароит яратиб бериш(тикув машиналари, чорва моллари ва ҳоказоларни) орқали аҳолининг даромад олиш имкониятларини кенгайтириш бўйича фаол чора-тадбирларни амалга оширмоқда. Муборак туманининг энг катта бойлиги "Муборакнефтваз" томонидан ўзлаштирилаётган газ конларидир. Йилига тахминан 36-38 миллиард кубометр газ қазиб чиқараётган бу корхона ва фирмаларнинг ишлаб чиқариш ҳамда хизмат кўрсатиш борасидаги имкониятларини кенгайтирган ҳолда аҳолининг иш билан бандлигини ҳам бевосита,



ҳам билвосита таъминланиб келмоқда. Шунингдек, мазкур туманда газ саноатининг хом-ашёсини қайта ишлашга ихтисослашган янги завод ҳам барпо этиш режалаштирилган. Йирик нефть газ қазиб чиқариш корхонасидан ташқари ушбу ҳудудда ёнилғи-энергетика соҳасида қатор корхоналар фаолият юритмоқда.

Мазкур ҳудуд вилоятнинг бошқа қисмлари иқтисодий-ижтимоий кўрсаткичлари ҳамда аҳолининг турмуш даражасини кўтаришда муҳим роль ўйнаши мумкин. Зеро, бу ерда вилоятнинг бошқа жойларида яшаб, мазкур туманда маҳаллий саноат ва хизмат кўрсатиш соҳаларида ишлаши мумкин бўлган қўшимча мигрантларни иш билан таъминлаш имкониятлари мавжуд. Шунингдек, мазкур ҳудуд давлат бюджетига нисбатан донор вазифасини бажаради, чунки газ учун рента тўловининг 97 фоизи ва газ саноатида банд бўлганлар томонидан тўланаётган даромад солигининг (яъни, катта миқдордаги маблағ) 50 фоизи давлат бюджетига ўтказилади. Ана шу солиқларнинг вилоятда қоладиган қисмини бироз бўлса-да кўпайтириш орқали катта миқдордаги ресурсларни бўшатиб олиш имкони қўлга киритилади. Ушбу ресурсларни вилоятнинг энг кам таъминланган ҳудудларида махсус дастурларни амалга оширишга йўналтириш ёки вилоятнинг бошқа жойларида аҳоли бандлигини яхшилашга реинвестиция қилиш мумкин бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Қашқадарё вилояти Статистика бошқармасининг маълумотлари, 2004–2018 йиллар.
2. Джуманова Р. Ўтиш иқтисодиёти мамлакатларида аҳоли турмуш даражасини ошириш йўллари. \\ Иқтисодиёт ва таълим. - 2007., № 3. -Б. 14
3. Вышегородцев М.М. Уровень жизни как фактор развития человеческого капитала. -М.: Диалог-МГУ, 2009.-С.27.
4. Абдураҳманов Қ.Х., Абдураманов Х.Х. Аҳоли турмуш тарзи ва даромадлари. Ўқув қўлланма.-Т.: ТДИУ, 2010, -Б.15.



BOZOR IQTISODIYOTIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH, INNOVATSION JARAYONLARNI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Nabijonov Otabek Ganiyevich, Samatov Feruz Fazlidin o'g'li
Toshkent Temiryo'l muhandislari instituti talabalari

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasini innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasida jamiyat va davlat hayotini har tomonlama rivojlantirishga, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshiradi. Innovatsion faoliyatni uning samaradorligi indikatorlari asosida baholaydi, ilg'or texnologiyalarni birinchi darajada joriy etish talab qilinadigan tegishli tarmoq va sohalarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish masalalari bo'yicha davlat boshqaruvi organlari, ilmiy-tadqiqot va axborot-tahlil muassasalari hamda boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirmasdan qollamaydi.

Kalit so'zlar: modernizatsiyalash, innovatsion tizim, investitsiya, biznes va boshqaruv, motivatsiya, raqobat, tavakkalchilik, korxonalar, patent va litsenziya va boshqalar.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash borasidagi sa'y-harakatlarning yanada kuchaytirilishi, bozor iqtisodiyotida innovatsioning tutgan o'rni, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion jarayonlar uzluksizligini ta'minlash va ko'lamini oshirish bilan tavsiflanadi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida O'zbekistonning innovatsion faoliyati davlat tomonidan samarali va izchil amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy va faol investitsiya siyosati, rivojlangan xorij tajribasi hamda investitsion muhitni yanada jozibadorligini oshirish mexanizmlariga bog'liq hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan ham qadam bo'lolmaymiz", degan edilar. Iqtisodiyotni rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar muhim hisoblanadi. 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish nazarda tutilgan.

Ushbu yo'nalishda quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan:

- iqtisodiyotning ochiqligi va raqobatbardoshligini oshirish;
- iqtisodiy mustaqillikni rivojlantirish;
- makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash;
- yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;
- moliya-bank sohasini isloh etish;
- tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish;
- xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish.

Innovatsion jarayonlarni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

Omillar	Innovatsion faoliyatni rivojlantiruvchi omillar	Innovatsion faoliyatga to'sqinlik qiluvchi omillar
Siyosiy	Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati, erkin iqtisodiyotni shakllanishi, milliy innovatsion tizimni rivojlanishi	Tadbirkorlik faoliyatidagi byurokratik to'siqlar, xususiy mulkchilikni davlat tomonidan kafolatlanish tizimini to'la shakllanmaganligi, siyosiy beqarorlik



Huquqiy	Intellectual mulk ob'ektlarini himoya qilish tizimi, mualliflik huquqlarini himoya qilinganlik darajasi	Patent va litsenziya berish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlaridagi kamchiliklar
Iqtisodiy	Innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik sub'ektlarni rag'batlantirish	Innovatsion bozorlarda raqobatning keskinlashuvi, innovatsion faoliyatni amalga oshirishda iqtisodiy tavakkalchilik va xavfning yuqoriligi
Texnologik	Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilmiy-texnik yutuqlarga erishish, yuqori texnologiyani joriy qilish	Moddiy, ilmiy-texnik va zamonaviy laboratoriya jihozlarini etishmasligi, korxonalarining asosiy vositalarini ma'naviy eskirganligi
Ijtimoiy	Ta'lim muassasasi moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash, ishlab chiqarish talablari va jamiyatning rivojlanish darajasiga javob beruvchi, sifatli kadrlarni tayyorlash	Jamiyatda ilg'or g'oyalarni shakllantirish hamda fan va texnikaning rivojlanishini zamon talablariga uyg'unlashtiradigan vositalar hamda globalizatsiya jarayonlariga moslashtirishdagi muammolar
Tashkiliy	Mamlakatning ilmiy va ilmiy-texnik salohiyatini oshirish chora-tadbirlarini belgilash va amalga oshirish	Fan, texnika, iqtisodiyot, biznes va boshqaruvni birlashtiruvchi innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish jarayonlarini sustligi, ilm talab tarmoqlar uchun mutaxassislarni tezkor tayyorlashni ta'minlovchi yangi dasturlarni yetishmasligi
Boshqaruv	Innovatsion, motivatsion, iqtisodiy, tashkiliy-ma'muriy qismlarni o'z ichiga olgan milliy, hududiy hamda iqtisodiyotning ustuvor sohalarni innovatsion rivojlantirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish	Innovatsion menejment ixtisosligi bo'yicha kadrlarni tayyorlash va ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlarni amaliyotga tatbiq etishdagi muammolar

mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan innovatsion siyosatni olib borish bo'yicha belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan samarali strategik maqsadlarni belgilab olishga yordam beradi. Iqtisodiyotda Innovatsion faoliyat boshqaruvi to'xtovsiz, to'ldiruvchan va murakkab



jarayon bo'lib, u doimiy rivojlanishda, yangi imkoniyatlar va vaziyatlarni vujudga keltiruvchi muxim vosita bo'lib xisoblanadi. Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, har bir sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyatini tashkil etilsa va chet el tajribalariga tayangan holda viloyatdagi sanoat korxonalarida ish olib borilsa albatta bu kelajakda o'z samarasini beribgina qolmay aholi turmush darajasini birmuncha rivojlanishiga ham olib keladi va raqobatbardosh mahsulotlar turini ko'payishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahon iqtisodiyot va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. A.V. Vaxabov
2. Iqtisodiyot nazariyasi. B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov; Toshkent-2017.



YASHIL IQTISODIYOT BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHNING ASOSI

Suvonov Bekniyoz va Mo'minova Shaxribonu
O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi magistrantlari

Zamonaviy sharoitda yashil innovatsion texnologiyalardan, energiyani tejash va alternativ energiya manbalaridan, ekologik rivojlanish va ekologik qurilishdan foydalanishga asoslangan yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishning yangi yo'nalishi hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot" iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga, odamlarning farovonligini oshirishga, atrof-muhitga antropogen bosimni oshirmasdan ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga qodir. Yashil qurilish mavzusida ilmiy nashrlarning ko'payishiga qaramay, mintaqalarning investitsion jozibadorligi, ularning ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlari darajasi va yashil qurilishning rivojlanishi o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish masalalari hal qilinmayapdi. Ko'pgina tadqiqotchilar ekologik taraqqiyotning rivojlanishi, ekologik-iqtisodiy ko'rsatkichlar va investitsion jozibadorlik darajasi o'rtasida bog'liqlik borligi haqidagi potezailgari suradilar.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichi, ekologik tanazzul bilan birga, iqtisodiy rivojlanishning yangi turini shakllantirishni, iqtisodiyotning yangi "yashil" yo'nalishini ishlab chiqishni taqozo etadi. Dunyoda urbanizatsiyaning o'sishi bilan inson faoliyati natijasida atrof-muhitga qaytarib bo'lmaydigan zarar etkazilmoqda. Urbanizatsiya siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sabablarga ko'ra davom etmoqda. Shahar aholisining ko'payishi shaharlarning ko'payishiga, va shunga mos ravishda tabiatga zararli ta'sir ko'rsatadigan iste'mol qilinadigan resurslar hajmining ko'payishiga olib keladi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (OECD) prognozlariga ko'ra, zamonaviy ishlab chiqarish usuli va iste'moli darajasi bilan, 2050-yilga kelib 2000-yilga nisbatan o'simlik va hayvonot dunyosining 61-72 %ini yo'qoladi va tabiiy hududlarning 7,5 mln. kv. km. ga teng qismi qayta tiklanib bo'lmaydigan holatga kelib qoladi.

Bugungi kunda xalqaro hujjatlarda "yashil iqtisodiyot", yashil qurilish, ekologik rivojlanish, "yashil" innovatsiyalar atamaları, ya'ni atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatadigan eng yangi texnologiyalar, shu jumladan bioyoqilg'i, alternativ energiya, energiya samaradorligi tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

Yashil iqtisodiyot aksiomalari 1-rasmda keltirilgan.

1-rasm. Yashil iqtisodiyot aksiomalari

"Yashil iqtisodiyot" atamasi birinchi bo'lib Edward Barbier va Anil Markandyalarning "A New Blueprint for a Green Economy" asarida iqtisodiy o'sish va investitsiyalarning o'sishiga, odamlarning farovonligini oshirishga, atrof-muhitni va ijtimoiy integratsiyaga olib keladigan iqtisodiyotni tavsiflash uchun ishlatiladi. Yashil iqtisodiyotning muhim xususiyatlari 2-rasmda keltirilgan.

2-rasm. Yashil iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari



"Yashil" qurilish yashil iqtisodiyotning vositasidir.

Green Building ("yashil" qurilish) innovatsion energiya tejaydigan va ekologik toza qurilish sifatida quyidagi printsiplarga asoslanadi:

- qayta tiklanadigan manbalardan oqilona foydalanish;



- qurilish loyihasi, uni qurish, foydalanish va buzilish jarayonida atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirish;

- odamlar uchun qulay mikroiklimni yaratish.

Yashil qurilish, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olganda, shuni ta'kidlash kerakki, yashil qurilish "inson hayotining ekologik muammolariga oqilona yechim topishga qaratilgan faoliyat sifatida" barqaror iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasining barcha qoidalarini amalga oshirishni ta'minlaydigan yashil iqtisodiyotning vositalaridan biridir.

Yashil qurilish ob'ektni qurish joyida hududni saqlash va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ekologik komponentdir.

Yashil qurilish mahsulotlarning sifatiga yangi talablarni qo'yadi, shu jumladan zararli moddalarni chiqarmaydigan, xavfsiz qurilish materiallaridan foydalanish xodimlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi ijtimoiy komponentdir.

Yashil qurilish kelajakda iqtisodiyot samaradorligining o'sishiga hissa qo'shishi iqtisodiy komponentdir.

Zamonaviy nashrlarda yashil iqtisodiyotning roli va ahamiyatiga katta e'tibor beriladi. Ularning tahlili asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin. Misol uchun, yashil iqtisodiyot O'zbekistonda uzoq muddatli sarmoyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tendentsiya hisoblanadi. Ushbu sohani rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash O'zbekistonda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator yirik siyosiy islohotlar bilan bog'liq bo'lib, bu so'nggi o'n yilliklarda gaz va elektr energiyasining narxлари oshishi bilan belgilanadi. O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot ko'pincha ko'chmas mulk bozorida va yashil qurilishdagi vaziyat nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. O'zbekistonning yashil qurilish bozorida talab taklifni keltirib chiqarmaydi, ammo taklif talabning paydo bo'lishiga olib keladi.

O'zbekistonda yashil qurilish va ekologik rivojlanish tahlili.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda energiya tejamkor uylar barpo etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi, Global ekologik fondi va O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining "O'zbekiston Respublikasining qishloq joylarda energiya samarador uy-joylar qurilishini rivojlantirishga ko'maklashish" qo'shma loyihasi doirasida 2019-yilda tajriba tariqasida 800 ta kam uglerodli qishloq uylari qurilishi rejalashtirilgan.

Bunday uylarning narxi energiya tejamkor uylarga nisbatan 7 %gacha yuqori bo'lishi mumkin, ammo ular energiya sarfini 25,1 %gacha kamaytirishga imkon beradi. Chunki, ular elektr tarmog'idan mustaqil ravishda ishonchli elektr bilan ta'minlanadi.

Xulosa

Tahlil shuni ko'rsatdiki, innovatsion bino va inshootlarni qurish uchun investitsiya manbalarini jalb qilish nafaqat mintaqadagi ekologik vaziyatga, balki uning investitsion jozibadorligiga ham bog'liqdir. "Yashil" standartlar bo'yicha sertifikatlangan binolarning mavjudligi bino/inshoot yaratish yoki uni qayta qurish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirishni ta'minlaydigan qurilishning innovatsion yondoshuvi sifatida ekologik rivojlanishga turtki beradi. Bu, shuningdek, ekologik talablarni, innovatsion texnologik sxemalarni va ekologik toza texnologiyalarni hisobga olgan holda qurilish xarajatlarining oshishiga olib keladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda innovatsion bino va inshoot qurish uchun joy tanlash faqat mintaqaning investitsion jozibadorligi bilan belgilanadi.

Yashil standartlar bo'yicha sertifikatlangan bino va inshootlar sonining ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlarga bog'liqligi tahlili innovatsion qurilishni ekologik tarkibiy qism bilan birgalikda kuzatish uchun asos bo'ladi. Atrof-muhit va iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha mintaqalarni saralash O'zbekiston mintaqalarida ekologik innovatsiyalar strategiyasini ishlab chiqishning boshlang'ich nuqtasi bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Медовый, А.Е. Инструменты зеленой экономики в стратегиях развития рынка недвижимости России/А.Е. Медовый, В.В. Медовый//Вестник экспертного совета. - 2017. - № 2(9). - С. 57-61.

2. Мировое и отечественное развитие "зеленых" технологий в современном градостроительстве/Е.В. Грибова, А.М. Чернецкова, Н.И. Борисова, А.В. Борисов//Экономика и менеджмент инновационных технологий. - 2016. - № 3. - С. 200-205.

3. Кучеров А.В. Концепция "зеленой" экономики: основные положения и перспективы развития/А.В. Кучеров, О.В. Шибилева//Молодой ученый. - 2014. - № 4(63). - С.561-563.

4. Грабовый П.Г. Основные направления развития жилищного строительства в России/П.Г. Грабовый//Недвижимость: экономика и управление. - 2011. - № 1. - С. 4-9.

5. Обоснование современных подходов к проблематике развития "зеленого" строительства/Х.М. Гумба, С.С. Уварова, С.В. Беляева, Я.А. Рогачева//Экономика и предпринимательство. - 2016. - № 7(72).- С. 278-282.



IQTISODIYOTDA INNOVATSIYANING TUTGAN O'RNI

Yuldasheva I.Z (TIQXMMI katta o'qituvchisi)
Tohirov Sh.J (TIQXMMI talabasi)

Annotatsiya: Bozor islohotlarining amalga oshirilishi mamlakatimizning a'zo bo'lishi, jahon iqtisodiy tizimining bilimlar va axborotlar rolining o'sishi tomon o'zgarishi, yangi texnologiyalar va kapital bozori o'rtasidagi aloqalar kuchayishi bilan mamlakatimiz iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so'zlar: zamonaviy iqtisodiyot, innovatsiya, axborot texnologiyalari, intellektual salohiyat, eksport-import masalalari, valyuta munosabatlari.

Hozirgi kunda jamiyat hayotida innovatsion sohaning jadal rivojlanishi iqtisodiyotda intellektual mahsulot axborot va ilmiy-texnik, innovatsion faoliyat ulushining o'sishi shunga olib keldiki innovatsiyalar xuddi foydali qazilmalar, ishlab chiqarish quvvatlari va intellektual salohiyat kabi mamlakatning boyligi hisoblana boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning fikricha, innovatsiyalarsiz rivojlanib bolmaydi. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz. Shuning uchun ushbu faoliyatni zamon talablari darajasida rivojlantirish yangi vazirlik, qolaversa, ushbu markazning asosiy vazifasi bo'lishi kerak. Chindan ham xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifadir. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmasligi tayindir. Milliy va xalqaro tajribadan ma'lumki, iqtisodiyot va jamiyatning taraqqiyot darajasi ko'p jihatdan innovatsion faoliyatga hamda innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlashga ko'p jihatdan bog'liq. Binobarin, iqtisodiyotdagi samaradorlik ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar va ixtirolarning joriy etilishi evaziga oshadi. Shu bois bugungi kunda innovatsiyalar har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Zamonaviy sharoitlarda jahon fani va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, quyidagi tizimli muammolarning mavjudligi, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun mavjud imkoniyatlar va salohiyatdan yetarlicha foydalanmaslik ko'zlangan islohotlarning samarali amalga oshirilishiga hamda mamlakatning jadal innovatsion rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Yangilik ishlab chiqarish va boshqaruv tizimiga joriy qilingandan so'ng bozorda iste'mol qilinadigan yangi mahsulotga aylanadi va uni sotishdan iqtisodiy, ijtimoiy yoki boshqa turdagi samaralar olinadi, - u yangi toifaga - innovatsiyalarga aylanadi.

Umuman olganda, iqtisodiyotda innovatsiya tushunchasi va uning nazariy asoslari oldindan ma'lum bo'lgan. Masalan, "innovatsiya" tushunchasi birinchi b'lib fanga Avstriyalik (keyinchalik Amerikalik) olim Yozef Shumpeter XX asrning birinchi o'n yilligida kiritilgan. U o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" nomli asarida (1911) Y.Shumpeter ilk bora innovatsiya masalalarini ko'rib chiqdi va innovatsion jarayonga to'liq tavsif berdi. Y.Shumpeter innovatsiyadagi 5 xil o'zgarishni ajratib ko'rsatdi:

1. yangi texnika va texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishning yangicha bozor taminotidan foydalanish;
2. yangi xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulot joriy qilish;
3. yangi xomashyodan foydalanish;
4. ishlab chiqarishni tahlil qilish va uning moddiy-texnika ta'minotida o'zgarishlar;
5. yangi sotuv bozorlarining paydo bo'lishi; U iqtisodiyotda innovator markaziy shaxsga aylanishini isbotlab bergan.

Y.Shumpeterning fikricha innovatsiya bu - is'temol tovarlarining yangi turlari, yangi ishlab chiqarish va transport vositalari yangi bozorlar va sanoatda tashkilotlar shaklini joriy qilish va faoliyatda foydalanish maqsa-didagi o'zgarishlardir. Xalqaro standartlarga muvofiq innovatsiya (yangilik kiritish) bozorda joriy qilingan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliy faoliyatda foydalaniladigan yangi yoki takomillashgan texnologik jarayon ko'rinishida yoki ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuvda namoyon bo'ladigan innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi sifatida tavsiflanadi. Innovatsion faoliyat -yakunlangan ilmiy tadqiqot va loyihalar natijalari yoki boshqa ilmiy texnik yutuqlarni (fan-texnika yutuqlarini) yangi yoki takomillash tirilgan mahsulotga, bozorda sotiladigan, amaliy faoliyatda foydalaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonga, shuningdek, shu bilan bo'g'liq qo'shimcha ilmiy tadqiqot va loyihalarga joriy qilishga yo'naltiril-gan jarayondir. Shunday qilib, innovatsiya iqtisodiy qudratni yuksaltiruvchi asosiy omil sifatida qaraladi. Darhaqiqat, har



qanday iqtisodiyotni, ayniqsa, uning muhim tarmog'i bo'lgan sanoat sohasini taraqqiy toptirish yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo qiladi. Chunki, bu mahsulot yoki xizmatning ichki va jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi omildir. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, mamlakatimiz birinchi Prezidentining farmon va qarorlarida belgilangan vazifalarga asoslangan fan va texnologiyalar taraqqiyotining 2012-2020 yillarga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari respublikamiz iqtisodiyoti tarmoqlaridagi yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilishni, iqtisodiy rivojlanishda fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi mutanosiblikni va innovatsiya faoliyatini ustuvor rivojlantirishni nazarda tutgan holda shakllantirildi.

Innovatsiyalarni yaratish, tarqatish va hayotga tadbqiq qilish uchun iqtisodiyotning turli sektorlarida ijobiy ishchanlik muhitini hosil qilish juda muhimdir. Buning uchun mamlakatda biznes yuritish qulay bo'lishi va iqtisodiyot shaffof hamda raqobatbardosh bo'lishi talab qilinadi. Shu jumladan, O'zbekistonda innovatsion o'zgarishlarni jadallashtirish uchun eksport-import operatsiyalariga, soliqa tortishga oid qonunlarga va valyuta bilan ishlash bo'yicha tartib-qoidalarga tegishli o'zgartirishlar qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xalqaro savdo uchun yaxshi sharoitlar yaratilishi nafaqat mamlakatdagi biznes muhitini yaxshilash, balki boshqa mamlakatlardan texnologiyalar transferi va zamonaviy bilimlar tarqalishi uchun ham o'ta muhimdir. So'ngi yillarda, mamlakatimizda qisqa muddatda innovatsiyaga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishga va innovatsiyalarni keng joriy etish uchun shartsharoitlar yaratishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikani innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi organ tashkil etilganligi, uning huzurida innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mazkur yo'nalishdagi muhim bosqichlardan biri bo'ldi. Innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini tubdan takomillashtirib, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni yanada samarali joriy etish uchun shart-sharoitlarni yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "xarakatlar strategiyasi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari 2017 - y, 6-son.
2. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2007 yil 14-mart.
3. A.V.Vaxabov, D.A.Tadjibayeva, Sh.X.Xajibakiyev "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" Toshkent -2015.
4. "Kichik biznes va innovatsiyalar" moliya ilmiy jurnali, T.: TMI, 4/2014.
5. O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirilishi va istiqbollari. B.Mamatov, K. D.Sharifxo'jayeva.



RESPUBLIKADA INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH

Yuldasheva I.Z (TIQXMMI katta o'qituvchisi)
Toshboltayeva Y.A (TIQXMMI talabasi)

Annotatsiya: O'zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: raqobatchilik muhiti, ilg'or texnologiyalar, xususiylashtirish, ilmiy texnologiyalar, zamonaviy information texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar.

Iqtisodiyotda innovatsiyaning o'rnini bilish uchun avvalo, samarali raqobat muhitini yaratish zarur. O'zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o'rin tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o'z egalarining qo'lga topshirilsa, ikkinchidan, ko'p ukkladli iqtisodiyot va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi. Dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining qaysi modelini tanlamasin milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligidagi mavqeyi uning raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Keyingi yillarda iqtisodiyot sohasidagi ilmiy va amaliy adabiyotlar hamda ko'pgina ilmiy ishlarda "yangilik" va "ilg'or texnologiya" degan so'zlar bilan bir qatorda "innovatsiya" va "innovatsion texnologiyalar" atamaları ham ko'p miqyosda ishlatilmoqda. Juda ko'p minbarlarda, anjumanlarda va ilmiy kengashlarda ishlatiladigan "innovatsiya" atamasi lotincha innovus (in - novus - yangilikka qarab) degan ma'noni anglatadi va u "yangilik" va "ilg'or texnologiya" atamaları bilan sinonimlar tariqasida ishlatilishi mumkin. Innovatsion faoliyat doirasidagi korxonalarining faolligi yuqorida keltirilgan innovatsion tashkilotlar bilan aloqasi qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilganligi bilan aniqlaniladi. Innovatsiyalar yaratish jarayonida innovatsion firmalar fan, texnika, texnologiya va iqtisodiyot sohasidagi ma'lumotlar bilan ta'minlanishlari hamda moliyaviy, huquqiy va siyosiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishga erishishlari lozim. Shuning uchun ham bilimlarga asoslangan iqtisodiyotda innovatsion yoki yaratuvchanlik infratuzilmasi juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun ham iqtisodiyotning innovatsiyalarga talabgor va sezgir qilinishini oshirish zamonaviy davlatlarning, shu jumladan, O'zbekistonning asosiy maqsadlaridan biri desak, also yangilishmaymiz. XX asrning oxirlari va XXI asrning boshlarida jamiyat hayotining barcha jabhalarida innovatsion o'zgarishlarga erishish uchun hatti-harakatlar boshlandi.

O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda eng asosiy faktorlardan biri - shubhasiz inson kapitali va uni zamona talablariga mos ravishda rivojlantirishdir. Ushbu inson kapitali innovatsiyalarga juda sezgir va intiluvchan, yangi texnologiyalarni chuqur tushuna oladigan, bu bilan bog'liq fan asoslarini puxta o'zlashtirib olgan va o'z bilimlarni ishlab chiqarishga tadbiq qila oladigan bo'lishi lozim. Innovatsiya maqsadi aniq shaklga ega bo'lishi va o'lchana olishi kerak. Innovatsiyalarning paydo bo'lishi ortida uzoq yillar davomida amalga oshirilgan o'ta mashaqqatli mehnat yotadi. Ammo ko'pincha, innovatsiyani yaratishdan ko'ra, uni singdirish o'ta qiyin masalaga aylanadi. Prezidentimiz Sh.M..Mirziyoyev "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohada o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz", degan edilar. Postindustrial iqtisodiyotni yaratishning oxirgi natijasi to'laqonli innovatsion iqtisodiyotning tashkil bo'lishidir va xuddi shu mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy strategik rivojlanish yo'nalishi bo'lishi lozim. Yangi turdagi ilmiy-amaliy bilimlar hosil qilish va ular asosida yaratilgan innovatsion texnologiyalarni davlatning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishi yo'nalishida samarali ravishda ishlatish mamlakatimizning jahon xamjamiyatidagi o'rni va milliy hafsizlikning asosi hisoblanadi. Rivojlangan davrlarda yalpi ichki mahsulot (YIM) o'sishining 80-95%-i texnika va texnologiyada aks etgan bilimlarga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham zamonaviy innovatsion iqtisodiyotning asosiy belgilarini quyidagilardir deyishimiz mumkin:

- Iqtisodiyotning barcha sohaslarida zamonaviy information texnologiyalar va kompyuterlashtirilgan tizimlarning mavjudligi;
- Rivojlangan milliy information zahiralari yaratishni ta'minlab beradigan rivojlangan zamonaviy infratuzilmaning borligi;
- Jamiyat hayotining barcha sohalardagi ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini tezkorlik bilan kompyuterlashtirish va avtomatlashtirish amalga oshirilganligi;
- Jahon miqyosidagi zamonaviy innovatsion talablarga mos ravishda malakali



ilmiy-texnik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning o'ta moslashuvchan tizimini yaratish.

Muxtaram birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov takidlab otganlaridek, "Tarkibi tuzilishda chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish makroiqtisodiy barqarorlik erishishning, istiqbolda O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishini va aholi farovonligini ta'minlashning, jahon iqtisodiy tizimi qo'shilishning eng asosiy shartlaridan biridir." Iqtisodiyotda zarur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirguncha ishlab chiqarishni orqaga ketishiga barham berish eng muhim maqsad bo'lib qoladi. Bebaho boyliklarimiz behuda yo'qotilishining oldini olish uchun texnologik qoloq hamda samarasiz ishlab chiqarish jarayonidan voz kechishimiz darkor. Zero, kapital yangilanmas ekan, texnologik rivojlanish ham bo'lmaydi. Ammo kapital yangi bo'lgani bilan uning ishlash texnologiyasi eski bo'lsa, uning ham samarasi sezilmaydi, ya'ni rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ham innovatsiyaning o'rnini beqiyos ekanligini bilib olishimiz mumkin. Iqtisodiyotni rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar muhim hisoblanadi.

2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish nazarda tutilgan. Ushbu yo'nalishda quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan:

- iqtisodiyotning ochiqligi va raqobatbardoshligini oshirish;
- iqtisodiy mustaqillikni rivojlantirish;
- makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash;
- yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;
- moliya-bank sohasini isloh etish;
- tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish;
- xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha mening nuqtainazarimdan qilinishi kerak bo'lgan bir qancha asosiy ishlar va chora-tadbirlar majmuini qisqacha yoritib o'taman:

- Respublikada Innovatsion Iqtisodiyotni shakllantirishni tezlashtirish bo'yicha Vazirlararo idora tashkil qilish va uning moliyaviy faoliyatini yuritish uchun mahsus innovatsion soliq (masalan, har bir korxonada daromadidan 1% miqdorida) turini kiritish hamda unga respublikada innovatsiyalarni jadallashtirish bo'yicha quyida ko'rsatilgan ko'pchilik ishlarni bajarishda asosiy vakolatlarni berish;
- Rivojlangan mamlakatlardagi biz uchun muhim bo'lgan barcha texnologik yangiliklarni o'rganish, yig'ish, keng aholi ommasiga bildirish va ularni o'zlashtirib, respublika iqtisodiyoti tarmoqlariga tezkorlik bilan tadbiriq qilish;
- Respublika iqtisodiyoti tarmoqlariga kiritilgan innovatsion yangiliklarni imkoniyat boricha barcha boshqa tarmoqlarga tezkorlik bilan nusxalash, ya'ni, texnologiyalar ichki transferini amalga oshirish;
- Yangilanadigan, arzon va ekologik toza energiya manba'lari va uskunalarini yaratish bilan shug'ullanadigan tashkilot yoki firmalarga eng yaxshi ish sharoitlari, moddiy va moliyaviy resurslar ajratib berish;
- Ommaviy axborot vositalarida bilimlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyot yangiliklari va afzalliklarini hamda zamonaviy innovativ asbob-uskunalar haqidagi barcha yangi ma'lumotlarni keng aholi ommasiga doimiy ravishda yetkazish;
- O'zbekistonning innovatsion faoliyat yo'liga tezkorlik bilan o'tishining iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlarini ta'minlab beradigan samarali milliy innovatsion tizimni yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Iqtisodiyot nazariyasi. B.Y.Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov; Toshkent- 2017.
- 2) Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. A.V. Vaxabov,



ХОДИМЛАРНИ БОШҚАРИШ: ЗАМОНАВИЙ ҚАРАШЛАР ВА ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАР

Усмонов Адҳамжон Аъзамжонович
Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузурдаги
Давлат бошқаруви академияси қошидаги
ёшлар муаммоларини ўргани ва истиқболли
кадрларни тайёрлаш институти таянч доктранти

АННОТАЦИЯ. Ушбу тезисда бугунги кунда менежментда энг долзарб масалалардан бири бўлган ходимлар бошқаруви тушунчаси, уни самарали ташкил этиш йўллари ва корхонани янада самарадоликка юз тутиши учун ходимларга бўлган муносабатни ўзгартириш билан боғлиқ фикр ва мулоҳазалар ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: ходимларни бошқариш, самарадорлик, кадрлар қўнимсизлиги

Инсоният пайдо бўлибдики, ягона омил унинг ҳаёт учун курашида, яшаши ва доимий ҳаракатда бўлишида яққол намоён бўлади. Бу - манфаатдорлик ҳисси. Дунёни манфаатлар бошқариши ҳам шунчаки кеча ўйлаб топилган ибора эмас. Агар манфаатдорлик бўлмаса, муносабатлар бўлмайди. Муносабатлар эса ўз навбатида шахсийликдан умумийлик сари етакловчи, ҳаракатлантирувчи куч ҳисобланади. Ушбу манфаатлар тўқнашуви ташкилотда ходимлар бошқаруви орқали тўғри йўлга қўйилса, натижадорликка эришиш имкониятлари ҳам юқори бўлади. Чунки ходимнинг ҳам, ташкилот раҳбарининг ҳам асосий мақсади самарадорликка эришиш, манфаат қўриш демакдир.

XX аср бошларида яшаб ўтган француз саноат мутахассиси Анри Фаёл шундай дейди: "Бошқариш - бу келажакни олдиндан кўриш, ўрганиш ва ҳаракатлар дастурини тузиш; ташкил қилиш - моддий ва ижтимоий жиҳатдан корхонанинг иккиламчи организмни қуриш; бошқариш - корхона ходимларини ҳаракатга келтириш; мувофиқлаштириш - барча ҳаракат ва кўникмаларни мужассам этган ҳолда бирлаштириш; назорат қилиш - барчаси белгиланган тартиб-қоидаларга мувофиқ амалга оширилишини кузатишдир". Кўриниб турибдики, ташкилотда ходимни бошқариш учун нафақат билим, кўникма балки узоқни кўра олиш, режалаштириш, талабчанлик, ташкилотчилик ҳислатлари мавжуд бўлиши талаб этилади.

Шундай экан, раҳбар ва ходим ўртасидаги манфаатдорликни самарали йўлга қўйилишида муҳим восита ва жараён сифатида сўз юритмоқчи бўлган "ходимларни бошқариш" тушунчаси ҳақида бугунги кунда замонавий олим ва тадқиқотчиларнинг қисқача фикрларига тўхталиб ўтсак, мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Профессор Т.Ю.Базаровнинг таъкидлашича, ходимларни бошқариш - бошқарув фаолиятининг энг муҳим таркибий қисмларидан бири, қоида тариқасида шахснинг ташкилотдаги ўрни тўғрисидаги баъзи ғояларга асосланар экан.

Соҳа бўйича кўплаб изланиш ва тадқиқотлар олиб борган С.А.Шапиро "Ходимларни бошқариш - корхона (ташкилот, муассаса)ни кадрлар билан таъминлаш, улардан самарали ва оқилона фойдаланишни ташкил этиш ҳамда касбий ва ижтимоий ўсиш жараёнидир" - дея таъриф берса, Т.Аҳаммаднинг фикрича, ходимларни бошқариш - бу ташкилий фаолият учун зарур бўлган кадрлар билан таъминлаш, иш берувчи ва ишчи ўртасидаги умумий муносабатларни бошқариш учун мавжуд бўлган бизнеснинг маъмурий функцияси.

Россиялик машхур экспертлардан бири А.К.Клочков ходимларни бошқариш тизимида кўпроқ инсон омилига эътибор қратиш, уларни ташкилотнинг ажралмас қисми бўлишлари учун уларга алоҳида ғамхўрлик ва эътибор қаратиш лозимлигини таъкидлайди. Жумладан, ходимни ишга бўлакларга ажратмасдан, тўлиқ қабул қилинади. Уни фақатгина "ишчи қўллари"ни ажратиб олиб бўлмаслигини, улар билан бирга эгасини ҳам ёлланилишига урғу бериб, ходимнинг шахсияти ҳеч қаерда ходимни ишга бўлган муносабатидай тўлиқ намоён бўлмаслигини айтиб ўтади. Айнан шунинг учун ҳам унинг иш самарадорлигини ошиши меҳнат унумдорлигини ортишига ва юқори натижалар олишига чексиз имконият яратади.

Кўриниб турибдики, ходимни ишга қабул қилишда унинг энг керакли қобилияти ёки аъзосини ундан айро тутиб бўлмас экан, демакки уни кучли ва кучсиз томонларини аниқлаб, заиф томонларини ривожлантириш учун туртки берилса, у ташкилотнинг бир бўлаги, ажралмас қисмига айланиб янада самарадорликка эришиш учун бор куч-қудратини аямайди.



Тадқиқотчиларнинг ҳар биридан керакли жумла ва сўзларни олиб, умумлаштириб, ходимларни бошқариш - ишчиларни ташкилотнинг мақсад ва йўналишидан келиб, чиққан ҳолда вазифаларни тўғри тақсимлаш, йўналтириш ва таъсир этиш орқали самарадорликка эришиш жараёни дейишимиз мумкин бўлади.

Замонавий менежментда ходимларга таъсир эътишда "қамчи" билан бошқариш тизими самарали баҳоланмайди. Чунки бу усул ҳозирги кунда замонавий ва истеъдодли кадрларни ташкилотда узоқ муддат ушлаб туриш имконини бермайди. Ташкилотда кадрлар қўнимсизлигини келтириб чиқариш ва иш самарадорлигини камайишига олиб келади.

Бугунги кунда ходимларни бошқариш фаолияти 5 йил илгариги жараёндан анчагина фарқ қилади. Чунки бугунги ривожланган жамиятнинг корхоналари ҳам, ходимлари ҳам замонга мослашишга, давр талабларига қараб товарлар ишлаб чиқишга ёки хизмат кўрсатишга мажбур. Чунки бугун рақобатбардошлик ҳолати шунга тақазо этмоқда. Истеъмолчи ва мижозлар ҳам ўз навбатида кундан кунга нозиктаблашиб, замон билан ҳамнафас бўлиб бормоқда. Шундай экан корхонада ходимларни бошқариш масаласида ҳам менежердан соҳадаги замонавий ёндошувларни билиш, билимли ва креатив фикрловчи бўлишни талаб этади.


Ташкилотда ходимларни бошқариш жараёни тўғри ташкил этиш орқали қуйидаги мжобий натижаларга эришиш имконияти мавжуд бўлади (1-расмга қаранг):

1. Унумдорлик - сарфланган ресурсларни ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқарилган маҳсулот ёки қилинган иш ҳажми билан ўлчанади. Иш жараёнида ходимлар меҳнат фаолиятининг фойдалилиги ва самарадорлиги ҳамдир. Унумдорликка эришиш учун биринчи навбатда ходимларни иқтидори ва қобилиятдан келиб чиққан ҳолда меҳнат тақсимоли амалага оширилса, кутилган натижага эришиш имконияти ошади.

2. Хизмат сифатини яхшиланиши - хизмат кўрсатиш ташкилотларида ходимларни бошқаришда кўпинча жисмоний жиҳатидан кўра билим, тажриба, муомала маданияти ва ахборот коммуникацион тизимлардан фойдаланиш имкониятидан келиб чиққан ҳолда ходимларни керакли жойга керакли вақтда йўналтирилса хизмат сифатини яхшиланишига эришиш мумкин.

3. Қўнимсизлик камайиши - ходимларнинг меҳнат шароити ёки ички ва ташқи омилларнинг натижасида ишдан кетиш ҳолатини олдини олиш. Бунда корхона раҳбари ва ходим ўртасидаги манфаатдорлик ҳисси бир жойда кесишса, ходим ўз иш жойи ва маошидан қониқса, жамоада ўзини қулай ҳис этсагина ташкилотга содиқлик ҳисси ортиб бораверади. Замонавий менежментда кадрлар қўнимсизлиги ташкилотнинг самарали фаолият кўрсатишида энг катта тўсиқ сифатида қаралади. Чунки ходимни бир ташкилотда бир соҳанинг устаси этиб тарбиялаш учун анчагина вақт, маблағ ва меҳнат талаб этилади. Шунингдек, кадрлар қўнимсиз бўлган жойда ташкилотнинг ички тижорий сири ва маҳсулотнинг тайёрлаш формуллари ҳам рақобатчи корхоналар томонидан осонликча ўзлаштирилиши мумкин. Ташкилотда ходимлар бошқарувини самарали йўлга қўйиш билан бундай муаммони самарали камайишига эришиш мумкин бўлади.

4. Ходимларнинг қобилиятини ортиши - бозор иқтисодиётида ходимларнинг қобилиятини ривожлантириш корхонанинг самарали ишлашини таъминласа, иккинчидан рақобат таваккалчилигини кучайтиради. Чунки ташкилотнинг яшовчанлиги маҳсулот ёки хизматнинг сифат даражаси билан чамбарчас боғлиқ бўлса, сифатли маҳсулотга сайқал берувчи, уни рақобатбардошлигини таъминловчиси малакали ходим ҳисобланади. Шунинг учун ходимлар бошқарувида кадрларни малакасини ошириш, қайта тайёрлаш, семинар ва чет эл сафарларига, стажировкаларга юбориш мақсадга мувофиқдир. Ходимлар ташкилотга боғланганликларини ва уларнинг касбий муваффақиятига ташкилот бевосита алоқадор эканликларини ҳис қилишлари лозим.





1-расм. Ходимлар самарали бошқарилганда эришиш кутилган асосий натижалар

Ташкилотда самарадорликка эришиш, ходимнинг ўз иш жойига нисбатан содиқлигини таъминлаш ва меҳнат фаолиятдан қониқиш ҳиссини ҳосил этиш учун менежер томонидан қўйидагиларга эътибор қаратилса мақсадга мувофиқ:

Биринчидан, ходимларга бирор бир топшириққа ижодий ёндошишига имконият бериш керак. Доимий ва анъанавий усуллардан фойдаланган ҳолда топшириқни бажаришни талаб этишдан қочиш лозим. Қолипга солиган ва ҳамиша бир хиллик асосида фаолият олиб бориш ходимнинг биринчи навбатда ўз устида ишламаслигига олиб келса, иккинчидан берилган топшириқни жиддий қабул қилмасдан, шунчаки юзаки бажаришига сабаб бўлади. Шунинг учун топшириқ берилганда уни бажариш юзасидан умумий тушунча ва йўналиш кўрсатилиб, ижодий ёндошувни ва жавобгарликни ходимни зиммасига юклаш ўринли. Бу ходимнинг нималарга қодирлигини ва дунёқарашини текшириш имконини бериш билан бирга мустақил изланишга, ўзини билимлилигини исботлашга мажбур этади.

Иккинчидан, ташкилотда кадрлар заҳираси сиёсатига алоҳида эътибор қаратиш лозим. Ташкилотда ўз ўрнига эга ва керакли ходимларни ҳамиша ҳам ушлаб туриш амри маҳол. Чунки ўз ишининг устаси бўлган ходимлар бошқа рақобатчи корхоналарда ҳам ҳеч қийинчиликларсиз иш топиб кетишлари мумкин. Шу сабабли уларни ўрнини тўлдирувчи, заҳирадаги кадрлар бўлиши ёки муносиб кадрларни излаб топиш талаб этилади. Акс ҳолда корхонанинг иш фаолияти самарадорлигига салбий таъсир этиши мумкин. Шунингдек, уларга "Устоз-шогирд" анъаналарини давом эттирган ҳолда заҳирадаги кадрларни бириктириб қўйиш ҳам яхши самара беради.

Учинчидан, ходимларни назорат қилувчи "классик" усуллардан воз кечиш керак. Яъни айрим ташкилотларда ҳануз XX аср бошқаруvidан мерос бўлиб қолган ходимларни ишга келиши ва кетиш бўйича қайд дафтарлари юритилмоқда. Замонавий жамиятда бундай бюрократик усуллардан воз кечиш, замонавий ахборот коммуникация тизимларидан (турникет, мобил иловалар, ID card, smart card, face control ва бошқалар) фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Тўртинчидан, ходимларнинг меҳнат фаолияти самарадорлигини баҳолаш орқали уларнинг меҳнатига қараб адолатли ҳақ тўлаш тизимига амал қилинса, ходимлар ўртасида рақобат юзага келади. Ходимлар ўз устида ишлашга, самарали фаолият юритишга ҳаракат қилади.

Мухтасар қилиб айтганда, ташкилотда ходимларни бошқариш мураккаб жараён бўлганлиги сабабли ҳам вазият ва ҳолатга қараб ёндошув талаб этилади. Шу сабабли бу борадаги замонавий билимлар ва усулларни эгалламаган раҳбарлар ташкилотда қимматли ходимларини ўз вақтида қадрламасдан ва рағбатлантирмасдан туриб, катта йўқотишларни билмаган ҳолда ўзларига раво кўриши ҳеч гап эмас.



YALPI ICHKI MAHSULOT KO'RSATKICHI AHAMIYATI VA UNING STATISTIKASI

Xusanova Zulfiya (Andijon Davlat Universiteti katta o'qituvchisi)
Vahobova Qizlarxon (Andijon Davlat Universiteti talabasi)

Annотasiya. Ushbu maqolada yalpi ichki mahsulotning ahamiyati yoritilgan va O'zbekistonda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaIM statistikasi keltirilgan.

Kalit so'zlar. YaIM, ko'rsatkich, iqtisodiyot, bozor.

Ma'lumki, makroiqtisodiy darajada iqtisodiyotni bir qancha iqtisodiy indikatorlar (yalpi ichki mahsulot, sof ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, yalpi milliy daromad va shu kabilar) ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar ichida eng asosiylaridan biri yalpi ichki mahsulot (YaIM) dir.

Yalpi ichki mahsulot - mamlakat iqtisodiy birliklarining ma'lum davr mobaynida, masalan, bir yil davomidagi ish faoliyatining so'ngi natijasini ifodalovchi, iste'mol uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning bozor bahosida hisoblangan qiymatlari yig'indisi hisoblanadi. Unga mamlakatning iqtisodiy o'sishini va farovonligi darajasini ifodalovchi umumiy ko'rsatkich sifatida qaraladi va u iqtisodiyotning tarkibi va rivojlanish darajasini, hukumatning iqtisodiy siyosatidagi yutuq yoki kamchiliklarni mamlakat va ayrim regionlarning iqtisodiyoti holati va rivojlanish darajasini boshqa mamlakat va hududlar bilan solishtirish imkoniyatini beradi. Iqtisodiy tahlilda YaIM barcha aholi, iqtisodiy faol va band aholi soni bilan, ishlab chiqarishda iste'mol qilingan resurslar, asosiy fondlar, investitsiyalar hajmi, ish haqqi fondi, har xil yo'nalishlardagi davlat xarajatlari boshqa xarajatlar bilan solishtiriladi. Bu holat bandlik darajasi va uning dinamikasini, material va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi, investitsion siyosatning yo'nalishi va natijalarini, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini va undan foydalanish darajasini, mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy yakunlarini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM hajmi ko'rsatkichi asosida mamlakatning xalqaro tashkilotlar byudjetga to'lovi amalga oshiriladi, kredit berish sharti va uning hajmi aniqlanadi, har xil mamlakatlarga beriladigan moliyaviy va boshqa yordamlar beriladi, investitsion muhitga baho berishda hisobga olinadi.

Statistika qo'mitasining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi joriy narxlarda 361 858,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-sentyabri bilan taqqoslaganda 5,7 % ga o'sdi. YAIM deflyatori indeksi 2018 yilning yanvar-sentyabridagi narxlarga nisbatan 118,0 foizni tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YAIM 10 805 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga yuqoridir.

Yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIMni ishlab chiqarish

	Mlrd. so'm		Fizik hajm indeksi, %da	YaIM o'sishidagi hissasi
	2018-yil	2019-yil		
YaIM-jami	290 161,9	361 858,4	105,7	5,7
shu jumladan:				
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	256 716,4	329 091,0	105,7	5,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	80 331,3	92 186,7	102,4	0,6
Sanoat	65 351,2	96 227,9	107,0	1,6
Qurilish	16 677,7	22 561,0	119,3	1,1
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	19 496,9	23 094,3	104,1	0,3



Tashish va saqlash, axborot va aloqa	22 185,4	25 834,5	105,7	0,4
Boshqa xizmat tarmoqlari	52 673,9	69 186,6	105,3	1,0
Mahsulotga sof soliqlar	33 445,5	32 767,4	105,6	0,7

Bundan tashqari, mamlakat miqyosida (makrodarajada) aholi turmush darajasi yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi ko'rsatkichi bilan ifodalanadi. Bu ko'rsatkich bo'yicha Yevropadagi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar, Amerika Qo'shma Shtatlari va Yaponiya kabi mamlakatlari dunyoda oldingi o'rinlarda turadi. Lekin bu davlatlarda YaIM emas, balki YMM asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ammo BMT ning milliy hisoblar tizimida YaIM birlamchi iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Miqdor jihatdan bu ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovut unchalik katta emas. Rivojlangan mamlakatlarda bu tafovut bir foizdan oshmaydi. Chet ellarda ishlovchi fuqarolardan tushadigan daromadlar salmoqli bo'lgan mamlakatlarda bu tafovut kattaroq bo'lishi mumkin.

References:

1. Abdullayev Yorqin. Statistika nazariyasi. - T.: "O'qituvchi" 2002. 592b.
2. www.stat.uz



ALLOCATION OF FINANCIAL RESOURCES IN TO THE BUSINESS SECTOR IN UZBEKISTAN

Yuldasheva I.Z, Teacher of TIAME
Makhmudova N.D, student of TIAME.

ANNOTATION: The article reviews the allocation of financial resources to small and medium sized enterprises, the role of a banking system in the allocation of money and projects related to development of business sector. Some dilemmas relating to the business climate in Uzbekistan are given with some solutions to tackle them.

Keywords: budgetary allocations, banking sector, short and long-term credits, commercial banks, "start-up" business, government monitoring.

Maqolada moliyaviy resurslarning kichik va o'rta hajmdagi tadbikorlikka sarflanishi, bankning moliyaviy mablag'lar taqsimotidagi o'rni va biznes sohasini rivojlantirishga oid loyihalar haqidagi masalalar ko'rilgan. O'zbekistondagi biznes sohasidagi uchrayotkan b'zi muammolar yechimlari bilan keltirilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy mablag' taqsimoti, bank sektori, qisqa va uzoq muddatli kreditlar, tijorat banklari, "startap" loyihalar, davlat nazorati.

В статье рассматривается распределение финансовых ресурсов для малых и средних предприятий, роль банковской системы в распределении денег и проекты, связанные с развитии бизнес сектора. Некоторые дилеммы, связанные с бизнес климатом в Узбекистане, даются с некоторыми решениями.

Ключевые слова: бюджетные ассигнования, банковский сектор, краткосрочные и долгосрочные кредиты, коммерческие банки, начинающий бизнес, государственный мониторинг.

In Uzbekistan, the government is drawing more attention to business sector as the sector is found to be more prospective and profitable. Before looking at the money distributed into this field, it is important to know what budgetary allocations mean. Budgetary allocations are integral components to an annual financial plan, or budget of all organizations. It is the amount of funding designated to each expenditure line. It designates the maximum amount of funding an authority or an organization is willing to spend on a given item, program or field. The Ministry of Finance decides how to allocate money properly according to statistics from previous years and investigations of forecast upcoming results. Recognizing the importance and the bright future of business, most of the money in country's budget is spent on business sector as well as to attract more investments from abroad. According to the fact that small businesses effectively generate employment and income, the role of small business and entrepreneurship in the country's GDP (Gross Domestic Product) is ever increasing and giving loads of opportunities to start-up businesses : subsidies, decreased tax rates and so on. For example, as of 1st January 2018 basic tax rate for unified tax payment for micro-firms and small businesses, except for enterprises of trade and public catering, was reduced from 6% to 5% in order to further lessen tax burden, support and stimulate development of small and private businesses. Uzbekistan is ranked 74 among 190 economies in the ease of doing business according to the latest World Bank annual ratings. The rank of Uzbekistan improved to 74 in 2018 from 87 in 2017. The financial system is dominated by banks, which control 94% of finance sector assets. In this turn, money allocated to business sector is managed by banks. They give short-term and long-term credits to people intending to set up their own business. Eight state-owned banks control 75% of banking assets and provide the bulk of credit to state-owned entities. In 2018, the aggregate capital of commercial banks in Uzbekistan increased 2.3 times and reached 20.7 trillion sums. Some new projects related to the money supplies in banks are willing to be carried in the upcoming years.

REFERENCES

1. Guide to doing business and investing in Uzbekistan. 2016 edition. Page6.
2. Internet Source : TRADINGECONOMICS.COM . WORLD BANK.
3. "Ahbor-reyting" rating agency. February, 2017. №46, Page10.



IQTISODIY INNOVATSIYALARNING INSONIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Yuldasheva Inoyat, TIQXMMI katta o'qituvchisi
Usarova Maftuna, TIQXMMI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsiyalarning jamiyat hayotining muhim bo'g'ini ekanligi, rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanishi yoritilgan. Innovatsiyalar to'g'risida takliflar: yagona bozor makoni yaratilishi, mahsulot sifati yaxshilanishi, turmush darajasi o'sishi aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, turmush darajasi, insoniyat, jamiyat, yangilik, uzoq muddatli rivojlanish, internet, mahsulot sifati, yagona bozor, maishiy texnika.

Hozirgi kunda innovatsiya insoniyat, jamiyatning barcha sohalarida faol bo'g'in hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda kelajakni innovatsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Aksariyat olimlarning fikriga ko'ra, innovatsiya iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Innovatsiya dunyo hamjamiyatini rivojlanishning yangi, yanada yuqori bosqichiga olib chiqadi.

Iqtisodiyot va jamiyatni rivojlantirishda innovatsiyalarning vazifalari juda ko'p. Ularning butun spektrini qamrab olishning iloji yo'q. O'zbekistonda insoniyat hayotini yanada yaxshilash maqsadida quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

1) yagona bozor makonini yaratish. Bu yoki boshqa tarzda globallashuv yo'lidan boradigan zamonaviy jamiyatda, hatto bitta innovatsiya ham yagona bozorni yaratishga hissa qo'shishi mumkin. Bu yerda eng odatiy misol, ya'ni, Internetni yaratish, xususan, dunyoning deyarli har qanday mamlakatidan xaridlarni amalga oshirish mumkin bo'lgan Internet-do'konlarning paydo bo'lishi deyishimiz mumkin. Shunday qilib, chegaralari o'lchab bo'lmaydigan yagona bozor yaratiladi. Chet el amaliyotida kuzatganimizdek, bu - iste'molchilar hayotida sezilarli darajada qulayliklarni keltirib chiqaradi;

2) turli mamlakatlarning innovatsion g'oyalaridan namuna olgan holda yurtimizga mos andozalar yaratish;

3) mahsulotlar sifatini yaxshilash. Texnik (texnologik) yoki mahsulot innovatsiyalari yangi yoki yaxshilangan xususiyatlarga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga, inson ehtiyojlarini yuksak qondira oladigan eng yaxshi xizmatlarni taqdim etishga yordam beradi;

4) inson turmush darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi innovatsiyalarni amalga oshirish. Turar-joy sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan iste'mol yangiliklarini amalga oshirish inson hayoti uchun qulay muhitni yaratishga yordam beradi (maishiy texnikalarni yaratishni bunday yangiliklarning namunasi sifatida ko'rish mumkin);

Zamonaviy dunyoda innovatsiyalarning roli beqiyosdir. Innovatsiyalar ham iqtisodiy, ham ijtimoiy vazifalarni bajaradi, jamiyatning barcha tomonlarini qamrab oladi. Uzoq muddatli rivojlanishda innovatsiyalarsiz jadal rivojlanish, iqtisodiy va madaniy o'sishni ta'minlab bo'lmaydi. Yuqoridagi takliflarni amalga oshirib, yurtimizda innovatsiyalarga yanada keng yo'l ochib berilsa, insoniyat, jamiyat hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bejiz emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ayupov R.X., Boltaboyeva G.R. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish muammolari va yechimlari. .: TMI, 2013, 202 bet



IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA CHET EL INVESTITSIYALARI ISHTIROKIDAGI KORXONALARNING ROLI

Yuldasheva I.Z, TIQXMMI katta o'qituvchisi
Xabibullayeva L.K, TIQXMMI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotni rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlar, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining o'rni, ularning ahamiyati keng yoritilgan. Bu borada chet el investitsiyalarini olib kirish, yangi texnologiyalar, fan-texnika rivojlanishining yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb qilish kabi omillar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: chet el investitsiyalari, ustuvor yo'nalishlar, investitsion muhit, texnika-texnologiya.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida bir qancha ishlar amalga oshirilib bormoqda, jumladan, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosati olib borilmoqda. Bunday siyosatni amalga oshirishdan maqsad - ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishish, fan-texnika istiqbolini tez sur'at bilan rivojlantirish hamda aholi tinchligini va ekologiya muammolarini, zamonaviy turmush standartlari darajasida yechishni ta'minlay oladigan kuchli iqtisodiyotni yaratishdan iborat. Har bir davlat birinchi navbatda moddiy ishlab chiqarish sohasiga davlat va chet el investorlarini jalb qilishga harakat etishi kerak. Shu maqsadda aniq investitsiya yo'nalishi ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi, tegishli investitsion muhit yaratiladi. Mamlakatimizning dunyoda tutgan o'rni va potentsiali ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan begilanadi. Har qanday mamlakatning rivojlanishida chet el investitsiyalari ahamiyatli o'rin egallaydi. Chet el investitsiyalarini olib kirish yangi texnologiyalar, fan-texnika rivojlanishining yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb qilish kabi omillar bilan bog'liq. Shuning bilan birgalikda bozor munosabatlarini tartibga solish xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qatnashish, iqtisodiyotni boshqarishning progressiv usullarini yaratish, ham xo'jalik sub'ektlari o'rtasida erkin raqobatni yo'lga qo'yish, ham kengaytirish chet el investitsiyalarini tadbiq qilishning asosiy omili hisoblanadi. Respublikamizga chet el investitsiyalarining hajmini oshirish, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularning sonini ko'paytirish bo'yicha ishlar davom etmoqda. Bundan bir qator iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy natijalarga erishiladi. Ular quyidagicha: birinchidan, ishsizlik kamayadi; ikkinchidan, tovar va xizmatlarning asosiy o'lchov birligi bo'lgan sifati yaxshilanadi; uchinchidan, mamlakatga import qilinishi shart bo'lgan tovarlar va xizmatlar o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqariladi; to'rtinchidan, mamlakatlararo iqtisodiy hamkorlik, siyosiy munosabatlar orqali strategik birga ishlashga asos yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947-sonli Farmonining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi".
2. R.I.Gimush, F.M. Matburodov "Innovatsion menejment" Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma- T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti,2008.-144b.



FORMATION OF INFRASTRUCTURE IN THE CONDITIONS OF DIGITAL ECONOMY

Atavullaeva Feruza

**Master's degree student of Tashkent University of
Information Technologies named after Mukhammad al-Khwarizmi**

Annotation. In this research the implementation of innovative infrastructure in the context of digital economy is considered primarily, showing some solutions and offers.

Key words: digital economy, innovative development, region, infrastructure

The digital economy permeates all spheres of economic and managerial activity; it is a practical aspect of the information economy and a new economic system of the information society.

The decree of the president of the Republic of Uzbekistan "On measures for the development of the digital economy in the Republic of Uzbekistan" (1) was adopted with the aim of further improvement of the system of Public Administration, creation of conditions for the introduction and development of the digital economy, improvement of the investment climate, as well as it was adopted in 2017-2021 for implementation of the strategy of action on five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan, and the work in this direction is carried out as a practical program.

President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoev insisted: "The digital economy allows to grow the gross domestic product by at least 30 percent, sharply reducing corruption. The analysis conducted by influential international organizations also confirms this.

Therefore, it is necessary to carry out transformation in the spheres of economy, develop information technologies in the national economy and attract investments in this direction".

Uzbekistan must have such an infrastructure that could provide the conditions for innovative development and be the foundation for a digital economy. Digital economy infrastructure includes communications hardware, computer networks, data centers, and a virtual organization system, including e-government, healthcare, and education. Infrastructure should ensure the operation of "smart" cities and enterprises, including small businesses, the preservation of the natural environment, cyber defense of virtual space and social balance in the region, and the quality of life of the population. As stated in the Program, "the information infrastructure provides the ability to provide new digital services in the domestic market and for export, satisfying the needs of the state, business and citizens in reliable, affordable, safe and cost-effective communications, computing power, information systems and services, digital platforms, created with the priority use of domestic technologies, and also provides systematic collection, transfer, storage and processing of data taking into account rights and legitimate interests with data objects and data owners".

The innovative infrastructure of the digital economy consists of information infrastructure, research infrastructure, the infrastructure of the digital space of trust, institutional environment, Smart Cities and ecosystem infrastructure.

First of all, state support refers to innovative enterprises that are ready for release or already produce innovative products. This also includes training, the creation of new, innovative, cultural values, manifested both in the culture of consumption and in the willingness to use innovative products and services, general technical literacy. As the experience of recent years shows, young people are especially open to the consumption of innovative products. Such products include new versions of mobile phones and their software applications, computers and other gadgets. Value guidelines determine the internal advantages of the region; they also relate to models of economic and social behavior, the development of entrepreneurship, and state and municipal governments.

The model of innovative development, called the triple helix, is a progressive upward movement - the improvement of power, business, and education. The professional competencies required to manage innovation processes in the region and at enterprises require continuous updating and adjustment. Officials and entrepreneurs, business leaders must constantly compare their management skills and knowledge with the level of world development requirements. The staff is an organic evolving system with decompositions of the competencies of each employee. As noted by E. V. Sumin and G. Ya. Belyakova, "the management mechanism for the formation of innovative advantages requires the involvement of officials of a new type, considered as the leader of the innovative type. In conditions of a huge amount of information, high speed of changes taking



place in all spheres of society, officials are required, capable of self-development and developing others".

The solution of formation infrastructure must provide for the creation of Competence Centers, which are also called upon to provide targeted support for innovative entrepreneurship and form Internet platforms for generating new ideas. At the regional level, such Centers can operate based on leading educational institutions that carry out research and development and are elements of the research infrastructure of the digital economy. It would also be good to create a regulatory framework for the digital economy, a system for digitally capturing personal development paths for citizens (digital workbooks), a certification system and new educational programs. In this regard, the role of universities as educational and scientific centers is growing even more, and teachers are required to constantly improve their skills. Based on digital platforms, which are universal information systems, the regional information infrastructure should include personnel platforms that contain data about each manager, engineer, and scientist, teacher, his professional and scientific results. This will allow for the rapid formation of teams for the implementation of innovative projects, the development of new educational programs and will not only strengthen the link between government, education, and business, but also the intellectual potential of the region. Such a platform can be implemented on the principles of blockchain technology, contain a distributed database of all participants in the innovation process and provide an opportunity both to interact with each other and to provide centralized program control of the entire network. Supplemented by a database of new and previously implemented innovations, this system will make it possible to quickly identify promising products and market niches, to outstrip consumer requests and create new innovative products.

List of references:

1. Program "Digital Economy of the Russian Federation". URL: <http://d-russia.ru/wp-content/uploads/2017/05/programmaCE.pdf>
2. Mikhail O.I. Features of the formation of regional infrastructure factors of innovative development // Bulletin of the Bryansk State University. 2013. № 3. P. 143-145.
3. Kashitsyna T.N., Shumilina M.A. Construction of an innovative infrastructure as a mechanism for the innovative development of a region // Fundamental and Applied Studies of the Cooperative Sector of the Economy. 2014. № 3. P. 42-46.



ИҚТИСОДИЙ ЎСИШДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ РОЛИ ВА АҲАМИЯТИ

Феруза Еркебаева
Тошкент молия институти талабаси

Аннотация. Ушбу тезисда инновация ва янги технологияларни иқтисодий ўсишга таъсири ҳақида сўз юритилган. Шунингдек, инновацияларнинг афзалликлари ҳамда иқтисодиётда инновацияни рағбатлантириш чора-тадбирлари ҳам ёритилган.

Аннотация. Этот тезис рассматривает влияние инноваций и новых технологий на экономический рост. Он также описывает инноваций и меры по стимулированию инноваций в экономике.

Annotation. This thesis focuses on the impact of innovation and new technologies on economic growth. The benefits of innovation and measures to stimulate innovation in the economy are also revealed.

Калит сўзлар: инновация, иқтисодиёт, иқтисодий ўсиш, янги технологиялар, самарадорлик

Ключевые слова: инновация, экономика, экономический рост, новые технологии, эффективность

Keywords: innovation, economy, economic growth, new technologies, efficiency

Ҳар бир соҳада ўз мавқеи ва ўрни билан тобора оммалашиб бораётган инновация иқтисодий ривожланишга ҳам таъсирини ўтказмай қўймапти. Бу борада Президентимизнинг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармонида "Айни вақтда мамлакатимиз босиб ўтган тараққиёт йўлининг чуқур таҳлили, бугунги кунда жаҳон бозори конъюктураси кескин ўзгариб, глобаллашув шароитида рақобат тобора кучайиб бораётгани давлатимизни янада барқарор ва жадал суръатлар билан ривожлантириш учун мутлақо янгича ёндашув ҳамда тамойилларни ишлаб чиқиш ва амалга оширишни тақозо этмоқда" эканлиги белгилаб берилган. Шундай экан, инновация истеъмолчиларга, корхоналарга ва умуман иқтисодиётга фойда келтирадиган иқтисодий тараққиётнинг муҳим омилига айланди.

Инновацияни ўзига тўхталадиган бўлсак, бир томондан, бирор янги ёндашувни тақдим қилиш деб ҳисобланса, бошқа томондан, янги ёки такомиллаштирилган маҳсулотларни ёки жараёнларни амалга ошириш усуллари синаб кўришга интилиш демакдир. Иқтисодий нуқтаи назардан, инновациялар товарлар ва хизматларни яхшилайдиган ёки уларни ишлаб чиқаришни самаралироқ қиладиган гоёлар ва технологияларни ишлаб чиқиш ва қўллашни тавсифлайди.

Қуйида инновациянинг афзалликлари тўғрисида гапириб ўтиш жоиз.

Биринчидан, янги техника ва технологиялар аҳоли турмуш даражасини яхшилашга хизмат қилади. Масалан, онлайн-интернет савдо инновациянинг бир кўринишидир. Бу орқали истеъмолчи узоқ масофадан туриб ҳам ўз талабини қондириш имкониятига эга бўлади. Бу бир томондан, ишлаб чиқарувчилар учун харажатларни камайтириб, максимал фойда олиш имконини берса, иккинчи томондан, харидорлар учун қулайлик яратади. Бу ўз навбатида, иқтисодий ривожланишга таъсир кўрсатади.

Иккинчидан, инновация юқори самарадорликка етақлайди. Ишлаб чивариш ёки хизмат кўрсатиш жараёнидан янги технологиялар жой олса, бу шу корхонанинг самарадорлигига катта ижобий таъсир кўрсатади, яъни кўпроқ маҳсулот ишлаб чиқарила бошланади, кенгроқ хизматлар кўрсатиш йўлга қўйилади. Бошқача айтганда, самарадорлик бизнес эгаларига ҳам, уларнинг товар ва хизматларидан фойдаланувчиларга ҳам фойда келтиради. Мисол учун, самарадорлик ошса, корхона ишчиларининг иш ҳақи ҳам кўтарилади. Уларнинг маоши кўп бўлса, янада кўпроқ товар ва хизматлардан фойдаланишади. Айни вақтда ишлаб чиқариш ҳажми ортади ва тадбиркорларни кўпроқ инвестиция киритишига олиб келади. Буларнинг барчаси ялпи ички маҳсулотнинг ошишига ҳамда иқтисодий ўсишга туртки бўлади.

Юқорида инновациянинг нима учун зарурлиги ҳақида гаплашган бўлсак, эндиликда уни рағбатлантириш бўйича чора-тадбирларга тўхталамиз:

- таълимга сармоя киритиш. Бу орқали илмий изланувчилар ўзларининг инновацион гоёларини амалиётга тадбиқ қила олишади. Уларнинг инновациялари бутун дунёни сақлаб қолмаса-да, ўзларининг устида ишлашлари учун имконият пайдо бўлади.

- компаниялар ўз ходимларига сармоя киритиб, илмий- тадқиқот ишларини олиб бориш орқали инновациялар кириб келишини осонлаштириши мумкин.

Шундай қилиб, инновацияларни ҳаётга тадбиқ қилишдан асосий мақсад инсонларни яшаш



шароитини яхшилашдан ва бу орқали иқтисодий ўсишга эришишдир. Кичик ўзгаришлар катта ғоялар ва ҳатто дунё миқёсидаги янгилик пайдо бўлишига етаклаши мумкин. Ҳар бир шахс ўзи фаолият юритаётган соҳада бирор янгилик қилишни бошламас экан, бу соҳа инновациялар яратилаётган соҳалардан орқада қолаверади. Инновация бўлмаса - янгилик бўлмайди, янгилик бўлмаган жойда эса ўсиш, олдинга силжиш кузатилмайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. A. Abeltina(2007) "The role of innovation in economic development"
2. N.Rosenberg(2004) "Innovation and economic growth"
3. www.biznes-daily.uz
4. www.ecb.europa.eu
5. www.viima.com



СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ ДОХОДНОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ

Хотамжон Кобулов

и.ф.н., Тошкент молия институти доценти

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы формирования стратегии развития доходного потенциала региона в условиях инновационного развития экономики. Представлены задачи, необходимые для достижения поставленных целей с точки зрения автора.

Ключевые слова: бюджет, доходный потенциал региона, стратегия доходного потенциала бюджета, финансовая база местных бюджетов.

В процессе планирования и прогнозирования финансовых возможностей регионов по оказанию общественно значимых услуг государственными органами управления и местного самоуправления в пределах их полномочий возникает потребность в управлении финансовыми ресурсами регионов в целях реализации их потенциальных возможностей по укреплению доходной базы местных бюджетов. В этих целях целесообразно формировать стратегию развития доходного потенциала местных бюджетов в контексте концепции развития местных финансов.

Таким образом, стратегия развития доходного потенциала местного бюджета является внутريفункциональной составляющей глобальной концепции развития бюджетных отношений в регионе.

Стратегия доходного потенциала бюджета в условиях инновационного развития экономики как программа действий, направленных на обеспечение финансовой самодостаточности регионов в целях устойчивого регионального развития, отражает количественные цели развития доходов бюджетов и те внутренние структурные трансформации, которые должны произойти для повышения финансовой ликвидности регионов.

Таким образом, под стратегией развития доходного потенциала местного бюджета понимается специально организуемые и научно обоснованные системные программные действия местных органов власти по формированию доходного потенциала региона, достаточного для устойчивого, сбалансированного и интенсивного развития в среднесрочной (до 3-х лет) и долгосрочной перспективах, решения проблем рационального и эффективного использования финансовых ресурсов с целью повышения качества предоставляемых бюджетных услуг.

Целью стратегии является формирование устойчивой самодостаточной финансовой базы местных бюджетов при условии обеспечения паритета интересов государства и отдельных регионов при соблюдении основных принципов централизации бюджетных отношений.

Основной задачей стратегии развития бюджетного потенциала в регионе в условиях инновационного развития экономики является максимальная мобилизация внутренних ресурсов и создание механизмов обеспечения бюджетной и структурной политики.

В соответствии с этой главной задачей основное внимание должно уделяться наиболее актуальным проблемам совершенствования методологии планирования финансовых ресурсов, оптимизации объёма доходов бюджетной системы, необходимого расширения и настройки инструментов финансово - кредитного механизма в целях стимулирования инновационной и инвестиционной деятельности, ускорения модернизации, диверсификации и интенсификации производства, повышения конкурентоспособности технологий, продукции и предприятий в реальном секторе экономики, обеспечения эффективной занятости населения и перехода Республики Узбекистан к устойчивому социально-экономическому развитию, неуклонного искоренения на этой основе условий, порождающих научно-техническую отсталость экономики и бедность населения.

Для достижения поставленных целей должны быть решены следующие задачи.

1. Внедрение передовых методов управления государственными и местными финансами, совершенствование среднесрочного финансового и инвестиционного планирования, создания системы управления государственным долгом субъектов Республики Узбекистан, развитие конкурентных механизмов и процедур государственных и корпоративных закупок.

2. Стабильное законодательное разграничение расходных полномочий и доходных источников между республиканским и местными бюджетами, формирование объективного и прозрачного



механизма распределения финансовой помощи регионам в условиях новой редакции Бюджетного кодекса.

3. Совершенствование межбюджетных отношений в плане обеспечения финансовыми источниками бюджетов всех уровней для выполнения расходных полномочий в необходимом объеме, создание стимулов для наращивания собственной налоговой базы регионов и повышения ответственности за реализуемую бюджетную политику.

4. Внедрение современных информационных технологий по управлению финансовыми ресурсами региона и формированию единой системы информационного обеспечения бюджетного процесса.

5. Дальнейшее совершенствование и реализация механизмов эффективного управления государственной и муниципальной собственностью.

6. Повышение инвестиционной привлекательности региона за счет развития транспортной, энергетической, телекоммуникационной, образовательной и т.д. инфраструктуры, создания условий для дальнейшего развития инвестиционной и инновационной деятельности.

Список использованной литературы:

1. Бюджетный кодекс Республики Узбекистан / Национальная база данных законодательства, 25.12.2019 г., № 03/19/597/4193

2. Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года

№ УП-4947 "О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан" // Национальная база данных законодательства, 31.07.2018 г., № 06/18/5483/1594



МИГРАЦИОН ЖАРАЁНЛАРНИ ТАДҚИҚ ҚИЛУВЧИ АСОСИЙ ИЛМИЙ КОНЦЕПЦИЯЛАР

Тўлқин Чўлпиев

ЖИДУ, "Жаҳон иқтисодиёти" ихтисослиги докторанти

Аннотация. Ишчи кучи миграцияси ҳозирги куннинг энг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади. Шу билан бир ўринда, мазкур жараённи тадқиқ қилувчи моделлар ва назариялар маълум жиҳатдан бир-бирига тўғри келмайдиган ҳулосаларга олиб келишини кўриш мумкин. Шу сабабли, ушбу масалани атрофлича ўрганиб, уни тизимлаштириш жуда муҳим.

Калит сўзлар: ишчи кучи миграцияси, миграцион жараёнлар, миграция назариялари.

Ишчи кучи миграцияси ва миграцион жараёнларни ўрганганда кўзга ташланмайдиган асосий ҳолат шуки, мазкур жараёнларда бир масала ҳеч қачон ўз долзарблигини йўқотмайди: қайси факторлар инсонларни ўз ватанлари, уйлари, яқинлари, кундалик ҳаёт тарзини тарк этиб, вақтинча ёки доимий кўчишга мажбур этади? Табиийки, эмигрант ўз ҳаёт даражасини даромад ёки янги ишдаги шарт-шароитлар орқали кўтаришга ҳаракат қилади. Бу инсониятнинг бутун тарихи давомида тасдиқланган: XXVIII-XIX асрларда аҳоли оммавий равишда Фарбий Европадан Америка, Австралия, Янги Зеландияга кўча бошлаган, кейинчалик XX асрга келиб, миграция йўналиши ривожланаётган давлатлардан ривожланган давлатларга йўналди (Туркиядан Германияга, Жазоир ва Марокашдан Францияга, Ҳиндистон ва Мисрдан Буюк Британияга). Ҳаттоки ривожланаётган мамлакатлар орасида ҳам миграция асосан саноати кўпроқ ривожланган мамлакатларга йўналди. Бунга мисол сифатида, МДҲ мамлакатлари орасидаги миграцион жараёнларни келтириб ўтишимиз мумкин. Лекин мазкур жараёнларни янада тўлиқроқ англаш учун маълум бир қолипга солинган ҳамда масала моҳиятини тушунишни енгиллаштирадиган илмий концепциялар, ёндашувлар ва моделларга мурожаат қилишимиз керак.

Ҳозирда, халқаро миграцияни тўлалигича яхлит феномен сифатида тушунтириб берадиган ягона назария мавжуд эмас. Мавжуд назариялар ҳам бир-биридан мустақил равишда мазкур феноменнинг маълум бир қиррасини очиб бериш учун ишлаб чиқилган ҳолос. Шу билан бир қаторда, таъкидлашимиз жоизки, халқаро миграциянинг замонавий трендлари ва тенденциялари шуни кўрсатмоқдаки, миграция категориясини фақатгина бир фан (иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий ёки ижтимоий) доирасида эмас, балки фанлараро, бир неча қаватли таҳлил асосида тизимли ўрганиш зарур. Феноменнинг мураккаб, кўпқиррали табиати, ўзида бир қанча қарашлар, даражалар ва фаразларни қамраб оладиган унданда мураккаброқ назарияни тақазо қилади. Бунинг учун, энг аввало, миграция ҳодисаси фанлараро таҳлилни талаб қилишини ёдда тутган ҳолда, унга доир ҳар бир илмий концепциялар, ёндашувлар ва моделларни алоҳида ўрганиб чиқишимиз зарур бўлади.

Ҳозиргача бўлган даврда, халқаро миграция жумбоғини тушунтириб бериш учун ишлаб чиқилган моделларни шартли равишда қуйидагича талқин қилиш мумкин (1-жадвал):

1-жадвал. Миграция назариялари.

Иқтисодий фанлар доирасида	Социология доирасида	Сиёсий-ҳуқуқий фанлар доирасида
1. Миграция бўйича классик иқтисодий назария	1. Белгили интеракционизм (Symbolic interactionism) – миграцияни микро даражада, ўзаро юзма-юз муносабатлар натижасида ўлароқ тушунтиради.	Бунда миграция хавфсизлик, фуқаролик, халқаро муносабатлар ва халқаро ҳуқуқ каби категориялар орқали ўрганилади. Бу соҳадаги аксарият ишлар давлатларнинг иммиграцион сиёсатини таҳлил қилишга бағишланган.
2. Миграция бўйича неоклассик иқтисодий назария		
3. Икки томонлама ишчи кучи бозори назарияси	2. Ижтимоий қарама-қаршилик назарияси (Social conflict theory) – миграция ҳокимият ва ресурсларга бўлган рақобат орқали тадқиқ қилинади.	
4. Ишчи кучи миграцияси доирасида янги иқтисодиёт		
5. Жаҳон тизимлари назарияси	3. Таркибий функционализм (Structural functionalism) га асосан, индивидлар ўзлари тааллуқли жамиятда маълум бир вазибаларни бажаради; ушбу вазибалар ўзгариши натижасида миграция юзага келади.	
6. Нисбий йўқотишлар назарияси		
7. Осмосис назарияси		



Умуман олганда, ҳозирги кунга келиб, ишчи кучининг халқаро миграциясини тушунтириб берувчи доминант концепцияни алоҳида ажратиб кўрсатиш қийин. Гап шундаки, ҳозиргача бирорта концепция ҳам миграцион жараёнларнинг эмпирик феноменларини тўлалигича тушунтириб бера олмайди. Баъзи назариялар ривожланган давлатларга йўналган миграцияни яхшироқ тушунтириб бера олади, бошқалари эса, фақатгина мавжуд иқтисодий вазиятда юзага келган миграция тўлароқ очиб беради. Шу билан бирга таъкидлаш зарурки, "халқаро миграцияни ўрганиш барча томонидан бирдек қабул қилинадиган, шу орқали ўрганишни осонлаштирадиган назарий қолипга солинмаган".

Хулоса қилиб айтганда, ҳозирги пайтда миграцион жараёнлар назарияларини тизимлаштириш ҳамда бир-бири билан солиштириш орқали фанлараро таҳлил қилиш зарурияти мавжуд. Бундан ташқари, мигрантлар ҳатти-ҳаракатини шакллантирувчи, шунингдек, уларнинг индивидуал фаолиятини тартибга солувчи иқтисодий ва таркибий кучларни чуқур ўрганиш давр талаби ҳисобланади. Бугунги кунга келиб, мигрантлар фаолиятининг сабаб-оқибат механизмни белгилаб берувчи назарияни яратиш масаласи айниқса долзарбдир.



МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР ТЎҒРИСИДАГИ ҲИСОБОТНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Юлдашева И.З (ТИҚХММИ катта ўқувчиси)
Хайтқулова З.М (ТИҚХММИ талабаси)

Аннотация. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишининг зарурияти дунё бозорларига чиқиш, мамлакатимиз экспорт салоҳиятини юксалтириш, дунё хом-ашё ва валюта биржаларига котировка қилиш, хорижий инвестицияларни жалб қилиш, дунё банкларидан кредит олиш учун компания ва ташкилотлар томонидан МҲХСга мувофиқ молиявий ҳисобот тузишни талаб этилиши билан ҳам белгиланади.

Калит сўзлар: Молиявий ҳисобот, бухгалтерия ҳисоби, маҳсулотлар таннархи.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномасида "Иқтисодиёт - бу ҳисоб-китоб дегани. Ҳар бир ишимизда пухта ҳисоб-китоб биринчи ўринда туриши лозим. Акс ҳолда, ҳамма ишимиз эски ҳаммом, эски тос бўлиб қолаверади" - деб таъкидлагани бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисобот ишларини замонавий даражага кўтаришни кўзда тутади. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишининг зарурияти дунё бозорларига чиқиш, мамлакатимиз экспорт салоҳиятини юксалтириш, дунё хом-ашё ва валюта биржаларига котировка қилиш, хорижий инвестицияларни жалб қилиш, дунё банкларидан кредит олиш учун компания ва ташкилотлар томонидан МҲХСга мувофиқ молиявий ҳисобот тузишни талаб этилиши билан ҳам белгиланади. Бугунги кунда Ўзбекистонда молиявий бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботини жаҳон андозалари даражасига чиқаришнинг ягона йўли бу молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини ва илғор хорижий тажрибаларни, соҳага доир жаҳон адабиётлари ва ҳужжатларини ўрганиш ҳамда уларни мамлакатимиз иқтисодиётининг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда жорий қилишдан иборатдир. 1-сон БҲХС "Молиявий ҳисоботларни тақдим этиш" стандартига мувофиқ халқаро молиявий ҳисоботнинг тўлиқ комплекти қуйидаги таркибий қисмлардан ташкил топади:

- Молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот (Statement of financial position);
- фойда ва зарарлар ҳамда бошқа тўплам даромадлар тўғрисидаги ҳисобот (Statement of profit or loss and other comprehensive income);
- хусусий капиталнинг ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот (Statement of changes in equity);
- пул маблағларининг ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот (Statement of Cash Flows);
- ҳисоб сиёсати ва изоҳлар, яъни ҳисоботга (тушунтиришлар) очиқлашлар;
- энг олдинги таққосланадиган давр бошида молиявий ҳолат тўғрисидаги

ҳисобот, агарда корхона ҳисоб сиёсатини ретроспектив қўлласа ёки ўзининг молиявий ҳисоботида моддаларни ретроспектив қайта ҳисоблашни амалга оширса ёки ўзининг молиявий ҳисоботида моддаларнинг реклассификациясини амалга оширса. Ҳозирги кунда халқаро стандартларда киритилаётган ўзгаришлар бу молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисоботни тубдан такомиллаштиришни тақозо этади. Амалиётимизга жорий қилинган ушбу ҳисобот номланиши, мазмуни ва моддаларининг таркиби бўйича халқаро стандартларга жавоб бермайди. Бундай тушунмоачиликларни бартараф этиш учун бир неча ўзгартиришларни амалга ошириш керак. "Маҳсулот (товар, иш ва хизмат)ларни сотишдан тушган соф тушум" деб номлаш мақсадга мувофиқ. Бундан ташқари, харидор ва буюртмачилардан товар (маҳсулот, иш ва хизматлар) қайтарилишидан ташқари унинг олдини олиш учун келишган ҳолда нархини туширишга эришиш ҳам мумкин. Бу ҳолат меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларимизда қайд этилмаган. Шу боис, халқаро тажрибалар асосида "қайтарилган реализация ва нархини камайтириш" деб номлаш мумкин. "Сотилган маҳсулот (товар, иш ва хизмат)ларнинг таннархи" кўрсаткичини тайёр маҳсулотларнинг ҳисобот даври бошидаги ва охиридаги қолдиқлари ҳамда ишлаб чиқаришдан олинган тайёр маҳсулотнинг таннархи асосида ҳисоблаш методологиясини ишлаб чиқишимиз керак. Амалиётда ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларнинг таннархи ҳамда сотилган маҳсулотларнинг таннархини ҳисоботларини жорий қилиш лозим. "Одатдаги фаолияти билан боғлиқ бўлмаган харажатлар" тушунчасини киритиш ўринлидир. Бу харажатлар корхонанинг асосий фаолияти билан боғлиқ бўлмастан, кўп ҳолларда тасодифий юзага келадиган, олдиндан режалаштириш қийин



бўлган ҳамда зарурият туфайли юзага келишини таъкидлаш лозим. Бу харажатларга фавқулотда юзага келган харажатлар, жорий бўлмаган активларни тасарруф қилиш натижасида юзага келган зарарлар, валюта курси фарқи бўйича зарарлар ва бошқа одатдаги фаолияти билан боғлиқ бўлмаган харажатларни киритиш мумкин. "Асосий фаолиятнинг бошқа даромадларига ундирилган ёки қарздор томонидан эътироф этилган жарималар, пенялар; ҳисобот йилида аниқланган ўтган йиллардаги фойда; асосий воситалари ва бошқа мол-мулки чиқиб кетишидан олинган даромадлар; даъво билдириш муддати ўтган кредиторлик ва депонент қарзларни ҳисобдан чиқаришдан олинган даромадлар; давлат субсидияларидан даромадлар; ҳолисона молиявий ёрдам; бошқа операцион даромадлар каби моддалар киритилган. Бу даромадларнинг биронтаси ҳам корхонанинг асосий фаолияти билан боғлиқ эмас. Шу боис, бу тушумларни одатдаги фаолияти билан боғлиқ бўлмаганлигини инобатга олиб "Асосий бўлмаган бошқа тушумлар" деб аташ мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси //Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 23 декабр. №258.
2. Международные стандарты финансовой отчетности. Minfn.ru/ru/performance/accounting/mej_standart_fo/docs\09.02.2016
- 3."Разъяснения Международных Стандартов Финансовой Отчетности. КМСФО. International Accounting Standards Board-Алматы, 2010.
4. Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари тўплами .-Ташкент: "NORMA", 2011.-360-бет.



ИҚТИСОДИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ИННОВАЦИОН ЁОЯЛАР ВА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ОРҚАЛИ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ САМАРАДОРЛИГИ

Қодирова Дилбар Исмоиловна

катта ўқитувчиси, Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузуридаги Педагогик инновациялар, касб-ҳунар таълими бошқарув ҳамда педагогларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти

Бугунги жадал ривожланаётган ва глобаллашган мамалакатимизда давлатимиз томонидан таълим тизимига айниқса олий таълим тизимига жуда катта талабларни қўймоқда. Ҳозирги кунда давлатимиз раҳбари томонидан чиқарилаётган фармон ва қарорлар таълим тизимида талабаларни нафақат билимлар билан қуроллантириш, балки уларда касбий кўникма ва малакаларини ҳам шакллантириш жуда муҳим эканлигини таъкидламоқда. Чунки Олий таълим муассасаларини битираётган бўлажак мутахассисларимиз зиммаларидаги маъсулиятларни ҳис қилган ҳолда иш фаолиятларини давом эттиришлари зарурдир. Бугунги кунда замонавий шароитларда таълим олаётган талабалар инновацион фаолиятнинг ютуқларидан кенг фойдаланган ҳолда таълим олиб уларни мамлакатимизнинг ривожлантириш учун муҳим омил сифатида қўллаш олишлари асосий вазифалардан биридир. Чунки бугунги тезкор ривожланиш даврида жамият учун фаол фикрловчи, инновацион гояларни яратувчи ҳамда уларни амалиётда самарали қўлловчи малакали мутахассислар зарур. Бу эса ўз навбатида, таълим жараёнига инновацияларни, ўқитишнинг замонавий интерфаол ва ижодий услубларини жорий этиш ва соҳага йўналтириш орқали таълим сифатини оширишга қўмаклашувчи инновацион ўқув дастурларини ишлаб чиқиш, олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг илмий тадқиқотларини ташкил этиш ва бошқариш уларнинг инновацион компетентлигини ривожлантиришни талаб этади. Бу борада Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мувофиқ юқори малакали кадрларни тайёрлаш ҳамда олий таълим муассасалари фаолиятининг сифати ҳамда самарадорлигини ошириш муҳимдир. Талабаларга иқтисодий фанларни ўқитишда, уларнинг иқтисодий тафаккурини шакллантиришда ҳар бир давр иқтисодий тараққиёти даражаси ва иқтисодий муносабатлари тизимини ўрганиши, баҳо беришда адолатга суянмоғи керак. Ҳозирги кунда иқтисодиётимиз ривожланар экан, талабалар онгида шаклланаётган янги иқтисодий муносабатлар тизимини ўргатувчи иқтисодий таълимни миллий қадриятларимиз билан уйғунлаштирган ҳолда етказишимиз, бунинг учун олий таълим муассасалари учун тайёрланаётган иқтисодий фанларга оид дарсликлар, ўқув қўлланмаларни жаҳон андозалари талаби даражасида ҳамда миллийликни унутмаган ҳолда тайёрланишини эътиборга олишимиз зарурдир. Бугунги кунда янги мустақил фикрловчи, ижод қилувчи талаба ёшларни тарбиялаш энг асосий муаммоларимиздан бири бўлиб қолмоқда. Талабаларда ўз-ўзини назорат қилиш, ўз-ўзини баҳолаш, ўз-ўзини англаш, ўз-ўзини бошқариш сингари ақл-заковатнинг муҳим жиҳатлари тараққиётнинг янги юксак босқичи ҳисобланади. Талабаларда тафаккурнинг ривожланиши, илмий дунёқарашнинг шаклланишида умумкасбий, ижтимоий, иқтисодий ва ихтисослик фанлари муҳим ўрин эгаллайди.

Бугунги кунда талабалар тафаккури асосан, ўқиш, амалий машғулот ва мустақил билим олиш фаолияти натижасида узлуксиз равишда ривожланиб келмоқда. Талабалардан маъруза дарслари репродуктив тафаккурни тақозо этса, амалий машғулотлар, мустақил топшириқлар, лаборатория топшириқлари продуктив (ижодий) фикр юритиш фаолиятини талаб қилади. Ҳар иккала таълим шакли ҳам талабалар ақлий меҳнати, аниқ мақсадга йўналтирилганлиги ва мувофиқлаштирилганлиги билан амалга ошади. Таълим жараёнида замонавий иқтисодиётнинг назарий, амалий ва услубий асосларини, тадбиркорлик ва бизнес қонуниятлари билан биргаликда ўзлаштирилади. Айниқса, ҳозирги даврда талабалар учун тадбиркорлик билан шуғулланишлари учун кенг имкониятлар яратилганлиги бунинг ёрқин мисолидир.

Олий таълим муассасаларида ўтиладиган ҳар бир маъруза, семинар, мустақил таълим, лаборатория ишлари муаммоли вазият бўлиб, ҳолатнинг таркибий қисмларидан тузилган бўлади. Уларни ҳал қилиш эса талабадан ижодий изланишни талаб этади. Талабалар иқтисодиётга оид фан асосларини эгаллаш жараёнида ижодий маҳсулот бериш учун тинимсиз ҳаракат қиладилар. Талабалар тадбиркорлик ва кичик бизнес билан шуғулланиш орқали ўзларини молиявий томондан ҳар томонлама



шакллантиришга ҳаракат қиладилар.

Иқтисодиёт олий ўқув юртларида замонавий таълим муаммоли ўқитиш, тадқиқ этиб, муаммони ҳал этишдир. Иқтисодиёт фанларидан муаммоли ўқитиш жараёнида талабанинг мустақиллик роли анча самарали бўлади. Муаммоли таълимнинг мақсади - талабалар билан ишлаш жараёнида юзага келган муаммо ва саволларига жавоб қидириш, уларни ҳал этиш йўллари билан янги билимларни ўзлаштиришдан иборатдир. Талабалар ўқув фаолиятларида муаммоли вазиятларни вужудга келтириш ва ҳал этиш бўйича профессор-ўқитувчилар уларда қизиқиш уйғота олишга ҳаракат қиладилар. Бу жараён иқтисодиётда юзага келган муаммоларни таҳлил қилиб фикр юритиш, талабаларнинг мустақил ақлий фаолиятини ривожлантиришнинг муҳим талабларидан ҳисобланади. Бу эса талабани шу нарсани англай олмаганлигини тушуниб етиб, маъносига жиддий равишда эътибор беришга, тафаккурини шакллантиришга қаратади. Муаммоли таълим ёрдамида бўлажак иқтисодчи мутахассисларда ўқув муаммолари ва мутахассислик масалаларини ҳал этишга тадқиқий ёндашиш, иқтисодий тафаккурини ривожлантириш, мустақил тарзда ўрганиш маҳоратини шакллантиришни ўзида тарбиялаб боради. Иқтисодий таълим талабалар билим тизимлари ва ақлий ҳамда амалий фаолиятларида самарали ўзлаштиришга, тафаккурини шакллантиришга ёрдам беради. Таълимни аниқлаш имкониятларини ҳам очиб беради.



САНОАТ ИҚТИСОДИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ ТАРКИБИ ВА УНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ МЕХАНИЗМЛАРИ

Қосимов Азамат Абдукаримович
Термиз давлат университети таянч докторанти

Аннотация. Ушбу мақолада саноат соҳасининг иқтисодий кўрсаткичлари таркиби ўрганилиб, улар асосида саноат ишлаб чиқаришни таҳлил қилиш механизми ва иқтисодий кўрсаткичларни яхшилаш ҳамда саноатни янада ривожлантиришнинг устувор йўналишлари таклиф этилган.

Калит сўзлар: саноат, самарадорлик, модел, таҳил, мезон, баҳолаш.

Бугунги кунда дунёнинг ривожланган мамлакатлари саноат соҳасини таҳлил қилишда ISIC (International Standard Industrial Classification) халқаро стандарт саноат таснифи мезонларидан кенг фойдаланиб келади. Мазкур мезонлар ишлаб чиқаришга йўналтирилган ёки таъминотга асосланган концептуал асосга таянган бўлиб, унда ишлаб чиқаришни ташкил этиш, ишлаб чиқариш жараёни ва технологияси шунингдек, маҳсулот ва ундан фойдаланиш хусусиятлари каби кўрсаткичлар ҳисобга олинади. Шунингдек, янги буюртмалар, нарх ва бандлик кўрсаткичлари ҳам эътибордан четда қолмайди.

Бу каби ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасининг кўпгина кўрсаткичларидан фойдаланиб, саноатни ривожлантириш моделлари ишлаб чиқилмоқда. Аммо, мазкур таклифлар аниқланган эҳтиёжларни тўлиқ қондириш имконини бермайди [1]. Чунки, саноат тармоқлари барқарор ривожланиши деганда - ишчилар ҳаёти сифатини яхшилаш, табиатдан оқилона фойдаланиш, тармоқ корхоналарининг узоқ муддатли фаолиятини таъминлашга қаратилган иқтисодий, экологик ва ижтимоий соҳалардаги ижобий ўзгаришларнинг мувозанатли жараёни тушунилади.

Умуман олганда саноат тармоқларини турли статистик кўрсаткичлар асосида таҳлил қилиш ва самарадорлигини баҳолаш учун аввало, ишончли маълумотлар талаб этилади [2]. Дарҳақиқат, статистик маълумот ва ҳисоботлар қанчалик ҳақиқатга яқин бўлса, таҳлил натижаларида ҳам шунчалик аниқликка эришилади.

Бугунга қадар саноат тармоқлари иқтисодий кўрсаткичларини таҳлил қилиш ва баҳолаш усулларини такомиллаштириш бўйича кўплаб олим ва тадқиқотчилар илмий изланишлар олиб бормоқда. Масалан:

Иқтисодчи Ю.И. Пухова [3] саноатда ижтимоий барқарорликни баҳолашнинг энг муҳим икки кўрсаткичи сифатида ўртача иш ҳақи ва ходимлар учун узлуксиз таълимнинг мавжудлигини ўз тадқиқотларида кўрсатиб ўтган.


Ҳар қандай иқтисодий кўрсаткичлар ва уларни таҳлил қилиш - келгусидаги натижаларни башорат қилиш имконини беради. Иқтисодий кўрсаткичлар ҳар хил иқтисодий жараёнларнинг миқдорий ва сифат томонлари, ҳисоботлар, иқтисодий хулосаларни ўз ичига олади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, саноат тармоқлари ишлаб чиқариш фаолиятини таҳлил қилишда қуйидаги механизмни таклиф этамиз (1-расм).

1-расм. Саноат ишлаб чиқаришни таснифлаш ва таҳлил қилиш механизми.

Манба: муаллиф ишланмаси.

Таклиф этилаётган механизм саноат тармоқлари ҳолатини таҳлил қилишнинг соддалаштирилган уч босқичли механизми ҳисобланиб, биринчи босқичда саноат тармоқлари техник ва умумий кўрсаткичлар динамикаси кўриб чиқилади. Иккинчи босқичда саноатни ривожлантиришдаги





мавжуд муаммолар ва унга институционал муҳитнинг боғлиқлик жиҳатлари ҳамда таъсири даражаси ўрганилади. Учинчи босқичда эса саноат самарадорлиги ва унга таъсир кўрсатувчи омиллар иқтисодий-математик модел ва усуллар асосида баҳоланади.

Саноатни янада ривожлантириш ва иқтисодий кўрсаткичларини яхшилашнинг устувор йўналишларини белгилашда қуйидагиларни эътиборга олиш лозим:

1. Мамлакатнинг жаҳон савдо тизимига кириши хорижий саноат маҳсулотлари учун ички бозорни очишни ва рақобатни кучайтиришни ўз ичига олади. Шу боиз, бундай шароитда ҳудудий саноат корхоналарининг нафақат омон қолиши, балки, жаҳон савдо тизимига кириши ва муваффақиятли фаолият олиб бориши учун давлат томонидан қўллаб-қувватлаш амалиётини жорий этиш.

2. Саноат тармоқлари ўртасида инвестициялар, меҳнат ресурслари ва бошқа ресурслар учун рақобатнинг кучайиши шароитида ночор тармоқларни ривожлантиришга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириш.

3. Саноат тармоқларида илм-фан ютуқлари ва илғор технологиялар жумладан, рақамли иқтисодиёт блокчейнларидан кенг фойдаланиш.

4. Саноатда ишлаб чиқаришдан ажралмаган ҳолда ҳодимларни қайта тайёрлаш ва уларга касбий ахборот-консалтинг хизматларини кўрсатишни кучайтириш ва бошқалар.

Юқоридагилар оптимал бошқарув қарорларини қабул қилиш ёки келгусида саноат ишлаб чиқаришни ривожлантириш стратегияларини ишлаб чиқиш ва унинг самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Узяков М.Н. и др. Макроэкономическая политика и ее последствия (возможности анализа и обоснования с помощью экономико-математического инструментария) // Проблемы прогнозирования - 2003. - № 4. - С.5,6.

2. Петрова Е.А., Тимофеева Г.В. Развитие информационной инфраструктуры как фактор роста агропромышленного производства // Экономика развития региона: проблемы, поиски, перспективы: Ежегодник. - Вып. 3. - Волгоград: Издательство ВолГУ, 2003. - 32 с.

3. Пухова Ю.И. Методические особенности оценки устойчивого развития промышленных предприятий // Master's journal, №2 - 2015, С.332.

TADQIQOT.UZ
ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 12-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ

(1-бўлим)

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Эълон қилиш муддати: 31.01.2020

Контакт редакций журналлов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амир Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000